NATIONAL BANK OF UZBEKISTAN

# "O‘zbekiston Respublikasi tashqi iqtisodiy faoliyat milliy banki" AJ da yuridik shaxslar va yakka tartibdagi tadbirkorlarga kompleks bank xizmatlarini ko‘rsatish

# OMMAVIY OFERTASI

## MUNDARIJA

**UMUMIY SHARTLAR…………………………………………………………………………3**
**1. ATAMA VA TA’RIFLAR……………………………………………………………3**
**2. SHARTNOMANING PREDMETI…………………………………………………4**
**3. TOMONLARNING HUQUQ VA MAJBURIYATLARI……………………………5**
**4. TOMONLARNING JAVOBGARLIGI………………………………………………9**
**5. MAXFIYLIK…………………………………………………………………………9**
**6. NIZOLARNI HAL QILISH…………………………………………………………10**
**7. SHARTNOMAGA O‘ZGARTIRISH KIRITISH VA BEKOR QILISH TARTIBI……11**
**8. YAKUNIY QOIDALAR……………………………………………………………12**
**9. YURIDIK MANZILLAR, BANK REKVIZITLARI…………………………………13**

## OMMAVIY OFERTAGA ILOVALAR

**I. 1-ilova – "«O‘zmilliybank» AJ da kompleks xizmat ko‘rsatilishiga ommaviy ofertaning aktsepti to‘g‘risida ariza";**
**II. 2-ilova – "Yuridik shaxslar va yakka tartibdagi tadbirkorlarning hisob raqamlariga xizmat ko‘rsatishning umumiy shartlari";**
**III. 3-ilova – "Ibank dasturiy kompleksi orqali Mijozlarga xizmat ko‘rsatishning umumiy shartlari";**
**IV. 4-ilova – "Korporativ kartalarni chiqarish va ularga xizmat ko‘rsatishning umumiy shartlari";**
**V. 5-ilova – "Yuridik shaxsga foydalanish uchun xalqaro kartochkani taqdim etishning umumiy shartlari";**
**VI. 6-ilova – "Savdo-servis korxonasida xalqaro kartalar (Visa va Master Card)ga xizmat ko‘rsatishning umumiy shartlari";**
**VII. 7-ilova – "Internet orqali xalqaro to‘lov tizimlarining kartalariga elektron tijorat xizmatlarini taqdim etishning umumiy shartlari";**
**VIII. 8-ilova – "Savdo terminali va terminal hisob raqamlarini taqdim etish, foydalanish va xizmat ko‘rsatishning umumiy shartlari";**
**IX. 9-ilova – "Tovarlar (ishlar, xizmatlar)ni sotishni amalga oshiruvchi xo‘jalik subyektlar (yuridik shaxslar, shuningdek yuridik shaxs tuzmasdan tadbirkorlik faoliyatini amalga oshiruvchi yakka tartibdagi tadbirkorlar)ga QR-CODE xizmatini taqdim etishning umumiy shartlari";**
**X. 10-ilova – "Yuridik shaxslar va yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun xorijiy valyutani sotish va sotib olish bo‘yicha operatsiyalarni amalga oshirishning umumiy shartlari";**
**XI. 11-ilova – "Uyali aloqa, internet va boshqalar to‘lovi uchun xizmat ko‘rsatishda axborot-texnologik munosabatlarning umumiy shartlari"**
**XII. 12-ilova – “Qo‘shimcha bank xizmatlarini ko‘rsatish uchun ariza”**

## UMUMIY SHARTLAR

Yuridik shaxslar va yakka tartibdagi tadbirkorlarga "O'zR tashqi iqtisodiy faoliyat milliy banki" AJ da kompleks bank xizmatlarini ko'rsatish to'g'risidagi mazkur ommaviy oferta (keyingi o'rinlarda "Shartnoma), internet tarmog'ida "O'zR tashqi iqtisodiy faoliyat milliy banki" AJ (keyingi o'rinlarda "Bank") ning rasmiy saytida www.nbu.uz e'lon qilingan, omaviy oferta, ya'ni O'zR FK 364 va 367-moddalariga muvofiq Shartnoma tuzish uchun noma'lum doiradagi yuridik shaxslar hamda yakka tartibdagi tadbirkorlarga Bankning taklifi hisoblanadi.

Shartnoma Bankda yuridik shaxslar va yakka tartibdagi tadbirkorlarga Shartnoma hamda unga Ilovalarda keltirilgan qoidalar hamda tartibda, shuningdek O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga muvofiq kompleks bank xizmatlarini taqdim etish tartibini aniqlaydi.

O'zR FK 369 va 370-moddalariga muvofiq Mijoz Shartnomani aksept qilgan ondan boshlab Bank va Mijoz o'rtasida Shartnoma tuzilgan deb hisoblanadi.

Shartnoma aksept qilingan ondan, ya'ni Mijoz Shartnoma tuzishga roziligini bildirgan vaqtdan boshlab Mijoz Bankka Shartnomaga 1-Ilovada keltirilgan shaklga ko'ra lozim darajada to'ldirilgan va imzolangan "O'zMilliybank" AJ da kompleks xizmat ko'rsatilishiga ommaviy oferta aksepti to'g'risida" ariza (keyingi o'rinlarda - Ariza), shuningdek Bank lozim darajada komplaens tekshiruv amalga oshirish uchun hujjatlar taqdim etganligi tan olinadi.

Mijozning Ariza taqdim etishi, Mijoz Shartnoma, Shartnomaga ilovalar hamda Bankning Internetda www.nbu.uz manzili bo'yicha rasmiy saytida joylangan belgilangan Bank Tariflarini o'qib, tanishib chiqqanligi va shartsiz roziligini anglatadi.

Shartnomaga qo'shilish to'g'risida Ariza va barcha zarur hujjatlar Mijozning mas'ul shaxsi (shaxslari) tomonidan taqdim etiladi.

Shartnomaning shartlari O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchilik hamda qonunosti hujjatlari bilan tuzilgan va tartibga solinadi.

## 1. TERMIN VA ANIQLANISHLAR

**API (Application Programming Interface)** - ichki va tashqi tizimlar o'rtasida o'zaro amallar bajarish va integratsiya qilish usullari, protokollari, uskunalari, dasturiy modullari (shu jumladan kod bazasi).

**Autentifikatsiya ma'lumotlari** - foydalanish kodlari, Mijozning noyob login (login) va paroli (password), shu jumladan Internet-Bank orqali Karta, Mobil Bank va/yoki Internet tarmog'ida boshqa xizmat ko'rsatish kanallari, shuningdek uyali aloqa kanallaridan foydalanib foydalanish hamda amallarni bajarish uchun foydalaniladigan boshqa ma'lumotlar.

**Bank** - "O'zbekiston Respublikasi tashqi iqtisodiy faoliyat Milliy banki" AJ 100084, O'zbekiston Respublikasi, Toshkent sh., Amir Temur ko'chasi, 101, O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining 2021-yil 25-dekabrdan 22-son litsenziyasi.

**Bank Tariflari** - Bankning Tarif Reja va Tarif Paketlari to'plami.

**Naf oluvchi** - yakuniy natijada mulk huquqiga egalik qiluvchi yoki mijozni haqiqatda nazorat qiluvchi va manfaatini ko'zlagan holda pul mablag'lari yoki boshqa mulk ustida operatsiyalar amalga oshirilayotgan shaxs.

**Ibank tizimi yoki Tizim** – Bankning Bank va Mijozning masofaviy bank xizmatlari orqali o’zaro munosabatlarini ta’minlaydigan dasturiy, texnik vositalar va telekommunikatsiya tizimlaridan foydalanib masofaviy bank xizmatlarini ko’rsatish va bank operatsiyalarini amalga oshirish uchun texnologiyalar uyg’unligi. Me'yoriy-qonunchilik bazasida o'zgarishlar tufayli, shuningdek Mijoz ehtiyojlari to'liq qondirilishini ta'minlash uchun Tizim Bank tomonidan yangilanishi va o'zgartirilishi mumkin. Tizimning yangilanishi Mijoz ishtirokisiz, lekin u xabardor qilingan holda avtomat tarzda sodir bo'ladi. Istalgan vaqtda Mijoz Tizimning so'ngi versiyasi bilan ishlaydi.

**Mijozning benefitsiar mulkdori** - mijozni mulk va boshqaruv tuzilmasining o'ziga xosliklariga muvofiq qonunchilikda aniqlangan (nizom va (yoki) ta'sis shartnoma, qoidalar) ta'sis hujjatlari asosida nazorat qiluvchi shaxs;

**Masofadan xizmat ko'rsatish** – Autentifikatsiya ma’lumotlaridan foydalanib operatsiyalarni bajarishga buyruq shakllantirish va ijro etish va/yoki Mijozning arizalarini qayta

ishlash va/yoki Mijoz va Bank o’rtasida tuzilgan shartnomalar bo’yicha ma’lumot berish, Bankning telefon raqami va/yoki Internetda sayti va/yoki Internet-Bank kontakt markazi.

**ERI kalit egasi** - o‘ziga elektron raqamli imzo kalitining sertifikati berilgan jismoniy yoki yuridik shaxs;

**ERI yopiq kaliti** - elektron raqamli imzo vositalaridan foydalangan holda hosil qilingan, faqat imzo qo‘yuvchi shaxsning o‘ziga ma’lum bo‘lgan va elektron hujjatda elektron raqamli imzoni yaratish uchun mo‘ljallangan belgilar ketma-ketligi;

## 2. SHARTNOMANING PREDMETI

2.1. Mijoz Shartnoma shartlariga to'liq, qo'shiladi. Quyidagi ilovalar, shu jumladandir, mazkur ilovalar Shartnomaning ajralmas qismi hisoblanadi:

- 1-ilova – "O‘zmilliybank" AJ da kompleks xizmat ko'rsatilishiga ommaviy ofertaning aktsepti to'g'risida ariza";
- 2-ilova – "Yuridik shaxslar va yakka tartibdagi tadbirkorlarning hisobvarag'iga xizmat ko'rsatishning umumiy shartlari";
- 3-ilova – "Mijozlarga Ibank dasturiy kompleksidan foydalanib xizmat ko'rsatishning umumiy shartlari";
- 4-ilova –"Korporativ kartalarni chiqarish va ularga xizmat ko'rsatishning umumiy shartlari";
- 5-ilova – "Yuridik shaxsga xalqaro kartochkani taqdim etishning umumiy shartlari";
- 6-ilova – "Savdo-servis korxonasida xalqaro kartalarga (Visa va Master Card) xizmat ko'rsatishning umumiy shartlari";
- 7-ilova – "Internet orqali xalqaro to'lov tizimlarining kartalariga elektron tijorat xizmatlarini taqdim etishning umumiy shartlari";
- 8-ilova – "Savdo terminali va terminal hisobvarag’ini taqdim etish, foydalanish va xizmat ko'rsatishning umumiy shartlari.";
- 9-ilova – "Tovarlarni (ishlar, xizmatlar) sotishni amalga oshiruvchi xo'jalik subyektlariga (yuridik shaxslar, shuningdek yuridik shaxs tuzmasdan tadbirkorlik faoliyatini amalga oshiruvchi yakka tartibdagi tadbirkorlarga) QR-CODE xizmatini taqdim etishning umumiy shartlari";
- 10-ilova – "Yuridik shaxslar va yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun xorijiy valyutani sotish va sotib olish bo'yicha operatsiyalarni amalga oshirishning umumiy shartlari";
- 11-ilova – "Uyali aloqa, internet va boshqalarning to'lovi uchun xizmat ko'rsatishda axborot-texnologik munosabatlarning umumiy shartlari"
- 12-ilova – "Qo‘shimcha bank xizmatlarini ko‘rsatish uchun ariza"

2.2. Shartnoma Bankning rasmiy saytida e'lon qilinadi. Mijoz Shartnomaning shartlari, shu jumladan, o'zgarishlar/Shartnoma matniga kiritiladigan qo'shimchalar bilan tanishgan vaqt ma'lumot e'lon qilingan va/yoki xizmatni olgan vaqt hisoblanadi. Mijozlar Shartnoma va Tariflar bilan tanishishi uchun Bank Shartnoma matni va Tariflarni Internetda Bankning www.nbu.uz manzili bo'yicha saytida e'lon qiladi, bunda Bank Tariflarni "Ibank"/Mobil Bank tizimida Mijozlarning shaxsiy kabinetiga joylashi mumkin.

2.3. Ofertaning aksepti Mijozga Hisobvaraq ochish uchun asos bo'la oladi, agar boshqasi Shartnomada belgilanmagan bo'lsa.

Arizada Shartnomada ko'zda tutilgan boshqa bank xizmatlarini olish ham so'ralishi mumkin. Shartnomada ko'zda tutilgan xizmatlarni olish uchun Mijoz Arizasida zarur xizmatlar yonida belgilar qo'yib chiqishi kerak.

2.4. Arizani imzolab, Mijoz Shartnomaning tarkibi bilan roziligi va tanishganligi, xizmatlarni ko'rsatish shartlarini to'liq va shartsiz qabul qilinishiga roziligini tasdiqlaydi, shuningdek Shartnoma Mijoz uchun og'ir shartlarga ega emasligi faktini tasdiqlaydi. Bundan tashqari, Shartnomaga Arizani imzolab, Mijoz amaldagi qonunchilik va/yoki Mijozning ta'sis hujjatlariga muvofiq talab etiladigan davlat organlari hamda yuridik shaxsning boshqaruv organlarini barcha zarur roziliklari, ruxsati va/yoki tasdig'ini olganligini, shuningdek faoliyatini amalga oshirish va operatsiyalarni bajarish uchun mos keluvchi litsenziya va ruxsatnomalarga ega ekanligini tasdiqlaydi.

Ariza va barcha zarur hujjatlar Mijozning mas'ul shaxsi (shaxslari) tomonidan taqdim etiladi.

2.5. Bank Mijozga xizmatlarni taqdim etish to'g'risidagi qarorni, agar boshqasi O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi bilan ko'zda tutilmagan bo'lsa, Mijozni identifikatsiya qilish natijasida olingan, shu jumladan Mijoz tomonidan Bankka taqdim etilgan ma'lumotlar asosida qabul qiladi.

2.6. Bank ichki qoidalarga muvofiq hamda O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida ko'zda tutilgan holatlarda, yuridik shaxs yoki yakka tartibdagi tadbirkor bilan Shartnoma tuzishdan bosh tortish huquqiga ega.

2.7. Har bir bank xizmati uchun bank tomonidan tegishli xizmat uchun belgilangan va bank tomonidan rasmiy **www.nbu.uz** saytda joylashtirilgan tegishli Tarif qo'llaniladi.

2.8. Agar rekvizitlarni o'zgartirish yoki mijoz o'tkazmasini bekor qilish (qaytarish) to'g'risidagi topshirig'ini ijro etish bo'yicha Bank harakatlari Tariflarda bevosita ko'rsatilgan qo'shimcha xarajatlar bilan bog'liq bo'lmagan holatda, Mijoz Bankka bunday xarajatlarni qoplashi shart. Ushbu bilan, Mijoz shu xarajatlar summasini Mijozning hisobvarag'idan (hisobvaraqlaridan) oldindan berilgan akseptsiz tartibda yechish huquqini Bankka topshiradi.

2.9. Agar Shartnoma Ilovalarida ko'rsatilgan bank xizmatlari zarur bo'lsa, Mijoz zarur xizmatni olish uchun tegishli ilovada ko'rsatilgan shaklda mas'ul shaxs tomonidan rasmiylashtirilgan Arizani Bankka yuborishi kerak.

Agar mijoz Ibank dasturiy kompleksi yordamida masofadan turib xizmat ko'rsatish tizimiga ulansa, u holda funksional imkoniyat mavjud bo'lsa, uni Ibank tizimi orqali yuborishi mumkin.

## 3. TOMONLARNING HUQUQ VA MAJBURIYATLARI

3.1. Shartnomaning ushbu qismida nazarda tutilgan huquq va majburiyatlardan tashqari, Bank va Mijoz Shartnoma ilovalarida belgilangan huquq va majburiyatlarga ega.

**3.2. Bankning majburiyatlari:**

3.2.1. Mijoz bilan bog'liq har qanday ma'lumot uchun maxfiylikni saqlash. Shu bilan birga, bank O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligida belgilangan tartibda Mijoz bilan bog'liq bunday ma'lumotlarni taqdim etishga haqlidir.

**3.3. Mijozning majburiyatlari:**

3.3.1. Bankka, shu jumladan Bankning so'rovi bo'yicha O’zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligida ko’zda tutilgan funksiyalarni amalga oshirish uchun Bankka zarur ishonchli ma’lumot va hujjatlarni, shu jumladan pul mablag’lari bilan bog’liq hujjatlar va operatsiyalar, ko’chirilgan pul mablag’lari asosli olinganligini tasdiqlovchi hujjatlar, shuningdek Mijoz, naf oluvchi va/yoki ularni bevosita yoki bilvosita nazorat qiluvchi shaxslar munosabatida, shu jumladan xorijiy davlatlarning soliq rezidentlarini aniqlash uchun hujjat va ma’lumotlarni taqdim qilish.

3.3.2. Mijoz, Mijozning Vakili, Naf oluvchi, Benefitsiar mulkdor haqidagi ma’lumotlar o’zgargan ondan 1 (bir) ish kuni davomida bu haqida Bankka xabar berish, shuningdek Mijoz tomonidan Shartnoma tuzish hamda mijozni identifikatsiya qilish maqsadida taqdim qilingan ma’lumotlarga tegishli barcha o’zgarishlar haqida Bankni 3 (uch) ish kuni ichida yozma xabardor qilish va yiliga kamida 1 (bir) marta Shartnoma tuzish hamda mijozni lozim darajada tekshirish maqsadida taqdim etilgan ma’lumotlarning haqiqiyligini tasdiqlash lozim. Mazkur bandda ko’rsatilgan, ma’lumotlarning ishonchliligini tekshirish bo’yicha Mijozdan xabarlar berilmagan holatda, shuningdek Shartnoma tuzilgan sanadan bir yil o’tib va har keyingi yilda xabar berilmasligi Mijozning Bankda mavjud ma’lumotlarning haqiqiyligi va dolzarbligini tasdiqlashini anglatadi.

3.3.3. Mijoz bilan aloqa qilish uchun Bankka ishonchli ma’lumotlarni taqdim etish, shuningdek Tomonlarning mazkur Shartnomani bajarishiga ta’sir qilishi mumkin bo’lgan har qanday o’zgarishlarni, shu jumladan: o’zining nomi, yuridik manzili, haqiqiy manzili, internet-saytining manzili, shuningdek rekvizitlarda boshqa o’zgarishlarni shunday o’zgarishlardan keyin 1 (bir) ish kuni davomida, yangilangan ma’lumotlarni taqdim etish.

Bankning Mijozga O’zbekiston Respublikasi qonunchiligi hamda Shartnomada ko’zda tutilgan xabarlarni yo’naltirishi bo’yicha majburiyati Mijoz bilan bog’lanish uchun Bankda mavjud ma’lumotlarga muvofiq xabar yo’naltirilganda bajarilgan sanaladi.

3.3.4. Shartnoma shartlarini bajarish va Shartnomaga Ilovalarda berilgan bank xizmatlariga

tegishli ma'lumotlar bilan mustaqil tanishish. Bank elektron hujjatlar ko'rinishida umumiy foydalanish uchun joylashtirgan ma'lumotlar Bankning rasmiy www.nbu.uz saytida e'lon qilingan sanadan Mijoz e'tiboriga lozim darajada taqdim etilgan hisoblanadi.

Mijoz Shartnomaga Ilovalarda keltirilgan bank xizmatlaridan foydalanganida Bankning rasmiy www.nbu.uz saytida joylangan xizmat ko'rsatish shartlari hamda Tariflar bilan mustaqil tanishib chiqish majburiyatini oladi.

3.3.5. Mijoz Ariza va boshqa hujjatlarda jismoniy shaxslar to'g'risida ma'lumotlarni ko'rsatgan vaqtda Shartnoma doirasida shaxsiy ma'lumotlarini Bankka taqdim etadigan shaxslar munosabatida O'zbekiston Respublikasining "Shaxsiy ma'lumotlar to'g'risida"gi qonun talablariga rioya qilishi lozim. Mijoz Shartnoma shartlarini bajarish, shuningdek Mijozga va/yoki ko'rsatilgan jismoniy shaxslarga Bankning boshqa mahsulot/xizmatlarini taqdim qilish maqsadida Bankka taqdim qilgan ko'rsatilgan shaxslarning shaxsiy ma'lumotlarini qayta ishlash huquqini topshiradi. Bunda Mijoz ko'rsatgan jismoniy shaxslarning shaxsiy ma'lumotlarini Mijoz va Bank tomonidan qayta ishlanishiga shunday rozilik olish talablarini buzganlik oqibatlari uchun, shu jumladan mulkiy xarakterda, shuningdek jismoniy shaxslarga O'zbekiston Respublikasining "Shaxsiy ma'lumotlar to'g'risida"gi qonun talablariga muvofiqligi haqida ma'lumot yetkazilganligi uchun javobgar bo'ladi.

3.3.6. Shartnomaga Ilovalarda ko'zda tutilgan bank xizmatlarini olish uchun olish zarur bo'lgan jismoniy shaxslarning shaxsiy ma'lumotlarini qayta ishlash, foydalanish va saqlashga roziligini bekor qilish mazkur bandda ko'rsatilgan rozilik Tomonlarning Shartnoma shartlarini bajarishini qisman yoki to'liq imkonsiz qiladigan yoki qiyinlashtiradigan darajada bekor qilingan sanadan Bank tomonidan bir tomonlama tartibda Shartnomani bekor qilish uchun asos hisoblanadi.

Mazkur bandda keltirilgan asoslarga ko'ra Shartnoma bekor qilingan holatda Bankda ochilgan Mijozning hisobvarag'i Shartnoma bekor qilingan sanadan yopilishi lozim. Tomonlar Shartnoma mazkur bandda nazarda tutilgan asoslar bo'yicha bekor qilinganda Tomonlarning qo'shimcha kelishuvi talab etilmasligiga roziliklarini bildirishadi.

3.3.7. Kiritilgan o'zgarishlarni hisobga olgan holda Shartnoma doirasida Mijoz tomonidan Bankka taqdim qilingan hujjat yoki yangilangan ma'lumotlarni yangi tahririni, shu jumladan Mijozning hisobvarag'ini boshqarish huquqiga ega shaxslarga tegishli ma'lumotlarni bunday o'zgarishlar kiritilgan va/yoki davlat ro'yxatidan o'tkazilgan sanadan 3 (uch) ish kuni ichida taqdim etish.

3.3.8. Autentifikatsiya ma'lumotlari hamda ERI ning xavfsiz saqlanishini ta'minlash, bunday ma'lumotlar va ERI ning maxfiyligini ta'minlash, xususan ulardan uchinchi shaxslar foydalanishiga yo'l qo'ymaslik, Autentifikatsiya ma'lumotlari, ERI dan foydalanish huquqiga ega bo'lishga qaratilgan harakatlarni oldini olishga yo'naltirilgan choralar ko'rish. Maxfiylik buzilganligi to'g'risida Bankka zudlik bilan xabar berish.

Bank mijozdan maxfiylik buzilganligi to'g'risida xabar olgunga qadar Mijoz oldida uchinchi shaxslarning har qanday huquqbuzarliklari/firibgarlik harakatlari, bunday harakatlar natijasida Mijozga yetkazilgan bevosita va/yoki bilvosita zarar, shu jumladan, Bankning Autentifikatsiya ma'lumotlari, ERI dan noqonuniy foydalanish imkoniyatiga ega bo'lgan vakolatsiz shaxslarning Bankka yo'naltirilgan Mijozning hisobvarag'i (hisobvaraqlari) bo'yicha topshiriqlarni bajarganligi va Bank tomonidan bajarishga olingan operatsiyalari uchun Bank mijoz oldida javobgar emas.

3.3.9. Pul mablag'lari hamda boshqa mulk bilan qonunchilik va Bankda ko'zda tutilgan hajm va tartibda mustaqil ravishda xizmat ko'rsatishga qabul qilish yoki operatsiyani amalga oshirishdan oldin naf oluvchi, ya'ni Mijoz foydasi uchun harakat qilayotgan shaxs to'g'risida, shu jumladan agentlik shartnomasi, topshirish shartnomasi, komissiya hamda ishonchli boshqaruv asosida xabar berish.

3.3.10. Bankka naf oluvchi to'g'risidagi ma'lumotlarning taqdim qilinmasligi Mijozning bunday ma'lumotga ega emasligini anglatadi. Benefitsiar mulkdor, ya'ni yakuniy natijada mulk huquqiga ega bo'luvchi yoki Mijozni nazorat qiluvchi va uning manfaatidan pul mablag'lari yoki boshqa mulk bilan operatsiya amalga oshrilayotgan shaxs haqida xabar berish.

3.3.11. Bank oldida qarzdorlikni (u mavjud bo'lsa), neustoykani e'tiborga olib, agar

neustoyka solingan bo'lsa, Shartnoma shartlari hamda Shartnomaga Ilovalarda keltirilgan alohida shartnoma shartlariga muvofiq ixtiyoriy ravishda to'lash.

3.3.12. Bankning talabiga ko'ra Mijozning Shartnoma va/yoki O'zbekiston Respublikasining qonunchiligida belgilangan shart, qoida va talablarni bajarmasligi/buzganligi oqibatida Bankka yetkazilgan zararlarni qoplash.

3.3.13. Mijoz, Naf oluvchi va/yoki bevosita yoki bilvosita ularni nazorat qiluvchi shaxslarning soliq rezidenti holatiga ta'sir ko'rsatuvchi hujjatlar va ma'lumotlar va/yoki holatlar o'zgarishi to'g'risida Bankni 1 (bir) kun ichida xabardor qilish, Bankka 15 (o'n besh) taqvim kunida dolzarb hujjat va ma'lumotlarni taqdim qilish.

**3.4. Bankning huquqlari:**

3.4.1. Mijoz, Mijozning vakili, Naf oluvchi, Benefitsiar mulkdorni identifikatsiyalash va ular to'g'risidagi ma'lumotlarni yangilashda O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi, Shartnomada ko'zda tutilgan hujjat va ma'lumotlarni Mijoz, Mijozning vakili tomonidan taqdim qilinishini talab qilish va Mijoz, Mijozning vakilidan olish.

3.4.2. Shartnoma tuzish va uning shartlarini bajarish uchun, shu jumladan uchinchi shaxslarni jalb qilish orqali Mijoz taqdim qilgan hujjat va ma'lumotlarni tekshirish. Ushbu bilan Mijoz unga nisbatan ma'lumotlarning uchinchi shaxslar, shu jumladan soliq organlari, statistika organlari, kredit idorasi va boshqalar tomonidan olinishiga roziligini bildiradi.

Shartnomada belgilangan majburiyatlarini bajarishga uchinchi shaxslarni jalb qilish.

3.4.3. Shartnoma tuzganda, shuningdek Mijozning Bankka boshqa ko'rinishda murojaat qilganida, bunday harakat haqida Mijozga (uning vakillari) ham xabar bergan, ham xabar bermagan holatda kuzatuv olib borish, suratga olish, audio- va vidoyozuv yuritish, shu jumladan telefon suhbatlarini yozib olish. Bankning Mijoz bilan munosabatlari yakunlangan ondan 5 (besh) yil davomida bunday yozuvlarni saqlash, shuningdek Shartnoma bilan bog'liq har qanday so'rovlar olib borishda ulardan foydalanish huquqiga Mijoz rozilik bildiradi.

3.4.4. O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi hamda Shartnoma shartlarida ko'zda tutilgan holatlarda, shuningdek Shartnomaga Ilovalarda keltirilgan bank xizmatlarini ko'rsatishda Mijozdan hujjat va ma'lumotlarni, shu jumladan Mijoz, Benefitsiar mulkdor va Mijozni bevosita yoki bilvosita nazorat qiluvchi shaxslar, pul mablag'lari bilan bog'liq operatsiyalar, Bank bilan ish munosabatlarini tuzishdan maqsad va bunday munosabatlarning kutilayotgan xarakteri, moliyaviy-xo'jalik faoliyatining maqsadlari, moliyaviy holati, ish obro'si, pul mablag'lari va/yoki Mijozning boshqa mulki manbai to'g'risidagi hujjatlar va ma'lumotlar va/yoki ko'chirilgan pul mablag'larini asosli olinishini tasdiqlovchi hujjatlarni so'rash.

3.4.5. O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi, O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining me'yoriy hujjatlarida ko'zda tutilgan asoslarda, shuningdek mazkur Shartnoma va/yoki Bankning ichki hujjatlariga muvofiq har qanday shaxsning Arizasini ko'rib chiqishdan bosh tortish huquqini o'zida saqlab qoladi.

3.4.6. Mijozning hujjatlari taqdim etilmagan, shu jumladan mijozni lozim darajada tekshirish maqsadida, shuningdek Bankning ichki hujjatlariga muvofiq hamda O'zbekiston Respublikasining qonunchiligida ko'zda tutilgan hollarda operatsiyani amalga oshirish to'g'risidagi topshirig'idan bosh tortish.

3.4.7. Bank Mijozning global Internet tarmog'ida va boshqa qonuniy usulda, shu jumladan: taqdimotlarda, broshyuralarda, bukletlarda, varaqalarda Mijoz bank mijozi ekanligi haqidagi ma'lumotlarni tarqatish/joylashtirish orqali savdo belgilari/xizmat ko'rsatish belgilari, firma nomi va Mijozning boshqa belgilaridan foydalanish huquqiga ega.

3.4.8. Jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga va ommaviy qirg 'in qurolini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurashish maqsadida Mijozdan Mijozni identifikatsiya qilish imkon beradigan va hisobvaraq bo'yicha amalga oshiriladigan operatsiyalarning qonuniyligini tasdiqlovchi ma'lumot va hujjatlarni taqdim etishni talab qilish.

Bank: jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirish, terrorizmni moliyalashtirish va ommaviy qirg'in qurolini tarqatishni moliyalashtirish maqsadida Korporativ karta, Hisobvaraqdan foydalanish va boshqa operatsiyalar amalga oshirishga asosli shubha aniqlaganida; jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirish, terrorizmni moliyalashtirish va ommaviy

qirg'in qurolini tarqatishni moliyalashtirish maqsadida operatsiyalarni amalga oshirish uchun shubhali (gumonli) operatsiyalarni takroran sodir etish yoki Kartadan foydalanishda asosli shubhalar aniqlagan kuni bir tomonlama tartibda Shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarishdan to'liq yoki qisman bosh tortish huquqiga ega.

3.4.9. Shartnoma tuzishdan maqsad jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirish, terrorizmni moliyalashtirish va ommaviy qirg'in qurolini tarqatishni moliyalashtirish operatsiyalarini amalga oshirish hisoblanishi to'g'risida shubha tug'ilgan holatda Shartnoma tuzish va Shartnomaga Ilovalarda keltirilgan bank xizmatlarini taqdim etishdan qonunchilik talablari asosida bir tomonlama tartibda bosh tortish huquqiga ega.

**3.5. Mijozning huquqlari:**

3.5.1. Shartnoma asosida, keyingi hisobvaraqlarni ochish va/yoki tegishli arizani yuborib, Shartnoma Ilovalarida nazarda tutilgan bank xizmatlarini olish uchun Ariza qoldirish.

3.5.2. Bankka murojaat qilib, Autentifikatsiya ma'lumotlarini o'zgartirish.

3.5.3. Qo'shimcha xizmatlarni ulash/o'chirish (agar Bankda bunday xizmat mavjud bo'lsa) yoki xizmatlardan voz kechish orqali belgilangan tariflar doirasida kompleks bank xizmatlarini ko'rsatish shartlarini tanlash.

## 4. TOMONLARNING JAVOBGARLIGI

4.1. Tomonlar O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlariga muvofiq shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarmaganlik (lozim darajada bajarmaganlik) uchun javobgar.

4.2. Tomonlar shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini to'liq yoki qisman bajarmaganligi uchun javobgarlikdan ozod qilinadi, agar bajarmaslik yengib bo'lmas kuch, ya'ni, Shartnoma kuchga kirgandan keyin yuzaga kelgan ushbu sharoitlarda favqulodda va muqarrar holatlar oqibatida yuzaga kelsa. Yengib bo'lmas kuch holatlarining ta'sirini Tomonlar vakolatli organlarning hujjatlari bilan tasdiqlashi kerak. Yengib bo'lmas kuch holatlarining boshlanishi to'g'risida Tomonlar ushbu voqealar sodir bo'lganidan boshlab 5 (besh) ish kunidan kechiktirmay bir-birlarini xabardor qilishga majburdirlar.

4.3. Yengib bo'lmas kuch sharoitlariga quyidagilar kiradi: tabiiy hodisalar (zilzilalar, ko'chkilar, bo'ronlar, qurg'oqchilik va boshqalar) yoki ijtimoiy-iqtisodiy holatlar (urush holati, blokadalar, davlat manfaatlari uchun import va eksport taqiqlari va boshqalar) tufayli yuzaga kelgan, tomonlarning irodasi va harakatlariga bog'liq bo'lmagan, ular tufayli tomonlar qabul qilgan majburiyatlarini bajara olmaydigan favqulodda, muqarrar va kutilmagan holatlar.

Shartnomaning ushbu bandida ko'rsatilgan yengib bo'lmas kuch holatlari to'g'risida Bank o'z vaqtida yoki to'liq xabardor qilinmagan taqdirda, Mijoz ushbu holatlarning mumkin bo'lgan salbiy oqibatlari uchun javobgardir.

4.4. Bank Mijozning vakolatsiz shaxslari toponidan berilgan topshiriqlarni bajarish oqibatida Mijozga yetkazilgan zarar uchun javobgar emas.

4.5. Tomonlar ma'lumot yuborish va ma'lumot almashish API kanallarining xavfsizligini, ma'lumotlarning saqlanishi, yaxlitligi va ishonchliligini, shuningdek bank siriga qat'iy rioya qilinishi hamda mijozlarning shaxsiy ma'lumotlari saqlanishini ta'minlaydi.

4.6. Agar Bankning vakillik hisobvarag'i bo' yicha operatsiyalar amalga oshirilmasa yoki ularning bajarilishi O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki, Korrespondent banklar, to'lov tizimlari va Bankning korrespondentlik hisobvarag' i bo'yicha operatsiyalar bajarilishini ta'minlaydigan shu kabilarning harakatlari (harakatsizligi) natijasida kechiktirilsa, Shartnoma bo'yicha Mijozning topshiriqlari o'z vaqtida bajarilmaganligi uchun Bank javobgar bo'lmaydi.

4.7. Shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarayotganda Tomonlar va ularning xodimlari O'zR ning amaldagi qonunchiligiga asosan korrupsiyaga oid, shu jumladan pora berish, pora olish, poraxo'rlikda vositachilik qilish, xizmat mavqeyi yoki vakolatlarini suiste'mol qilish, tijorat poraxo'rligi kabi baholanadigan harakatlarni amalga oshirmasliklari, o'zi yoki uchinchi shaxslar foydasi uchun yoki boshqa noqonuniy ustunliklarga ega bo'lish maqsadida istalgan shaxslarga, shu shaxslarning harakatlari yoki qarorlariga ta'sir o'tkazish uchun istalgan shaklda, shu jumladan sovg'a, huquqlar, xizmatlar, mulk taqdim etish orqali bevosita yoki bilvosita pul vositalarini to'lash yoki qimmatbaho buyumlar berishni taklif etmaydi va to'lanishiga yo'l qo'ymaydi.

## 5. MAXFIYLIK

5.1. Tomonlar har bir Tomon uchun Shartnoma bo'yicha majburiyatlarini bajarish uchun zaruriyati asosida axborot almashadilar. Bir Tomon boshqa Tomonga taqdim etadigan Shartnoma bo'yicha majburiyatlarni bajarishga tegishli bo'lgan, uning munosabatida qonunlar bilan foydalanishni cheklash rejimi ko'zda tutilgan barcha ma'lumotlar yoki ma'lumotlarni taqdim etayotgan Tomon ochiq tarzda, bunday ma'lumot maxfiy ekanligi haqida xabardor qilgan ma'lumotlar maxfiy ma'lumot hisoblanadi va shu tarzda aniqlanadi ("Maxfiy ma'lumot").

Maxfiy ma'lumotlarga, shu jumladan, qonunchilik bilan aniqlangan tijoriy, kasbiy, xizmat, shuningdek boshqa turdagi sirlarni tashkil etuvchi shaxsiy ma'lumotlar, hisobchi va moliya ma'lumotlari, to'lov operatsiyalarini amalga oshirganlik to'g'risida ma'lumotlar, axborot, telekommunikatsiya va to'lov tizimlarini sozlash uchun boshqaruv ma'lumotlari kiradi. Maxfiy Ma'lumotlar undan noqonuniy foydalanishdan himoyalanishi, uning yaxlitligi, saqlanishi hamda o'z vaqtida taqdim etilishi ta'minlanishi lozim.

5.2. Shartnomaga muvofiq Maxfiy ma'lumotni olgan Tomon ("Qabul qiluvchi tomon"), agar bunday ma'lumot Maxfiy ma'lumot (i) u qabul qilingan vaqtda ommaviy boylik hisoblanishi yoki Qabul qiluvchi tomonning aybi bilan shunday ma'lumotga aylanmaganligini isbotlashi mumkin bo'lsa; (ii) qabul qilinishidan oldin Qabul qiluvchi Tomonga ma'lum bo'lgan yoki uning tasarrufida bo'lgan bo'lsa; (iii) Qabul qiluvchi tomonga, Maxfiy ma'lumotning saqlanishini ta'minlash bo'yicha majburiyatlar buzilmagan holatda, Taqdim etayotgan Tomon hisoblanmagan manbadan ma'lum bo'lsa Maxfiy ma'lumot yoki uning bir qismini ochiqlagani uchun javobgar bo'lmaydi.

5.3. Qabul qiluvchi tomon Shunday ma'lumotni taqdim etuvchi Tomonning ("Taqdim etuvchi tomon") oldindan berilgan roziligisiz Maxfiy ma'lumotning biror-bir qismidan mazkur shartnomada ko'zda tutilmagan maqsadlarda foydalanmaydi (i), Maxfiy ma'lumot yoki uning bir qismini mazkur shartlarda ko'zda tutilgan maqsadlarda Maxfiy ma'lumotdan foydalanish imkoniyatiga ega bo'lishi zarurligi asoslangan hamda Maxfiy ma'lumotlarning saqlanishini mazkur shartlarda Tomon bo'lgan holatidagidek ta'minlashga rozilik bildirgan Qabul qiluvchi Tomonning xodimlari va maslahatchilari bo'lmagan (shuningdek ikkilamchi pudratchilar) biror-bir shaxs yoki tashkilotga taqdim etmaydi, (iii) Maxfiy ma'lumotdan noqonuniy foydalanilishiga yo'l qo'ymaydi.

5.4. Agar Qabul qiluvchi Tomon qonun bo'yicha biror-bir Maxfiy ma'lumotni Maxfiy Ma'lumotni ochiqlashni talab qilish vakolatiga ega davlat hukumati organlariga ochiqlashi shart bo'lsa, bunday Tomon zudlik bilan bu fakt haqida Taqdim etuvchi tomonni yozma ravishda xabardor qilishi shart. Bunda Taqdim etuvchi tomon lozim darajada xabardor qilingan holatda mazkur bandga muvofiq Maxfiy Ma'lumotni ochiqlaydigan Qabul qiluvchi tomon Maxfiy Ma'lumotlarni ochiqlamaslik bo'yicha o'z majburiyatlarini buzgan hisoblanmaydi. Bunday ochiqlash holatida Qabul qiluvchi Tomon Maxfiy Ma'lumotlarning himoyasini ta'minlash uchun unga bog'liq barchasini bajarish majburiyatini oladi.

5.5. Maxfiy ma'lumot Taqdim etuvchi tomonning mulki bo'lib qoladi va u Shartnomada ko'zda tutilgan maqsadlar uchun kerak bo'lmagan holatda Taqdim etuvchining talabiga binoan shunday Tomonga zudlik bilan qaytarilishi yoki Qabul qiluvchi Tomon yoki u mazkur bo'limning qoidalariga muvofiq shunday Maxfiy ma'lumotni taqdim etgan biror-bir boshqa Tomondan qilingan barcha nusxalar bilan birga yo'q qilinishi kerak.

## 6. NIZOLARNI HAL QILISH

6.1. Shartnomadan yoki u bilan bog'liq holatlarda Mijoz va Bank o'rtasida yuzaga keluvchi barcha nizolar muzokaralar va da'vo xatlarini yo'naltirish yo'li bilan hal qilinadi. Da'vo xatini qabul qilgan Tomon uni qabul qilgan sanadan 7 (yetti) kun ichida motivatsiyali javobni yo'naltirish shart, agar boshqa tartib va muddat umumiy shartlarga muvofiq alohida shartnomalarda belgilanmagan bo'lsa.

6.2. Shartnoma yoki u bilan bog'liq holatlarda, shu jumladan uni tuzish, o'zgartirish, bajarish, buzish, bekor qilish, tugatish, haqiqiy emasligi, tuzilmaganligi yoki ta'minlanishini talab qilish (to'liq va/yoki qisman) holatlarida yuzaga kelgan izolar, kelishmovchiliklar, talab yoki da'volarni tinchlik yo'li bilan hal qilish imkonsiz bo'lgan holatda ular Bank filiali joylashgan joy

bo'yicha O'zbekiston Respublikasi iqtisod sudida hal qilinishi lozim.

6.3. Shartnomaning 7.2 bandida ko'rsatilganlarga qaramasdan, Mijoz O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligida ko'zda tutilgan tartibda har qanday sudlarga o'z huquq va manfaatlarini himoyasi uchun murojaat qilish huquqiga ega.

## 7. SHARTNOMAGA O'ZGARTIRISH KIRITISH VA BEKOR QILISH TARTIBI

7.1. Shartnoma ommaviy hisoblanishi hamda bank va bir martalik xizmatlar narxi barcha Mijozlar uchun (O'zbekiston Respubikasining amaldagi qonunchiligi bilan Mijozlarning alohida toifalar uchun imtiyozlar taqdim etilishiga yo'l qo'yiladigan yoki alohida korporativ Mijozlarga bank xizmatlarini alohida sharoitlarda taqdim etish holatlari bundan mustasno) bir xil o'rnatilishini hisobga olib Shartnomada, shu jumladan unga Ilovalar, Ilovalarning soni va tarkibi hamda Bank Tariflarida o'zgarishlar va/yoki qo'shimchalar O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 382-modda 1-qismiga muvofiq faqat Bank tomonidan amalga oshirilishi mumkin.

7.2. Mijozning o'zgartirilgan va/yoki qo'shimchalar kiritilgan Shartnomaga roziligini qo'shimcha tasdig'i Mijozning Shartnoma/Bank Tariflari o'zgargani va/yoki ularga qo'shimchalar kuchga kirganidan so'ng operatsiya amalga oshirishi/Ariza berishi hisoblanadi.

7.3. Tomonlar, Bank ixtiyoridan kelib chiqib O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi va/yoki To'lov tizimlarining qoidalari va/yoki Bankning yangi mahsulot/xizmatlar taqdim etishi va/yoki bank mahsulotlarini taqdim etish texnologiyasining o'zgarishi yuzasidan Shartnoma, shu jumladan Shartnomaga Ilovalar, Bank Tariflariga o'zgartirishlar va/yoki qo'shimchalar kiritish huquqiga ega ekanligiga kelishib olishdi.

7.4. Bank Mijozga Shartnoma, Shartnomaga Ilovalar va Bank Tariflarning yangi (o'zgartirilgan) tahriri haqida o'zgartirish va/yoki qo'shimchalar kiritish kutilayotgan sanadan kamida 10 (o'n) taqvim kuni oldin xabar yuborish yo'li bilan o'zgarishlar va/yoki qo'shimchalar kiritadi, amaldagi qonunchilikda o'zgarishlar yoki yangi bank mahsulotining tadbiq etilishi yoki Bankning nomi yoki yuridik/pochta manzili o'zgarishi bilan bog'liq o'zgartirish va/yoki qo'shimchalar kiritiladigan holatlar bundan mustasno, bu holatda xabar berish muddati quyidagi istalgan usulda (Bankning ixtiyoriga ko'ra) kamida 1 (bir) taqvim kunida xabar beradi:

Masofaviy xizmat ko'rsatish kanallari, shu jumladan mos keluvchi elektron xabar yo'naltirish yo'li bilan;

Internetda https://nbu.uz/ Bank saytida mos keluvchi e'lon va Shartnomaning yangi tahririni (o'zgarish/qo'shimchalar) joylashtirish yo'li bilan.

7.5. Agar Shartnoma shartlariga kiritilgan o'zgarishlar va/yoki qo'shimchalar kuchga kirgan sanagacha Bank Mijozdan Shartnomani bekor qilishi to'g'risida yozma ariza olmasa, unda ushbu holat Mijozning kiritilayotgan o'zgarish va/yoki qo'shimchalar bilan shartisiz va to'liq roziligi hisoblanadi. Bunda Shartnomaning o'zgarishi va/yoki qo'shimchalar to'g'risida kelishuvning yozma shakliga O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 366-moddasiga muvofiq rioya qilingan hisoblanadi.

7.6. Mijoz istalgan vaqtda bir tomonlama sudsiz tartibda, shu jumladan Mijozning Shartnomaga kiritilgan o'zgarishlarga noroziligi sababidan Shartnomani bekor qilish huquqiga ega.

7.7. Shartnomaning bekor qilinishi Mijozning Bankda ochilgan Hisobvaraq(lar), omonat(lar) Hisobvarag'i, shu jumladan Korporativ kartaga xizmat ko'rsatish uchun ochilgan Hisobvaraqlarni yopishga asos hisoblanadi.

7.8. Shartnomani bekor qilish uchun Mijoz Bankka Shartnomani bekor qilish to'g'risidagi arizani qog'ozda yo'naltiradi. Mijoz Shartnomani bekor qilish to'g'risida arizani yo'naltirgan kun, Mijoz shuningdek Bankka Bankda ochilgan barcha Hisobvaraqlar, omonat Hisobvarag'ini yopish, shuningdek Korporativ kartalarga xizmat ko'rsatish uchun ochilgan Hisobvaraqlarni yopish to'g'risida ariza yo'naltiradi. Mijozning Korporativ kartalari Bank tomonidan bloklanadi va Bank Shartnomani bekor qilish to'g'risida ariza olgan sanada haqiqiy emas deb e'lon qilinadi.

7.9. Shartnomaning amal qilishi Mijozning so'ngi hisobvarag'i yopilgan ondan to'xtatiladi. Mijozning so'ngi hisobvarag'ini yopish vaqtida Mijozda Shartnoma bo'yicha Bank oldida so'ndirilmagan qarzdorlik mavjud bo'lganida Shartnoma Mijoz shunday qarzdorlikni to'liq so'ndirganidan keyin to'xtatiladi. Shartnoma bekor qilingan va/yoki Hisobvaraq yopilgan holatda

Mijoz xizmatlar uchun to'lagan Vositachilik haqi Bank tomonidan qaytarib berilmaydi.

7.10. Bank Shartnomani sudsiz bir tomonlama tartibda bekor qilish huquqiga ega, bunga Mijoz quyidagi holatlarda rozilik bildiradi:

7.10.1. Hisobvaraqlardan jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirish, terrorizmni moliyalashtirish va ommaviy qirg'in qurolini tarqatishni moliyalashtirish maqsadida foydalanishga asosli shubha bo'lgan holatda. Bunday holatda Shartnoma Bank tashabbusiga ko'ra Shartnomani bekor qilish to'g'risidagi xabar Mijozga yo'naltirilgan kundan 3 (uch) taqvim kuni ichida bekor qilingan hisoblanadi;

7.10.2. 12 (o'n ikki) taqvim oyi davomida Hisobvaraqda pul vositalari bo'lmaganida va/yoki Hisobvaraq bo'yicha operatsiyalar amalga oshirilmaganida va/yoki hisobvaraqda Tariflarga muvofiq doimiy to'lovlarni to'lash uchun pul mablag'lari yetishmaganida Bank Shartnomani bekor qilish huquqiga ega. Bunda Bank Mijozga qog'ozda yoki Masofadan xizmat ko'rsatish (ibank) kanallari vositasida ogohlantirish yo'naltirgan sanadan 30 (o'ttiz) taqvim kuni o'tganidan so'ng, agar Mijoz yuqorida ko'rsatilgan muddatda Hisobvaraqqa Qarzdorlikni so'ndirish uchun yetarli hajmda pul mablag'lari kiritmasa va/yoki Hisobvaraq bo'yicha hech bo'lmasa bir operatsiyani amalga oshirmasa Shartnoma bekor qilingan, Hisobvaraq esa yopilgan hisoblanadi.

7.10.2. ushbu Shartnomaning ajralmas qismi hisoblangan Ilovalarda ko'rsatilgan Umumiy shartlar bilan belgilangan boshqa holatlarda.

## 8. YAKUNIY QOIDALAR

8.1. Shartnoma o'zgartirishlar kiritish yoki uning bekor qilinishi Mijoz va/yoki Bankni bunday o'zgarish kiritilgan yoki bekor qilingan ongacha yuzaga kelgan Shartnoma (Umumiy shartlarga muvofiq alohida Shartnoma) bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarishdan ozod qilmaydi.

8.2. Shartnoma O'zbekiston Respublikasining qonunchiligiga muvofiq talqin qilinishi kerak.

8.3. Agar Shartnoma va unga ilovaning biror-bir qoidasi noqonuniy, bekor qilingan yoki O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga qo'llanadigan sud himoyasida foydalanilmaydigan holatga kelsa, Shartnoma va unga ilovaning bunday qoidalari Bank va Mijoz o'rtasidagi o'zaro munosabatlarga qo'llanmaydi hamada eng qisqa muddatlarda almashtiriladigan qoidaning mohiyati va maqsadiga eng yaqin qoida bilan almashtiriladi. Bunda Shartnoma va unga ilovalarning qolgan qoidalari o'zining to'liq kuchi va haqiqiyligini saqlab qoladi.

8.4. Agar Shartnoma bo'yicha tomonlardan istalgan biri u amalda bo'lgan davrda biror-bir qayta tuzilish v o'zining yuridik holatida boshqa o'zgarishlarga uchrasa, Shartnoma o'z kuchini saqlab qoladi va o'zgarishlarga uchragan Tomon Shartnoma bo'yicha huquqlarni unda keltirilgan barcha majburiyatlarni saqlab qolgan holda qabul qiladi.

## 9. YURIDIK MANZILLAR, BANK REKVIZITLARI

**"O'zMilliybank" Aksionerlik Jamiyati**

Manzil: O'zbekiston Respublikasi, Toshkent shahri, 100047, Amir Temur ko'chasi, 101-uy
Rekvizitlar: m/h 10301000600000450001 O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki Bosh Boshqarmasi HKB da
FAA: 00450
STIR: 200836354
Ma'lumot uchun telefon (Bankning Aloqa-Markazi): 1344, +998 78 148-00-10;
Ishonch telefoni: +998 78 147-15-04
Bankning sayti: www.nbu.uz
e-mail: info@nbu.uz

"O‘zbekiston Respublikasi Tashqi iqtisodiy faoliyat milliy banki" AJ
da yuridik shaxslar va yakka tartibdagi tadbirkorlarga kompleks bank
xizmatlarini ko‘rsatish Shartnomasiga
**1–ILOVA**

"O'zMilliybank" AJ da kompleks xizmat ko'rsatilishiga ommaviy oferta shartnomasi aksepti to'g'risida

**ARIZA**

Mijozning nomi:________________________________________STIR/JSHSHIR:_______________________

O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 364, 365, 367, 369 va 370-moddalarida nazarda tutilgan tartibda, "O‘zbekiston Respublikasi Tashqi iqtisodiy faoliyat milliy banki" AJ da yuridik shaxslar va yakka tartibdagi tadbirkorlarga kompleks bank xizmatlarini ko‘rsatish Shartnomasini (keyingi o'rinlarda - Shartnoma) to'liq va shartsiz qabul qilganligini **E'LON QILADI;**

Shartnomaning amaldagi tahririda barcha qoida/shartlar, barcha ilovalar va unga qo'shimchalar, o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish tartibi, shu jumladan Bank Tariflari, ERI kalitini berish tartibi va shartlari, ma'lumotlarni e'lon qilish tartibi hamda Tomonlarning javobgarligi unga to'liq hajmda ma'lumligi va tushuntirilganligini **TASDIQLAYDI**, shu asosda:

| | |
|---|---|
| Talab qilib olinadigan depozit hisobvarag'i ochishni so'raydi:<br>☐ milliy valyutada;<br>☐ xorijiy valyutada: ___________(valyuta nomi)_________; | *(imzo)* |
| ___________(hisob-raqami)___________ hisob raqamini<br>«_________(tarif nomi)_________» tarif paketiga/rejasiga ulashni so'raydi; | *(imzo)* |
| ☐ +998__________________ raqamiga SMS xabarnomani ulashni so'raydi ; | *(imzo)* |
| ☐ Direktorga ☐ Bosh buxgalterga;<br>Ibank dasturiy kompleksiga ulashni va ERI yopiq kalitini chiqarishni so’raydi; | *(imzo)* |
| Terminal taqdim etishni so'raydi (Pos/E-Pos):<br>☐ HUMO, _______ dona;<br>☐ Uzcard, _______ dona; | *(imzo)* |
| So’m korporativ kartani chiqarishni va taqdim etishni so'raydi:<br>☐ HUMO, _______ dona;<br>☐ Uzcard, _______ dona; | *(imzo)* |
| ☐ Tegishli tranzit hisobini ochish orqali ish haqi loyihasiga ulashni so’raydi; | *(imzo)* |

*Tanlangan xizmat(lar) oldida «☑» belgisini qo'ying, bo'sh joylarni to'ldiring*

Ushbu bilan Mijoz Bankka:

mijoz tomonidan tanlangan bank xizmatlarini ko'rsatishda uning shaxsiy ma'lumotlarini qayta ishlash, shuningdek ularni uchinchi shaxslar ("ЕОПЦ" MCHJ, "Milliy banklararo protsessing markazi" MCHJ, Kredit tarixi byurosi, davlat soliq qo'mitasi va boshqa bankning sheriklari va davlat organlarining ma'lumotlar bazalariga) topshirish va qayta ishlash.

bankda ochilgan Mijozning hisobvarag'idan qo'shimcha topshiriqlarsiz (akseptsiz) Bankning amaldagi Tariflariga muvofiq hamda Shartnomada keltirilgan holatlarda ko'rsatilgan xizmatlar uchun to'lov yechishni amalga oshirish huquqini taqdim etadi;

Rahbar ______________________________________________/________________________/
*(F.I.SH.)* *(imzo)*

Bosh hisobchi ______________________________________________ /___________________________/
*(F.I.SH.)* *(imzo)*

*M.O'. (muhr mavjud bo'lsa)* «____» ______________20___y.

---

**Bank belgisi:**

IMZOLAR NAMUNALARI QO‘YILGAN VARAQCHASI BILAN TEKSHIRILDI:

Arizani qabul qildi: ____________________________/____________________/
*(F.I.SH.)* *(imzo, shtamp)*

Rahbar: ______________________________/____________________/
*(F.I.SH.)* *(imzo)* ____/____/20____y.

"Oʻzbekiston Respublikasi Tashqi iqtisodiy faoliyat milliy banki" AJ da yuridik shaxslar va yakka tartibdagi tadbirkorlarga kompleks bank xizmatlarini koʻrsatish Shartnomasiga
**2-ILOVA**

**Yuridik shaxslar va yakka tartibdagi tadbirkorlarning hisob raqamlariga xizmat koʻrsatishning UMUMIY SHARTLARI (matnda - Shartlar)**

## 1. FOYDALANILGAN TERMIN VA ATAMALAR

**Bank hisobvarag'i** –yuridik shaxslar va yakka tartibdagi tadbirkorlarning naqd pulsiz hisob-kitoblarda ishtirok etishlari va/yoki maqsadli foydalanish uchun pul mablag'larini jamlash maqsadida ochilgan xisobvaraq. Mazkur shartlarda bank hisobvarag'i deganda asosiy va boshqa depozit hisobvaraqlar tushuniladi.
**Asosiy hisobvaraq** – mijozning davlat ro'yxatidan o'tganidan so'ng birinchi marta milliy valyutada ochilgan talab qilib olinguncha depozit hisobvarag'idir.
**"I-bank" tizimi** – masofaviy bank xizmatlari tizimi bo'lib, bank va mijoz o'rtasidagi munosabatlarni avtomatlashtirishga mo'ljallangan, pul mablag'larini boshqarishning tezkorligini hamda bank operasiyalarini sifatli qayd qilinishini ta'minlaydi.
**Bank tariflari** – bank tomonidan xizmat ko'rsatish vaqtida amalda bo'lgan va bank tomonidan tasdiqlangan komission to'lovlar tarifi.

## 2. SHARTLAR MAZMUNI

2.1. Mazkur shartlar amal qilish muddati davomida bank va mijoz o'rtasida O'zbekiston Respublikasining amaldagi Qonunchilik hujjatlari talablariga zid bo'lmagan, mijozning milliy va/yoki xorijiy valyutadagi bank hisobvaraqlarini 1 - va 2-ilovalarda keltirilgan, tegishli ravishda toldirilgan va bankga taqdim qilingan arizalar va ushbu shartlarni 4-ilovasida keltirilgan hujjatlar taqdim qilinishiga muvofiq ochish, yuritish va yopish bilan bog'liq munosabatlarni tartibga soladi. Shuningdek, Bank O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga zid bo'lmagan boshqa turdagi bank xizmatlarini ko'rsatadi.

## 3.TOMONLARNING HUQUQLARI

3.1. Mijozning huquqlari:
3.1.1. Bank hisobvarag'idagi mablag'larini qonunchilikda belgilangan tartibda erkin tasarruf etish;
3.1.2. Bankning hisob-kitob va kassa xizmatlaridan foydalanish, mutaqil ravishda naqd pul tushumlarini bank kassalariga inkassasiyalash (4-ilova), inkasso bo'yicha hisob-kitoblarni amalga oshirish, to'lov topshiriqnomalarini o'z vaqtida bajarilishini bankdan talab qilish;
3.1.3. Naqd pul mablag'larini olish:
- O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq asosiy hisobvarag'ida pul mablag'lari va broni mavjud bo'lganda ish xaqi va boshqa extiyojlar uchun naqd pul mablag'larini ish haqi to'lash grafigiga asosan olish;
- O'zbekiston Respublikasi valyuta qonunchiligida o'rnatilgan tartib va cheklovlarga muvofiq talab qilib olinguncha depozit hisob raqamidan xorijiy valyuta mablag'larini olish.
3.1.4. Qonunchilikka muvofiq o'rnatilgan tartibda bank tomonidan shartlar hamda boshqa majburiyatlar o'z vaqtida va/yoki to'liq bajarilmaganligi oqibatida etkazilgan zararlarni qoplab berishni talab qilish;
3.1.5. Belgilangan maqsadga ko'ra tushmagan pul mablag'larini qidirish, aniqlash va qaytarishda yordam so'rab bankka murojaat qilish;
3.1.6. Bankka yozma ariza berish orqali axborot texnologiyalari xizmatidan foydalanish jarayonida mobil aloqa raqamlari/elektron pochta manzillarini kiritish/ulanish yoki mavjudlarini o'chirish
3.1.7. Ushbu shartlarning 4.1.13. bandida ko'rsatilgan xabarnoma olish usulini bankka shaxsan yozma ariza taqdim etish yo'li bilan yoki pochta orqali o'zgartirish.

3.1.8. Bankning tarif paketlarini/rejalarini hisob raqamga ulash, shuningdek, 5-ilovada koʻrsatilgan shakl boʻyicha ariza topshirish yoki Ibank masofaviy bank tizimi orqali Bankning tarif paketlarini/rejalarini oʻchirish.
3.2. Bankning huquqlari:
3.2.1. Mijoz tomonidan O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi, Markaziy bankning me'yoriy hujjatlari, bank tomonidan o'rnatilgan tartiblarga amal qilinmaganda, shuningdek, hisob-kitob hujjatlari noto'g'ri rasmiylashtirilganda va o'z vaqtida taqdim etilmaganda hamda qonunchilikka zid bo'lgan operasiyalar amalga oshirilganda mijozning hisob-kitob, kassa xujjatlarini qabul qilish va/yoki ijrosini rad etish;
3.2.2. Mablag'larning but saqlanishi va ularning mijoz tomonidan erkin tasarruf etilishini kafolatlagan holda mijozning bo'sh mablag'laridan foydalanish;
3.2.3. Mijozning bank hisobvarag'idagi mablag'larni O'zbekiston Respublikasi qonun xujjatlari talablariga muvofiq bank tomonidan majburiy ijro etilishi lozim bo'lgan hisob-kitob xujjatlari asosida (aktseptsiz to'lov talabnomalari, inkasso topshiriqnomalari va xokazo) hamda qonunchilikda ko'zda tutilgan boshqa hollarda yoki bank va mijoz o'rtasida tuzilgan shartlarda belgilangan holatlarda mijozning roziligisiz hisobdan chiqarish.
3.2.4. Quyidagi holatlarda pul mablag'lari mijozning roziligisiz uning bank hisobvaraqlaridan hisobdan chiqariladi:
- ushbu shartlar yoki unga ko'shimcha kelishuvga asosan bank tariflarida belgilangan miqdorda bank xizmatlari haqi memorial order yoki to'lov talabnomasi orqali to'langanda;
- ushbu shartlarni bajarishda bank tomonidan barcha pochta, telegraf va boshqa xarajatlar uchun to'lovlar amalga oshirilganda;
- qonunchilikda ko'rsatilgan birinchi navbatdagi to'lovlar amalga oshirilgandan so'ng, mijozning ushbu hisobvarag'iga kelib tushgan pul mablag'laridan bank oldidagi muddati o'tgan qarzdorligi qoplanganda;
- Bank tomonidan bank hisobvarag'iga xato kiritilgan pul mablag'larini hisobdan chiqarishda;
-O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligida belgilangan boshqa holatlarda.
3.2.5. Bank operasiyalarini amalga oshirish uchun asos bo'luvchi hujjatlarning haqiqiyligiga shubha tug'ilganda, bu haqda imzolash huquqiga ega bo'lgan bank mansabdor shaxslariga xabar berib, operasiyalarni amalga oshirishni to'xtatish.
3.2.6. Mijozning 2-sonli kartotekasi bo'yicha qarzdorligi mavjud bo'lgan taqdirda, uning ikkilamchi hisovaraqlaridan (hukumat qarorlari asosida ochilgan maqsadli, akkreditiv, jamg'arma va muddatli depozit hisobvaralari bundan mustasno) mablag'larni mijozning qarz majburiyatlari to'liq bajarilgunga qadar uning asosiy depozit hisobvarag'iga o'tkazish va ikkilamchi hisobvaraqlardagi operasiyalarni to'xtatib qo'yish;
3.2.7. Bank ish kuni yakunlash va balans hisobotlarini tuzishda, xato yozuvlar aniqlangan hollarda, keyingi bank ish kuni teskari buxgalteriya yozuvlarini kiritish yo'li bilan tegishli summalarni mijozning roziligisiz hisobvaraqlardan hisobdan chiqarish;
3.2.8. O'zbekiston Respublikasi normativ-huquqiy hujjatlarida nazarda tutilgan xollarda, bank hisobraqami bo'yicha amaliyotlarni to'xtatish yoki ularni amalga oshirishni rad etish, shuningdek mijoz hisobvaraqlaridagi pul mablag'lariga band solish.
3.2.9. Mijozga ko'rsatilgan xizmatlar uchun komissiya to'lovlarini, bank tomonidan tasdiqlangan tariflar asosida uning topshirig'isiz echib olish.
3.2.10. Mijozni yozma va/yoki elektron shaklda ogohlantirish, shuningdek bankning rasmiy veb-saytida (www.nbu.uz) e'lon berish orqali bankning amaldagi tariflariga o'zgartirish va/yoki qo'shimchalar kiritish. Ushbu holatda, mijoz tomonidan 10 (oʻn) bank ish kunida yozma ravishda e'tiroz bildirilmasa, bank tariflariga kiritilgan o'zgartirishlar va/yoki qo'shimchalar tomonlar uchun majburiy bo'ladi.
3.2.11. Bank o'zida mazkur shartlarni qayta ko'rib chiqish xuquqini saqlab qoladi. Ushbu shartlar bir tomonlama o'zgartirilgan taqdirda, bank ushbu o'zgargan shartlar bilan mijozni xabardor qiladi (yozma va/yoki elektron shaklda). Ushbu holatda, mijoz tomonidan 10 (oʻn) bank ish kunida yozma ravishda e'tiroz bildirilmasa, bank tomonidan shartlarga kiritilgan o'zgartirishlar va (yoki) qo'shimchalar tomonlar uchun majburiy bo'ladi.

3.2.12. Mijoz yoki operasiya qatnashchilaridan birining barcha identifikasiya ma'lumotlari maxsus vakolatli davlat organi vakillari tomonidan shakllantirilgan ro'yxatga kiritilgan shaxsning ma'lumotlari bilan to'liq mos kelgan taqdirda tijorat banki bu operasiyani kechiktirmasdan va oldindan xabar qilmasdan to'xtatib turadi (yuridik yoki jismoniy shaxsning hisobvarag'iga tushgan pul mablag'larini hisobga kiritish bo'yicha operasiyalar bundan mustasno) va (yoki) pul mablag'larini yoki boshqa mol-mulkini ishga solmay to'xtatib qo'yadi.
3.2.13. Tijorat banklarida jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga va ommaviy qirg'in qurolini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurashish bo'yicha ichki nazorat qoidalari (O'R AV 23.05.2017 yilda 2886-son bilan ro'yhatga olingan)ning 62-bandiga muvofiq, bajarilgan operasiyalarning qonuniyligi haqida mijoz yozma tushuntirish bergunga qadar, bank tomonidan ushbu xizmatni ko'rsatishni to'xtatib turish, yoki xizmat ko'rsatishni rad etishga xaqli.
3.2.14. Bank halqaro operasiyalarni amalga oshirmaslik huquqiga ega, agarda bankda ushbu operasiyani amalga oshirayotgan Korrespondent bankning bunday operasiyani amalga oshirmaslik talabi mavjud bo'lganda.

## 4. TOMONLARNING MAJBURIYATLARI

4.1.Bankning majburiyatlari:
4.1.1. O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi xamda bankning amaldagi qoidalariga muvofiq mijoz hisobraqami bilan bog'liq kuyidagi amaliyotlarini amalga oshiradi:
a) mijozning bank hisobvarag'iga kelib tushgan pul mablag'larini tegishli to'lov hujjati asosida kelib tushgan kunning o'zida yoki keyingi ish kunidan kechiktirmay mijozning bank hisobvarag'iga kiritadi;
b)mijozning bank hisobvarag'idan pul mablag'larini tegishli to'lov hujjatlari asosida o'tkazish (to'lash) to'g'risidagi topshiriqlarini bajaradi;
v) mijozning qarz majburiyatlari bo'yicha to'lov talabnomalari va inkasso topshiriqnomalarini ijro qiladi;
g) amaldagi qonunchilikka muvofiq mijozdan naqd pul mablag'larini qabul qiladi va beradi;
D) kun yakunida bank tariflariga asosan foizlarni hisoblaydi.
j) boshqa hisob-kitob va kassa xizmatlarini ko'rsatadi (bank va mijoz o'rtasida alohida shartnomalar asosida tartibga solinadigan munosabatlar bundan mustasno).
Mijozning bank hisobvarag'i yopilganda, bank qoldiq mablag'lar bo'yicha amaliyotlarni amaldagi konunchilikda o'rnatilgan tartibda amalga oshiradi.
4.1.2. Mijozning bank hisobvarag'laridan faqat uning topshirig'i bo'yicha yoki uning roziligi bilan bankka to'lov hujjati kelib tushgan kuni yoki kelgusi ish kunidan kechiktirmay mablag'larni (aktseptsiz to'lov talabnomasi va inkasso topshiriqnomasi bundan mustasno) hisobdan chiqaradi. Mijozning asosiy hisobvarag'ida mablag'mavjud bo'lmagan yoki etarli bo'lmagan taqdirda, bank to'lanmagan to'lov xujjati summasini 2-sonli kartotekaga kirim qiladi (O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida ko'zda tutilgan holatlar bundan mustasno).
4.1.3. Mijozga belgilangan xizmat ko'rsatish jadvaliga muvofiq (dam olish kunlaridan tashqari) muayyan vaqt mobaynida xizmat ko'rsatadi.
4.1.4. Mijoz topshirig'iga asosan hisob-kitob amaliyotlarini O'zbekiston Respublikasi hududida naqd pulsiz hisob-kitoblarni amalga oshirishning amaldagi qoidalariga qat'iy rioya qilgan holda amalga oshiradi.
(Pul hisob-kitob hujjatlari bank tomonidan ijroga faqat mijozning taqdim qilgan imzo namunalari va muhr izi agar ko'zda tutilgan bo'lsa, qo'yilgan varaqchada ko'rsatilgan shaxslar va mijozning ishonchnomasi asosida vakil qilingan shaxsdan qabul qilinadi).
4.1.5. To'lov hujjatlarini qabul qilishda barcha zarur rekvizitlarning to'g'ri rasmiylashtiril-ganligini tekshiradi va to'lov hujjati bankka kelib tushgan kuni (agar amaliyot kuni davomida kelib tushgan bo'lsa) yoki kelib tushgan kunning keyingi ish kunidan (agar amaliyot kuni tugagandan keyin kelib tushgan bo'lsa) kechiktirmay uning ijrosini ta'minlaydi.
4.1.6. Mijozning talabiga muvofiq uning o'ziga yoki ishonchli vakiliga bank hisobvarag'idan ko'chirmalarni va boshqa tegishli hujjatlarni beradi.
4.1.7. Qonunchilikka muvofik mijozga taalluqli bo'lgan bank sirini tashkil etuvchi ma'lumotlarning sir saqlanishini kafolatlaydi.

4.1.8. Mijoz hisobvarag'idagi mavjud pul mablag'larini but saqlanishini ta'minlaydi.
4.1.9. Mijozning asosiy hisobvarag'ida mablag'bo'lganda yoki mablag'etishmaganligi sababli mablag'larni band qilishga doir bron mavjud bo'lgan hollarda ish haqi va qonunchilikda belgilangan boshqa extiyojlari uchun pul mablag'larini birinchi talabdayoq berilishini ta'minlaydi.
4.1.10. Mijozning talabiga ko'ra bank tariflarida belgilangan komissiya to'lovlarini to'lash sharti bilan SMS axborot xizmatlari mijozning arizasiga asosan (shartlarga 3-ilova) takdim etadi.
4.1.11. Mijozning bankda ochilgan hisobraqamlariga masofaviy xizmat ko'rsatish axborot texnologiyalari, komp'yuter texnikasi va Internet yordamida ishlaydigan kichik tizimlardan iborat "I-bank" tizimi bo'yicha axborotni ishlash, saqlash, ximoya qilish va yuborish operasiyalarini bank mijozga masofadan ximoyalangan tizim orqali amalga oshiradi.
4.1.12. Masofaviy xizmat ko'rsatish mijozning talabiga ko'ra elektron xujjatlarni kayta ishlash va mijozning bank hisobvaraqlari buyicha elektron shaklda hisobotlar takdim etish yo'li bilan O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi talablari va "I-bank" dasturiy kompleksidan foydalangan holda mijozga xizmat ko'rsatish qoidalariga asosan amalga oshiriladi.
4.1.13 mijozga xabarnoma (ma'lumotnoma) yuborish:
• mablag'lar kredit, mikroqarzlar va lizing bo'yicha mijozning hisobvarag'idan aktseptsiz chiqarilganda. Bunda ushbu mablag'hisobdan chiqarilgan sanadan boshlab keyingi ish kunidan kechiktirmagan holda hisobvarag'dan qancha miqdordagi mablag'qanday sabablarga asosan va kimning foydasiga chiqarilganligi ko'rsatilishi shart.
• Mijozning bank hisobvaraqlari bo'yicha amaliyotlar to'xtatib qo'yilgandabank amaliyoti to'xtatilgan sanadan boshlab keyingi ish kunidan kechiktirmagan holda.
4.2. Mijozning majburiyatlari:
4.2.1. Bankka hisob-kitob operasiyalarni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan barcha hujjatlarni taqdim etadi. Valyuta operasiyalari amalga oshirilganda mijoz to'lov xujjati bilan bir vaqtda bankka O'zbekiston Respublikasi valyuta qonunchiligi talablariga va boshka konunlarga muvofiq zarur xujjatlarni (valyuta amaliyotlari uchun asos bo'luvchi xujjatlar va hokazo) taqdim etadi.
4.2.2. Bankda belgilangan ish tartibi, to'lov hujjatlarini rasmiylashtirish va taqdim etish tartibiga rioya qiladi. O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining amaldagi me'yoriy hujjatlari talablarini bajaradi. Bankka taqdim etiladigan xujjatlar nusxalarini tegishli tartibda rasmiylashtirish va tasdiqlanishini ta'minlaydi.
4.2.3. Bank hisobvarag'ida mablag'mavjud bo'lganda ish haqi va boshqa qonunchilikda belgilangan extiyojlar uchun pul mablag'lari olishning kalendar jadvaliga muvofiq pul chekini bankka naqd pul olish kunidan bir kun oldin taqdim etadi va olingan mablag'lardan qat'iy belgilangan maqsadlarda foydalanadi.
4.2.4. To'lovlarni amalga oshirish uchun bank hisobvarag'ida etarli pul mablag'lari mavjud bo'lishini ta'minlaydi.
4.2.5. Ko'rsatilgan bank xizmatlari bo'yicha to'lovlarni mazkur shartlarning 6-bo'limida belgilangan tartibda amalga oshiradi.
4.2.6. Bank talabiga ko'ra boshqa davlatlar sub'ektlari bilan tuzilgan shartnomalar bo'yicha amalga oshirilgan eksport-import va boshqa operasiyalari to'g'risida, shuningdek, zaruriyat tug'ilganda, Qonunchilik asosida bank zimmasiga yuklatilgan vazifalarni bajarish uchun zarur bo'lgan boshqa ma'lumotlarni taqdim etadi.
4.2.7. Mijozning tashkiliy huquqiy shakli o'zgarganda, bu to'g'risidagi ma'lumotlarni 3 ish kuni mobaynida, yuridik manzili o'zgarganda esa, bu to'g'risidagi ma'lumotlarni 5 ish kuni mobaynida bankka taqdim qiladi.
4.2.8. Deponentga o'tkazilgan ish haqi, pensiya, nafaqa va moddiy yordam pullarini belgilangan muddatda bank kassasiga topshiradi.
4.2.9. Naqd pullarni kirim qilish va sarflash tartibiga, kassa intizomiga hamda limitdan ortiqcha naqd pullarni Inkassasiya xizmati orqali bankka topshirish tartibiga rioya etadi.
4.2.10. Bankka "jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga terrorizmni moliyalashtirishga va ommaviy qirg'in qurolini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurashish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunida belgilangan funktsiyalarni va ushbu shartlarni bajarishi uchun zarur bo'lgan ma'lumot va xujjatlarni taqdim qiladi.

4.2.11. Mustaqil ravishda barcha tadbirlarni amalga oshirish, ya'ni operasiyalarni amalga oshirish vaqtida sanktsiya qo'llanilgan ro'yxatda (OFAC, EU (es) i OON (UN) va boshqalar) bo'lganligi sababli xalqaro operasiyalarni amalga oshirish mumkin emasligiga bevosita ta'sir ko'rsatadigan va pul mablag'larini muzlatib ko'yilishiga olib keladigan oluvchi, jo'natuvchi va boshqa shaxslarni (shu jumladan ta'sischilar, haqiqiy egalar, mulkdorlar va boshqalar), shuningdek jo'natuvchi/oluvchining mamlakatlarini va banklarini to'g'risidagi axborotlarni o'rganish.

## 5. BANK SIRI

5.1. Bank "bank siri to'g'risida" O'zbekiston Respublikasi Qonuniga muvofiq, mijozning bank sirini tashkil etuvchi ma'lumotlarini sir saqlanishini kafolatlaydi.
5.2. Bank sirini tashkil etuvchi ma'lumotlar faqat mijozning yozma murojaatiga asosan uning o'ziga yoki uning ishonchli vakiliga shuningdek "bank siri to'g'risida" gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga asosan boshqa shaxslarga taqdim etilishi mumkin.
5.3. Bank mijozga pullik axborot xizmatlarini taqdim qilishda, texnik xizmat ko'rsatuvchi shaxslarga bank sirini tashkil etuvchi ma'lumotlarni yuborish bank sirini oshkor etish hisoblanmaydi deb taraflar bilan kelishilgan.

## 6. BANK XIZMATLARI UCHUN TO'LOVLARNING MIQDORI VA TO'LASH TARTIBI

6.1. Ushbu Shartlarni qabul qilib, Mijoz Bankning rasmiy veb-saytida ko'rsatilgan yuridik shaxslar va yakka tartibdagi tadbirkorlarga xizmat ko'rsatish uchun standart tarif shartlariga obuna bo'ladi. Shu bilan birga, Mijoz, agar bunday tarif rejasi/paketi uchun belgilangan mezon/shartlarga javob bersa, Bankning tarif rejalari/paketlariga ulanish huquqiga ega.
6.2. O'zbekiston Respublikasi fuqarolik kodeksining 780-moddasiga muvofiq, mijoz bankning hisobvaraqda turgan pul mablag'lari bilan operasiya qilish bo'yicha xizmatlariga ushbu shartlar va bank tariflarida nazarda tutilgan shartlar asosida haq to'laydi.
6.3. Bank hisobvarag'i bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlar uchun mijoz tomonidan to'lanadigan xizmat haqi miqdori xizmat ko'rsatish sanasida amalda bo'lgan, bank tomonidan tasdiqlangan tariflar asosida belgilanadi.
6.4. Mijozga ko'rsatilgan xizmatlar uchun vositachilik haqi bank tomonidan mijozning hisobvarag'idan mablag'larni aktseptsiz tartibda hisobdan chiqarish yo'li bilan undirib oladi.
6.5. Mijozning bank hisobvarag'ida mablag'mavjud bo'lmaganda yoki etarli bo'lmaganda, to'lanmagan xizmat haqlari bo'yicha bank tomonidan aktseptsiz to'lov talabnomalariyoki memorial orderlar o'rnatilgan tartibda mijozning 2-sonli kartotekasiga joylashtiriladi va ijro etiladi.
6.6. Sumdagi chek daftarchasi buyicha xizmat kursatilganligi uchun mijoz bankka operasiya o'tkazilgan sanada amalda bo'lgan bank tariflari asosida to'lovni amalga oshiradi.
6.7. Mijozning bank hisobvarag'iga kelib tushgan pul mablag'larini kiritib qo'yish uchun vositachilik haqi olinmaydi.
6.8. Ish haqi va qonunchilikda belgilangan boshqa extiyojlar uchun naqd pul mablag'larini berilishida vositachilik haqi olinmaydi.
6.9. Mijoz kichik tadbirkorlik sub'ekti hisoblansa bank hisobvaraqlaridan O'zbekiston Respublikasi Davlat byudjetiga soliqlar va unga tenglashtirilgan boshqa majburiy to'lovlar to'lashda bank xizmati xaqi olinmaydi.

## 7. TOMONLARNING JAVOBGARLIGI

Taraflardan biri shartlar majburiyatlarini bajarmagan yoki lozim darajada bajarmagan taqdirda, ushbu taraf boshqa tarafga etkazilgan zararni to'laydi, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida nazarda tutilgan tartibda javobgar bo'ladi.
7.1. Bankning javobgarligi:
7.1.1. Mijozning bank hisobvarag'i bo'yicha operasiyalarini o'z vaqtida amalga oshirilmaganligi.
7.1.2. Mijozning bank sirini tashkil etuvchi ma'lumotlarini noqonuniy ravishda oshkor qilinmasligi.

7.1.3. Mijozning qonunchilikda belgilangan tartibda bank hisobvaraqlariga mablag'larni hisobga kiritish tartibini buzganlik va bank hisobvarag'idan mablag'larni asossiz ravishda hisobdan chiqarganlik uchun.
7.1.4. Bank tomonidan elektron to'lovlarni amalga oshirishning qonunchilikda belgilangan muddatlari buzilgan taqdirda, bank mijozga kechiktirilgan har bir kun uchun elektron to'lov summasining 0,1 foizi miqdorida, biroq kechiktirilgan elektron to'lov summasining 10 foizidan ko'p bo'lmagan miqdorda penya to'laydi.
7.1.5. Bank mijozning bank hisobvarag'idagi mablag'larini uning topshirig'isiz yoki roziligini olinmasdan (aktseptlanmagan), bank tomonidan (qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshirilgan hisobdan chiqarish holatlari bundan mustasno) hisobdan chiqarilgan (o'tkazib berilgan) taqdirda, ushbu mablag'larni bank hisobvarag'iga tiklaydi va boy berilgan foydani qonunchilikda belgilangan tartibda qoplab beradi.
7.1.6. Bank aybi bilan elektron to'lovlarni xato amalga oshirilgan taqdirda bank mablag'larni oluvchining hisobvarag'iga xatolik aniqlangan kundan keyingi ish kunidan kechiktirmay o'tkazishi zarur. Aks holda, mijoz qonunda belgilangan tartibda bankdan mablag'larni qaytarilishini talab qilish, shuningdek har bir kechiktirilgan kun uchun xato amalga oshirilgan elektron to'lov summasining 0,1 foiz miqdorida, biroq xato amalga oshirilgan elektron to'lov summasining 10 foizidan ko'p bo'lmagan miqdorda penya to'lanishini talab qilishga xaqli.
7.2. Mijozning javobgarligi:
7.2.1. Mijoz bank hisobvarag'i bo'yicha o'tkazilgan operasiyalarning qonuniyligi uchun javobgardir.
7.2.2.Mijoz bankka hisobotlarning o'z vaqtida taqdim etilishi va to'g'ri rasmiylashtirilishi, hamda bankka taqdim qilingan hujjatlarda qayd etilgan ma'lumotlarning to'g'riligi uchun javobgardir.
7.2.3. Mijoz axborot xizmatiga ulangan uyali telefon raqami/elektron pochta manzili o'zgarganda yoki uyali telefon raqami/ elektron pochta manzili o'chirilganda bankka yangi uyali telefon raqami/elektron pochta manzilini ulash uchun o'z vaqtida ariza taqdim etish uchun javobgardir.
7.2.4. Hisobvaraq egasi unga ko'chirmalar berilganidan keyin ikki ish kuni mobaynida bankka hisobvaraq krediti yoki debetiga xato yozilgan summalar haqida yozma ravishda xabar qilishi shart. Ko'rsatilganmuddat ichida mijoz o'z e'tirozini bildirmasa, bajarilgan amaliyotlar hamda hisobvaraqdagi mablag'qoldig'i tasdiqlangan hisoblanadi.
7.2.5. "I-bank" tizimi orqali olingan elektron yoki chop etilgan xujjatlarning (hisobvaraqdan ko'chirmalar, bankdan xatlar va boshqalar) butligi va maxfiyligi uchun javobgardir.

## 8. BANKNI BELGILANGAN JAVOBGARLIKDAN

8.1. Bank quyidagi hollarda javobgarlikdan ozod qilinadi:
a) banklararo elektron to'lovlar tizimida ro'y berishi mumkin bo'lgan uzilishlarda;
b)bank mijozi tomonidan amaldagi qonunlarda belgilangan talablarga mos kelmaydigan to'lov hujjatlari taqdim qilinganda
v) qonunchilikda ko'zda tutilgan holatlarga asosan mijozning bank hisobvaraqlari orqali amaliyotlar to'xtatilganda;
g) naqd pul olish uchun o'z muddatida taqdim etilmagan to'lov hujjatlarda yoki taqdim etilgan hujjatlarda noaniqliklar va xatoliklar mavjud bo'lganda.
D) elektr-energiyasi o'chirilgan hollarda hamda fors-major vaziyatlarda.
j) mijoz tomonidan SMS axborot xizmatiga ulangan uyali telefon raqami/elektron pochta manzili noto'g'ri taqdim etilganda shuningdek, uyali telefon raqami/elektron pochta manzili o'zgartirilganligi yoki o'chirilganligi to'g'risida bankka o'z vaqtida xabar berilmaganda.
z) mijoz tomonidan bankning axborot xizmatlari (SMS axborotlash, "Internet banking", "Mobile banking" va boshqalar) orqali ma'lumotlarni uchinchi shaxslarga taqdim etganda.
i) bankning aybi bo'lmagan boshqa holatlarda mijozga zarar etkazilganda.

## 9. FORS-MAJOR HOLATLAR.

9.1. Shartlar qabul qilinganidan so'ng yuzaga kelishi mumkin bo'lgan suv toshqini, yong'in, zilzila va tabiiy ofatning boshqa ko'rinishlari, embargo, xarbiy xarakatlar, namoyishlar, davlat idoralari tomonidan qabul qilingan normativ xujjatlar tufayli ushbu shartlar bo'yicha har qanday

majburiyatlar to'liq yoki qisman bajarilmagan hollarda shartlar tomonlaridan hech biri javobgar bo'lmaydilar.
9.2. Fors-major holatlar va ularning oqibatlari besh oydan ortiq davom etgan hollarda har bir taraf ushbu shartlar bo'yicha majburiyatlarini bajarishdan bosh tortishga xaqlidir va bunday holatda bir taraf ikkinchi tarafdan har qanday etkazilgan zararni qoplash bo'yicha xarakatlarni amalga oshirishni talab qila olmaydi.
9.3. O'zbekiston Respublikasining vakolatli organlarii tomonidan chiqarilgan xujjatlar fors-major xolatlarini tasdiqlash uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

## 10. XISOB RAQAMNI YOPISH TARTIBI

10.1. Shartlarga kiritilgan barcha ilovalar, qo'shimcha va o'zgartirishlar ushbu shartlarning ajralmas qismidir.
10.2. Xisob raqam keyingi holatlarda yopiladi:
- Mijoz tomonidan sharlar talablari buzilgan holda bankning talabiga ko'ra;
- sud qaroriga asosan yohud qonunda, shartlarda nazarda tutilgan boshqa hollarda yoki mazkur shatlarda ko'rsatilgan holatlarda;
- Mijoz tomonidan xizmat ko'rsatish bilan bog'liq barcha to'lovlar to'liq amalga oshirilgandan so'ng, mijozning arizasiga ko'ra hohlagan vaqtda o'rnatilgan tartibda.
10.3. Tomonlar hisob-kitob hisobvarag'i quyidagi hollarda suddan tashqari yopilishi kerakligi to'g'risida kelishib oldilar:
- mijozning iltimosiga ko'ra qog'oz shaklida yoki I-Bank shaxsiy hisob faoliyati orqali bankka yuborilganda;
- ushbu shartlar bo'yicha xizmatlarni taqdim etish/ulardan foydalanishni ushbu shartlarda belgilangan tartibda tugatish;
- mijoz tomonidan ushbu shartlar sezilarli darajada buzilgan taqdirda;
- hisobda saqlanadigan mablag'lar miqdori ushbu shartlar yoki bankning ichki qoidalarida (va/yoki tariflarda)nazarda tutilgan minimal miqdordan past bo'lganda;
- O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida va/yoki bankning ichki qoidalarida nazarda tutilgan boshqa hollarda.
10.4. Bank sud orqali hisob-kitob va kassa xizmatlarini ko'rsatishni to'xtatish huquqiga ega:
- agar 3(uch) oy ichida hisob (lar) da operasiyalar bo'lmasa;
- agar hisobvaraqda saqlanadigan mablag'lar miqdori bank qoidalarining (va/yoki tariflarning) ushbu shartlarda nazarda tutilgan minimal miqdordan past bo'lsa va bank ogohlantirgan kundan boshlab bir oy ichida mijoz tomonidan tiklanmaydi.
Ushbu shartlar bo'yicha xizmatlar ko'rsatishni to'xtatish hisob(lar) ni yopish uchun asosdir.
Bank va mijoz o'rtasidagi moliyaviy majburiyatlarni hal qilish muddati-30 (o'ttiz) kalendar kun:
- joriy hisob raqamiga berilgan barcha kartalar bekor qilingan kundan boshlab;
- joriy hisob raqamiga chiqarilgan barcha kartalarning amal qilish muddati tugagan kundan boshlab.
10.5. Shartlar bekor qilingandan so'ng mijozning bank hisobvarag'idagi pul mablag'lari qoldig'i uning tegishli yozma arizasiga asosan kechi bilan 7 (etti) kun ichida mijozga beriladi yoki uning ko'rsatmasiga ko'ra boshqa bank hisobvarag'iga o'tkaziladi. Bank hisobvarag'i shartnomasining bekor qilinishi mijozning bank hisobvarag'ini yopish uchun asos bo'ladi. Shartlar bekor qilingan sanadan e'tiboran 7 kun mobaynida mijoz mablag'larini boshqa hisobvaraqqa o'tkazish to'g'risida yozma ko'rsatma bermasa, bank mijozning hisobvarag'idagi mablag'lar qoldig'ini 29842-hisobvaraqqa o'tkazadi. Ushbu qoldiq miqdoriga foizlar hisoblanmaydi.
10.6. Mijozning asosiy hisobvarag'i, ushbu mijozga tegishli boshqa bank hisobvaraqlari yopilgandan keyingina yopiladi.
10.7. Ushbu shartlar bilan tartibga solinmagan barcha holatlar O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga asosan tartibga solinadi.

## 11.SANKTSIYALARGA OID SHARTLAR

11.1. Tomonlar ushbu shartlarni 11.2-bandida ko'rsatilgan hamda mijoz o'z biznesini sanktsiyalarga qat'iy rioya qilgan holda buzmasdan vijdonan olib borganligi va amalga

oshirayotganligi, mijoz shartlar qabul qilgan sanadan boshlab sanktsiyalarni qo'llash va amalga oshirishga qaratilgan, shu jumladan, ushbu bilan cheklanmagan holda tushuniladigan AQSh Moliya vazirligining xorijiy aktivlarni nazorat qilish boshqarmasi (Office of Foreign Assets Control of U.S. Department of the Treasury) yoki AQSh xukumatning har qanday boshqa organi, departamenti yoki agentligini, Birlashgan Millatlar tashkiloti, Buyuk Britaniya, Evropa Ittifoqi yoki Evropa Ittifoqiga a'zo har qanday davlatlarning har qanday iqtisodiy yoki moliyaviy sanktsiyalarga olib keladigan siyosat va tartiblariga rioya qilishi va bajarishi kafolati asosida tuzadilar.
11.2. Mijoz kafolat beradi, tasdiqladi va ta'minlash majburiyatini oladi:
(a) na mijoz, na uning filiallari, na aktsiyadorlari yoki mijozning har qanday aktsiyadorlari sanktsiyalangan shaxslar hisoblanmaydi va Evropa Ittifoqining sanktsiyalar ro'yxatiga, va (yoki) Buyuk Britaniya va (yoki) sanktsiyalar ro'yxatida SDN (Specially Designated Nationals and Blocked Persons List - maxsus tayinlangan fuqarolar va bloklangan shaxslar ro'yxati), CAPTA (List of Foreign Financial Institutions Subject to Correspondent Account or Payable-Through Account Sanctions - hisob sanktsiyalari orqali - xorijiy moliya institutlarining ro'yxati, Korrespondent hisob yoki to'lov hisobini ochish yoki yuritish taqiqlangan yoki bir yoki bir nechta qat'iy shartlarga rioya qilingan holda), NS-MBS (Non-SDN Menu-Based Sanctions List - SDN ga asoslanmagan sanktsiyalar ro'yxati), AQSh Moliya vazirligining xorijiy aktivlarni nazorat qilish boshqarmasi tomonidan boshqariladigan (Office of Foreign Assets Control of U.S. Department of the Treasury) shuningdek, yoki har qanday ekstraterritorial ta'sirga ega bo'lgan boshqa sanktsiyalar ro'yxatiga kiritilmagan.
(b) na mijoz, na uning affillangan shaxslari va/yoki aktsiyadorlari iqtisodiy sanktsiyalar bilan ta'qiqlangan har qanday shaxs yoki tashkilot bilan hech qanday bitimlar yoki bitim tuzishda yoki iqtisodiy santsiyalarni buzish extimoli bo'lgan har qanday shaxslar yoki sanktsiyalangan shaxslarga foydasiga qo'llanadigan bitimlar tuzida qatnashmagan va qatnashmaydi.
(c) mijoz sanktsiyadagi shaxslar bilan yoki ularning manfaati uchun to'lovlarni amalga oshirmaydi va hech qanday kelishuv, bitim, shartnoma bo'yicha to'lovlarni amalga oshirmaydi.
(g) Agar mijozning qandaydir kafolati yolg'on, ishonchsiz va (yoki) noaniq yoki ushbu shartnomaning
11.2-bandda ko'rsatilganlardan biri mijoz tomonidan ta'minlanmasa, mijozning to'lov topshiriqnomalarini amalga oshirishda pul mablag'larini qaytarish, blokirovka qilish, muzlatish, yoqotish uchun moddiy javobgarlikdan ozod qilinadi. Bunday holda, mijoz bankka ushbu shartnomaning 11.2-bandda nazarda tutilgan majburiyatni mijoz tomonidan buzganligi sababli yoki mijozning bunday kafolatining ishonchsizligi yoki noto'g'riligi natijasida yoki shu bilan bog'liq holda yuzaga kelgan, boshqa tomonning so'rovi olingan kundan boshlab 10 (o'n) ish kunidan kechiktirmay etkazilgan to'g'ridan-to'g'ri va (yoki) bilvosita zararni qoplashi shart. Shu bilan birga, bank shartnomani bir tomonlama rad etish kutilayotgan sanadan 3 kalendar kun oldin mijozga xabarnoma yuborish orqali shartnomani qisman yoki to'lik bajarishni bir tomonlama rad etishga xaqli.
D) mijoz mijozning hisobvaraqi orqali Markaziy bankning normativ xujjatlari, O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi va sanktsiyalar ro'yxati bilan taqiqlangan soxalarda faoliyat yurituvchi xorijiy davlatlardan kelgan shaxslar foydasiga to'lovlarni amalga oshirmaslik majburiyatini oladi.
11.3. Mijoz tasdiqlaydi va biladiki, mijoz tomonidan santsiyalar talablarini bajarilmagan taqdirda, bankni mulkiy/ nomulkiy javobgarlikdan ozod qilish majburiyatini oladi.
- bank vakolatli organlar va vakillik banklari (AKSH, Evropa Ittifoki, Buyuk Britaniya va x.k.) tomonidan salbiy chora-tadbirlar (mablag'larni blokirovka qilish) ko'llanilishi uchun javobgar emas; to'lovni rad etish va x.k.) va mijozga har qanday sanktsiyalarning (shu jumladan, tegishli ro'yxatlar, OFAC, EU Sanctions Map i OFSI, SDN i CAPTA ro'yxatlari) amal qilishi, sanktsiyalar natijasida bank tomonidan shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini lozim darajada bajarishiga qaramay, shartnoma bo'yicha bankning majburiyatlari bajarilmay yoki lozim darajada bajarilmay qolish bilan bog'liq etkazilgan zararni qoplash majburiyatini olmaydi.
- bank boshqa mamlakatlar qonunchiligi bilan operasiyalari cheklangan yoki taqiqlangan banklar va/yoki kontragentlar foydasiga bankda ochilgan hisobvaraq orqali mijoz va/yoki uning mijozlari mablag'larini transchegaraviy o'tkazmalarni amalga oshirmaslik xuquqiga ega (lekin bular bilan

cheklanmagan holda, tegishli ro'yxatlar, shu jumladan OFAC, EU Sanctions Map i OFSI, SDN i CAPTA ro'yxatlari). Bunda bank tomonidan mijozning topshiriqlari /ko'rsatmalarini bajarmaganligi uchun mijozning o'zi xamkorlari oldida yakka tartibda javobgar bo'ladi.
- Mijozning hisobvarag'iga har qanday sanktsiya ro'yxatidagi shaxslardan mablag'lar kelib tushgan taqdirda yoki xo'jalik yurituvchi subektlar tomonidan shartnoma va tashqi savdo operasiyalari bo'yicha yagona axborot tizimiga (va boshqa davlat tizimlariga) kiritilgan ma'lumotlar o'rtasida tafovutlar aniqlanganda, shuningdek, mijoz tomonidan O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq talablar bajarilmaganligining boshqa holatlari mavjud bo'lganda, bank kelib tushgan pul mablag'larini holatlar aniqlanguniga qadar mijozning tranzit xisobvarag'iga o'tkazishga va olingan mablag'larni uni yuborgan shaxsga qaytariga xaqli.
Bank mijozning transchegaraviy o'tkazmalarini amalga oshirganda, bank komplaens nazoratini amalga oshirish uchun zarur bo'lgan xujjatlarni talab qilishga haqli.
Mijozning topshiriqlari bank tomonidan quyidagi hollarda bajarilmaydi:
- agar topshiriqda qalbakilashtirish, tuzatishlar, qo'shimchalar va dog'lar belgilari mavjud bo'lsa, shu jumladan ko'rsatma ruxsatsiz to'lovlardan himoya qilish tartibini buzgan holda topshirilgan bo'lsa;
- pul o'tkazish yo'riqnomasini tuzish va taqdim etish tartibiga ko'yiladigan talablarga va (yoki) O'zbekiston Respublikasi qonun xujjatlarida va (yoki) shartnoma shartlarida belgilangan boshqa talablarga, shu jumladan rekvizitlarni to'liq ko'rsatmaslik; pul oluvchining ma'lumotlarini noto'g'oi ko'rsatish;
- so'ralgan xujjatlar, shu jumladan valyuta nazorati va moliyaviy monitoring sub'ekti sifatida bank tomonidan talab qilinadigan xujjatlar bank tomonidan belgilangan muddatda taqdim etilmaganligi;
- amaliyotning O'zbekiston Respublikasining amaldagi konunchiligiga va/yoki ushbu shartnomaga zidligi;
- vakolatli organlarning chiqim operasiyalarini to'xtatib turish to'g'risidagi farmoyishi, ta'qiq mavjudligi;
- ruxsat etilmagan to'lovni aniqlash, shuningdek benefisiar foydasiga o'tkazilgan pul mablag'larini olishning noqonuniyligi to'g'risidagi asosli faktlar aniqlangan va tasdiqlangan hollarda;
- tijorat banklarida jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga va ommaviy qirg'in qurollarini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurashish bo'yicha ichki nazorat qoidalarida nazarda tutilgan hollarda;
- agar mijoz halqaro sanktsiyalar talablarini buzsa va/yoki bank mijozning halqaro sanktsiyalar talablarini buzish niyatidan xabardor bo'lsa;
- agar bankda hisobraqamdan halqaro sanktsiyalar talablarini buzgan holda foydalanilmoqda deb hisoblash uchun asoslar mavjud bo'lsa;
- mijozga va (yoki) uning filiallariga qarshi har qanday mamlakat (masalan, OFAS) yoki halqaro tashkilot (shu jumladan, FATF va BMT) yurisdiktsiyasiga muvofiq kiritilgan sanksiyalar mavjudligi;
- bank mijozning ushbu shartlarda ko'rsatilgan majburiyatlarga zid bo'lgan operasiyalari aniqlangan taqdirda, bunday mablag'larni o'tkazish bo'yicha majburiyatlarni bajarmaslikka haqli.
Mijozning pul mablag'larini o'tkazish to'g'risidagi topshirig'ini bajarish munosabati bilan bankka jarimalar (boshqa mulkiy/nomulkiy sanktsiyalar) qo'yilgan taqdirda, mijoz bankka qo'llanilgan sanktsiyalar tufayli bankka etkazilgan har qanday zararni to'lash, shuningdek, bunday jarimalarni qoplash majburiyatini oladi.

## 12. BOSHQA SHARTLAR.

12.1. Shartlar va ularning bajarilishi yuzasidan kelishmovchiliklar kelib chiqqan taqdirda, nizo tomonlar o'rtasida o'zaro muzokaralar yo'li bilan hal qilinadi.
Muzokaralar natijasida tomonlar o'zaro kelishuvga erisha olmagan taqdirda nizolar qonunchilikka muvofiq sud tartibida ko'rib chiqiladi.
12.2. Mijozning uchinchi shaxslar bilan hisob-kitoblari bo'yicha o'zaro nizolari bankning ishtirokisiz ko'rib chiqiladi.
12.3. Mijoz o'zining bank hisobvaraqlarida mavjud pul mablag'larini mustaqil tasarruf etadi. Bank mijozning pul mablag'laridan qay tarzda foydalanishni belgilashga va nazorat qilishga hamda

mijoz o'zining pul mablag'larini o'z xohishiga ko'ra tasarruf etish huquqlariga qonunda va mazkur shartlarda nazarda tutilmagan boshqa cheklashlarni o'rnatishga haqli emas.

12.4. Mazkur shartlarda ko'zda tutilmagan bank va mijoz o'rtasidagi munosabatlar O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq tartibga solinadi.

12.5. Mijozning hisobvaraqlari bo'yicha amaliyotlarni amalga oshirish tartibi kelishuvchi tomonlar uchun majburiy bo'lgan Markaziy bankning me'yoriy-huquqiy hujjatlari bilan belgilanadi.

12.6. Ushbu shartlarning 7.1.4., 7.1.5., 7.1.6., 7.1.8 bandlarida belgilangan bankka nisbatan .jarima jazo choralarini qo'llash sud qaroriga asosan amalga oshiriladi.

Yuridik shaxslar va yakka tartibdagi tadbirkorlarning
hisob raqamlariga xizmat koʻrsatishning umumiy shartlariga
**1-ILOVA**

**ЗАЯВЛЕНИЕ** **ARIZA**

Наименование Клиента/ Mijoz nomi: ___________________________________________

ИНН/ПИНФЛ / STIR/JSHSHIR: _________________________

Прошу <u>открыть счёт:</u> <u>Hisob raqam ochishingizni</u> so'rayman:

___________________________________________________________________________

*(депозит до востребования, срочный и др./talab qilib olinguncha, muddatli deposit va h.k.)*

в валюте/ valyutada: ____________________________

*(наименование валюты/valyuta nomi)*

Я ознакомлен и согласен с Общими условиями обслуживания счетов юридических лиц и индивидуальных предпринимателей, Договором публичной оферты и всеми приложениями к нему, а также Тарифами Банка, действующих в Банке на момент заполнения данной заявки.

Достоверность содержащихся в настоящем Заявлении сведений подтверждаю.

Yuridik shaxslar va yakka tartibdagi tadbirkorlarning hisobvaraqlariga xizmat koʻrsatishning umumiy shartlari, Ommaviy oferta shartnomasi va uning barcha ilovalari, shuningdek, ushbu arizani toʻldirish vaqtida Bankda amalda boʻlgan Bank tariflari bilan tanishdim va ularga roziligimni bildiraman.

Men ushbu ilovadagi ma'lumotlarning toʻgʻriligini tasdiqlayman.

Руководитель/ Rahbar ________________________________/______________________/

*(Ф.И.О./F.I.SH)* *(подпись/imzo)*

Главный бухгалтер/Bosh buxgalter __________________________/__________________/

*(Ф.И.О./F.I.SH)* *(подпись/imzo)*

*М.П. (при наличии печати) /*
*M.O'. (muhr mavjud bo'lsa)* «____» _____________20___г.

---

**ОТМЕТКА БАНКА / BANK TOMONIDAN:**

С КАРТОЧКОЙ ОБРАЗЦОВ ПОДПИСЕЙ И ОТТИСКА ПЕЧАТИ СВЕРЕНО

IMZOLAR NAMUNALARI QOʻYILGAN VARAQCHASI BILAN TEKSHIRILDI

Принял Заявление/ Arizani qabul qildi:

____________________________________________________ /____________________ /

*(Ф.И.О./F.I.SH)* *(подпись/imzo)*

____/____/20__ __г.

Номер счёта / Hisob raqami _________________________________________

Прочие отметки/ Boshqa belgilar _______________________________________________

___________________________________________________________________________

___________________________________________________________________________

**ЗАЯВЛЕНИЕ** **ARIZA**

Наименование Клиента/ Mijoz nomi: ____________________________________________

ИНН/ПИНФЛ / STIR/JSHSHIR: ___________________________

Прошу закрыть счёт: Hisob raqam yopishingizni sorayman:

____________________________________________________________________________

*(депозит до востребования, срочный и др./talab qilib olinguncha, muddatli deposit va h.k.)*

Номер счёта / Hisob raqami ____________________________________________

По причине / Sababi ____________________________________________________________

____________________________________________________________________________

____________________________________________________________________________

Я ознакомлен и согласен с Общими условиями обслуживания счетов юридических лиц и индивидуальных предпринимателей, Договором публичной оферты и всеми приложениями к нему, а также Тарифами Банка, действующих в Банке на момент заполнения данной заявки.

Достоверность содержащихся в настоящем Заявлении сведений подтверждаю.

Yuridik shaxslar va yakka tartibdagi tadbirkorlarning hisobvaraqlariga xizmat ko‘rsatishning umumiy shartlari, Ommaviy oferta shartnomasi va uning barcha ilovalari, shuningdek, ushbu arizani to‘ldirish vaqtida Bankda amalda bo‘lgan Bank tariflari bilan tanishdim va ularga roziligimni bildiraman.

Men ushbu ilovadagi ma’lumotlarning to‘g‘riligini tasdiqlayman.

Руководитель/ Rahbar __________________________________/_______________________/
*(Ф.И.О./F.I.SH)* *(подпись/imzo)*

Главный бухгалтер/Bosh buxgalter _____________________________/____________________/
*(Ф.И.О./F.I.SH)* *(подпись/imzo)*

*М.П. (при наличии печати) /*
*М.О’. (muhr mavjud bo'lsa)* «____» ______________20___г.

## ОТМЕТКА БАНКА / BANK TOMONIDAN:

С КАРТОЧКОЙ ОБРАЗЦОВ ПОДПИСЕЙ И ОТТИСКА ПЕЧАТИ СВЕРЕНО

IMZOLAR NAMUNALARI QO‘YILGAN VARAQCHASI BILAN TEKSHIRILDI

Принял Заявление/ Arizani qabul qildi:

_________________________________________________________ /______________________ /

*(Ф.И.О./F.I.SH)* *(подпись/imzo)*

____/____/20____г.

Yuridik shaxslar va yakka tartibdagi tadbirkorlarning
hisob raqamlariga xizmat koʻrsatishning umumiy shartlariga
**3-ILOVA**

**ЗАЯВЛЕНИЕ** **ARIZA**

Наименование Клиента/ Mijoz nomi: ______________________________________

ИНН/ПИНФЛ / STIR/JSHSHIR: ______________________

в лице/ tomonidan: ______________________________________________________
*(Ф.И.О. и занимаемая должность/F.I.SH. va lavozimi)*

Прошу предоставить информационную услугу SMS информирования по счёту:

Hisob haqida ma'lumot beruvchi SMS ma'lumot xizmatini taqdim etishingizni so'rayman:

_________________________________________________________________
*(Номер счета клиента / Hisob raqami)*

На номер / Raqamga:

| | | | | | | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| 9 | 9 | 8 | | | | | | | | | |

Я ознакомлен и согласен с Общими условиями обслуживания счетов юридических лиц и индивидуальных предпринимателей, Договором публичной оферты и всеми приложениями к нему, а также Тарифами Банка, действующих в Банке на момент заполнения данной заявки.

Достоверность содержащихся в настоящем Заявлении сведений подтверждаю.

Yuridik shaxslar va yakka tartibdagi tadbirkorlarning hisobvaraqlariga xizmat koʻrsatishning umumiy shartlari, Ommaviy oferta shartnomasi va uning barcha ilovalari, shuningdek, ushbu arizani toʻldirish vaqtida Bankda amalda boʻlgan Bank tariflari bilan tanishdim va ularga roziman.

Men ushbu ilovadagi ma’lumotlarning toʻgʻriligini tasdiqlayman.

**Подпись/Imzo: ____________________** **М.П./M.O’.**

**Дата/Sana: «___»___________** 20__ год

**ОТМЕТКА БАНКА / BANK TOMONIDAN:**

С КАРТОЧКОЙ ОБРАЗЦОВ ПОДПИСЕЙ И ОТТИСКА ПЕЧАТИ СВЕРЕНО

IMZOLAR NAMUNALARI QOʻYILGAN VARAQCHASI BILAN TEKSHIRILDI

Принял Заявление/ Arizani qabul qildi:

____________________________________________ / ____________________ /

*(Ф.И.О./F.I.SH)* *(подпись/imzo)*

____/____/20____г.

**“O’zmilliybank” AJ da hisobvaraq ochish uchun talab etiladigan**
**HUJJATLAR RO'YXATI**

- Tadbirkorlik faoliyati subyektlari bo‘lgan rezident yuridik shaxslar, yakka tartibdagi tadbirkorlar hamda dehqon xo‘jaliklari tomonidan milliy va chet el valyutasida talab qilib olinguncha depozit hisobvaraqlari ochish uchun bankka quyidagi hujjatlar taqdim qilinadi:
  - bank hisobvarag‘i ochish to‘g‘risida ariza;
  - imzolar namunalari qo‘yilgan ikki dona varaqcha;
  - mijoz nomidan to‘lov hujjatlarini imzolash vakolatiga ega shaxsning shaxsini tasdiqlovchi hujjati (biometrik pasport yoki identifikatsiya ID-kartasi yoxud yangi namunadagi haydovchilik guvohnomasi).

- Tadbirkorlik faoliyati subyekti bo‘lmagan rezident yuridik shaxslar tomonidan milliy va chet el valyutasida talab qilib olinguncha depozit hisobvaraqlari ochish uchun bankka quyidagi hujjatlar taqdim qilinadi:
  - bank hisobvarag‘i ochish to‘g‘risida ariza;
  - imzolar namunalari qo‘yilgan varaqcha;
  - tadbirkorlik faoliyati subyekti bo‘lmagan rezident yuridik shaxslar tomonidan ta’sis hujjatlari (ta’sis shartnomasi, ustav) hamda ularga kiritilgan o‘zgartirish va qo‘shimchalar, shuningdek yuridik shaxs nomidan to‘lov hujjatlarini imzolash vakolatiga ega shaxsning shaxsini tasdiqlovchi hujjati (biometrik pasport yoki identifikatsiya ID-kartasi yoxud yangi namunadagi haydovchilik guvohnomasi);
  - soliq organlarida hisobga qo‘yilganligini tasdiqlovchi hujjat (guvohnoma).

- Rezident yuridik shaxslarning vakolatxonalari va (yoki) filiallariga talab qilib olinguncha depozit hisobvaraqlari ochish uchun vakolatxona va filiallar tomonidan bankka quyidagi hujjatlar taqdim qilinadi:
  - bank hisobvarag‘i ochish to‘g‘risida ariza;
  - rezident yuridik shaxslarning vakolatxonalari va (yoki) filiallarining iltimosnomasi (iltimosnomada “Soliq to‘lovchining identifikatsiya raqami” va “Xos raqami” (mijoz kodi) ko‘rsatilgan bo‘lishi shart);
  - rezident yuridik shaxslar, ularning vakolatxonalari va (yoki) filiallari tomonidan imzolar namunalari qo‘yilgan varaqcha;
  - vakolatxona yoki filialga berilgan vakolatlarni belgilovchi hujjat hamda vakolatxona yoki filial nomidan to‘lov hujjatlarini imzolash vakolatiga ega shaxsning shaxsini tasdiqlovchi hujjati (biometrik pasport yoki identifikatsiya ID-kartasi yoxud yangi namunadagi haydovchilik guvohnomasi).

- Faoliyatini O‘zbekiston Respublikasida amalga oshiruvchi norezident yuridik shaxslar (diplomatik vakolatxonalar, xalqaro tashkilotlar va ularning filiallari, tijorat faoliyatini amalga oshirmaydigan boshqa xorijiy tashkilotlar vakolatxonalari hamda doimiy muassasalar), tovar-xomashyo birjasining ochiq elektron savdolarida qatnashuvchilar, tashkiliy savdolarda aksiyalarni sotuvchi (sotib oluvchi) chet ellik investorlar, shuningdek kripto-birjada kripto-aktivlar savdolari ishtirokchilari bo‘lgan norezident yuridik shaxslar (bundan buyon matnda norezident yuridik shaxs deb yuritiladi) talab qilib olinguncha depozit hisobvaraqlari ochish uchun bankka quyidagi hujjatlarni taqdim qiladilar:
  - bank hisobvarag‘i ochish to‘g‘risida ariza;
  - agar qonunchilik hujjatlarida boshqacha tartib nazarda tutilgan bo‘lmasa, soliq organlari tomonidan soliq to‘lovchining identifikatsiya raqami berilganligi to‘g‘risidagi guvohnomaning nusxasi;
  - imzolar namunalari qo‘yilgan varaqcha;

- norezident yuridik shaxs nomidan to‘lov hujjatlarini imzolash vakolatiga ega shaxsning shaxsini tasdiqlovchi hujjat (biometrik pasport yoki identifikatsiya ID-kartasi yoxud yangi namunadagi haydovchilik guvohnomasi);
- norezident yuridik shaxsning ta’sis hujjatlari (ta’sis shartnomasi, ustav) hamda ularga kiritilgan o‘zgartirish va qo‘shimchalarning konsullik yoki notarius tomonidan tasdiqlangan nusxasi;
- tovar-xomashyo birjasining ochiq elektron savdolarida qatnashuvchi norezident yuridik shaxs va birja brokeri o‘rtasida brokerlik xizmatlarini ko‘rsatish to‘g‘risidagi shartnoma nusxasi; tashkiliy savdolarda aksiyalarni sotuvchi (sotib oluvchi) chet ellik investorlar — norezident yuridik shaxslar va investitsiya vositachisi o‘rtasida brokerlik xizmatlarini ko‘rsatish to‘g‘risidagi shartnoma nusxasi;
- kripto-birjada kripto-aktivlar savdolari ishtirokchilari bo‘lgan norezident yuridik shaxs va kripto-birja o‘rtasida munosabatlarni o‘rnatish to‘g‘risidagi shartnoma nusxasi.
- Kripto-birjada kripto-aktivlar savdolari ishtirokchilari bo‘lgan norezident yuridik shaxslarga O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan so‘mga nisbatan rasmiy kurslari belgilanadigan chet el valyutalarida bank hisobvaraqlari ochilishi mumkin.

- Yuridik shaxslar ustav kapitalini shakllantirish uchun davlat ro‘yxatidan o‘tgunlariga qadar ta’sischilarning (ishtirokchilarning) dastlabki badallarini kiritish uchun milliy va/yoki chet el valyutasida 29801 — “Mijozlar bilan hisob-kitoblar” hisobvarag‘i ta’sischilar (ishtirokchilar) murojaati asosida ochilishi mumkin. Bunda, ta’sischilar (ishtirokchilar) nomidan vakil qilingan shaxs tomonidan bankka quyidagi hujjatlar taqdim etiladi:
  - bank hisobvarag‘i ochish to‘g‘risida ariza;
  - imzolar namunalari qo‘yilgan varaqcha;
  - ta’sischilar nomidan to‘lov hujjatlarini imzolash vakolatiga ega shaxsning shaxsini tasdiqlovchi hujjati (biometrik pasport yoki identifikatsiya ID-kartasi yoxud yangi namunadagi haydovchilik guvohnomasi).

- Davlat ro‘yxatidan o‘tgandan keyin yuridik shaxslarga mazkur Yo‘riqnomada belgilangan tartibda asosiy hisobvaraq ochilib, 29801 — “Mijozlar bilan hisob-kitoblar” hisobvarag‘idagi mablag‘lar ularning topshiriqlari asosida asosiy hisobvaraqqa o‘tkaziladi va 29801 — “Mijozlar bilan hisob-kitoblar” hisobvarag‘i yopiladi.

***Eslatma:*** Yuridik shaxslarga nisbatan mijozlarni lozim darajada tekshirish choralarini ko'rishda davlat ro' yxatidan o 'tkazish to'g'risidagi tegishli hujjatlarni, rahbarlar to'g'risidagi ma'lumotlarni, ta'sis hujjatlarida ko'rsatilgan shaxslar to'g'risidagi ma'lumotlarni, shuningdek muassislar to'g'risidagi ma'lumotlarni (benefitsiar mulkdorgacha) olish majburiydir.

Yuridik shaxslar va yakka tartibdagi tadbirkorlarning
hisob raqamlariga xizmat koʻrsatishning umumiy shartlariga
**5-ILOVA**

**ЗАЯВЛЕНИЕ** **ARIZA**

Наименование Клиента/ Mijoz nomi: ________________________________________

ИНН/ПИНФЛ / STIR/JSHSHIR: _______________________

Прошу Вас/Sizdan: ☐ **Подключить/Ulash** ☐ **Отключить/O'chirish**

_______________________________

*(название тарифа/tarif nomi)*

к счёта / hisob raqamga: _____________________________________

Я ознакомлен и согласен с Общими условиями обслуживания счетов юридических лиц и индивидуальных предпринимателей, Договором публичной оферты и всеми приложениями к нему.

Настоящим подтверждаю, что ознакомлен с условиями Тарифов Банка, включая условия автоматического продления сроков тарифных планов/пакетов, условия списания комиссий, а также условия отключения тарифных планов/пакетов со своего счета/-ов.

Достоверность содержащихся в настоящем Заявлении сведений подтверждаю.

Men yuridik shaxslar va yakka tartibdagi tadbirkorlarning hisobvaraqlariga xizmat koʻrsatishning umumiy shartlari, Ommaviy oferta shartnomasi va uning barcha ilovalar bilan tanishdim va ularga rozilik bildiraman.

Shuningdek men Bank Tariflari shartlari, shu jumladan, tarif rejalarini/paketlarini avtomatik ravishda yangilash shartlari, komissiyalarni yechib olish shartlari, hamda, oʻz hisob raqamimdan tarif rejalari/paketlarini oʻchirish shartlari bilan tanish ekanligimni tasdiqlayman.

Men ushbu ilovadagi ma'lumotlarning toʻgʻriligini tasdiqlayman.

**Подпись/Imzo: ___________________** **М.П./M.O'.**

**Дата/Sana: «___»___________** 20___

**ОТМЕТКА БАНКА / BANK TOMONIDAN:**

С КАРТОЧКОЙ ОБРАЗЦОВ ПОДПИСЕЙ И ОТТИСКА ПЕЧАТИ СВЕРЕНО

IMZOLAR NAMUNALARI QOʻYILGAN VARAQCHASI BILAN TEKSHIRILDI

Принял Заявление/ Arizani qabul qildi:

_____________________________________________ / ___________________ /

*(Ф.И.О./F.I.SH)* *(подпись/imzo)*

____/____/20____

"O‘zbekiston Respublikasi Tashqi iqtisodiy faoliyat milliy banki" AJ da yuridik shaxslar va yakka tartibdagi tadbirkorlarga kompleks bank xizmatlarini ko‘rsatish Shartnomasiga
**3-ILOVA**

## Ibank dasturiy kompleksi orqali Mijozlarga xizmat ko‘rsatishning UMUMIY SHARTLARI

### TERMIN VA ATAMALAR

**Ibank tizimi yoki Tizim** - Mijozga mazkur Shartlar bo'yicha xizmatlar taqdim etish maqsadida Mijoz va Bank hududida o'rnatiladigan va Mijoz va Bank tomonidan mos keluvchi qismlarda, shuningdek Mijoz va Bank tomonidan o'tkaziladigan tashkiliy choralarda kelishuv asosida qo'llanadigan dasturiy-apparat vositalari uyg'unligi. Me'yoriy-qonunchilik bazasida o'zgarishlar tufayli, shuningdek Mijoz ehtiyojlari to'liq qondirilishini ta'minlahs uchun Tizim Bank tomonidan yangilanishi va o'zgartirilishi mumkin. Tizimning yangilanishi Mijoz ishtirokisiz, lekin u xabardor qilingan holda avtomat tarzda sodir bo'ladi. Istalgan vaqtda Mijoz Tizimning so'ngi versiyasi bilan ishlaydi.

**Elektron hujjat** - elektron shaklda tuzilgan, elektron raqamli imzo bilan tasdiqlangan va uni identifikatsiyalash imkonini beruvchi boshqa elektron hujjat rekvizitlariga ega ma'lumot.

**ETH** - elektron to'lov hujjati.

**Multimijoz** - bu Bank-Mijoz Tizimida o'ziga xos tarzda ro'yxatdan o'tkaziladigan va o'zi uchun maxsus aniqlangan ro'yxatdan u bilan bog'liq mijozning (ikkilamchi mijoz) ma'lumotlaridan foydalanish huquqiga ega (alogida ruxsatnomalar asosida) yuridik shaxs. Bankda Multimijozni rasmiylashtirish jarayoni undan potensial Multimijoz mijozning ma'lumotlaridan u yoki boshqa usulda foydalanishni, shuningdek ruxsatini olishni istaydigan ikkilamchi mijozlar ro'yxati bilan Bank-Mijoz tizimida xizmat olish istagi ko'rsatilgan, oldindan tuzilgan Arizani (individual qo'shimcha kelishuv) olishdan boshlanadi.

**ETH holati** - hozirgi ongda ETH ni qayta ishlash bosqichining belgisi ("Yangi", "Imzolangan", "Rad etilgan", "Qabul qilingan", "O'tkazilgan" va h.k.).

**Mijoz foydalanuvchisi** - Mijoz nomidan Ibank Tizimi doirasida ish yuritish huquqiga ega bo'lgan, Tizimda ro'yxatdan o'tgan Mijoz xodimi. Mijoz foydalanuvchisi Bankka yo'naltiriladigan so'rovlar, to'lov hujjatlari va xatlarni shakllantiradi, Bankdan ma'lumotlarni qabul qiladi va qayta ishlaydi, Mijoz nomidan ETH ni elektron usulda imzolaydi.

**Elektron raqamli imzo (keyingi o'rinlarda - ERI)** - elektron hujjatdagi mazkur elektron hujjat axborotini ERI yopiq kalitidan foydalangan holda maxsus o‘zgarishlar natijasida hosil qilingan hamda ERI ning ochiq kaliti yordamida elektron hujjatdagi axborotda xatolik mavjud emasligini aniqlash va ERI kalitining egasini identifikatsiya qilish imkonini beradigan imzo

**ERI kalitining egasi** - o‘ziga elektron raqamli imzo kalitining sertifikati berilgan jismoniy yoki yuridik shaxs;

**ERI ning yopiq kaliti** - elektron raqamli imzo vositalaridan foydalangan holda hosil qilingan, faqat imzo qo‘yuvchi shaxsning o‘ziga ma’lum bo‘lgan va elektron hujjatda elektron raqamli imzoni yaratish uchun mo‘ljallangan belgilar ketma-ketligi;

**ERI ning ochiq kaliti** - elektron raqamli imzo vositalaridan foydalangan holda hosil qilingan, elektron raqamli imzoning yopiq kalitiga muvofiq bo‘lgan, axborot tizimining har qanday foydalanuvchisi uchun ochiq bo‘lgan va elektron hujjatdagi elektron raqamli imzoning haqiqiyligini tasdiqlash uchun mo‘ljallangan belgilar ketma-ketligi;

**Mijoz ERI faol ochiq kaliti** - Mijoz foydalanuvchisining Bank tomonidan Tizimda ro'yxatga olingan hamda ushbu foydalanuvchi Tizimda ishlash uchun joriy vaqtda foydalanadigan ERI ochiq kaliti. Istalgan vaqtda Tizimda ushbu Mijoz foydalanuvchisining bittadan ko'p bo'lmagan ERI faol ochiq kaliti bo'lishi mumkin.

**ERI tekshirish kaliti sertifikati** - ochiq kalit hamda kalit egasini identifikatsiyalovchi ma'lumot o'rtasida muvofiqlikni tasdiqlovchi raqamli yoki qog'oz hujjat. Kalit egasi haqida ma'lumot, ochiq kalit, uning vazifasi va qo'llanish sohasi, ro'yxatga olgan markaz nomi va h.k. to'g'risida ma'lumotlarga ega.

**Foydalanuvchining tizimda nomi (login)** - muayyan Mijozning nomini o'zida namoyon qiluvchi, Tizimda mazkur foydalanuvchi hamda uning Tizimdagi huquqlari o'rtasida muvofiqlikni o'rnatish imkonini beruvchi belgilarning ochiq kemta-ketligi.

**Foydalanuvchining paroli** - Mijoz foydalanuvchisi bilan bog'liq va faqat unga ma'lum, foydalanuvchining jismoniy shaxsi bilan Tizimga kirishda foydalanuvchining huquqlariga mos ravishda Mijozning resurdan foydalanishi uchun taqdim etadigan tizim nomi va PIN bilan elektron identifikatorga muvofiqligini tasdiqlash imkonini beruvchi belgilarning sirli ketma-ketligi.

**Elektron identifikator** - Tizimda Mijoz va Bank o'rtasida elektron hujjatlar almashinuvini amalga oshirishda generatsiyalangan ERI Kalitlarini saqlash va hujjatlar ostida ERI shakllantirish uchun mo'ljallangan, interfeyyli ixtisoslashtirilgan apparat qurilmasi, ("ePass" himoyalangan USB-token),

**Shifrlash** - ma'lumotlarni (elektron hujjatlar) Mijoz va Bank o'rtasida kommunikatsiya aloqa liniyalari bo'yicha yuborishda ularning noqonuniy o'qishdan himoyalanishini ta'minlash.

**Tizim bilan ishlash qoidalari** - Tizimning joriy versiyasi bilan to'g'ri ishlash usullarini ta'riflovchi, qog'oz yoki elektron ko'rinishdagi, jarayonlar, Tizim foydalanuvchining funksional majburiyatlari ta'riflangan yo'riqnomalar to'plami. Shartlarlar Tizim versiyasida o'zgarishlar bilan bog'liq ravishda o'zgarishi mumkin.

**Mijoz resursi** - Bankda saqlanadigan Mijoz, uning hisobvaraqlari, qoldiqlari, aylanmalari, to'lov hujjatlari, xatlari, foydalanuvchilar, sozlamalar, huquqlar va Mijozning profili to'g'risidagi ma'lumotlar.

## 1. SHARTLAR PREDMETI

1.1. Ushbu Ibank dasturiy kompleksi orqali Mijozlarga xizmat ko‘rsatishning Umumiy shartlarning (keyingi o'rinlarda - Shartlar) maqsadi Bank tomonidan ommaviy oferta Shartnomasiga muvofiq amalga oshiriladigan Mijozga xizmat ko'rsatish tezkorligini oshirish hisoblanadi.

1.2. Bank Mijozga quyidagi xizmatlarni amalga oshirish huquqini taqdim qiladi:

a. Axborot xizmatlari:
- o'z hisobvaraqlarida joriy qoldiqlar to'g'risida ma'lumot olish
- o'z hisobvaraqlari bo'yicha ko'chirma va boshqa hisobotlarni olish, shu jumladan ma'lumotlarni turli formatlarda eksport qilish

a. O'zbekiston Respublikasi banklari hamda valyuta kurslari to'g'risida ma'lumot olish
b. Bank bilan ish yozishmalari.
c. Milliy valyutada to'lov topshiriqlarini bajarish.
d. Xorijiy valyutada to'lov topshiriqlarini bajarish.
e. Mijozning Bankda ochilgan hisobvaraqlari bo'yicha Ibank Tizimi masofaviy elektron himoyalangan tarzda ta'minlaydigan, axborot texnologiyalari, kompyuter texnikasi va Internetdan foydalanib ma'lumotlarni qayta ishlash, saqlash, himoyalash va yuborish quyi tizimlaridan tashkil topgan Multimijoz xizmati.

1.3. Mijoz tizimda quyidagi elektron to'lov hujjatlarini amalga oshiradi:
- Milliy valyutada elektron to'lov topshirig'i.
- Xorijiy valyutada elektron to'lov topshirig'i.

1.4. Xizmat ko'rsatish O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi talablariga muvofiq, Mijoz topshiriqlari bo'yicha elektron hujjatlarni qayta ishlash hamda Mijoz hisobvaraqlari bo'yicha hisobotlarni elektron shaklda taqdim etish yo'li bilan amalga oshiriladi.

## 2. UMUMIY QOIDALAR.

2.1. Tizimning Mijoz qismi faqat standart dasturiy ta'minotdan tashkil topgan (operatsion tizim - Microsoft Windows va Internet-brauzer Google Chrome) Tizim bo'yicha barcha hisob operatsiyalarini amalga oshirish va barcha ma'lumotlarni olish Mijoz tomonidan Internet orqali Bank bilan aloqa seanslari vaqtida On-Line rejimda amalga oshiriladi.

2.2. Mijoz va Bank Microsoft Windows va Microsoft Crypto API resurslari taqdim etuvchi identifikatsiya, autentifikatsiya, foydalanishni taqsimlash, ERI va shiflrash algoritmlarini hamda Tizim ishlayotganida ulardan foydalanish usullari quyidagilar uchun yetarlicha ishonchli ekanligini tan oladi:

- Mijoz resurslaridan faqat Tizim foydalanuvchisi: login, parol va PIN bilan elektron

identifikator taqdim qilganida va faqat shu foydalanuvchi uchun belgilangan huquqlar doirasida foydalanishi mumkin. Login, parol va PIN Mijozning Tizimda mos keluvchi ishlarni amalga oshirishga mas'ul qonuniy vakili sifatida aniqlaydi;

- ma'lumot Mijozdan Bankka va teskarisi aloqa liniyalari bo'yicha yo'naltirilganida uchinchi shaxslar tomonidan o'qilishi yoki o'zgartirilishi mumkin emas;

- Mijozning ETH da to'g'ri ERI ni faqat Mijozning yopiq kalitiga ega bo'lganda yaratish mumkin. Mijozning yopiq kalitiga ega bo'lgan foydalanuvchi Mijoz nomidan ETH tasdiqlashga vakolati bo'lgan Mijoz vakili sifatida aniqlanadi.

2.3. Tomonlar quyidagilarni tan oladi:

ETH, Mijozning tasdiqlangan ERI si asl to'lov hujjatlari bilan yuridik ahamiyatli, yuridik kuchga ega va Tomonlar o'rtasida huquqiy munosabatlar mavjudligini tasdiqlaydi hamda mazkur Shartlarning 1-Ilovasiga ("Nizoli holatlar yuzaga kelganida texnik ekspertiza o'tkazish tartibi") muvofiq nizolarni hal qilish uchun daliliy material hisoblanadi.

Mijoz ERI siz ETH yuridik kuchga ega emas va Bank tomonidan ko'rib chiqilmaydi.

2.4. Tomonlar, 2-Ilovaga muvofiq rasmiylashtirilgan, Mijoz ERI yopiq kalitining amaldagi Sertifikati Tizimda Mijozning joriy yopiq kalitini aniqlashini tan olishadi.

2.5. Tomonlar Tizim bilan ishlashda yagona vaqt o'lchovi sifatida Toshkent vaqtini tan olishadi. Bank apparat vositalarining tizimli soatlari vaqti nazorat hisoblanadi.

2.6. Tomonlar Tizim funksiyalari va ishlash qoidalariga o'zgartirishlar kiritish yoki yangilash bo'yicha barcha ma'lumotlar ular Tizimning bank serverida joylashtirilgan sanadan 3 (uch) bank kunida (shu jumladan joylangan kun) Mijozga xabar qilingan deb hisoblanadi.

2.7. ERI kaliti sertifikatining amal qilish muddati mijoz ariza topshirgan paytdan boshlab 24 oyni tashkil qiladi.

2.8. ERI shakllantirishda ishtirok etuvchi elektron to'lov hujjatlarining rekvizitlari ro'yxati:

1) To'lov hujjatining turi: *Milliy valyutada to'lov topshirig'i* ERI ni shakllantirishda ishtirok etuvchi rekvizitlar

*Hujjatning raqami* – 10 tagacha belgi (old va oxirgi probellarni hisobga olmasdan)

*To'lov muddati* – YYYYMMDD formatda 8 ta belgi

*Mijozning hisobvarag'i* – 20 ta belgi *Mijoz hisobvarag'ining MFO si* – 5 ta belgi

*Korrespondent hisobvarag'i* – 20 ta belgi *Korrespondent hisobvarag'ining MFO si* – 5 ta belgi

*Korrespondentning nomi* – 60 tagacha belgi (old va oxirgi probellarni hisobga olmasdan)

*To'lov summasi* – 19.2 formatida 19 tagacha belgi (old va oxirgi probellarni hisobga olmasdan, 1 so'mdan kichik summalar uchun butun qismda 0 shart)

*To'lovning maqsadi* – 600 tagacha belgi (old va oxirgi probellarni hisobga olmasdan)

2) To'lov hujjatining turi: *Milliy valyutada to'lov topshirig'i bekor qilish* ERI ni shakllantirishda ishtirok etuvchi rekvizitlar:

*Hujjatning raqami* – 10 tagacha belgi (old va oxirgi probellarni hisobga olmasdan)

*To'lov muddati* – YYYYMMDD formatda 8 ta belgi

*Mijozning hisobvarag'i* – 20 ta belgi *Mijoz hisobvarag'ining MFO si* – 5 ta belgi

*Korrespondent hisobvarag'i* – 20 ta belgi *Korrespondent hisobvarag'ining MFO si* – 5 ta belgi

*Korrespondentning nomi* – 60 tagacha belgi (old va oxirgi probellarni hisobga olmasdan)

*To'lov summasi* – 19.2 formatida 19 tagacha belgi (old va oxirgi probellarni hisobga olmasdan, 1 so'mdan kichik summalar uchun butun qismda 0 shart)

*To'lovning maqsadi* – 600 tagacha belgi (old va oxirgi probellarni hisobga olmasdan)

*Bekor qilish belgisi* – hujjatni bekor qilish faktini ko'rsatuvchi "IZOH" 5 ta belgi

3) To'lov hujjatining turi: *Xorijiy valyutada to'lov topshirig'i* ERI ni shakllantirishda ishtirok etuvchi rekvizitlar:

*Hujjatning raqami* – 10 tagacha belgi (old va oxirgi probellarni hisobga olmasdan)

*To'lov muddati* – YYYYMMDD formatda 8 ta belgi

*Mijozning hisobvarag'i* – 20 ta belgi *Mijoz hisobvarag'ining MFO si* – 5 ta belgi

*Benefitsiarning hisobvarag'i* - 34 tagacha belgi (old va oxirgi probellarni hisobga olmasdan)

*Benefitsiar hisobvarag'i bankining kodi* - 6 tagacha belgi (old va oxirgi probellarni hisobga olmasdan)

*Benefitsiarning nomi* - 60 tagacha belgi (old va oxirgi probellarni hisobga olmasdan)
*To'lov summasi* – 19.2 formatida 19 tagacha belgi (old va oxirgi probellarni hisobga olmasdan, 1 valyuta birligidan kichik summalar uchun butun qismda 0 shart)
*To'lovning maqsadi* – 600 tagacha belgi (old va oxirgi probellarni hisobga olmasdan)
4) To'lov hujjatining turi: *Xorijiy valyutada to'lov topshirig'i bekor qilish* ERI ni shakllantirishda ishtirok etuvchi rekvizitlar:
*Hujjatning raqami* – 10 tagacha belgi (old va oxirgi probellarni hisobga olmasdan)
*To'lov muddati* – YYYYMMDD formatda 8 ta belgi
*Mijozning hisobvarag'i* – 20 ta belgi *Mijoz hisobvarag'ining MFO si* – 5 ta belgi
*Benefitsiarning hisobvarag'i* - 34 tagacha belgi (old va oxirgi probellarni hisobga olmasdan)
*Benefitsiar hisobvarag'i bankining kodi* - 6 tagacha belgi (old va oxirgi probellarni hisobga olmasdan)
*Benefitsiarning nomi* - 60 tagacha belgi (old va oxirgi probellarni hisobga olmasdan)
*To'lov summasi* – 19.2 formatida 19 tagacha belgi (old va oxirgi probellarni hisobga olmasdan, 1 valyuta birligidan kichik summalar uchun butun qismda 0 shart)
*To'lovning maqsadi* – 600 tagacha belgi (old va oxirgi probellarni hisobga olmasdan)
*Bekor qilish belgisi* – hujjatni bekor qilish faktini ko'rsatuvchi "IZOH" 5 ta belgi.

## 3. ELEKTRON HISOB-KITOBLARNI AMALGA OSHIRISH TARTIBI.

3.1. Barcha hisob operatsiyalarini amalga oshirish hamda Tizim bo'yicha barcha ma'lumotlarni olish Mijoz tomonidan Bank bilan aloqa seanslari vaqtida On-Line rejimda amalga oshiriladi.
3.2. Tomonlar elektron shaklda 1.3-bandda keltirilgan elektron hujjatlarni, shuningdek Tomonlarning yozma kelishuviga binoan 1.3 bandga qo'shimcha tarzda kiritilishi mumkin bo'lgan har qanday elektron hujjatlarni Tizim bo'yicha yuborish yoki qabul qilish huquqiga ega. Boshqa ma'lumotlarning Tizim bo'yicha yuborilishiga yo'l qo'yiladi, lekin bu ma'lumot mazkur Shartlar bo'yicha majburiyatlar yuzaga kelishiga asos hisoblanmaydi.
3.3. Mijoz 1.3 va 3.7-bandlarga muvofiq ETH ni shakllantiradi va Bankka yuboradi, shuningdek uni ijro etish bo'yicha yo'riqnoma beradi (ERI o'rnatadi). ETH qabul qilinganida Tizim unda rekvizitlar to'g'riligini tekshiradi va uni Bank ma'lumotlar bazasiga saqlaydi, ETH ijro etishga yo'riqnoma qabul qilinganida esa ERI to'g'riligini qo'shimcha tekshiradi va tekshiruvdan ijobiy natija olinganida ETH ni ijroga qabul qiladi.
3.4. ERI to'g'ri bo'lmagan holatda Mijoz tekshiruvning salbiy natijasi va mos ravishda ETH ni ijroga qabul qilishdan bosh tortilganligi haqida xizmat elektron xabarini oladi.
3.5. Tizim ETH holatlarini o'zgartirish orqali Bankda ETH ning joriy holati to'g'risidagi ma'lumotlarni (qabul qilingani, ijroga olingani, bajarilgani yoki ijrodan bosh tortilgani) avtomat tarzda aks ettiradi. Joriy holatni aks ettiruvchi ETH holatlarini Mijoz Bank bilan aloqa seanslari vaqtida mustaqil kuzatishi mumkin.
3.6. Mijozning ETH i, agar u Mijoz tomonidan lozim darajada rasmiylashtirilgan, ERI tasdiqlangan hamda Tizimda ijro etishga yuborilgan, Bank tomonidan esa qabul qilingan, tekshirilgan va ijroga olingan bo'lsa mazkur Shartlarga binoan majburiyatlar yuzaga keltiradi. ETH ijroga qabul qilinganligining dalili Tizimda ETH holatining "Qabul qilindi"ga o'zgarishi hisoblanadi.
3.7. Bankka ijro etishga yo'riqnoma bilan jo'natilganidan keyin aloqa seansi vaqtida ushbu ma'lumot Mijoz tomonidan tekshirilganida bir soat davomida ETH holati o'zgarmagan holatda (Bankda belgilangan ish rejimini e'tiborga olgan holda) Mijoz Bankda javobgar ijrochidan tushuntirish talab qilishi mumkin.
3.8. Bank Mijozga Tizim yordamida u Tizimdan foydalanishni boshlagan sanadan boshlab istalgan davr uchun Tizimidan foydalanib amalga oshirilgan barcha Mijoz ETH lari ro'yxatiga ega reestrlarni taqdim qiladi.
3.9. Mijoz Tizim yordamida u Tizimda amalaga oshirgan barcha ETH bo'yicha to'lov hujjatlarining asllarini shakllantiradi.

## 4. BANKNING HUQUQ VA MAJBURIYATLARI

4.1. Bankning majburiyatlari:
4.1.1. Mijozga elektron shaklda Mijozning Tizimda ishlash Qoidalarini taqdim etish va ushbu Shartlarni Tizimda o'zgartirishlar kiritilishiga muvofiq yangilash.
4.1.2. Mijoz Tizimda yaratgan ETH ni Mijoz Bankka jismoniy taqdim etadigan oddiy hujjatlar sifatida to'g'ri ko'rib chiqish, shuningdek hujjatlarda taqdim qilingan barcha jarayon va operatsiyalarni amalga oshirish.
4.1.3. Mijozning yozma talabiga binoan Mijozning Tizimda ishini bloklash.
4.1.4. Mijozdan uning ishini Tizimda blokdan ochish so'ralgan yozma (birinchi shaxs tomonidan imzolangan va muhr bilan tasdiqlangan) xabarini olgandan so'ng Mijozning Tizimdagi ishini blokdan chiqarish.
4.1.5. Tizimga uzatiladigan elektron hujjatlarni kun-u tun shakllantirish. Bank ETH ni bankning operatsiya kuni davomida qabul qiladi. Operatsiya kunidan kech kelib tushgan ETH ijro etishga qabul qilinmaydi.
4.1.6. Qonunchilik talablariga muvofiq Mijoz to'lov hujjatlarining aslini hisobi bo'yicha hujjatlar almashinuvning lozim tartibini ta'minlash.
4.1.7. Mijozning yozma murojaati bo'yicha ERI kaliti sertifikatining amal qilishini bekor qilish.
4.1.8. Ariza beruvchiga, mazkur Shartlarga 2-Ilovaga muvofiq arizasi bo'yicha O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga muvofiq sertifikatsiyalangan ERI vositalaridan foydalanib ERI yopiq va ochiq kalitlarini tayyorlash.
4.2. Bankning huquqlari:
4.2.1. ETH noto'g'ri rasmiylashtirilganligi (shu jumladan talab etiladigan ERI mavjud bo'lmaganida yoki ERI noto'g'ri bo'lganida), shuningdek to'lov hujjatlarini ko'rib chiqish va qayta ishlashning shunga o'xshash jarayonlari sababidan ETH ni ko'rib chiqish va/yoki ijro etishdan bosh tortish.
4.2.2. Mijozning ETH si O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchilik talablari, O'zR Markaziy banki me'yoriy hujjatlari va yo'riqnomalari talablariga qarshi bo'lgan holatda uni ijrosidan bosh tortish.
4.2.3. Yopiq ERI kalit egasining roziligisiz ERI kelit sertifikatini bekor qilish, agar:
- ERI kaliti sertifikatini olishga berilgan arizada ko'rsatilgan ERI yopiq kaliti egasining ma'lumotlari o'zgargan bo'lsa;
- Mazkur sertifikatning amal qilish muddati yakunlansa;
- ERI kalit sertifikati berilishiga asos bo'lgan hujjatning amal qilishi to'xtaganligi haqida ishonchli ma'lum bo'lsa;
- ERI yopiq kaliti egasining O'zbekiston Respublikasi "Elektron raqamli imzo to'g'risida"gi Qonuni 27-moddasida ko'zda tutilgan majburiyatlarini bajarmaslik fakti belgilansa.
- ERI kalit sertifikati amal qilishini to'xtatish muddati yakunlansa va ERI kalit egasining uni qayta tiklashga arizasi bo'lmasa.

4.2.4. ERI kalit sertifikati mazkur Shartlarga 2-ilovaga muvofiq ERI kalit sertifikati berilishi uchun ariza beruvchi ariza taqdim qilmaganida yoki to'liq hajmda taqdim qilmaganida ro'yxatga olmaslik va chiqarmaslik huquqiga ega.
4.2.5. Agar Bank Tizimda Mijoz ishini davom ettirishi xavfsiz emasligi yoki mazkur Shartlar yoki Tizim bilan ishlash qoidalarini buzuvchi hisoblanishini aniqlasa Mijozning Tizimdagi ishini bloklashi, Mijozning faol yopiq ERI kalitini bloklashi hamda Mijozdan ERI kalitlari juftligini almashtirishni talab qilishga haqli.
4.2.6. Alohida ETH ijrosini amalga oshirmaslik va Mijozdan to'lov hujjatining aslini rasmiylashtirishni talab qilish huquqiga ega.
4.2.7. Mijozning roziligini olmasdan yoki unu oldindan xabardor qilmasdan Bank serverida Tizimning dasturiy ta'minotini almashtirish, yangilash yoki unga o'zgartirish kiritish huquqiga ega.
4.2.8. Agar Umumiy shartlar akseptlangan kundan 10 bank kuni davomida Mijoz o'zi tomonda dasturiy-texnik vositalardan foydalanmasa, ushbu Shartlar bo'yicha xizmatlar taqdim etilishini bir tomonlama tartibda to'xtatish huquqiga ega.
4.2.9. Mijoz tomonidan aksept talab qiluvchi to'lov hujjatlari kelib tushganligi to'g'risida Bank xabar yuborganidan so'ng Mijoz kelmagan holatda Tizimda Mijozning ishini bloklash huquqiga ega.

4.2.10. Mijozni, uning yuridik manzili bo'yicha o'rganishni amalga oshirish huquqiga ega.

## 5. MIJOZNING HUQUQ VA MAJBURIYATLARI.

5.1. Mijozning majburiyatlari:

5.1.1. O'z foydalanuvchilari (ishchilari), Tizim bilan ishlash Qoidalarini diqqat bilan o'rganish va qat'iy rioya qilish va elektron hujjatlarni to'g'ri rasmiylashtirilishini ta'minlash.

5.1.2. Mos keluvchi davr uchun Mijoz tomonidan Tizim doirasida shakllantirilgan ETH va hisobchi ma'lumotlarini mustaqil va doimiy ravishda solishtirish va farq yuzaga kelgan holatda zudlik bilan Bankka xabar berish.

5.1.3. O'z ishida Bank taqdim etgan yo'riqnomaga rioya qilish va Tizim bilan ishlash Qoidalarini buzish Mijozning aybi bilan moddiy zarar yetkazilishiga olib kelishini tushunishi lozim.

5.1.4. Pul vositalaridan qat'iy vazifasiga ko'ra foydalanish, O'zbekiston Respublikasi amaldagi qonunchiligiga muvofiq moliya operatsiyalarini amalga oshirish va to'lov hujjatlarini to'ldirish.

5.1.5. Tizim bilan ishlashda foydalaniladigan apparat va tizim-dasturiy ta'minotning begona shaxslar uchun yopiq xonada, Tizim bilan ishlash uchun mos keluvchi vakolatlari bo'lmagan shaxslarning undan foydalanish imkoniyatini istisno qiluvchi sharoitlarda saqlash va foydalanish.

5.1.6. Mazkur Shartlarga 2-ilovaga muvofiq ETH kalit sertifikati berilishi uchun zarur hajmda ro'yxatdan o'tish va identifikatsiya ma'lumotlarini taqdim qilish.

5.1.7. Tizimda ishlashda foydalaniladigan Mijoz ERI Kalitidan vakolatsiz shaxslarning noqonuniy foydalanishiga yo'l qo'ymaslik va ularni sir saqlanishini ta'minlash. Bunda Mijozning ERI Kalitidan vakolati bo'lmagan shaxslarning foydalanishi bilan bog'liq salbiy oqibatlar tavakkalchiligi uchun javobgarlik Mijozning zimmasida bo'ladi.

5.1.8. Mijozning ERI kalit yoki Tizimdan noqonuniy foydalanishga urinishlar aniqlanganligi to'g'risida, ular aniqlangan kuni Bankka istalgan usulda xabar berish va Tizimda ishni to'xtatish. ERI yopiq kaliti bilan elektron identifikatorni uchinchi shaxslarga bermaslik;

5.1.9. ERI ochiq kalitidan foydalanganda mazkur ERI kalit egalari to'g'risidagi shaxsiy ma'lumotlarning himoya qilinishini ta'minlash.

5.1.10. Butun foydalanish davrida USB "ePass" elektron identifikatorning saqlanishini ta'minlash va USB "ePass" yo'qotilgan/o'g'irlangan holatda Bankning amaldagi Tariflariga muvofiq Bankka jarima to'lab berish.

5.1.11. Bank taqdim qilgan USB "ePass" dan faqat Tizimda ishlash uchun foydalanish.

5.1.12. Mazkur Shartlar bo'yicha bank xizmatlarini taqdim etish/ulardan foydalanish to'xtatlgan yoki bank hisobvarag'i bilan bog'liq barcha shartnomalar bekor qilingan holatda Bank taqdim etgan USB "ePass" ni qabul qilish jo'natish hujjati bo'yicha qaytarib berish (Shartlarga 3-ilova).

5.1.13. USB "ePass" o'g'irlanganligi va/yoki yopiq kalitdan foydalanish rejimi buzilganligi yoki ehtimoliy buzilganligi to'g'risida ixtiyoriy shaklda tuzilgan va Mijozning mas'ul vakillari tomonidan imzolangan yozma arizani Bankka taqdim etish yo'li bilan Bankni zudlik bilan xabardor qilish.

5.1.14. Mijozning yuridik manzili va yuridik holatida boshqa o'zgarishlar, shuningdek Bankka taqdim qilingan ma'lumotlarda sodir bo'lgan o'zgarishlar to'g'risida Bankka 10 kundan kechiktirmasdan xabar berish.

5.1.15. ERI kaliti sertifikatini amal qilish muddati tugashidan kamida 2 hafta oldin yangilash uchun bankka murojaat qilish.

5.1.16. ERI dan foydalanish sohasida mazkur Shartlar va O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga rioya qilish.

5.2. Mijozning huquqlari:

5.2.1. Bankdan Tizimda elektron hujjatlar ko'rinishida rasmiylashtirilgan o'z so'rov va topshiriqlari ijrosini yoki ularni ko'rib chiqish yoki bajarishda asosli bosh tortish ma'lumotini taqdim etishni talab qilish.

5.2.2. Bankni xabardor qilgan holda, istalgan vaqtda mazkur Shartlar doirasida Tizimda o'z ishini vaqtincha yoki doimiy to'xtatish.

5.2.3. O'zining faol ERI yopiq kalitining amal qilishini muddatidan oldin to'xtatish va Bankdan uni Tizimda bloklashni talab qilish.

5.2.4. Mijoz o'z ETH ni Tizim yordamida bekor qilish huquqiga ega. Bank ETH bekor qilinishi shartini, agar u hali bajarilmagan bo'lsa va Bankda uning bajarilishini bekor qilishning texnologik

imkoniyati bo'lsa qabul qiladi.

## 6. MAXFIYLIKNI TA'MINLASH.

6.1. Mijoz o'z foydalanuvchilarining parollar, PIN va ERI sirli kalitlari mavjud shaxsiy tashuvchilarning sir saqlanishi talablarini anglaydi.
6.2. Tizimdan foydalanish huquqini beruvchi parol, PIN yoki ERI sirli kalitlari ochiqlanganiga shubha bo'lgan holatda yoki boshqa sabablarga ko'ra, Mijozning istalgan foydalanuvchisi har qanday vaqtda parol, PIN yoki ERI sirli kalitini Tizim bilan ishlash Qoidalarida ta'riflangan jarayonlar doirasida o'zgartirish huquqiga ega.

## 7. TOMONLARNING JAVOBGARLIGI.

7.1. Bank Mijozning hisobvaraqlariga mablag'lar to'g'ri kelib tushishi va to'g'ri yechilishi hamda elektron banklararo to'lov tizimi bo'yicha ma'lumotlarning o'z vaqtida berilishi uchun javobgar, qonunchilik talablariga mos kelmaydigan holatlar bundan mustasno.
7.2. Bank Mijozda apparat va tizim dasturiy ta'minotining sifatsiz ishlashi uchun hamda buning oqibatida Mijozning Tizimdagi ishida yuzaga kelgan uzilishlar uchun javobgar emas.
7.3. Bank Mijozning Tizimdan foydalanish parollari, ERI sirli kaliti majvud elektron identifikator yo'qotilishi yoki uning ayon qilinishi natijasida Mijozga yetkazilgan zarar uchun javobgar emas, agar Mijoz ayon bo'lish yoki yo'qotilish fakti to'g'risida Bankka zarar yetkazilgan vaqtgacha ogohlantirish bermagan bo'lsa.
7.4. Bank va Mijoz Tomonlarning xohishiga bog'liq bo'lmagan sharoitlar oqibatida yuzaga kelgan, Tizimning to'g'ri ishlashiga to'sqinlik qiluvchi aloqa liniyalarining sifatsiz ishi uchun javobgar emas.
7.5. Mijoz Tizimdan olingan elektron yoki bosib chiqarilgan hujjatlarning (hisobvaraqdan ko'chirmalar, Bankdan xatlar va boshq.) saqlanishi va maxfiyligi uchun javobgar.
7.6. Tomonlar Tizimda o'zlarining mas'ul xodimlari ishi uchun javobgar.
7.7. Mazkur Shartlarga muvofiq o'ziga qabul qilgan majburiyatlarni bajarmaganlik yoki lozim darajada bajarmaganlik uchun Tomonlar O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligda ko'zda tutilgan javobgarlikka tortiladi.
7.8. Har bir tomon boshqa Tomondan, unda mazkur Shartlarga boshqa Tomonning rioya qilmaganligi tufayli yuzaga kelgan zararlarni qoplanishini talab qilish huquqiga ega.

## 8. NIZOLARNI HAL QILISH.

8.1. Tizimdan foydalanishda Mijoz va Bank o'rtasida nizoli holatlar yuzaga kelganida tomonlar nizolarni "Nizoli holatlar yuzaga kelganida texnik ekspertiza o'tkazish tartibi"ga (mazkur Shartlarga 1-Ilova) muvofiq ko'rib chiqilishida ishtirok etish, belgilangan Tartibdagi talablarni bajarish hamda ruxsat etuvchi komossiya ruxsati bilan javobgarlikka tortilish majburiyatini oladi.
8.2. Tomonlar nizolarni hal qilishda Tizimdan foydalanish oqibatida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan nizolarni hal qilish, mazkur Shartlarda ishtirok etuvchi manfaatdor tomonlarning so'rovlari bo'yicha yozma ko'rinishda dalil va da'volar taqdim etish majburiyatini oladi.
8.3. Tomonlar o'rtasida nizolar mazkur Shartlarning 8.1 va 8.2 bandlarida belgilangan tartibda hal etilmagan holatda nizo O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq O'zbekiston Respublikasi Xo'jalik sudida hal qilinishi lozim.

## 9. SHARTLARNING AMAL QILISH MUDDATI.

9.1. Mazkur Shartlar Mijoz ariza berish orqali ularni akseptlagan ondan kuchga kiradi va tomonlardan birining Shartlar bo'yicha xizmatlar taqdim etish/foydalanish tugatilgan onda o'z kuchini yo'qotadi. Istalgan bir tomon to'xtatishdan 30 kun oldin boshqa tomonni bu haqida oldindan yozma ogohlantirgan holda, Shartlar bo'yicha xizmatlar taqdim etish/foydalanishni to'xtatish huquqiga ega.
9.2. Shartlar Mijoz ommaviy oferta Shartnomasi va Bank hisobvarag'ini ochish hamda hisob-kassa xizmatlari umumiy shartlarini bekor qilgan holatda tugatiladi.

## 10. TO'LOV SHARTLARI.

10.1. Mijoz Tizimda xizmat ko'rsatish bo'yicha Bank xizmatlarini Bank tasdiqlagan tariflarga muvofiq har oylik asosda to'laydi.

10.2. To'lov hisob oyidan keyingi oyning 10-sanasidan kechiktirmasdan amalga oshirilishi lozim.
10.3. Tariflar Bank tomonidan istalgan vaqtda bir tomonlama o'zgartirilishi va/yoki ularga qo'shimcha kiritilishi mumkin. Bank tomonidan to'lov tariflari o'zgartirilgan holatda, Mijoz istalgan vaqtda Bank kuchga kiritgan yangi tariflar bilan tanishish huquqiga ega.

## 11. FORS-MAJOR.

11.1. Bank mazkur Shartlar bo'yicha majburiyatlarini qisman yoki to'liq bajarmaganlik uchun javobgarlikdan ozod qilinadi, agar bajarmaslik yengib bo'lmas kuch sharoitining oqibati hisoblansa: mazkur Shartlar akseptlangandan so'ng yuzaga kelgan yong'in, toshqin, zilzila, boshqa tabiiy ofatlar, harbiy harakatlar, har qanday hukumat organi tomonidan chiqarilgan qonunchilik hujjatlari, qarorlar va boshqa yozma ko'rsatmalar, bunda ushbu sharoitlar Bankning o'z majburiyatlarini bajarishiga bevosita ta'sir qilishi inobatga olinadi.
11.2. Yengib bo'lmas kuch sharoitlari yuzaga kelganida Bankning mazkur kelishuv bo'yicha majburiyatlarini bajarish muddati mos keluvchi sharoit ta'sir vaqtiga muvofiq kechiktiriladi. 1 oydan ortiq muddat majburiyatlarni bajarish imkonsiz bo'lganida Mijoz Shartlar bo'yicha xizmatlardan foydalanishni to'liq yoki qisman to'xtatish huquqiga ega, u buning uchun hech qanday javobgarlikka ega bo'lmaydi.
11.3. Agar Bank o'z majburiyatlarini bajarishga qodir bo'lmasa, u boshqa Tomonni keltirilgan holatlarning boshlanishi va yakunlanishi haqida zudlik bilan, lekin istalgan holatda, ular ta'siri boshlanganidan 15 taqvim kunidan kechiktirmasdan xabardor qiladi.

## 12. QO'SHIMCHA SHARTLAR.

12.1. Mazkur Shartlarga barcha qo'shimcha, o'zgartirish, ilovalar, agar ular yozma shaklda tuzilgan, tomonlarning mas'ul vakillari tomonidan imzolangan va muhr bilan tasdiqlangan holatda yuridik kuchga ega bo'ladi.
12.2. Mazkur Shartlarga ushbu kelishuvning 12.1-bandiga muvofiq rasmiylashtirilgan barcha ilovalar, qo'shimchalar, o'zgartirishlar mazkur Shartlarning ajralmas qismi hisoblanadi.
12.3. Ushbu Shartlar Bank Mijozning hisob-pul operatsiyalarini amalga oshirishi bo'yicha Mijoz akseptlagan ommaviy oferta Shartnomasi doirasida qabul qilinadi.
12.4. Mazkur Shartlarning qoidalari bilan tartibga solinmagan tomonlarning barcha boshqa munosabatlari ommaviy oferta Shartnomasi qoidalari bilan tartibga solinadi. Bunday holatda ommaviy oferta Shartnomasi tushunchalari va aniqlanishlaridan foydalaniladi.
12.6. Shartlar Bankning rasmiy saytida (www.nbu.uz) va Ibank Tizimida e’lon qilinadi.

Ibank dasturiy kompleksi orqali Mijozlarga
xizmat koʻrsatishning umumiy shartlariga
**1-ILOVA**

**Nizoli holatlar yuzaga kelganida texnik ekspertiza o'tkazish tartibi.**

1. Mazkur Tartibda nizo holati deganda Bankning Mijoz nomidan to'g'riligi Mijozning mas'ul vakili tomonidan "Ibank" (ERI) Tizimining mos keluvchi texnik vositalari yordamida avtorizatsiyalanmagan ETH ni o'tkazishi, Bankning ETH ni sabablarni ko'rsatmasdan o'tkazmasligi yuzasidan Mijozda yuzaga keladigan e'tirozlar tushuniladi. E'tirozning talablari ETH da Mijoz ERI sini tekshirish natijalari bo'yicha belgilanishi yoki rad etilishi mumkin.
2. Mijoz hisobvarag'idan pul mablag'lari haqiqatdan yechilgan fakti bo'lganida u Bankka "Ibank" Tizimida Bank operatsiyani amalga oshirgan yoki oshirmagan ETH ni ko'rsatgan holda, e'tirozning asosiy talablariga ega ariza taqdim etadi. Bank Mijozning e'tirozlarini Mijozning hisobvarag'idan pul vositalari yechilgan ondan ikki ish kuni ichida qabul qiladi. Mijozning e'tirozini hal qilish vaqtida Mijozning (uning barcha foydalanuvchilari) "Ibank" Tizimidagi ishi Bank tomonidan bloklanadi.
3. Bank Mijoz ariza berilgan sanadan besh kundan ko'p bo'lmagan muddat ichida arizani ko'rib chiqish uchun ruxsat etish komissiyasini tuzishi kerak. Komissiya tarkibiga Mijozning vakillari (Mijozning tanlovi bo'yicha), Bank vakillari (Bankning tanlovi bo'yicha) va zarurat bo'lganida - mustaqil mutaxassislar jalb qilinadi. Komissiya a'zolarining tanlovi barcha ishtirokchilar bilan kelishilgan holatda amalga oshiriladi.

Hujjat bo'yicha nizolarni hal etish uchun Mijoz Bankka mos keluvchi texnik mutaxassis, shuningdek hujjatlarning yuridik ahamiyatini tasdiqlovchi Mijozning mas'ul vakili (avtorizator) bilan kelishi lozim. Mijozning avtorizatori yonida ERI vositasiga (ERI yopiq kaliti bilan elektron identifikator) ega bo'lishi lozim.

4. Ruxsat etuvchi komissiya nizo holatini ko'rib chiqishining natijasi ko'rib chiqilayotgan hujjat ustida Mijoz elektron raqamli imzosining haqiqiyligi to'g'risida xulosaga ko'ra javobgarlik belgilanadigan tomonni aniqlash hisoblanadi.

5. Ruxsat etish komissiyasi besh kundan ortiq bo'lmagan muddatda arizani ko'rib chiqadi. Arizani ko'rib chiqish quyidagi bosqichlarni o'z ichiga oladi:

5.1. Ruxsat etish komissiyasi Mijoz e'tirozining texnik ekspertizasini o'tkazadi. Texnik ekspertiza quyidagi bosqichlardan iborat bo'ladi:

<u>Noqonuniy yechilgan summa uchun:</u>

- Bankning Avtomatlashtirilgan Bank Tizimida (ABT) e'tiroz hujjatiga mos tranzaktsiya (o'tkazma) mavjudligi tekshiriladi. Mazkur tranzaktsiya bo'lmagan holatda (pul mablag'lari yechilganligi fakti bo'lmaganida), Mijozning e'tirozi avtomat tarzda yechiladi.
- Bank ABT da keltirilgan tranzaktsiya aniqlanganida unga mos keluvchi hujjat mavjudligi tekshiriladi (elektron yoki asl to'lov hujjati). Bunday hujjat bo'lmaganida (yechishni amalga oshirish uchun asos) Bank Mijozga noqonuniy yechilgan summani qonunchilikda belgilangan tartibda qoplab beradi.
- To'lov hujjatining asli aniqlangan holatda Mijozning e'tirozi avtomat tarzda yechiladi.
- To'lov hujjatining asli mavjud bo'lmaganida va "Ibank" Tizimida elektron hujjat mavjud bo'lganida mazkur elektron hujjatda ERI to'g'riligi tahlil qilinadi.

<u>Hujjatlarni sababini ko'rsatmasdan o'tkazmaganlik uchun:</u>

- Mijoz tomonidan keltirilgan hujjat bekor qilinmaganligi tekshiriladi
- Elektron hujjat bekor qilinganligi aniqlanganida mazkur so'rovning ERI si, shuningdek mazkur ETH ERI si to'g'riligi tahlil qilinadi.
- Elektron hujjat bekor qilinmagan holatda Bank Mijozga qonunchilikda belgilangan tartibda yetkazilgan zararni qoplab beradi.

5.2. Ruxsat etish komissiyasi Mijoz ETH da Mijoz ERI sining texnik ekspertizasini o'tkazadi, aynan:

- Bank mazkur ETH ga mos keluvchi ERI ni taqdim etishi mumkin.

- ERI mavjud bo'lganida hujjatni imzolagan Mijoz foydalanuvchisi aniqlanadi.
- Shunday foydalanuvchi aniqlanganida "Ibank" Tizimi ma'lumotlar bazasida mazkur foydalanuvchi faol ochiq ERI kalitining mos keluvchi davrda va unga mos Sertifikatda qidiruvi amalga oshiriladi.
- Keltirilgan faol ochiq kalit aniqlangan holatda mos keluvchi (e'tirozli) ETH tekshiruvi amalga oshiriladi. ERI tasdiqlangan holatda Mijozning e'tirozi avtomat tarzida yechiladi.

5.3. ERI mavjud bo'lmaganida (ko'chirishni amalga oshirish uchun hujjat verifikatsiyasi), hujjatni imzolagan foydalanuvchini aniqlash imkoni bo'lmaganida (soxtalashtirilgan ERI), ochiq kalit bo'lmaganida (ERI ni tekshirish imkonsizligi) yoki ERI tasdiqlanmaganda (ko'chirish uchun hujjat verifikatsiyasi), Mijozning faol ochiq kalitiga mos keluvchi Sertifikat bo'lmaganida (kalitlar nomuvofiqligi), Bank Mijozga qonunchilikda belgilangan tartibda noqonuniy yechilgan summani qoplab beradi.

5.4. Agar mazkur Shartlarning 2.7-bandiga muvofiq mazkur turdagi ETH uchun ikkita ERI talab etilsa, unda yuqorida keltirilgan tekshiruv jarayoni har bir ERI uchun amalga oshiriladi. E'tirozli ETH da barcha ERI lar verifikatsiyasi tasdiqlangan holatdagina Mijoz E'tirozi yechiladi.

5.5. Texnik ekspertiza ma'lumotlari asosida ruxsat etish komissiyasi Bayonnoma rasmiylashtiradi.

6. Ruxsat etuvchi komissiya tomonidan mijozning ERI si to'g'riligi hamda Mijozga yopiq ERI kaliti tegishli ekanligi tasdiqlangan holatda Bank Mijoz oldida mazkur e'tirozli ETH uchun javobgar bo'lmaydi.

Ibank dasturiy kompleksidan foydalanib
Mijozga xizmat ko'rsatishning umumiy shartlariga
**2-ILOVA**

## ARIZA

Sizdan Ibank dasturiy kompleks masofadan xizmat ko'rsatish tizimida elektron hujjatlarning xavfsizligini ta'minlash maqsadida yopiq va ochiq ERI kaliti hamda ERI kaliti sertifikatini taqdim etishingizni so'rayman.

| № | Yopiq ERI kaliti Egasi to'g'risida ma'lumotlar: | |
|---|---|---|
| 1. | F.I.Sh. to'liq | |
| 2. | Lavozimi | |
| 3. | Pasport seriyasi va raqami | |
| 4. | STIR | |
| 5. | Telefon | |

| № | Tashkilot to'g'risida ma'lumot: | |
|---|---|---|
| 6. | Tashkilotning nomi | |
| 7. | Joylashgan joyi (manzil): | |
| 8. | STIR / JSHSHIR | |
| 9. | Yuridik shaxs davlat ro'yxatidan o'tganligi to'g'risida guvohnoma raqami va sanasi | |
| 10. | Email (ish) | |

Rahbar _____________ ___________________________________
*(imzo)* *(F.I.Sh)*

Bosh hisobchi ___________ __________________________________
*(imzo)* *(F.I.Sh)*

M.O'. *(muhr mavjud bo'lganida)* ____/____/20____y.

Majburiyatlar:

ERI foydalanuvchining majburiyatlari:

ERI yopiq kalitini sir saqlash, uning yo'qotilishi, ayon qilinishi, o'zgartirilishi hamda noqonuniy foydalanishining oldini olish uchun imkoni bo'lgan barcha choralarni ko'rish;

- hech qanday sharoitda yopiq ERI kaliti bilan elektron identifikatorni uchinchi shaxslarga bermaslik;
- yopiq ERI kalitidan unga ishonch ayon yo'qotilgan holatda foydalanmaslik;
- yopiq ERI kalitidan faqat sertifikatda aniqlangan ruxsat etilgan foydalanish sohalariga mos keluvchi maqsadlar uchun foydalanish;
- Bankni ro'yxatga olish Markazida ro'yxatga olish uchun arizada taqdim etilgan ma'lumotlar o'zgargani to'g'risida Bankning ro'yxatga olish Markaziga xabar qilish;
- ochiq ERI kalitidan foydalanganda mazkur ERI kalitlarning egalari to'g'risidagi shaxsiy ma'lumotlar himoyalanishini ta'minlash;

- ERI dan foydalanish sohasida qonunchilik talablari, shuningdek mazkur Shartlarning shart va talablariga rioya qilish;
- yopiq kalitdan foydalanish rejimi buzilgan yoki buzilish ehtimoli to'g'risida ERI kalit sertifikatini taqdim etgan Bankning ro'yxatga olish Markaziga zudlik bilan xabar berish;

*Majburiyatlar bilan tanishdim.*

(Foydalanuvchi qo'lda yozadi)

______________________________________________________________________________

_________________________________ __________________ ____/____/20____y.

*(yopiq ERI kaliti egasining F.I.SH)* *(imzo)*

**Ijro belgisi:**

"O'zMilliybank" AJ bo'limi/filiali boshqaruvchisining topshirig'i:
______________________________________________________________________________

______________________________________________________________________________

ERI kalit sertifikatlarini taqdim etish bo'yicha
"O'zMilliybank" AJ bo'limi/filiali mas'ul xodimi:
__________________________________________________

______________________________________________________________________________

ERI Egasi elektron raqamli imzo kaliti sertifikatini oldi.

Yopiq ERI kaliti egasi _____________ ____________________________________

*(imzo)* *(F.I.Sh.)*

Ibank dasturiy kompleksidan foydalanib
Mijozga xizmat ko'rsatishning umumiy shartlariga
**3-ILOVA**

**USB "E-Pass"qurilmasini**
**TOPSHIRISH – QABUL QILISH DALOLATNOMASI**

Shahar _________________ «___»_______ 20___y.

"Filial/filial" (keyinchalik "Bank" deb nomlanadi) vakili, ____________________ asosida ish ko'rayotgan ____________________, bir tomondan, va __________________ (keyinchalik "Mijoz" deb nomlanadi) vakili, __________________ asosida ish ko'rayotgan ____________________, ikkinchi tomondan, "E-Pass" USB-tokenini topshirish – qabul qilish to'g'risida ushbu dalolatnomani tuzdi. _____ (______) dona miqdoridagi "E-Pass" USB-tokenini, Bank hisobvarag'ini ochish va xizmat ko'rsatishning umumiy shartlari hamda Ibank dasturiy ta'minotidan foydalangan holda mijozga xizmat ko'rsatish shartlariga muvofiq, Bank topshirdi va Mijoz qabul qildi. Topshirilgan "E-Pass" USB-tokenini slot raqamlari:

____________________

____________________

Ushbu dalolatnoma tomonlarning har biri uchun bittadan 2 (ikki) nusxada tuziladi.

Tomonlar imzolari:

**Bank:**

**___________________________________________________ /________________________/**

**M.O'.**

**Mijoz:**

**____________________________________________________ /_______________________/**

**M.O'.**

"O‘zbekiston Respublikasi Tashqi iqtisodiy faoliyat milliy banki" AJ da yuridik shaxslar va yakka tartibdagi tadbirkorlarga kompleks bank xizmatlarini ko‘rsatish Shartnomasiga
**4-ILOVA**

## Korporativ kartalarni chiqarish va ularga xizmat ko'rsatishning UMUMIY SHARTLARI

## TERMIN VA ATAMALAR

**Bank** - "O'zbekiston Respublikasi tashqi iqtisodiy faoliyat milliy banki" AJ.

**Karta** - Bank tomonidan karta Egasining nomiga chiqarilgan so'm korporativ plastik kartasi

**Karta Egasi** - Tashkilotning arizasiga ko'ra nomiga Karta chiqarilgan xodim.

**Savdo terminali** - Kartadan foydalanib operatsiyalarni amalga oshirish uchun mo'ljallangan elektron dasturiy-texnik qurilma.

**MKSKH** - Bankda karta Egasining nomiga karta bo'yicha operatsiyalarni amalga oshirish uchun ochilgan maxsus korporativ so'm karta hisobvarag'i.

**Umumiy shartlar** - Korporativ kartalarni chiqarish va ularga xizmat ko'rsatishning mazkur Umumiy shartlari, unga barcha ilova va qo'shimchalar, yozma yo'riqnomalar, bank jarayonlari va xabarlari.

**Yo'riqnoma** - so'm korporativ plastik kartadan foydalanish bo'yicha yo'riqnoma

**Korxona** - O'zbekiston Respublikasi hududida xizmatlar/tovarlar uchun to'lov sifatida Kartani qabul qiluvchi yuridik shaxs

**Xodim** - Karta Egalariga izmat ko'rsatuvchi Korxona ishchilari.

**Tranzaksiya** - karta Egasi Karta yordamida amalga oshiradigan istalgan to'lov.

**PIN** - karta Egasining karta vositasida quyidagi operatsiyalarni amalga oshirish huquqiga ega ekanligini tasdiqlashga mo'ljallangan shaxsiy identifikatsiya raqami:

- savdo terminallari orqali xizmatlar/tovarlar uchun to'lov;
- karta bo'yicha ma'lumotlar olish;
- masofadan operatsiyalarni amalga oshirish (onlayn rejimda amalga oshiriladigan, Kartaga mablag'lar ko'chirish bilan bog'liq barcha operatsiyalar).

To'lovni qaytarish - Korxona Tranzaksiya munosabatida karta Egasining (Tashkilot) MKSKH kreditlash uchun Bankda belgilangan shaklda amalga oshiradigan pul mablag'larining har qanday qaytarilishi.

Bankning tarifi - Karta bo'yicha amalga oshiriladigan barcha operatsiyalar, shuningdek uni tayyorlash va almashtirish uchun olinadigan barcha turdagi to'lov vositachilik haqi miqdori aniqlangan Bankning amaldagi tarifi.

## 1. UMUMIY SHARTLAR

1.1 Umumiy shartlar MKSKH, Karta va karta Egasi munosabatida qo'llanadi va ular Bank va Tashkilotda Karta olish uchun istalgan bankda talab etilgungacha so'mda asosiy depozit hisobga ega bo'lishi shartligini tushuntiradi. Bank Kartani faqat taqdim etilgan ro'yxat bo'yicha ishchilarga chiqaradi va ularni PIN va Yo'riqnomalar bilan faqat, agar Tashkilot Karta chiqarish yoki uni almashtirish zarurati to'g'risida yozma ariza bilan murojaat qilsa yetkazadi.

Korporativ kartadan Respublika hududida naqdsiz hisob-kitoblar bo'yicha hisob yuritishda foydalaniladi. Korporativ kartalardan ish haqi to'lovlari hamda ijtimoiy xarakterdagi boshqa to'lovlar, shuningdek naqd pul vositalari bilan to'lash uchun foydalanish man etiladi.

1.2. Yuridik shaxslarning maxsus so'm kartalari hisobvarag'iga foizlar qo'shilmaydi.

1.3. Foydalanuvchi nomiga MKSKH bepul ochiladi.

1.4. Bank Kartani chiqarish uchun Bankda amalda bo'lgan Tarifga ko'ra to'lov undiradi.

1.5. Bank to'lovlar haqida ma'lumotlarni qayta ishlash uchun vositachilik haqi undiradi. Vositachilik haqi Bankda amalda bo'lgan Tarifga ko'ra karta Egasining Karta bilan amalga oshirgan operatsiyasi summasidan undiriladi.

1.6. Karta amal qilish muddati yakunlanganida, almashtirilganida yoki Bank talabiga ko'ra Bankka qaytarilishi lozim.

1.7. Karta chiqarganda Tashkilot karta Egasining MKSKH ga zarur summani ko'chiradi.

1.8. Kartani yopish Tashkilotning Yozma arizasi asosida amalga oshiriladi.

1.9. Bankning pul mablag'larini qaytarish bo'yicha talabi faqat Korxona xarajatlar to'lovini tasdiqlaganidan keyin ko'rib chiqiladi.

1.10. Bank yo'qotilgan yoki o'g'irlangan Kartani bu holat to'g'risida Tashkilot yozma ariza bergan kundan 15 bank ish kuni ichida almashtiradi.

## 2. TOMONLARNING HUQUQ VA MAJBURIYATLARI

2.1 Bankning majburiyatlari:

2.1.1. Karta Egasining MKSKH ni karta ustida amalga oshirilgan barcha tranzaksiyalar summasiga debrtlash;

2.1.2. Karta Egasining MKSKH ni barcha tushumlar summasiga to'ldirish hamda naqdsiz ko'chirish ko'rinishida kreditlash;

2.1.3. Tashkilotning yozma arizasi bo'yicha belgilangan tartibga ko'ra MKSKH Egalari bo'yicha ko'chirma berish;

2.1.4. Tashkilotni Bankda amalda bo'lgan tarif bilan tanishtirish.

2.2. Bankning huquqlari:

2.2.1 Tashkilot yoki karta Egasi mazkur Umumiy shartlar va Yo'riqnomalarni buzgan holatda Kartani to'xtatib turish;

2.2.2 Tashkilotdan Bankka barcha qarzdorlik summalarini to'lashni talab qilish;

2.2.3 Tashkilot yoki karta Egasining amaldagi Umumiy shartlar va Yo'riqnomalarni buzishi natijasida Bankka yetkazilgan barcha xarajatlarni Tashkilotdan shartsiz tartibda undirish;

2.2.4 Kartasi yiliga 3 martadan ortiq yo'qotilgan yoki o'g'irlangan Tashkilot munosabatida Kartani olib qo'yish va MKSKH ni yopish.

2.3. Tashkilotning majburiyatlari:

2.3.1. Umumiy shartlar va yo'riqnomalar talabini o'zi bajarishi va karta Egasining bajarishini ta'minlash;

2.3.2. Tashkilot tomonidan yoki Tashkilotda karta Egasi bo'lgan istalgan xodimning aybli harakatlari tufayli Umumiy shartlar va Yo'riqnomalar talabi buzilgan holatda barcha xarajatlarni to'lash.

2.3.3. Karta Egalarini Yo'riqnoma - kartadan foydalanish qoidalari bilan tanishtirish;

2.3.4. Bank chiqargan Karta va PIN ning Tashkilotga xavfsiz yetkazilishi hamda ularni shaxsan karta Egalariga topshirilishini ta'minlash;

2.3.5. Bankka uning talabiga ko'ra karta Egalari to'g'risida qo'shimcha ma'lumot taqdim qilish;

2.3.6. Karta Egalari bilan Bank yo'riqnomalariga muvofiq Kartadan foydalanish predmetiga alohida shartnoma tuzish;

2.3.7. Kartadan faqat:

- karta Egasi;
- Bankda MKSKH da qoldiq mablag'lar doirasida;
- Kartada ko'rsatilgan muddat ichida foydalanishini ta'minlash.

2.3.8. Karta Egalari turar-joylari yoki pasport ma'lumotlari o'zgarganligi to'g'risida Bankka zudlik bilan xabar berish;

2.3.9. Karta yo'qotilganligi yoki o'g'irlanganligi haqida og'zaki xabar berilganidan keyin 24 soat ichida buni yozma shaklda tasdiqlash. Yo'qotilgan/o'g'irlangan kartadan u topilganida foydalanmaslik va zudlik bilan Bankka qaytarilishi shart.

2.3.10. Kartaga ehtiyoj bo'lmaganida yoki karta Egasi ishdan bo'shatilganida Tashkilot Bankka ushbu foydalanuvchi Kartasini topshirishi hamda MKSKH ni yopishi shart.

2.4 Tashkilotning huquqlari:

2.4.1 Karta Egasining MKSKH qoldig'ini to'ldirish;

2.4.2 Bankdan karta Egasining MKSKH bo'yicha ko'chirmani yozma so'rash;

2.5 Tashkilot huquqqa ega emas:

2.5.1. Karta, MKSKH bo'yicha ko'chirma, mazkur Umumiy shartlar bo'yicha to'plangan tajriba va ma'lumotlarni yoki u bilan aloqalarni uchinchi shaxslarga berish.

## 3. TOMONLARNING JAVOBGARLIGI

3.3. Agar Karta Tashkilot Bankka karta yo'qotilganligi/o'g'irlanganligi, yoki Tashkilot Kartaning PIN i kimgadir ma'lumligi bo'yicha shubhaga ega ekanligi haqida yozma ravishda xabar berganidan so'ng 48 soatdan keyin biror kimsa tomonidan ishlatilgan bo'lsa, Bank Tashkilotning har qanday moliyaviy yo'qotishlari uchun javobgar bo'ladi.
3.4. Bank javobgar emas:
3.4.1. Bankning nazoratida bo'lmagan sharoitlar tufayli o'z majburiyatlarini bajarish imkonsiz bo'lsa;
3.5. Tashkilot javobgar:
3.5.1. U yoki karta Egasi mazkur Umumiy shartlar va Yo'riqnomalar talabini buzgan holatda;
3.5.2. Bank PIN ayon bo'lganligi haqida yozma xabar olguniga qadar boshqa shaxslar PIN haqida ma'lumotdan noqonuniy foydalangan va ehtimoli bo'lgan istalgan tranzaksiyalar uchun javobgar;
3.5.3. Tashkilot Bankdan karta Egasi nomidagi Kartani yopishni so'ragan holatda Tashkilot Karta Bankka qaytarilmagunicha va Karta bilan amalga oshirilgan barcha Tranzaksiyalar tushmagunicha javobgar bo'ladi.
3.5.4. Tashkilot MKSKH bo'yicha operatsiyalar o'z vaqtida va to'g'ri amalga oshirilishiga O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga muvofiq.
3.6. O'zgarishlar ular ikkala tomondan imzolangan holatdagina kuchga kiradi.

## 4. MAXFIYLIK.

4.3. Bank va Tashkilot bir-biriga taqdim etadigan, mazkur Umumiy shartlarning predmeti bilan bog'liq ma'lumotlar maxfiy hisoblanadi.
4.4. Tashkilot, teng darajada Bank, MKSKH hamda karta Egalarining Kartalari bo'yicha amalga oshiriladigan operatsiyalar bo'yicha bank sirini saqlash javobgarligiga ega.
4.5. Tomonlar imzolangan hujjatlarning tarkibi bo'yicha maxfiy ma'lumotlarni oshkor qilmaydi.
4.6. Maxfiy ma'lumot oshkor qilingan holatda tomonlar yetkazilgan zararlar doirasida javobgar bo'ladi.

## 5. NIZOLARNI HAL QILISH

**1.1.** Agar yuzaga kelgan kelishmovchiliklarni muzokaralar yo'li bilan hal qilish imkoni bo'lmasa, tomonlar o' rtasidagi nizolar qonun hujjatlarida belgilangan tartibda hal etiladi

## 6. FORS-MAJOR

6.3. Tomonlar mazkur Umumiy shartlar bo'yicha majburiyatlarini qisman yoki to'liq bajarmaganlik uchun javobgarlikdan ozod bo'ladi, agar bu bajarmaslik mazkur Umumiy shartlar qabul qilinganidan keyin yuzaga kelgan, tomon mavjud choralar bilan oldini ololmaydigan, yengib bo'lmas kuch (fors-major) holatlarning oqibatida yuzaga kelsa.
6.4. Yengib bo'lmas kuch sharoiti ular bunga vakolati bo'lgan organlar tomonidan qonunda belgilangan tartibda tasdiqlangan holatda fors-major hisoblanadi.

Korporativ kartalarni chiqarish va ularga
xizmat ko'rsatishning umumiy shartlariga
**1-ILOVA**

**HUMO/UZCARD so'm korporativ plastik kartasini chiqarishga**
**ARIZA**

Tashkilot: ______________________________________________________________________
(Tashkilotning nomini kiriting)

nomidan :______________________________________________________________________
(Korxona rahbarining lavozimi va F.I.Sh)

Sizdan so'rayman: ☐ **HUMO asosiy** ☐ **UZCARD asosiy**
☐ **HUMO qo'shimcha** ☐ **UZCARD qo'shimcha**

korporativ plastika kartasini ☐**CHIQARISH** ☐**QAYTA CHIQARISH** ☐**YOPISH**
so'rayman

**Kartani qayta chiqarish sababi** ** ☐Zarar yetgan/Yo'qotilgan ☐Muddati tugagan ☐Boshqa __________

**Qayta chiqarilayotgan/yopilayotgan karta raqami****_____________________________________________

**KORXONANING REKVIZITLARI:**
Hisobvaraq: _________________________________________________ MFO: _________________
STIR: __________________ Bankning nomi: ______________________________________________
Yuridik manzili*:_______________________________________________________________________
Bog'lanish uchun raqam: +998(___) ________________ e-mail: __________________________________
Korxonaning holati: ☐rezident ☐norezident: Mamlakat: ___________________________

**ASOSIY KARTA EGASI HAQIDA MA'LUMOT**
F.I.Sh. ________________________________________________________________________________
Pasport ma'lumotlari/ID ma'lumoti: Seriya: ____ Raqam: ___________ Berilgan sana: ___________________
Kim tomonidan berilgan: ________________________________________________________________
Manzil: _______________________________________________________________________________

**MAXFIY SO'Z:**
Bank bilan telefon suhbatlarida foydalaniladigan karta egasi shaxsini tasdiqlash uchun parol:

| | | | | | | | | | | | | | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | | | | | | | | | | | | | | | | | | |

---

**NAZORAT MA'LUMOTLARI**
Men ushbu ariza to'ldirilayotgan vaqt Bankda amalda bo'lgan yuridik shaxs va yakka tartibdagi tadbirkorlarning hisobvaraqlariga xizmat ko'rsatish, shuningdek korporativ kartalarni chiqarish va ularga xizmat ko'rsatishning Umumiy shartlari va Bank Tariflari bilan tanishman va roziman.
Mazkur Arizada mavjud ma'lumotlarning ishonchliligini tasdiqlayman.
Bank:
- mazkur Arizada mavjud ma'lumotlarni tekshirish huquqiga ega
- sababini tushuntirmasdan plastik karta chiqarishdan bosh tortish huquqini o'zida saqlab qolishiga

roziman.

**Imzo** ______________________ **M.O'.** **Sana: «____» ______________ 20___**

---

BANK BELGISI
Arizani qabul qiluvchi: ______________________________/____________________/
(*F.I.Sh.*) (*imzo*) ____/____/20___y.

** - kartalar chiqarish va/yoki qo'shimcha xizmatlarni ulashda to'ldirilishi shart*
*** - faqat kartalar qayta chiqarilganida yoki yopilganida to'ldirilishi shart*

"O‘zbekiston Respublikasi Tashqi iqtisodiy faoliyat milliy banki" AJ da yuridik shaxslar va yakka tartibdagi tadbirkorlarga kompleks bank xizmatlarini ko‘rsatish Shartnomasiga
**5-ILOVA**

**Yuridik shaxsga foydalanish uchun xalqaro kartochkani taqdim etishning UMUMIY SHARTLARI**

## 1. ASOSIY TERMIN VA ATAMALAR

**SKHV** - SMPK bilan "O'zR tashqi iqtisodiy aoliyat milliy Bank" AJ (keyingi o'rinlarda - Bank) muassasasi ochadigan maxsus so'm karta hisobvarag'i.

**SMPK** - bank muassasasi chiqargan uzkart tizimining so'm mikroprotsessor plastik kartasi.

**MKH** - Visa kartasi bilan PS ochiladigan, xorijiy valyutada maxsus karta hisobvarag'i.

**Debet-karta** - karta Egasi nomiga ariza bo'yicha Bank tomonidan chiqarilgan ,VISA logotipi tushirilgan to'lov kartasi. Karta karta Egasining SKS bo'yicha takroriy operatsiyalar amalga oshirish imkoniyati bilan ta'minlaydi.

**Ekvayer** - O'zbekiston Respublikasidan tashqarida joylashgan, o'zi xizmat ko'rsatadigan tarmoqda kartalarga xizmat ko'rsatuvchi VISA moliyaviy a'zo-institut.

**SSK** - Savdo-servis korxonasi - mulk shaklidan qat'i nazar, O'zbekiston Respublikasidan tashqaridan joylashgan va Ekvayer bilan tuzilgan Shartnoma asosida tovar va xizmatlarni sotishda kartalarga xizmat ko'rsatuvchi savdo va servis korxonasi.

**Umumiy shartlar** - mazkur Umumiy shartlar, unga barcha ilova va qo'shimchalar.

**Yo'riqnoma** - plastik kartadan foydalanish bo'yicha Karta Egasi uchun Yo'riqnoma.

**Qoidalar** - plastik karta bilan operatsiyalarni amalga oshirish qoidalari.

**Tranzaksiya** - Ekvayerning xizmat ko'rsatish tarmog'ida Karta yordamida Karta Egasi amalga oshiradigan istalgan naqd/naqdsiz operatsiya.

**PM** - Avtorizatsiyani amalga oshirish va Tranzaksiyalar va mablag'larni MKH ga qaytarish bilan bog'liq operatsiyalarni qayta ishlash, shuningdek boshqa moliyaviy ma'lumotlarni taqdim etish uchun zarur qurilma va dasturiy ta'minot bilan jihozlangan Bankning protsessing markazi.

**Qurilma** - "Qurilma" deganda quyidagilar nazarda tutiladi:

- **BANKOMAT** - Ekvayer xizmat ko'rsatish tarmog'ida KARTALAR bo'yicha naqd pul chiqarish va mijozlarga karta hisobvaraqlari holati to'g'risida ma'lumot taqdim etish uchun mo'ljallangan elektron qurilma.
- **TERMINAL** - SSK da xizmat ko'rsatish, Ekvayerning alohida bo'linma/filiallarida naqd pul chiqarish, shuningdek mijozlarga karta hisobvaraqlari holati to'g'risida ma'lumot taqdim etish uchun mo'ljallangan elektron qurilma
- **IMPRINTER** - SSK da naqdsiz hisob-kitoblarni amalga oshirish uchun mo'ljallangan mexanik qurilma. IMPRINTERdan ovozli AVTORIZATSIYAdan keyin TRANZAKSIYA rasmiylashtirish, KARTA izini yechish uchun SLIPdan o'tkazishda foydalaniladi.

**AVTORIZATSIYA** - naqdsiz to'lov amalaga oshirishda yoki TERMINAL, IMPRINTER orqali naqd olish uchun Karta egasi ishtirokida SSK/EKVAYER tashabbusi bilan elektron/ovozli so'rov bo'yicha yoki Karta Egasi tomonidan mustaqil ravishda Bankomat orqali operatsiyalarni amalga oshirishda Tranzaksiyani o'tkazishga PM ruxsati. Avtorizatsiya karta Egasining to'lovga yaroqliligini tasdiqlash uchun o'tkaziladi. Avtorizatsiya kodi Kvitansiyada aks etadi.

**PIN** - Karta Egasi BANKOMAT/TERMINAL orqali Karta vositasida operatsiyalarni amalga oshirish huquqiga ega ekanligini tasdiqlash uchun mo'ljallangan shaxsiy identifikatsiya raqami. **PIN** shuningdek TRANZAKSIYALARNI amalga oshirishda Karta Egasining qo'lda qo'yilgan imzosining analogi hisoblanadi.

**STOP-LIST** - Karta Egasining arizasi yoki Bank xohishi bo'yicha BANK olishi va Bankka qaytarilishi lozim bo'lgan, yo'qolgan/o'g'irlangan KARTA raqamlarining elektron ro'yxati.

**Kvitansiya** - "Kvitansiya" deganda:

- **CHEK** - TRANZAKSIYANI amalga oshirish natijasida TERMINAL yoki BANKOMAT bosib chiqargan elektron xabar blanki;

- **SLIP** - PM dan Avtorizatsiya olinganidan so'ng IMPRINTER vositasida SSK/EKVAYER bilan rasmiylashtiriladigan qog'zoz ko'rinishidagi xabar blanki ko'zda tutiladi.

**Kredit-vaucher** - Karta Egasining Karta vositasida oldinroq to'langan tovarlardan (ishlar, xizmatlar) bosh tortishi to'g'risidagi, SSK da MKH ga vositalarni qaytarish uchun CHEK/SLIP shaklida rasmiylashtiriladigan kvitansiya. Kredit-vaucher Avtorizatsiya kodini talab qilmaydi.

**Tarif** - bank operatsiyalari bo'yicha mijozlarga xizmat ko'rsatganlik uchun BANK vositachilik haqining stavkasi. Tarif Bank tomonidan tasdiqlanadi.

**Uchinchi Shaxslar** - Bank, Karta Egasi va O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankidan boshqa barcha shaxslar Uchinchi Shaxs hisoblanadi.

**Axborot xizmatlari -** Bank mijozlarining ularni depozit hisoblari, shu jumladan kartalari bo'yicha operatsiyalari to'g'risidagi xabar, shuningdek yangi mahsulot va xizmatlar, reklama va boshqa turdagi ma'lumotlarni axborot texnologiyalarining yutuqlaridan (SMS, E-MAIL, FAX, WEB, IVR va h.k.) foydalanib uyali aloqa tarmoqlari va Internet-provayderlar vositasida taqdim qilish.

## 2.UMUMIY QOIDALAR

2.1. Mazkur Umumiy shartlar Kartani chiqarish tartibi va undan karta Egasining foydalanish tartibini belgilaydi.

2.2. Kartadan qat'iy O'zbekiston Respublikasi hududida Ekvayer xizmat ko'rsatish tarmog'ida tovarlarning (ishlar, xizmatlar) naqdsiz to'lov, Ekvayer xizmat ko'rsatish tarmog'ida o'rnatilgan Qurilmalar orqali naqd pul olish bo'yicha operatsiyalarni amalga oshirish, shuningdek xalqaro to'lov tizimlarining qoidalarida ko'zda tutilgan boshqa to'lov operatsiyalarini amalga oshirish uchun foydalaniladi. Shuningdek Kartadan O'zbekiston Respublikasi hududida aviakompaniyalar va ularning agentlari aviakassalarida yoki Bank muassasalarida o'rnatilgan POS-terminallarda sotish xarakterida bo'lmagan operatsiyalarni amalga oshirishda (davolanish va/yoki o'qish uchun chetga pul ko'chirish) foydalanish mumkin;

2.3. MKH ga faqat karta Egasi Bankning konversiya bo'limi orqali xarid qilgan xorijiy valyuta ko'chirilishi mumkin. MKH dan pul mablag'larining karta Egasiga qaytarilishi milliy valyuta - so'mda, karta Egasining pul mablag'larini qaytarish yoki MKH ni yopishga rasmiylashtirilgan arizasi asosida mablag'larni qaytarish sanasida Bank xorijiy valyutani xarid qiladigan kurs bo'yicha amalga oshiriladi.

## 3. KARTADAN FOYDALANISH TARTIBI VA QOIDALARI

3.1. Karta Bankning mulki hisoblanadi va vaqtincha foydalanishga beriladi, Karta uning old tomonida ko'rsatilgan oyning so'ngi kunigacha amal qiladi. Amal qilish muddati yakunlangan Kartadan foydalanish man qilinadi.

3.2. Bank Kartani o'zi aniqlagan muddatga chiqaradi (3 yil) va uni PIN, Yo'riqnoma bilan shaxsan karta Egasiga topshiradi.

3.3. Bank Umumiy shartlar bo'yicha taqdim qilinadigan xizmatlar uchun Bank Tarifiga ko'ra vositachilik haqi oladi.

3.4. Karta Egasining MKH to'ldirilishi Karta Egasining Bankning konversiya bo'limi orqali xarid qilgan xorijiy valyuta hisobiga rasmiylashtirilgan arizasi asosida amalga oshiriladi. MKH dan pul mablag'larining qaytarilishi karta Egasining pul mablag'larini qaytarish yoki MKH yopishga topshirgan yozma arizasi asosida amalga oshiriladi. Bunda MKH qoldig'ining qaytarilishi quyidagicha amalga oshiriladi:

3.4.1. O’zaro hisob-kitobga qo’yilgan avtorizatsiyalangan tranzaksiyalar bo’lmagan holatda – ariza berilgan sanadan 3 bank kuni ichida;

3.4.2. O’zaro hisob-kitobga qo’yilmagan avtorizatsiyalangan tranzaksiyalar mavjud bo’lganida – ariza berilgan sanadan 33 taqvim kuni ichida ular qo’yilishi tartibida.

3.5. Ekyaver to’lovga qo’ygan ondan, shuningdek karta Egasi mablag’larni qaytarish yoki MKH yopilishiga ariza rasmiylashtirgan holatda avtorizatsiyalangan va o’tkazilgan tranzaksiyalar bo’yicha summalar karta Egasining MKH sidan yechiladi va MKH bo’yicha ko’chirmalarda aks etadi, ushbu ko’chirma karta Egasining yozma arizasi bo’yicha beriladi.

3.6. Karta Egasi karta yo’qotilganligi to’g’risida Bankka xabar bergan holatda (telefon, axborot xizmatlari vositasida) Bank karta Egasini identifikatsiyalaydi, uning MKH bo’yicha barcha

operatsiyalarini undan foydalanishni bloklash yo’li bilan to’xtatib turadi (MKH bloklanadi) va karta Egasining keyingi yozma topshiriqlarini kutadi. Karta Egasidan:
3.6.1. kartani yo’qotganlik, o’g’irlanganligi bilan bog’liq qayta chiqarilishiga yozma ariza olgan holatda, Bank kartani Karta Egasiga qayta chiqarib beradi;
3.6.2. yo’qotilganligi to’g’risida yozma ariza olganida (asli, faks bo’yicha) kartani stop-listga kiritadi.

## 4.BANKNING HUQUQLARI

4.1.BANK QUYIDAGI HUQUQLARGA EGA:
4.1.1. Karta egasiga Kartani chiqarish/qayta chiqarish yoki Kartadan foydalanib amalga oshiriladigan operatsiyalarni to’xtatib turishdan bosh tortish, shuningdek Kartani olib qo’yish va uni yo’q qilish hamda MKH ni yopish bo’yicha choralar ko’rish:
- Karta Egasi tomonidan umumiy shartlar, Qoidalar, Yo’riqnomalar, amaldagi qonunchilik, xalqaro to’lov tizimlari va umumiy shartlarga tegishli bo’lgan Bank ichki me’yoriy hujjatlarining qoidalari buzilganida;
- agar bu bo’yicha Karta Egasining topshirig’i berilgan bo’lsa;
- agar Karta Egasi o’z harakatlari bilan Bankni moliyaviy yo’qotishlar bilan bog’liq asossiz tavakkalchilikka yo’liqtirsa;
- agar Karta yoki uning rekvizitlaridan noqonuniy foydalanilishidan ochiq darak beruvchi holatlar mavjud bo’lsa;
- Kartani olish uchun Karta Egasining arizasida noto’g’ri yoki buzib ko’rsatilgan ma’lumotlar taqdim qilinsa;
- Bankning xohishiga qarab istalgan boshqa holatlarda.
4.1.2. Karta Egasining MKH sidan shartsiz tartibda:
- o’tkazilgan Tranzaksiyalar bo’yicha summalarni yechish;
- Karta Egasining Umumiy shartlar, Qoidalar, Yo’riqnomalarni buzishi natijasida bankka yetkazilgan xarajatlar bo’yicha barcha summalarni yechish;
- Karta vositasida amalga oshirilgan operatsiyalar bo’yicha hisob-kitoblar olib borish bo’yicha taqdim qilingan xizmatlar va boshqa xizmatlar uchun Bankning Tarifiga binoan vositachilik haqini yechish;
4.1.3. bir tomonlama tartibda Bankning narx siyosatidan kelib chiqib Tarifga o’zgartirishlar kiritish, bunda Karta Egasini Tarifda o’zgarishlar haqida mavjud vositalar bilan xabardor qilish.
4.1.4. xalqaro to’lov tizimlarining talablariga muvofiq naqd pul mablag’larini berishga, shu jumladan bankomat orqali, limitlar belgilash huquqiga ega.
4.2 Bank amaldagi qonunchilik, umumiy shartlar, xalqaro to’lov tizimlarining qoidalari hamda Bankda ichki me’yoriy hujjatlarga muvofiq boshqa huquqlarga ham ega.

## 5.BANKNING MAJBURIYATLARI

**5.1.**BANKNING MAJBURIYATLARI:
5.1.1. Karta Egasining yozma arizasi asosida (chiqarish/qayta chiqarish, magnit yo’lagini qayta kodlash), karta Egasining imzosi bilan kartani PIN-konvert hamda yo’riqnoma bilan belgilangan tartibda topshirish.
5.1.2. Kartadan foydalanib amalga oshirilgan operatsiyalar bo’yicha hisob-kitoblarning yuritilishi va to’g’riligini ta’minlash;
5.1.3. Karta Egasini SMS- va E-MAIL-xabarnoma kabi xizmatlarga, shuningdek shaxsiy WEB- va IVR-kabinetlarga Karta Egasining ushbu xizmatlarga ulanish to'g'risida arizasi asosida ulash. SMS-xabarnoma uyali aloqa raqamiga, E-MAIL-xabarnoma - karta egasining elektron pochta manziliga ulanadi. Bundan tashqari, Bank Karta Egasiga Shaxsiy WEB-kabinetdan foydalanish uchun login va parol, shuningdek IVR-kabinet uchun parol hamda "ONLINE BANK" tizimidan foydalanuvchilar yo'riqnomasini taqdim etadi.
5.1.4. Ekvayer xizmat ko'rsatish tarmog'ida amalga oshirilgan Tranzaksiyalar summasiga Karta Egasi MKH sini debetlash;
5.1.5. Agar SSK/Ekvayer belgilangan tartibda kredit-vaucher qo'ysa Karta Egasining MKH sini kreditlash;
5.1.6. Agar Karta Egasi axborot xizmatlariga ulangan bo'lsa:

a) Karta Egasiga SMS, E-MAIL va/yoki shaxsiy WEB-kabinet orqali axborot xizmatlarini taqdim etish;

b) Karta Egasining yozma arizasiga binoan Karta Egasining boshqa uyali aloqa telefoni raqamlari, boshqa elektron pochta manzillarini axborot xizmatlariga ulash, shu jumladan oldingilarini o'chirish;

5.1.7. Karta Egasining yozma arizasi boyicha uning MKH sidan ko'chirma berish;

5.1.8. Karta Egasi MKH ga mablag'larni qaytarish va MKH ni yopishga rasmiylashtirgan arizasi asosida operatsiyani amalga oshiriladigan kun xarid kursi bo'yicha milliy valyutada Karta Egasi pul mablag'lari, shu jumladan mijoz MSKH siga ko'chirish yo'li bilan qaytarilishini ta'minlash;

5.2. Bank amaldagi qonunchilik, xalqaro to'lov tizimlari hamda Bankning ichki me'yoriy hujjatlari qoidalariga muvofiq boshqa majburiyatlarga ham ega.

## 6.KARTA EGASINING HUQUQLARI

6.1.KARTA EGASI QUYIDAGI HUQUQLARGA EGA:

6.1.1. o'z MKH sini to'ldirish;

6.1.2. mos keluvchi ariza berish orqali Karta chiqarish/qayta chiqarish;

6.1.3. Bankdan Kartadan foydalanish qoidalari hamda Kartadan foydalanib amalga oshiriladigan operatsiyalarbo'yicha Karta Egasi va Bankning javobgarligi haqida to'liq ma'lumot olish;

6.1.4. telefon, elektron pochta va/yoki shaxsiy kabinet orqali axborot xizmatlaridan foydalanish;

6.1.5. Bankka yozma ariza bilan murojaat qilib yoki shaxsiy WEB-kabinet orqali mustaqil ravishda uyali aloqa telefonining boshqa raqamlari/elektron pochta manzillarini axborot xizmatlariga ulash, shu jumladan oldingilarini o'chirish;

6.1.6. Bank taqdim etadigan axborot yoki boshqa xizmatlardan bosh tortish;

6.1.7. Bankka Kartani yopishga yozma ariza berish orqali Kartaga xizmat ko'rsatilishini to'xtatish, bunda tomonlar o'rtasida MKH bo'yicha bajarilmagan barcha majburiyatlar tartibga solinishi va Karta Bankka qaytarilishi shart;

6.1.8. Kartadan oldinroq o'tkazilgan Tranzaksiya bo'yicha Ekvayer bilan o'zaro hisob-kitovga Tranzaksiya qo'yilgan sanadan 30 (o'ttiz) taqvim kuni ichida MKH ga pul mablag'lari qaytarilishini talab qilish, bunda:

- SSK/Ekvayer tomonidan Kredit-vaucher belgilangan tartibda rasmiylashtirilishi va qo'yilishi;
- Yoki SSK/Ekvayerga nisbatan Bankda rasmiylashtirilgan e'tiroz taqdim qilinishi lozim. Bank Karta Egasidan Tranzaksiya hisob-kitobga qo'yilgan sanadan 30 (o'ttiz) taqvim kuni ichida e'tiroz olmasligi Karta Egasining Tranzaksiyalarning qo'yilgan hisob-kitobiga roziligini anglatadi.

6.1.9. pul mablag'larini qaytarish/MKH ni yopishga berilgan ariza asosida qaytarilgan va milliy valyutaga konvertatsiyalangan pul mablag'larini bankda ochilgan o'z MSKH siga ko'chirish;

6.1.10. yozma ariza bo'yicha bankdan MKH dan ko'chirma olish;

6.1.11. Kartadan foydalanishdan bosh tortish, MKH ni yopish;

6.1.12. uning MKH si bo'yicha o'tkazilgan Tranzaksiyalar bo'yicha tushuntirish talab qilish;

6.1.13. Kartasining Stop-listga kiritilishi to'g'risida Bankka yozma so'rov jo'natish.

6.1.14. Kartaning amal qilish muddati yakunlanishigacha Kartani chiqargan Bank muassasasiga Kartani qayta chiqarishga yozma ariza topshirish.

6.1.15. Karta Egasi Karta vositasida amalga oshirilgan tovar va xizmatlar uchun to'lovlarni va Kvitansiyada Karta Egasining imzosi bo'lgan holatda to'lovni to'xtatib turish huquqiga ega emas.

6.2. Karta Egasi amaldagi qonunchilik, xalqaro to'lov tizimlari va Bankning ichki me'yoriy hujjatlari qoidalariga muvofiq boshqa huquqlarga ham ega.

## 7.KARTA EGASINING MAJBURIYATLARI

7.1. KARTA EGASINING MAJBURIYATLARI:

7.1.1 Ushbu Kartadan mazkur Umumiy shartlar, Yo'riqnoma, amaldagi qonunchilik, Umumiy shartlarga tegishli xalqaro to'lov tizimlari va bank ichki me'yoriy hujjatlarining qoidalariga muvofiq foydalanish;

7.1.2 Umumiy shartlar, yo'riqnomalar, amaldagi qonunchilik, Umumiy shartlarga tegishli xalqaro to'lov tizimlari va bank ichki me'yoriy hujjatlarining qoidalarini buzishi natijasida bankning barcha xarajatlarni to'lash;

7.1.3 Kartadan o'z MKH sida foydalanish mumkin bo'lgan pul mablag'lari qoldig'i doirasida foydalanish;
7.1.4 Kartadan unda ko'rsatilgan muddat ichida foydalanish, kartaning amal qilish muddati yakunlanganida esa - uni bankka qayta chiqarishga qaytarib berish;
7.1.5. MKH yopilgan holatda kartani bankka qaytarish, karta qaytarilmagan holatda - uni yo'qotganlik uchun tarifga binoan jarima to'lash;
7.1.6. Karta bankka topshirilganidan keyin yoki uning amal qilish muddati yakunlanganidan keyin, shuningdek "yo'qotilgan" sifatida bildirilgan karta rekvizitlaridan foydalanib operatsiyalarni amalga oshirmaslik;
7.1.7. Kartani bankka qaytarishda uni faqat bankning vakolatli xodimiga topshirish;
7.1.8. Mazkur Umumiy shartlarning 5.1.3 bandida axborot xizmatlarini ulash uchun ko'rsatilgan o'zining doimiy yashash joyi, pasport ma'lumotlari, shuningdek o'zining uyali aloqa telefon raqami va/yoki elektron pochta manzili o'zgarganligi to'g'risida bankka zudlik bilan xabar berish;
7.1.9. Bankda o'z MKH sida qoldiqlarni nazorat qilish, shu bilan birga karta egasining MKH sida ekvayer tomonidan o'zaro hisob-kitoblarga qo'yilgan tranzaksiyaning asl summalari, shuningdek karta egasidan bank tariflariga binoan yechiladigan bank vositachilik haqining yechilishi hisobiga faol qoldiqda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan texnik overdraftni bartaraf etish;
7.1.10. Karta bo'yicha tranzaksiyani amalga oshirishda yuzaga keluvchi qarzdorlikni MKH da qoldiqdan yuqori bo'lgan summada qoplash, bunda qarzdorlik uning MKH siga kiritilgan/ko'chirilgan mablag'lar hisobidan, quyidagi tartibda so'ndirilishi lozim:
7.1.11. MKH bo'yicha yuzaga kelgan qarzdorlik uchun to'lovni qoplash;
7.1.12. Hisob bo'yicha qarzdorlikni so'ndirish.
7.1.13. MKH da pul mablag'larining harakati to'g'risida har oy ko'chirma so'rash;
7.1.14. Kartadan foydalanib amalga oshirilgan barcha tranzaksiyalar bo'yicha hujjatlarni ular amalga oshirilgan sanadan 6 oy davomida salqash hamda ularni bankning dastlabki talabiga ko'ra karta bo'yicha tranzaksiyalar qonuniy amalga oshirilganligini tasdiqlash yoki nizoli holatlarni tartibga solish uchun taqdim etish;
7.1.15. Karta yo'qotilgani/o'g'irlangani haqida va uning MKH sidan noqonuniy foydalanish bo'yicha unga ma'lum barcha holatlar to'g'risida mos keluvchi ariza (xabar) yo'naltirish yo'li bilan yoki kartaning orqa tomonida va yo'riqnomada ko'rsatilgan telefon bo'yicha bankning PM ga zudlik bilan xabar berish. Agar karta egasi telefon orqali uning MKH sidan noqonuniy foydalanish holatlari yoki karta yo'qotilganligi to'g'risida xabar berga bo'lsa, 1 (bir) ish kuni ichida u bankka karta yo'qotilganligi/o'g'irlanganligi/undan noqonuniy foydalanilganligi faktining tasdig'ini faks orqali yoki karta yo'qotilganligi to'g'risida va/yoki karta yo'qotilganligi, o'g'irlanganligi tufayli uni qayta chiqarishga arizaning u topshirilgan vaqt va sana ko'rsatilgan aslini bankka yo'naltirishi shart. Yozma arizaning bo'lmasligi tomonlar bilan mazkur Umumiy shartlarning 3.6 bandida ko'rsatilgan, karta yo'qotilganligi to'g'risida ma'lumot ko'rsatilgan ariza yo'qligi deb tan olinadi va PM ga MKH dan foydalanishni blokdan chiqarish huquqini beradi. Bunda kartadan foydalanib amalga oshirilgan barcha operatsiyalar, bunday holatda karta egasi zimmasiga yuklatiladi;
7.1.16. Unga karta bo'yicha o'tkazilgan tranzaksiyalar bo'yicha berilgan kvitansiyalarni imzolash;
7.1.17. Bank bilan yaqin hamkorlik qilish va yo'qotilgan yoki o'g'irlangan kartani topish uchun barcha imkoniyatlarini ishga solish.
7.1.18. Karta Egasi karta yordamida amalga oshirgan operatsiyalar bo'yicha hisob-kitoblarni yuritish bo'yicha taqdim etilgan xizmatlar va boshqa xizmatlar uchun Bankning vositachilik haqini bank tariflariga muvofiq to'lash.
7.2. Karta Egasi Karta Uchinchi Shaxslarga bermaslik va PIN ni oshkor qilmaslik majburiyatini oladi.
7.2.1. Karta Egasi amaldagi qonunchilik, Umumiy shartlar, xalqaro to'lov tizimlari hamda Banknig ichki me'yoriy hujjatlar qoidalariga muvofiq boshqa majburiyatlarga ham ega.

## 8.TOMONLARNING JAVOBGARLIGI

8.1. BANKNING JAVOBGARLIGI
8.1.1. Yo'qotilgan yoki o'g'irlangan Kartadan foydalanib operatsiyalar bo'yicha Karta egasining Bankka topshirgan, Karta yo'qotilgan va/yoki o'g'irlangani yoki uning PINi biror kimsaga oshkor

bo'lganligiga shubhasi haqida yozma arizasi qabul qilingan sanadan 3 bank kuni ichida amalga oshirilgan, Karta Egasi MKH dan foydalanib bajarilgan operatsiyalar summasi miqdorida.

8.2. Bank javobgar emas:

8.2.1. Agar Avtorizatsiya Bankka bog'liq bo'lmagan biror sababga ko'ra rad qilingan bo'lsa;

8.2.2. Bank nazoratida bo'lmagan sharoitlar tufayli o'z majburiyatlarini bajarish imkonsizligi tufayli;

8.2.3. Taqdim qilgan xizmatlari uchun Karta Egasi MKH sidan Ekvayer undiradigan vositachilik haqi turlari va miqdorilari, shuningdek Ekvayer belgilagan asl Tranzaksiya summasi uchun;

8.2.4. Karta Egasi Karta ma'lumotlarini oshkor qilinishiga yo'li qo'yishi tufayli Uchinchi Shaxslar amalga oshirgan operatsiyalar bo'yicha;

8.2.5. agar Karta Egasi Umumiy shartlar, Yo'riqnoma, amaldagi qonunchilik, Umumiy shartlarga tegishli xalqaro to'lov tizimlari va Bank ichki me'yoriy hujjatlarida ko'zda tutilgan Kartadan foydalanish bo'yicha qoida va jarayonlarni buzsa;

8.2.6. Karta Egasi tomonidan noqonuniy harakatlar amalga oshirilgan holatda.

8.2.7. agar Karta va/yoki PIN yo'qotilishi qo'pol ehtiyotsizlik yoki Karta Egasining Kartaga beparvolik munosabati natijasida sodir bo'lsa;

8.2.8. agar Tranzaksiyalar Bank Karta Egasining kartani yo'qolishi/PIN ning oshkor bo'lganligi/karta yo'qolishi, o'g'irlanishi yuzasidan qayta chiqarishga yozma arizasi Bankka topshirilishidan oldingi sanada o'rinli bo'lsa va Karta yo'qolishi/PIN oshkor bo'lganligi/Karta yo'qolishi, o'g'irlanishi yuzasidan qayta chiqarilishiga ariza berilgan sanadan 3 ish kunida.

8.2.9. Karta Egasi Uchinchi shaxslarga Kartani berganida va/yoki PIN ni va/yoki shaxsiy kabinetga login va parolni oshkor qilganida (ochiqlaganida).

8.2.10. Karta Egasi uyali aloqa telefon raqami va/yoki elektron manzilini noto'g'ri taqdim qilganida, shuningdek Bankka uyali aloqa telefon raqami va/yoki elektron manzili o'zgarganligi to'g'risida ma'lumotlarni o'z vaqtida taqdim qilmaganida yuborilgan SMS va E-mail uchun.

8.3. KARTA EGASINING JAVOBGARLIGI:

8.3.1. Umumiy shartlar, Qoidalar, Yo'riqnomalar, amaldagi qonunchilik, Umumiy shartlar predmetiga tegishli xalqaro to'lov tizimlari va Bank ichki me'yoriy hujjatlari qoidalarini buzganlik uchun;

8.3.2. PIN ni oshkor qilganlik va/yoki Kartani Uchinchi shaxsga berganlik uchun;

8.3.3. Uchinchi shaxslarga login/parolni oshkor qilganlik va/yoki uyali aloqa telefon raqami/elektron manzil/shaxsiy kabinetdan foydalanishiga yo'l qo'yganlik uchun;

8.3.4. Bank Karta Egasining kartani yo'qolishi/PIN ning oshkor bo'lganligi/karta yo'qolishi, o'g'irlanishi yuzasidan qayta chiqarishga yozma arizasi Bankka topshirilishidan oldingi sanada o'rinli bo'lgan istalgan Tranzaksiyalar uchun va Karta yo'qolishi/PIN oshkor bo'lganligi/Karta yo'qolishi, o'g'irlanishi yuzasidan qayta chiqarilishiga ariza berilgan sanadan 3 ish kunida;

8.3.5. Karta egasining MKH sida pul mablag'lari harakati bilan bog'liq istalgan moliyaviy operatsiyalar uchun;

8.3.6. Umumiy shartlar va Bank Tariflariga ko'ra MKH bo'yicha pul mablag'larining harakatlari bilan bog'liq barcha xarajatlar uchun;

8.3.7. Karta yopilgan holatda Karta bankka qaytarilgunicha va karta qaytarilganidan keyin 33 (o'ttiz uch) taqvim kuni ichida barcha tranzaksiyalar uchun;

8.3.8. mazkur Umumiy shartlar shartiga muvofiq Kartochka qaytarilmagani uchun, shu jumladan MKH yopilgan holatda Karta Egasi Bank Tarifiga muvofiq jarima to'laydi.

8.3.9. Bankka taqdim etiladigan barcha ma'lumotlarning ishonchliligi uchun.

## 9.UMUMIY SHARTLARGA O’ZGARTIRISH KIRITISH

9.1. Umumiy shartlarga kiritiladigan barcha o’zgarish va qo’shimchalar ular Bankning rasmiy sayti (www.nbu.uz) hamda “Ibank” masofadan bank xizmatlarini ko’rsatish tizimida e’lon qilingan ondan kuchga kiradi.

9.2. Umumiy shartlarga barcha ilovalar, qo'shimchalar Qoidalar va Yo'riqnomalar Umumiy shartlarning ajralmas qismi hisoblanadi va Tomonlar ularni bajarishi shart.
9.3. Bank bir tomonlama tartibda O'zbekiston Respublikasining banklarida norezidentlarga hisobvaraqlar ochish va ulardan foydalanish to'g'risidagi Qoidalar yoki xalqaro to'lov tizimlarining qoidalari o'zgargan holatda Umumiy shartlarga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritadi.

## 10.UMUMIY SHARTLARNING TUGATILISHI

10.1. Umumiy shartlar Kartada ko'rsatilgan muddatgacha amal qiladi va Karta qayta chiqarilgan holatda qayta chiqarilgan Kartaning amal qilish muddatigacha avtomat tarzida uzaytiriladi.
10.2. Umumiy shartlar Karta egasi Kartani ochishga ariza berish yo'li bilan aksept qilgan ondan kuchga kiradi.
10.3. Umumiy shartlar bo'yicha xizmatlar taqdim etish/foydalanish Karta egasining yozma arizasiga binoan istalgan vaqtda tugatilishi mumkin.
10.4. Bankning talabiga ko'ra umumiy shartlar bo'yicha xizmatlar taqdim etishning tugatilishi quyidagi holatlarda amalga oshirilishi mumkin:
10.4.1. Karta egasining MKH da saqlanayotgan pul mablag'larining summasi bank qoidalarida ko'zda tutilgan minimal miqdordan kam bo'lganida, agar bunday summa bir oy ichida qayta tiklanmasa;
10.4.2. 1 yil ichida MKH da operatsiyalar amalga oshirilmasa;
10.4.3. Karta Egasi mazkur Umumiy shartlarning 7-bo'limida ko'zda tutilgan majburiyatlarni buzgan holatda.
10.5. Karta Egasining talabiga ko'ra Umumiy shartlar bo'yicha xizmatlardan foydalanish quyidagi shartlar asosida tugatilishi mumkin:
- mazkur MKH ga berilgan Kartalar Umumiy shartlar va Bank Yo'riqnomalariga muvofiq bankka qaytarilgan;
- Karta Egasi Umumiy shartlar bo'yicha barcha majburiyatlarini bajargan;
- Karta Egasi Bank oldida qarzdorlikka ega emas.

## 11. MAXFIYLIK

11.1. Tomonlar bank va tijorat siri, shuningdek ularga Umumiy shartlarga muvofiq oshkor bo'lgan har qanday maxfiy ma'lumotlarni saqlash va oshkor qilmaslikni ta'minlash majburiyatini oladi.
11.2. Karta Egalari va ulardan foydalanib amalga oshirilgan operatsiyalar to'g'risidagi ma'lumot, shuningdek Kartalarning o'zi haqida ma'lumot Bank siri hisoblanib, O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida belgilangan tartib va asoslarda taqdim qilinadi.
11.3. Tomonlar Kartalar va dasturiy-texnik vositalarda bajariladigan operatsiyalar haqida ma'lumotlarni himoyalashda xalqaro to'lov tizimlari tomonidan o'rnatilgan talablarga rioya qilishadi.
11.4. Tomonlar Bankning "Bank siri to'g'risida"gi Qonunda ko'zda tutilgan holatlarda bank siri hisoblanuvchi ma'lumotlarni uchinchi shaxslarga, shuningdek Bankning Karta Egasiga SMS va E-mail-xabarnoma kabi axborot xizmatlarini, shuningdek shaxsiy WEB va IVR kabinetlari orqali texnik xarakterdagi xizmatlarni ko'rsatuvchi shaxslarga xabar qilishi yoki taqdim etishi bank sirini oshkor qilish hisoblanmasligiga rozilik bildirishadi.

## 12. NIZOLARNING HAL QILINISHI

12.1. Tomonlar o'rtasida mazkur Umumiy shartlarni bajarmaganlik tufayli yuzaga kelib chiqqan barcha nizo va kelishmovchiliklar o'zaro kelishuvlar yo'li bilan hal qilinadi.
12.2. Yuzaga kelgan kelishmovchiliklarni kelishuvlar yo'li bilan hal qilish imkonsiz bo'lgan holatda Tomonlar o'rtasidagi nizolar O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga muvofiq hal qilinadi.

## 13. YAKUNIY QOIDALAR

13.1. Mazkur Umumiy shartlar bilan tartibga solinmagan barcha masalalarda Tomonlar O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi, xalqaro to'lov tizimlarining me'yorlari, Bankning ichki me'yoriy hujjatlari qoidalariga amal qilishadi.

13.2. Mazkur Umumiy shartlar va xalqaro to'lov tizimlari va/yoki Bankning ichki me'yoriy hujjatlari o'rtasida tafovut yuzaga kelgan holatda xalqaro to'lov tizimlarining me'yorlari va Bank ichki me'yoriy hujjatlari ustun kuchga ega bo'ladi.

Yuridik shaxsga foydalanish uchun xalqaro
kartochkani taqdim etishning umumiy shartlari
**1-ILOVA**

| **O’ZBEKISTON RESPUBLIKASI TASHQI IQTISODIY FAOLIYAT MILLIY BANKIGA** |
|---|
| ___________________________________________________________dan |

MKH OCHISH VA KARTA CHIQARISHGA ARIZA ____________________________
Bo’linma nomi ______________________sh.

______________________ da _______________________________________________ nomiga
(valyuta nomi) (hisobvaraq egasining ismi)

maxsus karta hisobvarag’i ochishingizni so’rayman “(“Plastik kartalar bo’yicha majburiyatlar” depoziti)”

Manzil ____________________________________________________________________________
(uy manzili: Indeks, Shahar, Tuman/Ko’cha, uy, kv.)

_______________________-son hisobvarag’im bo’yicha operatsiya amalga oshirishda shart hisoblangan

imzo namunasini xabar qilaman
__________________________________________________________________________
(familiya, ism, sharif)

____________________y. ________________________
(to’ldirilgan sana) (hisobvaraq egasining imzosi)

---

Hisobvaraq ochishga hujjatlarni bosh hisobchi tekshirdi ___________________________.
(imzo)
Mijoz ID si __________________da ochildi Mijoz ID si______________________________

Hisobvaraq ochishga hujjatlarni bosh hisobchi tekshirdi _________________________
(imzo)
Rahbar ______________ (imzo)
Hisobvaraq "___" _________20 __ yilda ochildi
Hisobvaraq raqami ____________________________________
Boshqa belgilar _____________________________________________________________________
___________________________________________________________________________________
___________________________________________________________________________________

*(MIJOZ TOMONIDAN TO'LDIRILADI)*

O'zbekiston Respublikasi TIF Milliy bankining to'lov kartasini va shaxsiy identifikatsiya raqamini chiqarishingizni so'rayman. Men quyida taqdim etiladigan ma'lumotlarning ishonchliligi va to'liqligini tasdiqlayman va sizga barcha zarur so'rovlarni amalga oshirish vakolatini beraman.

[ ] VISA/MASTERCARD__________________ [ ] VISA/MASTERCARD __________________

[X] Asosiy karta
(*agar bu asosiy karta bo'lsa, unda to'ldiring 1-bo'lim*)

[ ] Qo'shimcha karta
(*agar bu qo'shimcha karta bo'lsa, unda to'ldiring 1 va 2-bo'lim*)

1-BO'LIM. ASOSIY KARTA EGASI TO'G'RISIDA MA'LUMOT

Tashkilotning nomi ____________________________________________________________
(lotin harflari bilan)

Norezident ____________________________________________
(Siz qaysi davlat fuqarosi hisoblanasiz)

Bank bilan telefon suhbatlarida foydalaniladigan, karta egasining shaxsini tasdiqlash uchun parol
__________________________________________________________________________
(16 tagacha harf)

Pasport raqami ________________ ______________________________ tomonidan _____________ da berilgan

Ish joyi _____________________________________________________________________

Lavozimi: _________________________________

STIR ___________________ ___________________ da

Ish manzili _________

Bog'lanish uchun telefon ____________________________________

Bo'linmada hisobvaraq raqami
____________________________________________________________

Hisobvaraq ochilgan sana ___________________

2-BO'LIM. QO'SHIMCHA KARTA EGASI TO'G'RISIDA MA'LUMOT

Tashkilotning nomi ____________________________________________________________
(lotin harflari bilan)

Rezident Norezident Davlat ___________________________
(Siz qaysi davlat fuqarosi hisoblanasiz)

Operatsiyalarni amalga oshirish uchun Qo'shimcha kartaga o'rnatilgan limit__________________________________________________________________________
(summa yoki cheksiz ko'rsatilsin)

Uy manzili____________________________________________________________
(Indeks, Shahar, Tuman/Ko'cha, uy, kv.)

Pasport raqami ___________________ ____________________ dan ___________________tomonidan berilgan

Ish joyi ____________________________________________________________________

Lavozimi __________________________________________

STIR ___________________ __________________________da

Ish manzili ____________________________________________________________________

Bog'lanish uchun telefon _____________

---

BANK BELGISI (ARIZANI QABUL QILGAN BO'LINMA TOMONIDAN TO'LDIRILADI)

Bo'linmaning nomi: ____________________________________________________________

Bo'linma xodimining lavozimi, F.I.Sh. __________________________________________

Bo'linma xodimining imzosi ___________________________

*(mas'ul ijrochi shtampi va sana)*

"O‘zbekiston Respublikasi Tashqi iqtisodiy faoliyat milliy banki" AJ da yuridik shaxslar va yakka tartibdagi tadbirkorlarga kompleks bank xizmatlarini ko‘rsatish Shartnomasiga
**6-ILOVA**

**Savdo-servis korxonasida xalqaro kartalar (Visa va Master Card)ga xizmat ko‘rsatishning UMUMIY SHARTLARI**

**TERMIN VA ATAMALAR**

**SSK** - Savdo-servis korxonasi/ Bankning mijozi

**VISA va MASTER CARD va MasterCard** - VISA INTERNATIONAL va MASTER CARD – yagona standartlar va yagona savdo belgisi bo‘yicha turli to‘lov mahsulotlari (kartalar, yo‘l kvitansiyalari)ni ishlab chiqaruvchi va ularga xizmat ko‘rsatuvchi, moliya tashkilotlari hamda institutlarini uyg‘unlashtiruvchi xalqaro uyushma.

**KARTA –** Visa International va Master Card standartlari va talablariga javob beruvchi istalgan amaldagi shaxsiy plastik Visa va Master Card kartasi. Visa va Master Card a’zolar tomonidan xorijiy valyutada chiqarilgan – EMITENTLAR. Kartalarning tavsifi YO‘RIQNOMAda mavjud.

**KARTA EGASI** – kartani to‘lov vositasi sifatida taqdim etuvchi jismoniy/yuridik shaxs. Kartadan foydalanish huquqi KARTA EGASIning:

- karta PINini bilishi;
- karta STOP-LISTda emasligi;
- kartaning ort tomonidagi KARTA EGASIning imzosi bilan tasdiqlanadi.

**PIN** – shaxsiy identifikatsiya raqam – karta egasining karta yordamida moliyaviy va axborot operatsiyalarini amalga oshirish huquqini tasdiqlash uchun mo‘ljallangan, to‘rttadan oltitagacha raqamdan tashkil topgan raqamli maxfiy parol.

**UMUMIY SHARTLAR** – barcha ilova va qo‘shimchalardan iborat mazkur umumiy shartlar.

**YO‘RIQNOMA** – SSK uchun karta egalariga xizmat ko‘rsatish, bank bilan ishlash, karta egasini identifikatsiya qilish, kartada xavfsizlik vositalarini tekshirish hamda qurilmadan foydalanish bo‘yicha qo‘llanmasi;

**ANKETA** – SSK haqida ma’lumot keltirilgan varaq (rekvizitlar, SSK ishchilari yo‘riqnomadan o‘tganligi to‘g‘risida ma’lumotlar, faoliyat turi).

**TRANZAKSIYA** – karta egasining karta orqali SSKda o‘rnatilgan Qurilmada amalga oshiradigan naqdsiz operatsiyasi.

Tranzaksiyalar:

- Yer usti/simsiz aloqa kanallaridan foydalanib, PM da avtorizatsiyalangan Tranzaksiyalar bo‘yicha TERNIMAL orqali;
- Keyinchalik bankka topshiriladigan qog‘oz kvitansiya sliplardan foydalanib IMPRINTER orqali amalga oshiriladi.

**PM –** avtorizatsiyani amalga oshirish, tranzaksiyalarni umumlashtirish, qayta ishlash, karta egasiga pul mablag‘larini qaytarish, shuningdek boshqa moliyaviy ma’lumotlarni taqdim etish bilan bog‘liq operatsiyalarni uyg‘unlashtirish va qayta ishlash uchun zarur qurilma va dasturiy ta’minot bilan jihozlangan Bankning protsessing markazi.

**AVTORIZATSIYA –** to‘lovni o‘tkazish uchun SSKda karta egasi ishtirokida yaratilgan elektron/telefon so‘rovi bo‘yicha Tranzaksiya o‘tkazishga PMning ruxsati. Avtorizatsiya karta egasining to‘lovga qobiliyatli ekanligini tasdiqlash uchun o‘tkaziladi. Avtorizatsiya kodi kvitansiyada aks etadi.

**STOP-LIST –** Bankka qaytarilishi lozim bo‘lgan va xizmat ko‘rsatish mumkin bo‘lmagan yo‘qotilgan/o‘g‘irlangan karta raqamlarining elektron ro‘yxati. Emitentlar ma’lumoti asosida shakllantiriladi, so‘ngra Visa va Master Card da birlashtiriladi va Emitentlarga ko‘paytiriladi.

**QURILMA –** Savdo terminali – Savdo terminalining o‘zi va bank/emitentlar tomonidan chiqarilgan karta egasining kartochkasi o‘rtasida elektron Avtorizatsiya va Tranzaksiyani amalga

oshirish imkonini beruvchi dasturiy-texnik elektron qurilma. Terminallar to‘liq funksiyali statsionar, to‘liq funksional ko‘chma turlarga bo‘linadi. Savdo terminali terminalning modeliga bog‘liq ravishda mijozning ko‘chma klaviaturasiga ega bo‘lishi mumkin (to‘liq funksiyali statsionar), uning yordamida karta egasi zarur summa, PINlarni kiritadi va tranzaksiyalarni amalga oshirilishiga ruxsat beradi yoki bekor qiladi.

**IMPRINTER –** SSKning o‘zi va karta egasining kartasi o‘rtasida Tranzaksiyani amalga oshirish uchun karta egasining kartasi va SSK qolipidan izlarni olish uchun mexanik prokat uskunasi. Imprinterdan foydalanganda SSK va PM o‘rtasida telefon-ovozli Avtorizatsiya amalga oshiriladi.

**KVITANSIYA –** Savdo terminali yoki imprinterda uch nusxada chiqarilgan, Tranzaksiya amalga oshirilganligini tasdiqlaydigan xabar beruvchi blank. Bir nusxa SSK xizmat ko‘rsatganida karta egasiga, ikkinchisi – SSK tomonidan Bankka beriladi, uchinchisi – SSK da qoladi.

**INKASSATSIYA –** SSK tomonidan chiqariladigan elektron naqdsiz operatsiya, buning natijasida SSK ning Savdo Terminalida amalga oshirilgan barcha Tranzaksiyalar to‘g‘risidagi ma’lumotlar OM ga kelib tushadi. Inkassatsiya SSK tomonidan Bankdan o‘tkazilgan Tranzaksiyalar bo‘yicha to‘lovlar olish maqsadida amalga oshiriladi.

**YAKUNIY INKASSATSIYA CHEKI –** SSKning Savdo Terminali Inkassatsiyani muvaffaqiyatli o‘tkazganligi natijalari haqida kvitansiya, u uning tarmog‘ida o‘tkazilgan Tranzaksiyalarning umumiy summasini aks ettiradi.

**KREDIT-VAUCHER –** Karta egasining xarid qilingan tovarlar yoki ko‘rsatilgan xizmatlardan bosh tortishi to‘g‘risidagi kvitansiya. Kredit-Vaucher SSK belgilangan tartibda, Karta egasining talabiga ko‘ra, Karta egasining karta hisobvarag‘iga oldin o‘tkazilgan Tranzaksiya bo‘yicha pul mablag‘larini qaytarishi shart bo‘lgan holatlarda to‘ldiriladi. Kredit-Vaucher SSK tomonidan qo‘lda to‘ldiriladi.

**EMITENT –** Kartochkalarni muloqotga chiqaruvchi, VISA va MASTER CARD a’zosi hisoblangan istalgan bank (xorijiy yoki O‘zbekiston Respublikasi banki).

**CHARGEBACK –** Karta egasini rad etish va buning oqibatida, Bank/Karta Emitentning oldinroq o‘tkazilgan Tranzaksiyani rad etishi. Bunday qaytariladigan to‘lovlar hajmining keskin ortishi SSK firibgarlik faoliyatining birinchi belgisi hisoblanadi.

**BANKNING TARIFI –** O‘zbekiston Respublikasi TIF Milliy banki xizmatlar ko‘rsatgani uchun komissiya haqining amaldagi Tarifi. Bank tomonidan tasdiqlanadi.

## 1. UMUMIY SHARTLAR

**1.1.** Bank mazkur Umumiy shartlarda:

- SSK ga Bank taqdim qiladigan Qurilma vositasida Tranzaksiyalarni amalga oshirish orqali SSK va xaridor – Karta Egasi o‘rtasida xarid qilingan tovarlar yoki ko‘rsatilgan xizmatlar uchun naqdsiz elektron hisob-kitoblar amalga oshirilishini ta’minlash bo‘yicha xizmatlar taqdim etadi;
- SSK ga naqdsiz Inkassatsiya natijasida Bank PM ga kelib tushgan Tranzaksiyalarni qayta ishlash bo‘yicha xizmatlarni taqdim qiladi;
- Zarurat bo‘lganida SSK taqdim qilgan SSK hisobotlarining qog‘oz nusxalari asosida o‘tkazilgan Tranzaksiyalar to‘g‘risida ma’lumotlar qo‘lda kiritadi.

**1.2.** Naqdsiz hisob-kitoblar doirasida Bank, SSK va Karta Egasining munosabatlari: Visa va Master Card xalqaro plastik kartalaridan foydalanib naqdsiz hisob-kitoblarni amalga oshirish tizimi dasturiy ta’minotining talablari, O‘zbekiston Respublikasi Markaziy Bankining “Tijorat banklari tomonidan bank kartalarini chiqarish va ularni O‘zbekiston Respublikasida muomalada bo‘lishi tartibi to‘g‘risidagi” Qarori (O‘zR AV tomonidan 2004-yil 30-aprelidan 1344-son bilan ro‘yxatga olingan), shuningdek O‘zbekiston Respublikasida amaldagi qonunchilikk asosida amalga oshiriladi.

## 2. BANK XIZMATLARINI TAQDIM QILISH SHARTLARI

2.1. Bank SSKga Qurilmaning qoldiq qiymatini ko‘rsatgan holda, Qurilmani topshirish-qabul qilish dalolatnomasi asosida (mazkur Umumiy shartlarga 5-ilova) vaqtincha beg‘araz foydalanishga beradi.

2.2. Bank tomonidan SSK ga topshirilgan Qurilma, Umumiy shartlarga muvofiq Bank mulki hisoblanadi. SSK va xaridor – Karta Egasi oʻrtasida xarid qilingan tovarlar yoki koʻrsatilgan xizmatlar uchun Tranzaksiyalar amalga oshirilishini taʼminlash boʻyicha Bank xizmatlarining toʻlovi SSK tomonidan toʻlanadigan davrning birinchi oyi 10 kuni ichida, har uch oyda Bankda amalda boʻlgan Tariflarga muvofiq amalga oshiriladi.

2.3. SSK Karta Egasi taqdim etgan Kartani tekshiradi va Yoʻriqnomaga muvofiq operatsiyani rasmiylashtiradi.

2.4. SSK Karta Egasining Kartasi boʻyicha amalga oshiradigan har qanday Tranzaksiya Avtorizatsiyani talab qiladi.

2.5. SSK amalga oshiradigan Tranzaksiylar uning SSK anketasida koʻrsatilgan faoliyat turiga mos boʻlishi lozim.

2.6. Tranzaksiya amalga oshirilganidan soʻng 3 bank kunidan kech boʻlmagan muddatda SSK Bankka hisobotlari bilan Kvitansiya va/yoki Kredit-Vaucherni Bankka taqdim etadi. SSK hisobotni ikki namunada tuzadi. Hisobotlarga ham butun SSK da, ham alohida, SSK da oʻrnatilgan har bir Qurilma boʻyicha Kvitansiya va Kredit-Vaucherlar boʻyicha umumiy summa kiritiladi. Bankning masʼul xodimi tomonidan SSK da qoladigan hisobot namunasida Kvitansiya yoki Kredit-Vaucherni qabul qilganlik toʻgʻrisida mos keluvchi belgi qoʻyiladi. Bankning Kvitansiya va/yoki Kredit-vaucherlarni qabul qilishi Kvitansiyada mavjud Karta egalari imzosining tan olinishini anglatmaydi.

2.7. SSK dan Tranzaksiyalar boʻyicha Kvitansiyalar, Yakuniy Inkassatsiya cheki va Kredit-vaucher boʻyicha hisobot qabul qilingan ondan 3 bank kunidan kech boʻlmagan muddatda Bank SSK ning depozit hsobvaragʻiga talab etilgungacha Kredit-Vaucher boʻyicha ayirilgan, barcha SSK Kvitansiyalar umumiy yakuniy summasiga teng summani koʻchirib beradi. Bunda Bank SSK operatsiyalarini qayta ishlash uchun vositachilik haqini Bank Tariflariga muvofiq ushlab qoladi. Vositachilik haqi Kartalar boʻyicha tovar va xizmatlarni sotishdan SSK ga kelib tushgan daromad summasidan undiriladi.

2.8. Yoʻriqnoma buzilgan holatda rasmiylashtirilgan, shuningdek belgilangan muddatdan kech taqdim qilingan Kvitansiyalar aniqlangan holatda bunday Kvitansiyalar boʻyicha SSK ga toʻlov amalga oshirilmaydi.

2.9. Umumiy shartlarning 2.3-bandiga muvofiq, summa koʻchirilishi lozim boʻlgan depozit hisobvaragʻi talab etilgungacha SSK tomonidan yozma shakldа aniq koʻrsatilishi lozim. Bunday koʻrsatma mavjud boʻlmagan holatda Bank SSK ning talab etilgungacha depozit hisobvaragʻiga koʻchirishni amalga oshiradi.

2.10. Bank PM ga naqdsiz Inkassatsiya natijasida kelib tushgan Tranzaksiyalarni qayta ishlash boʻyicha Bank vositachilik haqi, SSK uchun Bank Tarifiga muvofiq belgilanadi.

## 3. BANKNING HUQUQLARI

3.1. Bankning huquqlari:

3.1.1. Tranzaksiyalar/Tranzaksiyaga toʻlovni amalga oshirmaslik yoki SSK ga toʻlov oʻtkazib boʻlingan taqdirda taqdim qilingan Tranzaksiya/Tranzaksiyalar summasida toʻlovni qaytib olish, agar:

- Tranzaksiyalar/Tranzaksiya boʻyicha maʼlumotlar Umumiy shartlar va Yoʻriqnoma talablari buzilgan holda topshirilgan yoki taqdim etilgan boʻlsa;
- Karta Egasi uning Kartasi boʻyicha oʻtkazilgan Tranzaksiyadan norozi boʻlsa va Karta egasi noroziligini huquqiy tasdiqlovchi maʼlumotlar mavjud boʻlsa (Kvitansiyada Karta Egasi imzosining yoʻqligi yoki Kvitansiya va Kartada Karta Egasining imzolari, shuningdek Kvitansiyada zarur rekvizitlar mos boʻlmaganida); Karta Egasining Tranzaksiyaga noroziligi haqidagi arizasi yoki Bank/Emitetning, shu jumladan Karta Egasining imzosi nomuvofiqligi yoki toʻlov tizimining Qoidalariga rioya qilinmaganligiga asoslangan Tranzaksiya boʻyicha Chargeback toʻgʻrisida xabar bersa;
- Karta mavjud boʻlmaganida amalga oshirilgan Tranzaksiyalar oʻrinli, bunda Kvitansiya Karta egasi va SSK ning imzolarisiz, hisobot bilan taqdim qilingan boʻlsa; shuningdek Karta Egasining

imzosi bilan tasdiqlangan Tranzaksiyalar oʻtkazishga yozma koʻrsatmalar taqdim qilinmagan boʻlsa;
- SSK da shubhali faollik kuzatilsa (Tranzaksiyalar soni yoki summasi keskin ortsa, bunda ushbu Tranzaksiyalar boʻyicha taqdim etilgan Cheklarda Karta Egasining imzosi mavjud boʻlmasa);
- Kvitansiya va/yoki Kredit Vaucher belgilangan muddatdan kech taqdim qilinsa.

3.1.2. Oʻtkazilgan Tranzaksiyalar boʻyicha SSK bilan hisob-kitob amalga oshirilganida Bank Tarifida koʻzda tutilgan xizmatlar uchun vositachilik haqi summasini ushlab qolish;

3.1.3. 2.9-bandda koʻrsatilgan xizmatlar uchun toʻlov undirish;

3.1.4. bir tomonlama tartibda mazkur Umumiy shartlar boʻyicha taqdim etilgan xizmatlar uchun vositachilik haqi miqdorini oʻzgartirish;

3.1.5. agar Tranzaksiya boʻyicha Kvitansiyalar Yoʻriqnoma qoidalarini buzib rasmiylashtirilganligi belgilansa, pul mablagʻlarini Karta Egalariga qaytarish;

3.1.6. Qurilmadan foydalanish qoidalari hamda xaridorlar – Karta Egalariga tovar va xizmatlarni taqdim etish qoidalarining nazorat tekshiruvini amalga oshirish.

3.1.7. Bank SSK dan quyidagilarni talab qilish huquqiga ega:

3.1.7.1. Bank tomonidan SSK ga vaqtincha begʻaraz foydalanish uchun topshirilgan Qurilmaga zarar yetkazilgan holatda unga ketgan xarajatlarni qoplash, Qurilmaning dasturiy ta’minotda uzilishlar sababli ishga yaroqsiz boʻlgan holatlari bundan mustasno;

3.1.7.2. SSK Qurilmani yoʻqotgan holatda kompensatsiya;

3.1.8. Zarar yetkazish va buzish turlarining tasnifi va ular boʻyicha xarajatlarni qoplash va kompensatsiya stavkalari 1-Ilovada keltirilgan. Zarar yetkazish buzish fakti qurilmaning ishga yaroqsizligi toʻgʻrisidagi Bayonnoma-Xulosada rasmiylashtiriladi. Bayonnoma-xulosaning shakli 4-ilovada berilgan. Zarurat boʻlganida Qurilma yetkazib beruvchining servis-markazida nuqson Bayonnomasi tuziladi. Topshirilgan Qurilmaning yoʻqotilganlik fakti qurilmani yoʻqotganlik Bayonnomasi bilan tasdiqlanadi va rasmiylashtiriladi. Yoʻqotganlik toʻgʻrisida Bayonnoma shakli 3-ilovada berilgan.

3.2. Bank amaldagi qonunchilik, mazkur Umumiy shartlar va xalqaro toʻlov tizimlarining qoidalariga muvofiq boshqa huquqlarga ham ega.

## 4. BANKNING MAJBURIYATLARI

4.1. Bankning majburiyatlari**:**

4.1.1. Yiliga 2 marta majburiy va belgilangan tartibda Kartalarga xizmat koʻrsatuvchi SSK xodimlarini Kartalar, hisobot hujjatlari va Qurilmalar bilan ishlash qoidalari, shuningdek Bankka hisobot hujjatlarini taqdim etish tartibi va muddatlari boʻyicha oʻqitish va instruktaj oʻtish. Instruktaj oʻtilganligi toʻgʻrisida ikki namunada Bayonnoma tuziladi, SSK va Bankning mas’ul xodimlari tomonidan imzolanadi.

4.1.2. Umumiy shartlar va Yoʻriqnomaga muvofiq amalga oshirilgan va taqdim etilgan Kartalar boʻyicha amalga oshirilgan Tranzaksiyalar summasini koʻrsatilgan SSK ning talab etilguncha deposit hisobvaragʻini kreditlash yoʻli bilan toʻlab berish;

4.1.3. SSK ning yozma talabiga koʻra mazkur Umumiy shartlar boʻyicha Bank amalga oshirgan operatsiyalar boʻyicha ma’lumotlarni berish;

4.1.4. SSK va uning xaridori – Karta Egasi oʻrtasida xarid qilinan tovarlar yoki koʻrsatilgan xizmatlar uchun Tranzaksiyalarni Savdo Terminali orqali amalga oshirish hamda keyinchalik Bank SSK bilan keyingi hisob-kitoblarni yuritish uchun Bankning naqdsiz hisob-kitoblar tizimiga oʻtkazilgan Tranzaksiyalar boʻyicha pul mablagʻlarini inkassatsiyalash yoʻli bilan SSK ga Tranzaksiyalarni amalga oshirish boʻyicha xizmatlar taqdim etish.

4.1.5. Bayonnoma asosida, mazkur umumiy shartlarga 1-ilovada koʻrsatilgan shaklda SSK xizmat koʻrsatish nuqtalarida Savdo Terminallarini oʻrnatish.

4.1.6. SSK ga Karta Egalariga xizmat koʻrsatish uchun zarur boʻlgan Qurilmalarni belgilangan tartibda topshirish;

4.1.7. Bank amaldagi qonunchilik, mazkur Umumiy shartlar va xalqaro toʻlov tizimlarining qoidalariga muvofiq boshqa majburiyatlarga ham ega.

## 5. SSK NING HUQUQLARI

5.1. SSK ning huquqlari:

5.1.1. Mazkur Umumiy shartlarga muvofiq xizmatlar taqdim etish uchun Bankka ariza yuborish (2-ilova);

5.1.2. Bankdan yozma ariza asosida Bank oʻtkazgan operatsiyalar boʻyicha mazkur Umumiy shartlarga muvofiq maʼlumot olish;

5.1.3. Bankdan SSK xodimlarining qoʻshimcha instruktajini oʻtash haqida yozma soʻrash;

5.1.4. Bankdan SSK ga tegishli xizmat koʻrsatish nuqtalarida xizmat koʻrsatish uchun qoʻshimcha Qurilma taqdim etishi toʻgʻrisida yozma soʻrash. Bunda Bank ariza yoki talabnomalarning faqat aslini koʻrib chiqishga qabul qiladi. Shu jumladan faksimal aloqa orqali yoʻnaltirilgan hujjatlar nusxasini Bank koʻrib chiqmaydi.

5.1.5. SSK amaldagi qonunchilik, mazkur Umumiy shartlar va xalqaro toʻlov tizimlarining qoidalariga muvofiq boshqa huquqlarga ham ega.

5.2. SSK huquqiga ega emas:

5.2.1. Karta Egasi Karta vositasida toʻlangan tovar/mahsulotlardan bosh tortgan holatda naqd pul berish. Bunday holatda SSK Kredit Vaucher toʻldirishi va keyin uni Karta boʻyicha boshqa Tranzaksiyalar bilan hisobotda Bankka taqdim etishi lozim.

5.2.2. Tovar birligi yoki bitta xizmat narxini ulushli toʻlovlarga boʻlish va ularni bir nechta Kvitansiyalar bilan rasmiylashtirish, yoki Avtorizatsiya kodi soʻrovidan qochish maqsadida boshqa toʻlov vositalari bilan muqobil toʻlov qabul qilish;

5.2.3. Umumiy shartlarning 1-bandida keltirilgna xizmatlarni koʻrsatishda boshqa Bank yoki tashkilotlar taqdim qilgan va SSK ga tegishli boʻlmagan Qurilma, Kvitansiya va/yoki Kredit Vaucherlardan foydalanish;

5.2.4. Bank Qurilmasini uchinchi shaxslarga berish;

5.2.5. Bir Tranzaksiya boʻyicha maʼlumotlarni har qanday koʻrinishda takroran taqdim etish;

5.2.6. Karta boʻyicha SSK da mavjud tovar/xizmat narxidan oshadigan summada operatsiya rasmiylashtirish.

## 6. SSK NING MAJBURIYATLARI

6.1. SSK ning majburiyatlari:

6.1.1. Qurilma orqali SSK anketasida koʻrsatilgan faoliyat turiga muvofiq Tranzaksiya amalga oshirish.

6.1.2. Umumiy shartlar, Yoʻriqnoma va xalqaro toʻlov tizimlarining qoidalariga muvofiq Karta boʻyicha amalga oshirilgan Tranzaksiyalar boʻyicha Savdo Terminali Inkassatsiyasini kundalik taʼminlash;

6.1.3. Umumiy shartlar va Yoʻriqnomalarga muvofiq Kvitansiya va Kredit-Vaucherlar rasmiylashtirish;

6.1.4. Tranzaksiyani amalga oshirishdan oldin Kartani Yoʻriqnomaga muvofiq tekshirish va Bankdan Avtorizatsiya kodini olish;

6.1.5. Avtorizatsiya muvaffaqiyatli oʻtkazilgan holatda Karta Egasidan terminal Kvitansiyasini 3 (uch) nusxada imzolashni talab qilish. 1-nusxa Karta Egasiga, 2 – Bankka topshiriladi, 3 SSK da qoladi.

6.1.6. Karta Egasi Chekni imzolanishini nazorat qilish. Kvitansiya va Kartaning orqa qismidagi imzolar mos kelishi kerak. bunda SSK Kvitansiyalarning barcha 3 nusxasida Karta Egasining imzosi oʻxshash boʻlishini nazorat qilishi shart.

6.1.7. Cheklarda imzolar farq qilgan holatda, Karta Egasidan imzo tushunarsiz yoki boshqalari bilan oʻxshash boʻlmagan Kvitansiyada imzoni qayta qoʻyishni soʻrashi lozim.

6.1.8. Terminal Karta boʻyicha oʻtkazilgan Tranzaksiyalar boʻyicha Inkassatsiya qilinganidan soʻng Kvitansiyalar boʻyicha Hisobotni lozim darajada rasmiylashtirish va uni Bankka ular rasmiylashtirilgan ondan 2 bank kunidan kech boʻlmagan muddatda topshirish.

6.1.9. SSK belgilangan tartibda, Karta Egasining pul mablagʻlarini uning karta hisobvaragʻiga qaytarish talabiga binoan SSK Kredit Vaucherni lozim darajada rasmiylashtirishi va keyin uni Bankka alohida Hisobot koʻrinishida u rasmiylashtirilgan ondan 1 bank kuni ichida qaytarishi lozim.

6.1.10. Karta Egasiga naqd pulda xizmat koʻrsatish narxidan yuqori boʻlmagan narxlarda xizmat koʻrsatish;

6.1.11. agar Avtorizatsiya amalga oshirilganidan so‘ng sotuv sodir bo‘lmasa Avtorizatsiyani bekor qilish uchun Bank PM bilan zudlik bilan bog‘lanish va SSK ushbu shartlarni bajarmagan holatda Bankka yetkazilgan zararni qoplab berish;
6.1.12. har bir xonasida Bank taqdim etadigan reklama belgilarini joylashtirish va istisno tarzida Karta SSK tomonidan to‘lov vositasi sifatida qabul qilinishini ko‘rsatish uchun Bank ruxsat bergan nom va tasvirlardan foydalanishi;
6.1.13. Yo‘riqnomani bajarish, Umumiy shartlar predmetiga tegishli xalqaro to‘lov tizimlarining qoidalariga rioya qilish;
6.1.14. Kvitansiya/Kredit Vaucherlarning uchinchi nusxalarini ular rasmiylashtirilgan ondan 3 yil Ichida saqlash va Bankning birinchi talabi bo‘yicha ularni 3 kun Ichida Bankka taqdim qilish;
6.1.15. agar Avtorizatsiya vaqtida Bankdan mos keluvchi buyruq olingan va Terminalning Chekida “Pick Up Card (Kartani olib qoling)” turdagi xabar chiqsa to‘lov sifatida taqdim qilingan shubhali Kartani barcha qonuniy usullarda to‘xtatib qolish. Bunda Sotuvchi Karta olib qolinganligi to‘g‘risida Banka zudlik bilan xabar qilishi lozim;
6.1.16. Tranzaksiyalarni amalga oshirish uchun faqat Bank o‘rnatgan Qurilmadan foydalanish;
6.1.17. Bankning birinchi yozma talabi bo‘yicha 3 bank ish kuni Ichida Qurilmani unga qaytarish;
6.1.18. Bankdan xabar olgandan so‘ng 5 bank kuni ichida Bank Umumiy shartlar va Yo‘riqnomaga muvofiq, shuningdek agar amalga oshirilgan Tranzaksiyalar SSK ko‘rsatgan faoliyat turiga mos emasligi qayd etilgan holatda SSK dan talab qilish huquqiga ega bo‘lgan har qanday Tranzaksiya bo‘yicha summani qaytarish;
6.1.19. Bank SSK ga bergan Qurilmaning saqlanishi va vazifasiga ko‘ra ishlatilishini ta’minlash;
6.1.20. Bankka Qurilmaning buzilishi, zarar yetishi va ishdan chiqishining barcha holatlari bo‘yicha o‘z vaqtida xabar berish;
6.1.21. taqdim etilgan Qurilma yo‘qotilgan yoki unga zarar yetkazilgan holatlarda uning qiymatini, shuningdek barcha jarimalarni Bank Tarifiga muvofiq to‘lab berish;
6.1.22. Bankning talabiga ko‘ra, SSK ga Bank tomonidan vaqtincha beg‘araz foydalanishga berilgan Qurilmaga zarar yetgan-singan holatda qurilma uchun xarajatlarni 1-Ilovaga muvofiq stavkalarda to‘lab berish;
6.1.23. Bankka uning talabi bo‘yicha 1-Ilovaga muvofiq stavkalar bo‘yicha Qurilma yo‘qotilganligi yuzasidan kompensatsiyani to‘lab berish.
6.1.24. Bankdan yozma so‘rov olgan onidan 3 bank kuni ichida Bankka SSK qo‘l ostida bo‘lgan barcha hujjatlarni Tranzaksiyalar bo‘yicha tergov o‘tkazish uchun taqdim qilish;
6.1.25. Kartalardan noqonuniy foydalanish holatlarining oldini olish va ularni aniqlash uchun vaqti-vaqti bilan Bank so‘rovi bo‘yicha Bankni ikkala tomonning fikricha oqilanona bo‘lgan yordam bilan ta’minlash;
6.1.26. SSK ning rekvizitlari, faoliyat turi, Qurilmaning joylashgan joyi va h.k. bilan bog‘liq barcha o‘zgarishlar to‘g‘risida Bankka zudlik bilan, yozma ko‘rinishda xabar berish;
6.1.27. Karta Egasiga Kredit-Vaucherlar bo‘yicha barcha summalarni to‘lab berish.
6.1.28. Bankning mas’ul xodimlariga SSK sotadigan tovar va xizmatlarning xarkateri va turi haqidagi ma’lumotlarni taqdim etish, shuningdek Kartalarga xizmat ko‘rsatish bo‘yicha SSK faoliyatini nazorat qilish imkoniyatini taqdim etish.
6.1.29. SSK amaldagi qonunchilik, mazkur Umumiy shartlar va xalqaro to‘lov tizimlarining qoidalariga muvofiq boshqa majburiyatlarga ham ega.

## 7. TOMONLARNING JAVOBGARLIGI

7.1. Umumiy shartlarning 2.3-bandiga muvofiq to‘lov o‘z vaqtida amalga oshirilmagan holatda BANK SSK ga kechiktirilgan to‘lov summasidan har bir kechiktirilgan kun uchun 0,01%, lekin shunday to‘lovning 10% dan ortiq bo‘lmagan miqdorida penya to‘laydi.
7.2. SSK Bankdan 5.1.3-bandga muvofiq so‘ragan ma’lumotlar o‘z vaqtida taqdim etilmagan holatda Bank SSK foydasiga O‘zbekiston Respublikasida belgilangan minimal ish haqining 10% miqdorida jarima to‘laydi.
7.3. SSK Bankka hisobotlar, Kvitansiyalar, Kredit-Vaucherlarni o‘z vaqtida taqdim etmagan holatda SSK Bank foydasiga mos keluvchi hisobot, Chek va/yoki Kredit-Vaucher summasidan

har bir kechiktirilgan kun uchun 0,01%, lekin shunday summaning 10% dan ortiq bo‘lmagan miqdorida penya to‘laydi.
7.4. O‘z vaqtida bajarilmagan Inkassatsiya, Kvitansiyalar, Kredit-Vaucherlar, hisobotlarni rasmiylashtirish qoidalari, Karta bo‘yicha operatsiyalarni amalga oshirish qoidalari buzilgan har bir holat uchun SSK zimmasiga Bank foydasiga O‘zbekiston Respublikasida mos keluvchi buzilish amalga oshirilgan kun belgilangan minimal ish haqining 25% miqdorida jarima yuklatiladi.
7.5. mazkur Umumiy shartlar, Umumiy shartlar predmetiga tegishli xalqaro to‘lov tizimlarining qoidalariga muvofiq SSK zimmasiga yuklatilgan boshqa majburiyatlar bajarilmagan har bir holat uchun SSK Bank foydasiga O‘zbekiston Respublikasida mos keluvchi buzilish amalga oshirilgan kun belgilangan ish haqining 1 (bir) minimal miqdorida jarima yuklatiladi.
7.6. SSK o‘ziga yuklatilgan majburiyatlarni buzishi natijasida Karta Egalarining karta hisobvaraqlaridan pul mablag‘lari noqonuniy yechilgan holatda SSK ushbu mablag‘larni to‘liq hajmda qoplab berishi shart. Bunda SSK zimmasiga Bank foydasiga noqonuniy yechilgan pul mablag‘lari miqdorida jarima yuklatiladi.
7.7. Bank Karta raqami qo‘lda kiritilishi usulida avtorizatsiyalangan Tranzaksiyani aniqlagan va buning oqibatida nizoli holat yuzaga kelgan holatda moddiy javobgarlik SSK zimmasiga yuklatiladi.
BANK SSK oldida quyidagilar uchun javobgar emas:
7.7.1. Umumiy shartlarga mos bo‘lmagan yoki qarshi bo‘lgan Tranzaksiyalar bo‘yicha to‘lovlarni ta’minlash, aynan:
- agar SSK Yo‘riqnoma va Umumiy shartlarda belgilangan, Kartadan foydalanib operatsiyalarni amalga oshirish qoida va tartib-taomilini buzsa;
- SSK Yo‘riqnomaga rioya qilinmasdan rasmiylashtirilgan Kvitansiya, Kredit-Vaucherni taqdim etsa yoki Kvitansiya va Kredit-Vaucherlarni belgilangan muddatdan kech topshirsa;
- Agar SSK amalga oshirgan to‘lov operatsiyasida to‘g‘risida ma'lumot yoki hujjatlar mavjud bo‘lmasa;
- SSK tomonidan noqonuniy harakatlar amalga oshirilgan holatda.
7.7.2. agar SSK Umumiy shartlar va Yo‘riqnomaga muvofiq Kvitansiya va/yoki Kredit-Vaucherlar Hisobotini rasmiylashtirish va taqdim etish bo‘yicha talablarni buzsa, to‘lovlar kechikishi uchun.
7.7.3. Qurilmaga zarar yetkazish-buzishi, yo‘qotganligi uchun SSK mos keluvchi Bayonnoma rasmiylashtirilgan sanadan 10 kundan kechiktirmasdan yozilgan hisob-faktura bo‘yicha 1-ilovaga ko‘ra stavkalarda Bankka to‘lovni amalga oshiradi.
7.7.4. Qurilma uchun xarajatlarni qoplash stavkasi va kompensatsiya stavkalari 1-ilovaga muvofiq QQS hisobga olinmasdan ko‘rsatilgan.
7.7.5. Qurilmaga zarar yetkazish-buzish holatida xarajatlarni qoplash stavkalari, shuningdek SSK to‘lab beradigan kompensatsiya stavklaari Qayta ko‘rib chiqilishi mumkin, bu haqida Bank yozma ravishda, 30 kundan kechiktirmasdan SSK ga xabar beradi.
7.7.6. To‘lov so‘mda yozilgan hisob-faktura sanasida O‘zR Markaziy bankining kursi bo‘yicha amalga oshiriladi. Hisob-fakturada belgilangan, to‘lanishi lozim bo‘lgan summa QQS ni hisobga olib ko‘rsatiladi.

## 8. MAXFIYLIK

8.1. SSK va Bank O‘zbekiston Respublikasining qonunchiligiga muvofiq bank va tijorat sirini, shuningdek mazkur Umumiy shartlarni akseptlash va ijro etish bilan bog‘liq ravishda ularga oshkor bo‘lgan, shu jumladan Karta va ularning Egalariga tegishli har qanday maxfiy ma'lumotni saqlash va oshkor qilinmasligini ta'minlash majburiyatini oladi.

## 9. NIZOLARNI HAL QILISH

9.1. Tomonlar o‘rtasida mazkur Umumiy shartlarni ijro etish tufayli yuzaga kelgan barcha nizo va kelishmovchiliklar o‘zaro kelishuvlar yo‘li bilan hal qilinadi.

9.2. Yuzaga kelgan kelishmovchiliklarni kelishuvlar yoʻli bilan hal etish imkonsiz boʻlgan holatda tomonlar oʻrtasidagi nizolar Oʻzbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga muvofiq hal etiladi.

## 10. FORS-MAJOR

10.1. Tomonlar mazkur Umumiy shartlar boʻyicha majburiyatlarini qisman yoki toʻliq bajarmaganlik uchun javobgarlikdan ozod qilinadi, agar bu bajarmaslik yoki qisman bajarmaslik Umumiy shartlar qabul qilinganidan keyin, Tomonlar mavjud choralar bilan oldini olishi va/yoki bartaraf etishi imkonsiz boʻlgan, yuzaga kelgan yengib boʻlmas kuch (fors-major) sharoitining oqibati hisoblansa.
10.2. Yengib boʻlmas kuch sharoiti ular qonunlarda belgilangan tartibda vakolatli organlar tomonidan tasdiqlangan holatda fors-major hisoblanadi.

## 11. UMUMIY SHARTLARGA OʻZGARTIRISH VA QOʻSHIMCHALAR KIRITISH

11.1. Tomonlar Umumiy shartlarga oʻzgarishva qoʻshimchalar kiritishi mumkin.
11.2. Umumiy shartlarda oʻzgarish va qoʻshimchalar Bankning rasmiy saytida (www.nbu.uz) va "Ibank" masofaviy bank xizmatlarini koʻrsatish tizimida e'lon qilinadi.

## 12. UMUMIY SHARTLAR TUGATILISH MUDDATI VA TARTIBI

12.1. Umumiy shartlar Mijoz tomonidan cheksiz muddatga yoki Tomonlardan biri mazkur xizmatlar taqdim qilinishi/ulardan foydalanishni toʻxtatish istagi toʻgʻrisida yozma xabar qilmagunicha qoʻllanadi, agar boshqasi Umumiy shartlarning boshqa bandlarida kelishilmagan boʻlsa.
12.2. Mijoz Umumiy shartlar boʻyicha xizmatlardan foydalanishni tugatgan va SSK ning Qurilmani qaytarishdan va/yoki uning qiymatini qoplab berishdan bosh tortgan holatlarda Tomonlar ushbu harakatni Qurilmaning oʻgʻirlanishi sifatida baholash, shuningdek Oʻzbekiston Respublikasining Qonunchiligida aniqlanuvchi javobgarlikni zimmasiga olish sifatida koʻrib chiqilishiga rozi.
12.2.1. Umumiy shartlar boʻyicha xizmatlar taqdim qilinishi/xizmatlardan foydalanish Tomonlar barcha majburiyatlarini bajarganidan va boshqa tomonni e'lon qilingan tugatish sanasidan 45 kun oldin yozma ogohlantirgandan keyin istalgan Tomonning tashabbusi bilan tugatilishi mumkin. Bank SSK ga oldinroq taqdim etgan barcha Qurilmalar Bankka qaytarilishi hamda Tomonlar oʻrtasida biror-bir qarzdorlik qolmasligi lozim.
12.2.2. Bank bir tomonlama tartibda Umumiy shartlar boʻyicha xizmatlar taqdim etishni toʻxtatib turish huquqiga ega, agar:
12.2.3. SSK haqiqiy boʻlmagan Chek/Kredit-Vaucher taqdim etsa;
12.2.4. SSK da 2 oydan ortiq vaqt davomida Kartalar boʻyicha aylanma mavjud boʻlmasa.
12.3. SSK Umumiy shartlar va Bank Yoʻriqnomasida koʻzda tutilgan majburiyatlarini bajarmagan yoki lozim darajada bajarmagan holatda Bankka Umumiy shartlar boʻyicha xizmatlar taqdim etishni bir tomonlama tartibda toʻxtatib turish uchun asos beradi.
12.4. Ushbu bilan Tomonlar Visa va Master Card xalqaro toʻlov tizimlariga 12.1 va 12.3 bandlarda koʻzda tutilgan tartibda Umumiy shartlar boʻyicha xizmatlar taqdim etilishini izohsiz va shartsiz tugatish huquqini taqdim etishga roziliklarini bildirishadi.

## 13. YAKUNIY QOIDALAR

13.1. SSK Bankka mazkur Umumiy shartlar boʻyicha taqdim etiladigan barcha ma'lumot haqiqiy, aniq va asosli hisoblanishini ma'lum qiladi va kafolatlaydi.
13.2. Ushbu bilan SSK Bankka Umumiy shartlarning 7-boʻlimiga muvofiq izohsiz, shartsiz, bevosita va haqiqiy, shuningdek Umumiy shartlar boʻyicha xizmatlar taqdim etishning butun muddati va qoʻshimcha ular tugatilganidan keyin 6 (olti) taqvim oyi davomida uning ham Bankda, ham boshqa istalgan Bankda ochilgan hisobvaraqlaridan shubhasiz tartibda, istalgan valyutada, Bankka tegishli mablagʻlarni yechish, shuningdek Umumiy shartlar predmetiga tegishli amaldagi qonunchilik, Umumiy shartlar, Visa va Master Card qoidalarida koʻzda tutilgan holatlarda Karta Egalariga qaytarish huquqi/topshirigʻini taqdim etadi.

13.3. Umumiy shartlar Bankning rasmiy saytida va "Ibank" masofadan bank xizmatlarini ko‘rsatish tizimida e'lon qilinadi, shuningdek mijoz mos keluvchi arizani taqdim etgan ondan kuchga kiradi.
13.4. Umumiy shartlarga barcha ilova va qo‘shimchalar uning ajralmas qismi hisoblanadi.
13.5. Umumiy shartlarga muvofiq yoki unga ko‘ra yo‘naltiriladigan barcha xabarlar yozma shaklda bo‘lishi lozim va agar ular buyurtmali xat bilan yuborilgan bo‘lsa yoki Tomonlarning quyida ko‘rsatilgan yuridik manzillari bo‘yicha ular qabul qilib olinganligi tasdiqlanganishi bilan shaxsan yetkazilgan holatda lozim darajada berilgan hisoblanadi.
13.6. Mazkur Umumiy shartlarda tartibga solinmagan barcha masalalarda Tomonlar O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi, xalqaro to‘lov tizimlarining me'yorlariga rioya qilishadi.
13.7. Mazkur Umumiy shartlar va xalqaro to‘lov tizimlarining me'yorlari o‘rtasida tafovut yuzaga kelgan holatda xalqaro to‘lov tizimlarining me'yorlari ustun kuchga ega.

Savdo-servis korxonasida xalqaro kartalar
(Visa va Master Card)ga xizmat
ko‘rsatishning Umumiy shartlariga
**1–ILOVA**

**Savdo-servis korxonasiga topshirilgan, O‘zR TIF Milliy banki qurilmalariga zarar yetkazish-buzish turlarining klassifikatori, Qurilmaga zarar yetkazish-buzish holatida xarajatlarni qoplash stavkalari, qurilma yo‘qotilganida savdo-servis korxonasi to‘laydigan kompensatsiya stavkalari**

| *№* | *Nomi* | *O‘lch. birligi.* | *Xarajatni qoplash/kompensatsiya stavkasi* |
|---|---|---|---|
| 1. | Printer interfeysli 512 Kb protsessor platasi | 1 dona | $570 |
| 2. | 512Кб plata uchun termoprinter | 1 dona | $145 |
| 3. | Displey va smart-kartalar rideri uchun plata (tepa qismda) | 1 dona | $75 |
| 4. | Ikkinchi smart-kartalar rideri (pastki qismda) | 1 dona | $220 |
| 5. | Telefon kabeli bilan uyg‘unlashgan ta'minot bloki | 1 dona | $75 |
| 6. | Litiy batareya | 1 dona | $11 |
| 7. | Kvitansiya lentasining plastik kesgichi | 1 dona | $10 |
| 8. | Terminal korpusining shisha oynali tepa qismi | 1 dona | $30 |
| 9. | Terminal korpusining pastki qismi | 1 dona | $25 |
| 10. | Ko‘chma klaviatura | 1 dona | $110 |
| 11 | Klaviatura uchun rezina kontakt | 1 dona | $11 |
| 12. | Terminal/ko‘chma klaviaturani yo‘qotish | 1 dona | Terminalning qoldiq narxi bo‘yicha |
| 13. | Imprinterni yo‘qotish | 1 dona | Xarid qilingan narxi bo‘yicha |

**Bank**

________________________________

M.O‘.

**Savdo-servis korxonasi**

________________________________

M.O‘.

Savdo-servis korxonasida xalqaro kartalar
(Visa va Master Card)ga xizmat
ko‘rsatishning Umumiy shartlariga
**2–ILOVA**

**ЗАЯВЛЕНИЕ** **ARIZA**

Наименование Клиента/ Mijoz nomi: ________________________________________________

ИНН/ПИНФЛ / STIR/JSHSHIR: ____________________________

в лице/ tomonidan: ________________________________________________________________
*(Ф.И.О. и занимаемая должность/F.I.SH. va lavozimi)*

Прошу разрешить обслуживать в торгово-сервисном предприятии международные карточки (Visa и Mastercard):

Savdo va xizmat ko'rsatish kompaniyasida xalqaro kartalarga (Visa va Mastercard) xizmat ko'rsatishga ruxsat so'rayman:

__________________________________________________________________________________
*(Номер счета клиента / Hisob raqami)*

Я ознакомлен и согласен с Общими условиями обслуживания счетов юридических лиц и индивидуальных предпринимателей, Договором публичной оферты и всеми приложениями к нему, а также Тарифами Банка, действующих в Банке на момент заполнения данной заявки.

Достоверность содержащихся в настоящем Заявлении сведений подтверждаю.

Yuridik shaxslar va yakka tartibdagi tadbirkorlarning hisobvaraqlariga xizmat ko‘rsatishning umumiy shartlari, Ommaviy oferta shartnomasi va uning barcha ilovalari, shuningdek, ushbu arizani to‘ldirish vaqtida Bankda amalda bo‘lgan Bank tariflari bilan tanishdim va ularga roziman.

Men ushbu ilovadagi ma’lumotlarning to‘g‘riligini tasdiqlayman.

**Подпись/Imzo: ______________________** **М.П./M.O’.**

**Дата/Sana: «___»____________** 20__ год

Прочие отметки_________________________________________________________________

__________________________________________________________________________________

__________________________________________________________________________________

---

**ОТМЕТКА БАНКА / BANK TOMONIDAN:**

С КАРТОЧКОЙ ОБРАЗЦОВ ПОДПИСЕЙ И ОТТИСКА ПЕЧАТИ СВЕРЕНО

IMZOLAR NAMUNALARI QO‘YILGAN VARAQCHASI BILAN TEKSHIRILDI

Принял Заявление/ Arizani qabul qildi:

__________________________________________ / ______________________ /

*(Ф.И.О./F.I.SH)* *(подпись/imzo)*

____/____/20____г.

Savdo-servis korxonasida xalqaro kartalar
(Visa va Master Card)ga xizmat
ko‘rsatishning Umumiy shartlariga
**3–ILOVA**

## USKUNANI YO'QOTISH TO'G'RISIDAGI DALOLATNOMA

____________________ sh.                                        «___» ____________20__yil

Biz, quyidagi imzo chekuvchilar, O'zmilliybank ___________________________ filiali boshqaruvchisi, hamda _______________________________ (bundan keyin mijoz deb yurutiladi) ushbu dalolatnomani, "O‘zmilliybank" AJ tomonidan mijozga berilgan usknani yo'qotish to’g’risida tuzdik:

Terminal nomi:_____________________________

Seriya raqami:______________________________

Modeli:___________________________________

**TOMONLAR:**

“O’zmilliybank” AJ tomonidan

______________________________filial boshqaruvchisi

__________________________________________________ / _______________________
(F.I.SH.)                                        (IMZO)

Savdo-servis korxonasi tomonidan:

_______________________________________________________
(savdo-servis korxonasi nomi)

_________________________________
(lavozimi)

__________________________________________________ / _______________________
(F.I.SH.)                                        (IMZO)

Savdo-servis korxonasida xalqaro kartalar
(Visa va Master Card)ga xizmat
koʻrsatishning Umumiy shartlariga
**4–ILOVA**

# NOSOZ HOLGA KELGAN TERMINAL XULOSA-DALOLATNOMASI

____________________sh. «___» ___________20__yil

Biz, quyidagi imzo chekuvchilar, O'zmilliybank __________________________ filiali (bundan keyin Bank deb yuritiladi) boshqaruvchisi, hamda savdo-servis korxonasi ______________________________ (bundan keyin mijoz deb yurutiladi) Bank tomonidan mijozga berilgan savdo terminalini nosoz holga kelganligi haqida ushbu xulosa-dalolatnomani tuzdik.

Terminal seriya raqami: __________________________

Modeli:_______________________________________

Nosoz holga kelganligi sababi:

___________________________________________________________________________

___________________________________________________________________________

___________________________________________________________________________

**TOMONLAR:**

“O’zmilliybank” AJ tomonidan

_____________________________filial boshqaruvchisi

________________________________________________ / ______________________
(F.I.SH.) (IMZO)

Savdo-servis korxonasi tomonidan:

_____________________________________________________
(savdo-servis korxonasi nomi)

________________________________
(lavozimi)

________________________________________________ / ______________________
(F.I.SH.) (IMZO)

**5–ILOVA**

# TOPSHIRISH-QABUL QILISH DALOLATNOMASI

___________________sh. «___» ____________20__yil

Biz, quyidagi imzo chekuvchilar, O'zmilliybank ____________________________ filiali (bundan keyin Bank deb yuritiladi) boshqaruvchisi, hamda savdo-servis korxonasi ________________________________ (bundan keyin Mijoz deb yurutiladi) Bankning uskunalarini vaqtinchalik foydalanishga Mijozga berish to’g’risida topshirish-qabul qilish dalolatnomasini tuzdik.

Uskuna nomi: _______________________________________________

Seriya raqami:______________________________________________

Modeli:_____________________________________________________

**TOMONLAR:**

“O’zmilliybank” AJ tomonidan

_______________________________filial boshqaruvchisi

____________________________________________________ / ________________________
(F.I.SH.) (IMZO)

Savdo-servis korxonasi tomonidan:

_________________________________________________________
(savdo-servis korxonasi nomi)

Direktori
____________________________________________________ / ________________________
(F.I.SH.) (IMZO)

"O‘zbekiston Respublikasi Tashqi iqtisodiy faoliyat milliy banki" AJ da yuridik shaxslar va yakka tartibdagi tadbirkorlarga kompleks bank xizmatlarini ko‘rsatish Shartnomasiga
**7-ILOVA**

## Internet orqali xalqaro to‘lov tizimlarining kartalariga elektron tijorat xizmatlarini taqdim etishning UMUMIY SHARTLARI

## TERMIN VA ATAMALAR

**Umumiy shartlar -** Internet orqali xalqaro to‘lov tizimlarining kartalariga elektron tijorat xizmatlarini taqdim etishning umumiy shartlari.

**Avtorizatsiya** - SSK ning Xizmatlar Provayderidan Internet-maydonda Kartadan foydalanish uchun operatsiyani amalga oshirishga ruxsat so‘rash va uni olish jarayoni. Tasdiqlash har bir muayyan operatsiyani identifikatsiyalovchi noyob kodga ega. SSK Xizmatlar Provayderidan olgan javobda kod mavjud bo‘lishi Kartadan foydalanib operatsiyani amalga oshirishga ruxsat berilganligini anglatadi.

**ADK** - MPS operatsiyalarini qayta ishlash, shu jumladan Internet orqali tovarlarni (ishlar, xizmatlar) to‘lash bo‘yicha, Xizmatlar Provayderida o‘rnatilgan ixtisoslashtirilgan avtomatlashtirilgan dasturiy kompleks.

**Internet-Maydon** - SSK yoki uning hamkorlarining, SSK ga Internet orqali tovarlarni xarid qilishga buyurtmalarni qabul qilish va xizmat ko‘rsatish imkonini beruvchi Internet tarmog‘idagi Saytini o‘z ichiga oluvchi internet-resurs.

**Karta** - Emitent tomonidan mijozga - Umumiy shartlarga 1-ilovada ko‘rsatilgan MPS egidasi ostida karta egasiga chiqarilgan bank to‘lov kartasi

**Tranzaksiya** - Karta egasi Karta yordamida, Avtorizatsiya o‘tish sharti bilan xorijiy valyutada amalga oshiradigan naqdsiz operatsiya.

**Vositachilik haqi** - Bankning Umumiy shartlar bo‘yicha SSK ga taqdim etgan Xizmatlari uchun mukofot.

**Xizmatlar Provayderi -** Bank bilan Standartga muvofiq Xizmatlar ko‘rsatishga shartnoma imzolagan Bank yoki Kompaniya.

**XTT** - Bank Xizmatlar taqdim etish kelishuvga ega bo‘lgan yetakchi xalqaro to‘lov tizimi.

**Sayt -** Internetga ulangan va ushbu axborotdan foydalanish uchun mos keluvchi texnik vositalarga ega foydalanuvchiga undan foydalanish imkoniyatini beradigan, odatda bir mavzu va/yoki maqsadda birlashtirilgan axborot, uni taqdim etish usuli va texnik vositalar uyg‘unligi.

**Standartlar -** Xalqaro, shu jumladan XTT tomonidan xavfsizlikni ta'minlash sohasidagi standartlar (3DSecure, Verified by Visa, MasterCard SecureCode, UCAF, SecurePay, BC Card/Smartro).

**Tarif -** Bank mijozlari - jismoniy va yuridik shaxslarning topshiriqlarini bajarish uchun vositachilik haqi tariflari

**Qoidalar -** SSK Xizmatlarini taqdim etish bo‘yicha yo‘riqnoma.

**Xizmatlar -** Standartlarga muvofiq, XTT kartalari bo‘yicha elektron tijorat xizmatlari.

**Ekvayer -** XTT ishtirokchisi hisoblangan va Kartalardan foydalanib amalga oshirilgan operatsiyalar bo‘yicha SSK hisob-kitoblarini ta'minlovchi moliya instituti.

**Emitent** - XTT ishtirokchisi hisoblangan va Kartalar emissiyasini amalga oshiruvchi moliya instituti.

**PCI DSS** - to‘lov tizimlarida xavfsizlik standarti.

## 1. UMUMIY SHARTLAR

1.1. Mazkur Umumiy shartlarning predmeti SSK ning Sayt/Internet-Maydonda Kartalardan foydalanib to‘lovlarni qabul qilish orqali tovarlarni (ish, xizmatlar) sotishi hamda Bankning SSK hisobvarag‘iga pul mablag‘larini ko‘chirish uchun ADK qo‘llab shunday Tranzaksiyalar

o‘tkazilishini tashkil etishi bilan bog‘liq Tomonlarning o‘zaro munosabatlarini aniqlash hisoblanadi.

## 2. BANKNING HUQUQ VA MAJBURIYATLARI

**2.1.** BANKning majburiyatlari**:**

2.1.1. SSK ga Sayt/Internet-Maydonlardan foydalanib Karta yordamida tovarlar (ish, xizmat) uchun to‘lov operatsiyalarini o‘tkazish uchun ADK dan foydalanish imkoniyatini ta'minlash.

2.1.2. Umumiy shartlarning 2.1.1-bandida ko‘rsatilgan, ADK dan foydalanib Sayt/Internet-Maydonda Kartalar yordamida amalga oshiriladigan Tranzaksiyalarning 24/7 rejimida o‘tkazilishini tashkil etish.

2.1.3. Kartalarning qonuniy egalari o‘tkazgan, avtorizatsiyalangan Tranzaksiyalarning SSK dan qabul qilinishi va qayta ishlanishini tashkil etish.

2.1.4. Karta yordamida to‘langan pul mablag‘larining SSK hisobvarag‘iga Bankning XTT belgilagan avtorizatsiyalangan Tranzaksiyalarni qayta ishlash sanasidan 3 bank kuni ichida ko‘chirilishini tashkil etish, 2.2.7-2.2.8 va 2.2.9 bandlardagi holatlar bundan mustasno.

2.1.5. Umumiy shartlarni bajarish natijasida Bankka oshkor bo‘lgan SSK va karta Egalarining bank va tijoriy sirini saqlash.

2.1.6. Sayt/Internet-Maydonda tovar/xizmatlarni karta orqali to‘lash bo‘yicha operatsiyalarning xavfsizligini ta'minlash.

2.1.7. Hisob oyidan keyingi oyning har 5-sanasidan kechiktirmasdan, har oy, SSK ga hisob-faktura va ko‘rsatilgan Xizmatlar bo‘yicha bayonnoma taqdim etish.

**2.2.** Bankning huquqlari**:**

2.2.1. SSK dan mazkur Umumiy shartlarda belgilangan majburiyatlarini bajarish uchun zarur ma'lumotlarni olish.

2.2.2. Bank Tariflarida ko‘zda tutilgan miqdorda Vositachilik haqi to‘lovlari bo‘yicha pul mablag‘larini, shuningdek mazkur SSK bo‘yicha to‘lov tizimlaridan olingan boshqa vositachilik haqi va to‘lov talabnomalarini (chargeback va representment kabi) SSK ning qo‘shimcha topshiriqlarisiz (akseptsiz) SSK ning Bankdagi hisobvarag‘idan yechish, Boshqa banklarga to‘lov talablarini (akseptsiz) belgilash.

2.2.3. SSK Umumiy shartlarga 2-ilova bo‘yicha Qoidalarni buzgan holatda bir tomonlama tartibda Tranzaksiya Avtorizatsiyasini o‘tkazishni to‘xtatish.

2.2.4. SSK ga Tranzaksiya Avtorizatsiyasi to‘xtatilganligi to‘g‘risida mos keluvchi xabarnomani 1 (bir) ish kunida yuborish.

2.2.5. Kartalar bilan firibgarlik operatsiyalarini, SSK ning xaridorlarga Bank bilan kelishilmagan tovarlar (ish, xizmatlar) va soxta Sayt/Internet-Maydonchalarni taqdim etganligini aniqlash uchun SSK ning birgalikda/bir tomonlama rejali/rejadan tashqari auditini o‘tkazish.

2.2.6. Agar Sayt/Internet-Maydonda sotilayotgan tovarlar (ishlar, xizmatlar) e'lon qilingan faoliyat turiga bog‘liq emasligi va/yoki mazkur Umumiy shartlarning 4-Ilovasiga muvofiq man qilingan tovarlar ro‘yxatida mavjudligi va/yoki Sayt/Internet-Maydon mablag‘larni naqd qilish bilan shug‘ullanishi fakti belgilansa barcha Avtorizatsiyalarni zudlik bilan bloklash.

2.2.7. Agar bank o‘tkazilgan tranzaksiya bo‘yicha Fraud Report (firibgarlik to‘g‘risida hisobot) yoki Chargerback (tranzaksiyadan bosh tortish) / representment (tranzaksiyadan takroriy bosh tortish) qabul qilishi natijasida nizoli holatlar yuzaga kelganida, barcha holatlar aniqlanmagunicha, bu to‘lov tizimlarining qoidalariga ko‘ra bir oydan to‘rt oygacha tashkil qilishi mumkin, SSK ga pul mablag‘larini qoplab bermaslik huquqiga ega.

2.2.8. FraudGuard yoki Visa Fraud Monitoring Program monitoring dasturiga tushgan shubhali tranzaksiyalarni bank-emitentlarga so‘rov yuborish orqali to‘liq tekshirguncha SSK hisobvarag‘iga pul mablag‘lari tushirilishini to‘xtatib turish (muzlatish).

2.2.9. SSK tranzaksiyalarida xalqaro to‘lov tizimi (Visa, MasterCard yoki UPI) shubhali faollikni aniqlaganida va brendni himoya qilish bo‘yicha ish ochganida yoki to‘lov tizimlarining shubhali tranzaksiyalarni monitoring qilish dasturi bo‘yicha chegara limitlardan o‘tgan holatda bank emitentlarga pul mablag‘larini qaytarib berish.

2.2.10. 3D Secure avtorizatsiyasi qo‘llab-quvvatlanmaydigan kartalarda avtorizatsiya o‘tkazish huquqini bank o‘zida saqlab qoladi.

## 3. SSK NING HUQUQ VA MAJBURIYATLARI

**3.1.** <u>SSK ning majburiyatlari</u>**:**

3.1.1. Umumiy shartlarga 2-Ilovada ko‘rsatilgan Qoidalarga rioya qilish.

3.1.2. Internet-Maydon yoki Saytning XTT PCI DSS xavfsizlik standartiga muvofiqligini ta'minlash.

3.1.3. Tovarlar (ishlar, xizmatlar) uchun ushbu tovarlarga (ishlar, xizmatlar) naqd to‘langandagi narxidan oshmaydigan narxlarda Karta orqali to‘lovlarni qabul qilish.

3.1.4. mijoz tovardan (ish, xizmat) bosh tortgan holatda Shartlarga muvofiq pul mablag‘lari qaytarilishini ta'minlash, bunda pul mablag‘lari quyidagi ko‘rinishlarda qaytarilishi mumkin:

- Bekor qilish Tranzaksiyasi - Tranzaksiyalarning inkassatsiyalangan paketi berilgunicha Bankning maxsus saytida SSK shaxsiy sahifasi orqali elektron;
- Qaytarib berish Tranzaksiyasi - mazkur Umumiy shartlarning 3-ilovasiga muvofiq "Mablag‘larni qaytarish haqida ariza shakli" yoki elektron ko‘rinishda, shu jumladan bekor qilish Tranzaksiyasini rasmiylashtirish imkonsiz bo‘lgan holatda.

3.1.5. Umumiy shartlar bo‘yicha Bank Xizmatlari uchun Umumiy shartlarning 4-bo‘limida ko‘zda tutilgan tartibda to‘lovni amalga oshirish.

3.1.6. Saytda Umumiy shartlarning 2-Ilovasi 4, 5-bo‘limlariga, shuningdek Xizmatlar Provayderining Saytida xavfsizlik masalalari hamda firibgarlikka qarshi kurash tartibini belgilovchi bo‘limlarga muvofiq xaridorlar ma'lumotining maxfiyligini ta'minlash hamda to‘lovlar xavfsizligini ta'minlashga tegishli ma'lumotni joylashtirish.

3.1.7. Kartalardan foydalanib amalga oshirilgan operatsiyalar bo‘yicha ma'lumotlarni (reestrlar, xaridorlarning tovarlarni (ishlar, xizmatlar) qabul qilganligi to‘g‘risida imzolari, debet Kartalariga topshiriqlar va boshq.) va operatsiyalar bo‘yicha Tranzaksiya amalga oshirilgan sanadan kamida 18 oylik hisobotlarni saqlash hamda ularni Bankka birinchi talab bo‘yicha topshirish.

3.1.8. Bank bilan Internet-Maydon(lar)ning to‘lov sahifalari dizaynini, shu jumladan Umumiy shartlarga 1-ilovada ko‘rsatilgan XTT logotipi bilan reklama nakleykalarining elektron variantlarini kelishish.

3.1.9. Majburiy tartibda Bankka quyidagi ma'lumotlarni taqdim etish:

- Internet-Maydon(lar) xaridorlarga taqdim etadigan tovarlar (ishlar, xizmatlar) ro‘yxati to‘g‘risida, min/o‘rt/maks narx, tovar jo‘natilganligi to‘g‘risida pochta xizmatlarining kvitansiyalarini ko‘rsatgan holda;
- Sayt Internet-Maydon(lar)ning domen nomi va uning istalgan o‘zgarishlari haqida.
- Sayt Internet-Maydonlar tranzaksiyasi amalga oshirilgan IP-manzillar va uning istalgan o‘zgarishlari to‘g‘risida ma'lumot.

3.1.10. O‘zbekiston Respublikasining qonunchiligiga binoan savdosi man etilgan tovarlarni sotish. Man qilingan tovarlar ro‘yxati mazkur Umumiy shartlarga 4-ilovada keltirilgan.

3.1.11. Bankka har bir Sayt/Internet-Maydonda bajarilgan operatsiyalarni ro‘yxatga olish elektron jurnallari va/yoki ma'lumotlar bazasidan doimiy foydalanish huquqini taqdim etish.

3.1.12. Bank belgilagan muddatda Bankka Kartalar bilan firibgarlik harakatlari amalga oshirilganligi yuzasidan shubha uyg‘otgan va/yoki SSK ning Bank bilan kelishilmagan tovarlarni (ishlar/xizmatlar) taqdim etgan operatsiyalar bo‘yicha hisobot berish.

3.1.13. Internet-Maydonlari va veb-sahifani komprometatsiyaga (noqonuniy harakatlar natijasida mijoz va ularning Karta ma'lumotlaridan begona shaxslarning foydalanish imkoniyati) olib kelishi mumkin bo‘lgan viruslar va zaifliklar, zararli, reklama dasturlari va troyanlar mavjudligiga doimiy ravishda tekshirish.

3.1.14. To‘lov rekvizitlari, taqdim etiladigan ishlar, xizmatlar va sotiladigan tovarlar bilan bog‘liq barcha o‘zgarishlar, oldinroq Bankka taqdim etilgan SSK to‘g‘risidagi boshqa hujjatlar va boshqa ma'lumotlarda o‘zgarishlar to‘g‘risida Bankka yozma ko‘rinishda zudlik bilan xabar berish.

3.1.15. SSK ga Umumiy shartlar bo‘yicha majburiyatlarini bajarish vaqtida oshkor bo‘lgan Bank va Karta Egalarining bank va tijoriy sirini saqlash.

**3.2.** <u>SSK ning huquqlari</u>**:**

3.2.1. Bankdan Internet-Maydonda Kartadan foydalanib amalga oshirilgan tovarlar (ishlar, xizmatlar) to‘lovi bo‘yicha operatsiya summalarini o‘z vaqtida qoplanishini talab qilish (2.2.7 - 2.2.8 va 2.2.9-bandlar bo‘yicha holatlar bundan mustasno).

3.2.2. Shaxsiy reklama materiallarida Kartalarga xizmat koʻrsatish imkoniyatiga havola berish. Oldindan Bank bilan yozma kelishuv tuzib, XTT savdo belgilari bilan reklama mahsulotlarini chiqarish.

## 4. MOLIYAVIY SHARTLAR

4.1. Bankning SSK bilan oʻzaro hisob-kitoblari Oʻzbekiston Respublikasi qonunchiligida ruxsat berilgan, Umumiy shartlarda aniqlanadigan tartibda, USD - AQSH dollarida_(valyuta nomi) amalga oshiriladi.
4.2. Qayta ishlangan Tranzaksiyaning Avtorizatsiyasi asosida SSK ga pul mablagʻlarini tushirish/koʻchirish fakti Bankning SSK amalga oshirgan operatsiyalarning haqiqiyligini shartsiz qabul qilishi hisoblanmaydi.
4.3. SSK ikki yoki undan ortiq Tranzaksiyani Avtorizatsiyalab bir xarid (ish, xizmat) narxini boʻlish yoki bir xarid (ish, xizmat) qiymatining bir qismi uchun boshqa toʻlov vositalari bilan muqobil toʻlov qabul qilish huquqiga ega emas.
4.4. Internet-Maydonda Kartalardan foydalanib tovarlarning (ishlar, xizmatlar) toʻlov operatsiyalari boʻyicha hisob-kitoblarning amalga oshirilishi uchun SSK Bankka Bank Tarifiga muvofiq Vositachilik haqi toʻlaydi.
4.5. Umumiy shartlarning 4.4-bandida koʻzda tutilgan vositachilik haqi har safar Umumiy shartlarning 2.1.4-bandiga muvofiq, Umumiy shartlarning 2.2.2-bandiga asosan hisoblash yoʻli bilan SSK Bankka koʻchiradigan summalardan undiriladi.

## 5. TOMONLARNING JAVOBGARLIGI

5.1. Tomonlar Oʻzbekiston Respublikasining qonunchiligi hamda Umumiy shartlar talabiga muvofiq Umumiy shartlar boʻyicha javobgarlikka ega.
5.2. Tomonlardan biri Umumiy shartlar boʻyicha oʻz majburiyatlarini bajarmagan yoki lozim darajada bajarmagan holatda boshqa Tomon aybdor Tomondan qabul qilgan majburiyatlarini bajarishni, shuningdek unga yetkazilgan zararlarni qoplashni talab qilish huquqiga ega.
5.3. Bank Umumiy shartlarning 2.1.4-bandida belgilangan pul mablagʻlarini koʻchirish muddatlarini buzgan holatda Bank SSK ga har bir kechikkan kun uchun oʻz muddatida koʻchirilmagan koʻchirilishi lozim boʻlgan summadan 0,2% (nol butun oʻndan ikki foiz) miqdorida neustoyka toʻlab berishi shart.
5.4. Mazkur Umumiy shartlarning 2.2.6-bandida koʻrsatilgan bir yoki barcha faktlar tasdiqlangan holatda SSK bankka nomuvofiq boʻlgan tovar (ish, xizmat) summasidan 5% miqdorida penya toʻlab beradi.
5.5. SSK oʻz xodimlarini Umumiy shartlar, shuningdek unga ilovalarning buzilishi bilan bogʻliq harakatlari uchun, agar ular SSK ning Umumiy shartlar boʻyicha majburiyatlarini bajarmasligi yoki lozim darajada bajarmasligiga olib kelgan boʻlsa, javobgarlikka ega.
5.6. SSK mazkur Umumiy shartlarning 3.1.2, 3.1.6, 3.1.11 va 3.1.12 bandlarini bajarmaganligi uchun Sayt/Internet-Maydoniga xakerlar hujumi bilan bogʻliq mijozlar va ularning Kartalari ma'lumotlaridan noqonuniy foydalanish imkoniyati yuzaga kelgani uchun hamda notoʻgʻri rasmiylashtirilgan yoki XTT qoidalari buzilib amalga oshirilgan har qanday Tranzaksiya uchun toʻliq va shartsiz javobgarlikka ega. Bunday holatda Bank SSK hisobvaragʻidan shartsiz tartibda XTT Bank munosabatida qoʻllagan jarima sanksiyalarining summasi miqdorida pul mablagʻlarini yechib oladi.
5.7. <u>Bank javobgarlikka ega emas</u>
- SSK ning Umumiy shartlarning 2.2.3-bandida koʻzda tutilgan holatlarda Tranzaksiya Avtorizatsiyasi oʻtkazilishi toʻxtatilishi bilan bogʻliq ehtimoliy zararlari uchun;
- Notoʻgʻri rasmiylashtirilgan yoki XTT qoidalari buzib amalga oshirilgan har qanday Tranzaksiya uchun.
- Ma'lumotlari oshkor boʻlgan Kartalardan Tranzaksiyalar uchun, shu jumladan, agar Tranzaksiyalar XTT standartlariga muvofiq amalga oshirilganligi belgilangan yoki isbotlangan boʻlsa.

## 6. FORS-MAJOR

6.1. Tomonlar Umumiy shartlar bo‘yicha o‘z majburiyatlarini bajarmaganlik yoki lozim darajada bajarmaganlik uchun javobgarlikdan ozod bo‘ladi, agar majburiyatlarining bajarilishi Umumiy shartlar qabul qilinganidan keyin yuzaga kelgan yengib bo‘lmas kuch, ya'ni favqulodda va mazkur holatda oldini olib bo‘lmas sharoitlar oqibatida imkonsiz bo‘lgan bo‘lsa. Bunday sharoitlarga Tomonlar, shu jumladan, lekin istisno qilmasdan, quyidagilarni kiritadi: tabiiy ofatlar, aloqa liniyalari va/yoki vositalarining shikastlanishi, O‘zbekiston Respublikasining hududida yoki uning alohida hududlarida harbiy yoki favqulodda vaziyat joriy etilishi, ish tsahlashlar, davlat hukumat organlari va/yoki mahalliy o‘zini-o‘zi boshqarish organlarining Tomonlarning Umumiy shartlar bo‘yicha o‘z majburiyatlarini bajarishni imkonsiz qiladigan me'yoriy-huquqiy va boshqa hujjatlarning qabul qilishi.
6.2. Agar Umumiy shartlarning 6.1-bandida keltirilgan sharoitlar majburiyatlarning Umumiy shartlarda ko‘rsatilgan muddatda bajarilmasligiga bevosita ta'sir qilgan bo‘lsa, unda bu muddat mos keluvchi sharoitning ta'sir vaqtiga teng hamda uning oqibatlarini bartaraf etish uchun zarur muddatga suriladi.
6.3. Umumiy shartlarning 6.1-bandida keltirilgan sharoitlar oqibatida majburiyatlarini bajarishi imkonsiz bo‘lgan Tomon ushbu sharoitlar yuzaga kelgan va yakunlangan ondan 3 (uch) kundan ko‘p bo‘lmagan muddatda boshqa tomonni bu haqida yozma shaklda xabardor qilishi shart. Xabar sharoitlar xarakteri to‘g‘risidagi ma'lumotlar, shuningdek, imkoni boricha, Tomonning Umumiy shartlar bo‘yicha o‘z majburiyatlarini ijro etish imkoniyatiga sharoitning ta'sir qilish bahosiga ega bo‘lishi lozim.
6.4. Agar Tomonlar o‘z majburiyatlarini bajarishga to‘sqinlik qilayotgan Umumiy shartlarning 6.1-bandida ko‘rsatilgan sharoit 3 (uch) oydan uzoq davom etsa, har bir Tomon boshqa tomonga oldindan yozma xabar yuborish yo‘li bilan bir tomonlama tartibda Umumiy shartlarni ijro qilishdan bosh tortish huquqiga ega. Mazkur xabar Umumiy shartlar bo‘yicha xizmatlarning taqdim qilinishi/ulardan foydalanish to‘xtatilishi kutilayotgan sanadan 10 (o‘n) kundan ko‘p bo‘lmagan muddatda kuryer yoki pochta (topshirilganligi haqida xabar bilan) orqali yuborilishi lozim.

## 7. UMUMIY SHARTLARNI TUGATISH MUDDATI VA TARTIBI

7.1. Umumiy shartlar Mijoz Umumiy shartlar bo‘yicha xizmatlarni taqdim etish to‘g‘risida ariza berish orqali akseptlagan ondan kuchga kiradi va aniqlanmagan vaqt davomida amal qiladi.
7.2. Tomonlardan har biri Umumiy shartlar bo‘yicha xizmatlardan foydalanish/ularning taqdim etilishi to‘xtatilishi kutilayotgan sanadan kamida 30 (o‘ttiz) kun oldin Boshqa tomonni bu haqida yozma xabardor qilgan holda Umumiy shartlar bo‘yicha xizmatlardan foydalanish/ularning taqdim qilinishidan bosh tortish huquqiga ega. Mazkur xabar kuryer bilan yoki pochta orqali (topshirilganligi haqida xabar bilan) yuborilishi lozim.
7.3. Bank Umumiy shartlarning 7.2 yoki 6.4-bandida ko‘zda tutilgan, Umumiy shartlar bo‘yicha xizmatlardan foydalanish/ularni taqdim etishni to‘xtatish to‘g‘risidagi xabarni SSK yo‘naltirgan yoki xabarni SSK dan olgan ondan Tranzaksiyalar Avtorizatsiyasi o‘tkazilishini to‘xtatadi.
7.4. Umumiy shartlar bo‘yicha xizmatlar taqdim etilishi/ulardan foydalanishning to‘xtatilishi Tomonlarni Umumiy shartlar bo‘yicha xizmatlarni taqdim etish/ulardan foydalanish to‘xtatilgan sanagacha amalga oshirilgan operatsiyalar bo‘yicha barcha o‘zaro hisob-kitoblar va Umumiy shartlar bo‘yicha to‘lovlarni amalga oshirish majburiyatidan ozod etilmaydi. Umumiy shartlar bo‘yicha xizmatlarni taqdim etish/ulardan foydalanish to‘xtatilgan holatda Tomonlar Umumiy shartlar bo‘yicha barcha o‘zaro hisob-kitoblarni va to‘lovlarni Umumiy shartlar bo‘yicha xizmatlar taqdim qilinishi/ulardan foydalanish to‘xtatilgan sanadan keyin 180 (bir yuz sakson) kun davomida amalga oshirish majburiyatini oladi.

## 8. YAKUNIY QOIDALAR

8.1. Tomonlar, Umumiy shartlar doirasida Tomonlar o‘rtasida munosabatlarni huquqiy tartibga solish manbai Umumiy shartlar, O‘zbekiston Respublikasining qonunchiligi, XTT qoidalari, Standartlari va tavsiyalari, agar ular O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligiga zid bo‘lmasa, hisoblanishiga rozilik bildirishadi. Qoidalarga zid bo‘lmagan Umumiy shartlarning har qanday

shart va qoidalari (ham Umumiy shartlar bo‘yicha xizmatlar taqdim etilayotgan onda ma'lum bo‘lgan, ham kelajakda ishlab chiqilgan) qoidalarga muvofiqlashtirilishi lozim.
8.2. Ushbu bilan SSK Bankka Umumiy shartlar amal qiladigan butun muddat davomida va u tugatilganidan so‘ng qo‘shimcha 6 (olti) taqvim oyi davomida haqiqiy bo‘lgan, ham Bankda, ham istalgan boshqa Bankda, istalgan valyutada ochilgan hisobvaraqlaridan shartsiz tartibda Umumiy shartlarning 4-bo‘limiga ko‘ra Bankka tegishli bo‘lgan, shuningdek Umumiy shartlar predmetiga tegishli bo‘lgan amaldagi qonunchilik, Umumiy shartlar, XTT qoidalarida ko‘zda tutilgan holatlarda Karta Egalariga qaytarilishi lozim bo‘lgan pul mablag‘larini yechishning izohsiz, shartsiz, bevosita yechish huquqi/topshirig‘ini taqdim etadi.
8.3. Umumiy shartlardan yoki u bilan bog‘liq tarzda yuzaga kelgan barcha nizolar, kelishmovchiliklar yoki talablarni Tomonlar kelishuvlar yo‘li bilan tartibga soladi. Kelishuvga kelinmagan holatda Tomonlar o‘rtasidagi nizo O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga muvofiq Xalqaro iqtisod sudida ko‘rib chiqilishi lozim.
8.4. Umumiy shartlarda barcha o‘zgarishlar va unga qo‘shimchalar Bankning rasmiy saytida (www.nbu.uz) va Bankning "Ibank" masofadan bank xizmatlarini ko‘rsatish tizimida e'lon qilinadi.
8.5. Umumiy shartlarning 2-bo‘limida ko‘zda tutilgan yozma xabarlar faks yoki elektron pochta manzili yoki mijoz oldinroq taqdim qilgan manzil bo‘yicha buyurtmali xat orqali yuboriladi.
8.6. Umumiy shartlarga barcha ilova va qo‘shimchalar uning ajralmas qismi hisoblanadi.

Internet orqali xalqaro to‘lov tizimlarining
kartalariga elektron tijorat xizmatlarini taqdim
etishning umumiy shartlariga
**1–ILOVA**

**ПЕРЕЧЕНЬ САЙТОВ/ИНТЕРНЕТ-ПЛОЩАДОК ТОРГОВО – СЕРВИСНЫХ ПРЕДПРИЯТИЙ И МЕЖДУНАРОДНЫХ ПЛАТЕЖНЫХ СИСТЕМ, КАРТЫ КОТОРЫХ ПРИНИМАЮТСЯ К ОПЛАТЕ**

**SAVDO-SERVIS KORXONALARI INTERNET SAYTLARI VA TO'LOV UCHUN QABUL QILINADIGAN XALQARO TO'LOV TIZIMLARI KARTALARI RO’YXATI**

| | | |
|---|---|---|
| Наименование САЙТА/ИНТЕРНЕТ-ПЛОЩАДКИ ТСП с указанием адреса и телефона / SSK SAYTI NOMI manzili va telefon raqami | | |
| НАИМЕНОВАНИЕ МЕЖДУНАРОДНОЙ ПЛАТЕЖНОЙ СИСТЕМЫ, карты которой принимаются к оплате (сделайте отметку системы, с которой вы планируете работать) / Kartalari to‘lovga qabul qilingan XALQARO TO‘LOV TIZIMINING NOMI (ishlamoqchi bo'lgan tolov tizimingizni belgilang) | ☐ Visa<br>☐ MasterCard<br>☐ China UnionPay | ☐ AMEX<br>☐ JCB<br>☐ BC Card / Smartro |
| Официальный САЙТ/ИНТЕРНЕТ-ПЛОЩАДКА ТСП / SSK rasmiy INTERNET SAYT | | |

Я ознакомлен и согласен с Общими условиями обслуживания счетов юридических лиц и индивидуальных предпринимателей, Договором публичной оферты и всеми приложениями к нему, а также Тарифами Банка, действующих в Банке на момент заполнения данной заявки.

Internet orqali xalqaro to‘lov tizimlarining kartalariga elektron tijorat xizmatlarini taqdim etishning umumiy shartlari, Ommaviy oferta shartnomasi va uning barcha ilovalari, shuningdek, ushbu arizani to‘ldirish vaqtida Bankda amalda bo‘lgan Bank tariflari bilan tanishdim va ularga roziman.

Руководитель/Raxbar:

_______________________________________________ /_______________________/

*(Ф.И.О./F.I.SH.)* *(подпись/imzo)*

Главный бухгалтер/Bosh buxgalter:

_______________________________________________ /_______________________/

*(Ф.И.О./F.I.SH.)* *(подпись/imzo)*

*М.П. / М.О’. (при наличии печати/muhr mavjud bo’lsa)* «____» ______________20___г.

---

**ОТМЕТКА БАНКА / BANK TOMONIDAN:**

С КАРТОЧКОЙ ОБРАЗЦОВ ПОДПИСЕЙ И ОТТИСКА ПЕЧАТИ СВЕРЕНО

IMZOLAR NAMUNALARI QO‘YILGAN VARAQCHASI BILAN TEKSHIRILDI

Принял Заявление/ Arizani qabul qildi:

_______________________________________________ / _____________________ /

*(Ф.И.О./F.I.SH)* *(подпись/imzo)*

____/____/20____г.

Internet orqali xalqaro to‘lov tizimlarining
kartalariga elektron tijorat xizmatlarini taqdim
etishning umumiy shartlariga
**2-Ilova**

# INTERNET ORQALI XALQARO TO‘LOV TIZIMLARINING KARTALARIGA ELEKTRON TIJORAT XIZMATLARINI TAQDIM ETISHNING SHARTLARI

## 1. Internet orqali XTT kartalariga elektron tijorat xizmatlarini taqdim etishning umumiy shartlari bilan ishlash tartibi.

**1.1.** Xizmatlar Provayderi tizimida ishlash haqida ma'lumot quyidagi manzilda joylashtirilgan: ________________________________________________________.

1.2. Bank Internet-Maydonni ko‘rsatilgan rekvizitlar bo‘yicha Bankning ixtisoslashtirilgan ADK da ro‘yxatiga olish uchun zarur harakatlarni amalga oshiradi.

1.3. Xaridor Internet orqali Sayt/Internet-Maydonga ulanadi, buyurtmani rasmiylashtiradi va uni Sayt/Internet-Maydonning ixtisoslashtirilgan apparat-dasturiy kompleksiga keyingi qayta ishlash harakatlari uchun yuboradi.

1.4. Sayt/Internet-Maydon buyurtmani Xizmatlar Provayderining ADK si orqali qayta ishlaydi va Xizmatlar Provayderi ADK siga Xizmatlar Provayderining talabiga bog‘liq ravishda batafsil ko‘rsatkichlar va Tranzaksiyalarni yuboradi.

1.5. Xaridor to‘lov sxemasini tanlaydi (3D-Secure, Verified by Visa, MasterCard SecureCode, UCAF, SecurePay, BC Card/Smartro) va zarurat bo‘lganida Xizmatlar Provayderi ADK siga o‘z Kartasining ko‘rsatkichlari haqida ma'lumotlarni, shu jumladan CVC2 yoki CVV2 qiymatini, kartaning amal qilish muddati yakunlanadigan sana, shaxsiy ma'lumotlarni yuboradi, bu bir vaqtning o‘zida buyurtmani to‘lashga roziligini tasdiqlash hisoblanadi.

1.6. Xizmatlar Provayderi Xaridor kartasining kiritilgan ko‘rsatkichlari shakli to‘g‘riligini tekshiradi va qo‘llab-quvvatlanadigan to‘lov sxemasiga (3D-Secure, Verified by Visa, MasterCard SecureCode, UCAF, SecurePay, BC Card/Smartro) bog‘liq ravishda Xaridorni qo‘shimcha autentifikatsiya qilish jarayonlarini amalga oshiradi.

1.7. Olingan so‘rov belgilangan me'yorlarga mos bo‘lganida Xizmatlar Provayderi Bankda operatsiyadan o‘tish uchun Avtorizatsiyaga so‘rov yuboradi.

1.8. Bank ro‘yxatga o‘tish ma'lumotlariga muvofiq Sayt/Internet-Maydonning operatsiyani amalga oshirish huquqini tekshiradi.

1.9. Bank XTT belgilagan tartibga muvofiq Tranzaksiyaning Avtorizatsiyasini amalga oshiradi.

1.10. Bank Tranzaksiyani Avtorizatsiyadan o‘tkazishda salbiy natija olganida, Bank Xizmatlar Provayderi ADK siga operatsiya bekor bo‘lganligi haqida xabar yuboradi, u, o‘z navbatida, ushbu ma'lumotni Sayt/Internet-Maydonga va Xaridorga, bekor qilinish sababini ko‘rsatgan holda yuboradi.

1.11. Tranzaksiyaning Avtorizatsiyasi ijobiy natija berganida Bank Xizmatlar Provayderi ADK siga ijobiy natija tasdiqlanganligini yuboradi.

1.12. Xizmatlar Provayderi ADK si bir vaqtning o‘zida o‘tkazilgan Avtorizatsiya operatsiyasining ijobiy natijasi tasdig‘ini Sayt/Internet-Maydon va Xaridorga yuboradi.

1.13. Avtorizatsiya operatsiyasidan ijobiy natija to‘g‘risida tasdiq olinganidan so‘ng Sayt/Internet-Maydon Xaridorga xizmat ko‘rsatadi (ishni amalga oshiradi/tovarni beradi).

1.14. Umumiy shartlarga muvofiq, Bank mablag‘larni SSK ning Bankdagi hisobvarag‘iga ko‘chiradi.

1.15. SSK ga pul mablag‘larining ko‘chirilishi Bank Umumiy shartlarning 3.1.4-bandida ko‘rsatilgan muddatda Avtorizatsiyalangan Tranzaksiyalarning yuborilgan inkassatsiya to‘plamini qayta ishlaganidan so‘ng amalga oshiriladi.

## 2. QAYTARISH YOKI BEKOR QILISH TRANZAKSIYASINI

## RASMIYLASHTIRISH

**2.1.** Qaytarish yoki bekor qilish Tranzaksiyasining rasmiylashtirilishi standart holatlarda SSK ning shaxsiy sahifasi orqali elektron yoki Umumiy shartlarga 3-ilova shaklida ariza berish yo‘li bilan rasmiylashtiriladi.

## 3. NOSTANDART VAZIYATLARDA OPERATSIYALARNI QAYTA ISHLASH

3.1. Agar texnik yoki boshqa sabablarga ko‘ra (misol uchun, SSK xodimlarining xatosi) operatsiyani Umumiy shartlarda berilgan tartibga muvofiq mahalliy vositalar bilan amalga oshirish va qayta ishlash imkoni bo‘lmagan holatda SSK Bankka bunday operatsiyani (tovarni (ish, xizmat) to‘lash, to‘lovni qaytarish, bekor qilish yoki qaytarishni bekor qilish) Bankning texnik vositalari yordamida qayta ishlashi bo‘yicha so‘rov bilan murojaat qilish huquqiga ega.

3.2. To‘lov, to‘lovni bekor qilish yoki oldinroq amalga oshirilgan qaytarishni bekor qilish operatsiyalarini qayta ishlash uchun SSK Bankka Umumiy shartlarning 3-ilovasi shakli bo‘yicha ariza yuboradi, shuningdek SSK da mavjud barcha chek, elektron yozuvlar va bunday operatsiya qayta ishlanishi zarurligini asoslovchi boshqa hujjatlarni ilova qiladi. Ariza imzolar namunasi va muhr izi kartasiga muvofiq imzolash huquqiga ega bo‘lgan shaxslar tomonidan imzolanishi va SSK muhr izi biriktirilishi lozim.

3.3. Ariza va ilova qilingan hujjatlarni ko‘rib chiqish natijasi bo‘yicha Bank arizada ko‘rsatilgan operatsiyalarning qayta ishlanishini amalga oshirish yoki sabablarini tushuntirmasdan qayta ishlashdan bosh tortish huquqiga ega; bunda bunday operatsiyani qayta ishlash natijalari bo‘yicha pul mablag‘larining tushirilishi/yechilishi fakti Bankning mazkur operatsiya haqiqiyligini shartsiz tan olishini anglatmaydi.

## 4. TO‘LOVLARNING XAVFSIZLIGI

4.1. To‘lovlarning xavfsizligi XTT tomonidan ishlab chiqilgan (3DSecure, UCAF, SecureCode) zamonaviy protokol va texnologiyalar asosida ishlaydigan Bank ADK va Xizmatlar Provayderi ADK si yordamida ta'minlanadi.

4.2. Xizmatlar Provayderi tizimida Xaridor maxfiy ma'lumotlarining xavfsizligi SSL protokol qo‘llanishi bilan ta'minlanadi.

4.3. Ma'lumotning keyingi yuborilishi maxfiy moliya ma'lumotlarini yetkazish uchun XTT sertifikatsiyasiga ega ma'lumotlar uzatishning yopiq tarmoqlari bo‘yicha amalga oshiriladi.

4.4. Xaridordan olingan maxfiy ma'lumotlar (Karta rekvizitlari, ro‘yxatdan o‘tish ma'lumotlari va h.k.) protsessing markazida qayta ishlanadi.

## 5. UZATILADIGAN MA'LUMOTLARNING XAVFSIZLIGI

**5.1.** Uzatiladigan ma'lumotlarning xavfsizligi Internetda xavfsizlikni ta'minlashning zamonaviy protokollari (SSL/TLS) yordamida ta'minlanadi.

## 6. XAVFSIZLIK PROTOKOLI BILAN ISHLASH SXEMASI

3D-SECURE xavfsizlik protokolidan foydalanganda to‘rt tomon ishtirok etadi:

**SSK** Verified By Visa yoki MasterCard SecureCode dasturlari doirasida servisga ulangan bo‘lishi hamda o‘zining veb-saytlarida "Verified By Visa" va "MasterCard SecureCode" brendlarini joylashtirishi lozim.

**Emitentlar** tranzaksiya jarayonida mijoz shaxsini autentifikatsiya qilish, shuningdek elektron imzolangan kvitansiyalarni boshqarish uchun qo‘llanadigan foydalanishni nazorat qilish bo‘yicha Serverdan (Access Control Server – ACS-Server) foydalanishi lozim.

**Karta egalari** Karta Egalari 3D-Secure ga ulangan bo‘lishi lozim. Karta Egasi autentifikatsiya jarayonida parol va xavfsizlik to‘g‘risida boshqa ma'lumotlarni kiritishi lozim.

**Katalog Serveri (Directory Server).** XTT, 3D-Secure realizatorlari identifikatsiya ma'lumotlari bilan ishlash uchun domen rolini bajaruvchi markaziy Katalog Serveri va Verified By Visa va

MasterCard SecureCode dasturlari doirasida servislarning emitent-ishtirokchilarini ACS-serverlari manzilidan foydalanadi.

### 6.1. To‘lov ishtirokchilarining autentifikatsiyasi

Loyiha doirasida qo‘llab-quvvatlanadigan, Internet tarmog‘ida tovar va xizmatlar uchun to‘lovni amalga oshirish texnologiyasi Visa (Visa 3D-Secure spetsifikatsiyasi, Verified by Visa marketing dasturining nomi) va MasterCard (SPA/UCAF spetsifikatsiyasi, MasterCard SecureCode marketing dasturining nomi) kabi XTT ning joriy spetsifikatsiyalariga asoslanadi.

Internetda elektron kelishuvlarning xavfsizlikning zarur darajasini ta'minlash, firibgarlik operatsiyalari va ishtirokchilarning moliyaviy yo‘qotishlarini oldini olish maqsadida ikkala spetsifikatsiya ham bir asosiy prinsipga asoslanadi

- to‘lov ishtirokchilarining o‘zaro autentifikatsiyasi. Ushbu prinsip uch domen modelidan foydalanib amalga oshirilgan (1-rasmga qarang).




**1-rasm. Uch domen modelidan foydalanib 3D-Secure protokoli bo‘yicha autentifikatsiyani amalga oshirish**

Keltirilgan domenlardan har birining vazifasi quyidagicha:

**Emitentning domeni** (Issuer domain) - uning vazifasi avtorizatsiyani amalga oshirish, ya'ni kartaning to‘lovga qodirligini tekshirishdan oldin mazkur kartani chiqargan bank-emitent xaridor - ushbu karta egasining autentifikatsiyasini amalga oshirishi, bu bilan xaridor shaxsini tasdiqlashidan iborat. Yakunda - autentifikatsiya va butun tranzaksiyaning haqiqiyligi uchun barcha javobgarlik bank-emitent zimmasiga yuklatiladi.

**Ekvayer domeni** (Acquirer domain) - uning vazifasi xizmat ko‘rsatayotgan bank mazkur xizmat ko‘rsatuvchi bankning o‘zi tomonidan belgilangan qoida va usullar asosida o‘zining savdo nuqtasini autentifikatsiyasini amalga oshirishidan iborat (ya'ni bunday holatda elektron do‘konni autentifikatsiya qilganlik uchun butun javobgarlik savdo nuqtasiga xizmat ko‘rsatayotgan bank zimmasiga yuklatiladi).

**O‘zaro ishlash domeni** (Interoperability domain) - uning vazifasi Emitent va Ekvayer domenlari o‘rtasida ushbu domenlarga bir-birining o‘zaro autentifikatsiyasini kafolatlovchi ma'lumot almashinuv qoidalari va jarayonlarini aniqlashdan iborat. Ko‘rsatilgan domen XTT tomodanidan qo‘llab-quvvatlanadi.

Karta Egasi emitent domenida, savdo va servis korxonasi esa ekvayer domenida joylashgan, ular o‘z navbatida o‘zaro ishlash domeni bilan o‘zaro ishlaydi.

Shunday qilib, uch domen modeli (3D) tranzaksiya ishtirokchilarining autentifikatsiya jarayonini alohida sohalarga bo‘lib, barcha elektron tijorat protokollari to‘plamini cheklaydi, bu bilan tranzaksiya ishtirokchilari o‘zaro ishlashining ehtimoli bo‘lgan barcha algoritmlaridan ba'zi ko‘pligini aniqlaydi.

Shuningdek, Emitent va Ekvayer domenlarining ichida autentifikatsiya jarayonlari mos ravishda bank-emitent va bank-ekvayer tomonidan aniqlanishini aytib o‘tish joiz. XTT shunchaki Interoperability Domain domenida ish qoidalarini aniqlaydi, u orqali, yuqorida aytib o‘tilganidek, mijoz va savdo nuqtasi o‘rtasida ishlar amalga oshiriladi. Ya'ni uch domenlar modeli tranzaksiyaning barcha ishtirokchilari autentifikatsiyasi jarayonida ularning javobgarligini aniqlaydi (o‘z o‘rnida bo‘lib beradi).

Ko‘rib chiqilayotgan modelning asosiy va yaqqol ustunligi Emitent o‘z mijozining autentifikatsiyasini o‘ziga qulay bo‘lgan istalgan usulda amalga oshirish imkoniyatiga ega bo‘lishida.

## 6.2. To‘lov texnologiyalarining ta'rifi (Visa kartalariga xizmat ko‘rsatish misolida)

3D-Secure texnologiyasi bo‘yicha to‘lovlarni amalga oshirish uchun Karta Egasi uning xalqaro Kartasi mobil telefonga biriktirilishi vositasida qo‘chimcha autentifikatsiyalanishi, ya'ni Verified by Visa dasturining ishtirokchisiga aylanishi mumkin.

Internet tarmog‘ida tranzaksiyani amalga oshirish vaqtida do‘kon, markazlashgan resursiga (Ekvayerning to‘lov serveri) tranzasiyaning asosiy ko‘rsatkichlarini yuborayotganda karta egasi yuqorida keltirilgan dasturning ishtirokchisi ekanligini aniqlash maqsadida to‘lov serverining Visa ning maxsus tizimi bilan aloqasini hosil qiladi.

Tasdiqlovchi javob qaytgan holatda Emitentga Karta Egasini autentifikatsiyalashga so‘rov yuboriladi. Ushbu so‘rov emitentga bank-emitent autentifikatsiya tizimining web-manziliga ulangan ko‘rsatkichlar qatori ko‘rinishida yuboriladi (ko‘rsatkichlar xaridorning brauzeriga yuboriladi). Bu bilan xaridor o‘z Emitentining autentifkatsiya tizimiga qayta yo‘naltiriladi.

Tranzaksiyani amalga oshirish vaqtida mijozning mobil telefoniga autentifikatsiya kodiga ega SMS-xabar yuboriladi, bunda mijoz SSL shifri protokoli bilan himoyalangan maxsus web-sahifaga tushadi, bu yerda undan olingan kodni kiritish (autentifikatsiyalanish) talab etiladi.

Karta Egasining shaxsi tasdiqlanganidan so‘ng Emitentning autentifikatsiya tizimi mazkur kelishuvni tasdiqlovchi imzo rolini bajaradigan maxsus noyob raqamli qiymat hosil qilinadi. Ushbu imzo to‘lov serveriga yuboriladi va keyin avtorizatsiyalangan so‘rovning bir qismiga aylanadi, uni do‘kon (to‘lov serveri) o‘zining Ekvayeriga yo‘naltiradi, u esa, o‘z navbatida, avtorizatsiyalangan so‘rovni bank-emitentga yuboradi. Imzoni tekshirib, kartaning to‘lovga qodirligiga ishonch hosil qilgach Emitent tranzaksiyani yakunlaydi (ruxsat beradi). Shunday qilib, Emitent karta egasini to‘lov o‘tkazilgan onda autentifikatsiyalaydi va real vaqt rejimida virtual do‘konga xaridor haqiqatdan karta egasi hisoblanishi yoki hisoblanmasligi haqida xabar beradi.

Mazkur sxema tufayli Visa xalqaro kartalari bo‘yicha hisob-kitoblar iste'molchi nizolari va kelishuvni amalga oshirishdan bosh tortish kabi holatlardan himoyalnadi.

Internetda to‘lovni amalga oshirishning alohida bosqichlari 2-rasmda ko‘rsatilgan.




**3-rasm. Internetda to‘lovlarni bosqichlarga bo‘lgan holda uch domenli amalga oshirish sxemasi**

1. Xaridor SSK ning elektron Internet-do‘konida zarur tovarlarni tanlaydi va buyurtmalar "savati"ni yaratadi.
2. Qo‘shimcha dasturiy modul Merchant Plug-In (MPI) ushbu muayyan kartaning autentifikatsiyalanish imkoniyatini aniqlash uchun XTT serveriga ro‘yxatdan o‘tganlikni (VEReq) tekshirish so‘rovini hosil qiladi.
3. Agar karta raqami 3D-Secure servisida ishtirok etsa, Katalog Serveri mos keluvchi ACS-Serverdan, unda karta ro‘yxatdan o‘tkazilganligini aniqlash so‘rovini talab qiladi. (Aksincha holatda, MPI modul uchun ro‘yxatdan o‘tganlikni (VeRes) tekshiruvi to‘g‘risida javob hosil qilinadi va qayta ishlash 5-bosqichdan davom ettiriladi).

VeRes Javobi Katalog Serveri tomonidan MPI moduliga yuboriladi, unda MPI moduli autentifikatsiyadan ushbu kartada foydalanib bo‘lmasligi haqida xabar bo‘ladi. VeRes javobi shuningdek 4 va 5-bosqichlarda ta'riflanganidek Katalog Serveri orqali ACS-Serverdan yuborilishi mumkin, agar server karta raqami haqiqatdan ham ishtirokchi kartalar oralig‘iga tegishli ekanligini aniqlasa va so‘rovni mos keluvchi ACS-Serverga yuboradi.

4. ACS-Server Katalog serveriga VERes javobini qaytaradi va karta raqami uchun autentifikatsiyadan foydalanish imkoniyatini ko‘rsatadi.
5. Katalog Serveri karta ishtirokchi karta raqamlari oralig‘iga kirmasligi aniqlangan holatda ACS-serverning VERes javobini yoki o‘zining shaxsiy VERes javobini MPI moduliga qayta yo‘naltiradi. Agar Karta Egasi 3d-Secure da ro‘yxatdan o‘tmagan bo‘lsa yoki boshqa holatda autentifikatsiyadan foydalanish imkonsiz bo‘lsa, avtorizatsiyaga oddiy so‘rov taqdim etiladi va jarayon yakunlanadi.

6. MPI moduli ACS-Server uchun to‘lov (PAReq) autentifikatsiyasiga xaridorning brauzeri yordamida so‘rov yuboradi, bunda Karta Egasining autentifikatsiyadan o‘tishga urinishlar uchun zarur ma'lumotlari taqdim etiladi.

7. ACS-Server PARe so‘rov qabul qiladi.

8. ACS-Server xaridorni karta raqami uchun mos mijoz sifatida autentifikatsiyalaydi (shu jumladan parol, chipli piktogramma yoki PIN kabi usullardan foydalaniladi), keyin to‘lovchining autentifikatsiyasiga (PARes) javob xabarini mos keluvchi qiymatlar bilan formatlaydi va raqamli imzo qo‘yadi. PARes autentifikatsiya muvaffaqiyatli bo‘lganligi yoki bo‘lmaganligini qayd etad.

9. MPI moduli PARes javobini qabul qiladi.

10. MPI moduli PARes javobi imzosini tasdiqlaydi (yo mustaqil ravishda tasdiqlaydi yoki alohida tasdiqlash Serveriga (Validation Server) xabar yuboradi).

11. SSK o‘z Ekvayeri bilan avtorizatsiya almashinuvini amalga oshiradi.

12-bosqichga amal qilib, Ekvayer XTT tarmog‘i orqali Emitent bilan Avtorizatsiyani amalga oshiradi va SSK ga natijani qaytaradi.

### 6.3. Xavfsizlik masalalari

1. Qo‘llanayotgan Avtorizatsiya usuli Xaridorga uni kartasining to‘lov rekvizitlari (raqami, amal qilish muddati, CVV2/CVC2) firibgarlar qo‘liga tushmasligini kafolatlaydi, chunki ushbu ma'lumotlar Internet-SSK ning savdo serverida saqlanmaydi va shundan kelib chiqib u yerdan o‘g‘irlanishi mumkin emas.
2. Xaridor o‘zining to‘lov rekvizitlarini internet-do‘kon saytida emas, bevosita protsessing markazida to‘lov serverining himoyalangan sahifasida amalga oshiradi, shundan kelib chiqib Xaridor Kartasining to‘lov rekvizitlaridan SSK xodimlari foydalana olmaydi. Mazkur funksional elektron tijorat Tranzaksiyalari uchun XTT xavfsizlik bo‘yicha talablarining amalga oshirilishi hisoblanadi.
3. Uzatiladigan ma'lumotlarning xavfsizligi SSL protokoldan foydalanib ta'minlanadi va shuning uchun ularni aloqa kanallari orqali yuborilganda ushlab qolish mumkin emas.
4. Protsessing markazning MB da keyin qayta ishlash uchun saqlanadigan Karta rekvizitlari to‘g‘risidagi ma'lumot qo‘shimcha shifrlanadi va faqat vakolatli xodimlar tomonidan o‘qilishi mumkin.

5. Internet-do‘kon va to‘lov serveri o‘rtasida to‘lov ma'lumotlari bilan almashish xavfsizligi MAC-imzo mexanizmidan foydalanish orqali ta'minlanadi, bu ma'lumotni Xaridorning brauzeri orqali yuborishda uni o‘zgartirish imkoniyatini istisno qiladi.

## 7. SSK INTERNET SAYTINI ISHLAB CHIQISHGA TALABLAR. TOVARNI QAYTARISH, QAYTA ALOQA VA MIJOZ TOVARNI OLGANLIGINI TASDIQLASH SIYOSATI.

7.1. Internet-saytni ishlab chiqishda SSK bankning minimal talablarini e'tiborga olishi shart. Bunday talablarga quyidagilar kiradi:

- Saytda tovarni qaytarish va qayta aloqa siyosatini, unga mas'ul shaxslarni ko‘rsatgan holda ishlab chiqish.
- Saytda pul mablag‘lari noqonuniy yechilgan holatda xaridorlar shikoyat yuborishlari uchun bankning elektron manzilini (email) ko‘rsatish.
- Tovar yetkazilishini kuzatish vositasi.
- Tovar va pul mablag‘lari qaytarilishiga ariza berish uchun havola.
- Savdo nuqtasi to‘lovchidan 3D Secure kodini so‘rash imkoniyatini qo‘llab-quvvatlashi lozim.
- Foydalanuvchi (to‘lovchi) akkauntining taym-auti zarur. 15 daqiqa davomida amallar bajarilmaganida (ko‘rib chiqish uchun vaqt)

- Ushbu imkoniyatni ko‘rib chiqish: foydalanuvchi Visa karta rekvizitlarini ro‘yxatdan o‘tkazayotganda (yoki boshqa biror "ish vaqtida") mobil telefon raqamini qayd qilish. Bu ushbu kartadan tranzaksiya amalga oshirilayotgan holatda mazkur mobil raqamdan sms talab etilishi uchun kerak.

7.2. SSK o‘zining internet-saytida tranzaksiyaning barcha ma'lumotlarini 6 oy davomida saqlashi va bankning birinchi talabi bilan barcha zarur ma'lumotlarni xizmat ko‘rsatuvchi bo‘lim yoki filialga taqdim etishi lozim. Tranzaksiya ma'lumotlari quyidagilarga ega bo‘lishi lozim:

- Xaridorning F.I.Sh.
- Tovarning nomi va soni.
- Tranzaksiya sanasi va vaqti.
- Avtorizatsiya va xarid amalga oshirilgan IP-manzil.
- Tovarning narxi.
- Xaridorning manzili, elektron pochta va telefoni.
- Buyurtmaning raqami.
- SMS orqali tasdiqlangan biriktirilgan mobil raqami.

Internet orqali xalqaro to‘lov tizimlarining
kartalariga elektron tijorat xizmatlarini
taqdimetishning umumiy shartlariga
**3-Ilova**

**OPERATSIYA UCHUN ARIZA**

______________________________________________________________________

(SSK va Internet SAYT nomi)

☐ Xarajatlar operatsiyasi[1] ☐ Qisman bekor qilish[2] ☐ To'liq bekor qilish[2] ☐ Qaytarish[2]

"O'zmilliybank" AJ ___________________________ ofisi boshlig'iga

I. Hisobdan pulni chiqarish, qisman/to'liq bekor qilish, qaytarish bo'yicha topshiriq ***(keraksizini o'chirish)***

| | |
|---|---|
| To'lov tizimining nomi | |
| Buyurtmani to'lash sanasi | |
| Buyurtmani to'lash vaqti | |
| Buyurtma narxi | |
| Buyurtma raqami | |
| Terminal kodi | |
| Avtorizatsiya kodi | |
| Xaridor kartasi raqamining oxirgi 4 ta raqami | |
| Tranzaksiya summasi (raqamlar va so'zlar bilan): | |

**SSK dan:**

Raxbar:

______________________ ______________________________

(imzo) (F.I.SH.)

Bosh buxgalter:

______________________ ______________________________

(imzo) (F.I.SH.)

M.O'. «____» ________________ 20___y.

---

II. Operatsiyani to'liq / qisman bekor qilish; qaytarish operatsiyasini bekor qilish, operatsiyani qayta ishlash va h.k. *(keraksiz o'chirish)*

| | |
|---|---|
| Bekor qilingan / qaytarilgan tranzaksiyalar soni: | |
| Umumiy miqdor raqamlar va so'zlar bilan: | |
| Inkassatsiya paketning raqami | |
| Inkassatsiya qilingan paketning umumiy miqdori raqamlar va so'zlar bilan: | |

«____» __________________ 20___ y.

**SSK dan**:

Raxbar:

______________________ ______________________________

(imzo) (F.I.SH.)

Bosh buxgalter:

______________________ ______________________________

(imzo) (F.I.SH.)

M.O'. «____» ________________ 20___y.

[1] Operatsiyani mustaqil ravishda yoki nostandart holatlarda bajarish uchun texnik imkoniyat bo'lmagan taqdirda rasmiylashtiriladi

[2]SSK tomonidan standart va nostandart holatlarda tuzilishi mumkin.

Operatsiyani qisman/to'liq bekor qilish yoki qaytarish uchun ariza berishda, bekor qilinishi/qaytarilishi kerak bo'lgan operatsiyalarning umumiy sonini hisoblab chiqqandan so'ng, ikkinchi qism to'ldiriladi.

Internet orqali xalqaro to‘lov tizimlarining kartalariga elektron tijorat xizmatlarini taqdimetishning umumiy shartlariga
**4-Ilova**

## MAN ETILGAN TOVARLAR RO‘YXATI

- Erotik va pornografik xarakterdagi tovar va/yoki xizmatlar.
- Alkogol va tarkibida spirt mavjud mahsulotlar (shu jumladan kam alkogolli ichimliklar)
- Tamaki va tamaki mahsulotlari.
- Litsenziyalanuvchi faoliyat turlari, amaldagi litsenziya va/yoki maxsus ruxsatnomalar bo‘lmaganida.
- Ishlab chiqaruchi/yetkazib beruvchilar bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri shartnomalar bo‘lmaganida agentlik faoliyati.
- Dori vositalari va tibbiy preparatlar, biologik faol qo‘shimchalar (BFQ).
- Tarixiy va madaniy qadriyatlar, muzey eksponatlari.
- Amaldagi qonunchilikda man qilingan giyohvandlik va psixotrop moddalar.
- Tovar belgisi sifatida ro‘yxatdan o‘tkazilgan tovarlarning to‘liq yoki qisman nusxasi hisoblanuvchi tovarlar, veb-saytda (shuningdek tovarlarning o‘zida) bu nusxa ekanligi ko‘rsatilmasa.
- Mos keluvchi litsenziyasiz (ro‘yxatdan o‘tkazilmasdan) xayr-sahovat, badallar yig‘ish.
- Yetkazib beruvchilar (distribyutorlar) va/yoki huquq egalari bilan shartnoma tuzmasdan raqamli tovarlar savdosi.
- Barcha turdagi qimor o‘yinlari, qonunchilikka muvofiq rasmiy ro‘yxatga olingan lotareyalar bundan mustasno.
- Zo‘ravonlik, millatlararo nizolar, terrorizm va ekstremik faoliyatni ommalashtiruvchi mahsulot va materiallarni sotish va tarqatish.
- Amaldagi qonunchilikka zid bo‘lgan yoki ularga nisbatan cheklov yoki boshqa savdo qoidalari amal qiladigan tovar va/yoki xizmatlar.
- Uchinchi shaxslar foydasiga to‘lov xizmatlarini taqdim etish, o‘zining shaxsiy "virtual" hisobvarag‘ini to‘ldirib, keyinchalik pul mablag‘larini uchinchi shaxslarning tovar/xizmatlariga sarflash, ko‘chirilgan pul mablag‘lari, elektron valyutalarni ayirboshlash va/yoki konvertatsiya qilish, shuningdek naqdsiz pul mablag‘larini "virtual" hisobvaraqdan chiqarish va/yoki naqd pul ko‘rinishida olish bilan shug‘ullanuvchi savdo-servis korxonalari uchun to‘lov tizimlari va/yoki to‘lov vositalarining agregatorlari.

Internet orqali xalqaro to‘lov tizimlarining
kartalariga elektron tijorat xizmatlarini
taqdimetishning umumiy shartlariga
**5-Ilova**

**Merchant application form.**
**Tashkilot faoliyati to'g'risidagi shakl.**

| | |
|---|---|
| **Corporation details. Tashkilot ma'lumotlari.** | |
| Company Name<br>Tashkilot nomi. | |
| Registered address<br>Yuridik manzil | |
| Post code and city<br>Indeks va shahar | |
| Contact Person name, phone and email.<br>Aloqalarga mas’ul shaxs, ism, telefon va pochta. | |
| **Bank account information – Bank hisobvarag'i ma'lumotlari** | |
| Main Account<br>Asosiy hisobraqam | |
| Bank name<br>Bank | |
| Account number<br>Hisob raqami | |
| Bank branch<br>MFO si | |
| Swift code<br>Svift kodi | |
| **Website details – Veb-sayt ma'lumotlari** | |
| Website name<br>Veb-sayt nomi | |
| Type of business<br>Faoliyat turi | |
| IP Address<br>IP-manzil | |
| Customer Support email<br>Mijozlarga xizmat ko'rsatishning elektron pochta manzili | |
| Chargeback notification email.<br>Bahsli vaziyatlar uchun elektron pochta manzili. | |
| How long have you been in business?<br>Ushbu faoliyat bilan qancha vaqt shug'ullanasiz? | |
| Currently monthly sales volume.<br>Joriy oylik sotuvlar hajmi. | |
| Current number of monthly transaction.<br>Oylik operatsiyalarning joriy soni. | |
| How do you receive your customer’s order?<br>Buyurtmalaringizni qayerdan olasiz? | Internet ___________(%)<br>Telephone order __________ (%) |

| | |
|---|---|
| SSL certificate, when, where and expire date.<br>SSL sertifikati, qachon va kim tomonidan olinganligi va amal qilish muddati | SSL sertifikati: |
| Technical contact name of web site, phone and email.<br>Veb-saytni boshqarish bo'yicha mas’ul shaxs, telefon va elektron pochta. | F.I.SH.:<br>Telefon:<br>Pochta: |
| **Website content / Наименования продукта/товаров.** | |
| What is/ are the product/s or services sold on your<br>website?<br>Veb-saytingizda qanday turdagi tovarlar / xizmatlar sotiladi? | |
| Min / average / max price of goods / services on the site<br>Saytdagi tovarlar/xizmatlarning minimal/o'rtacha/maksimal narxi. | Minimal –__________________so’m<br>Maksimal – __________________ so’m |
| Describe the terms of delivery of goods, and the terms of the service.<br>Tovarlarni etkazib berish shartlarini yoki xizmatlarni ko'rsatish shartlarini tavsiflang. | |
| Describe the terms of return police or cancel services.<br>Mahsulotni qaytarish yoki xizmatni bekor qilish shartlarini tavsiflang | |
| Do you send an email receipt to the cardholder when the product delivered? Describe for example.<br>Mahsulot etkazib berilganda siz mijozga ogohlantirish yuborasiz. Misol keltiring. | |

"O‘zbekiston Respublikasi Tashqi iqtisodiy faoliyat milliy banki" AJ da yuridik shaxslar va yakka tartibdagi tadbirkorlarga kompleks bank xizmatlarini ko‘rsatish Shartnomasiga
**8-ILOVA**

## Savdo terminalidan foydalanish, ularga va hisobvarag‘iga xizmat ko‘rsatish bo‘yicha UMUMIY SHARTLAR

## TERMIN VA ATAMALAR

**Bank tariflari** – bank tomonidan ko‘rsatiladigan xizmatlar bo‘yicha belgilangan xizmat haqlari me'yori.

**Tovarlar (ish, xizmat) sotuvchisi (bundan buyon matnda "mijoz" deb yuritiladi)** – bu ekvayer bilan tuzilgan shartnomaga asosan bank to‘lov plastik kartochkalari orqali tovarlar (ish, xizmat) sotuvini amalga oshiruvchi xo‘jalik (yuridik va/yoki yuridik maqomga ega bo‘lmagan tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullanuvchi jismoniy shaxs) sub'ekti;

**Savdo va xizmat ko‘rsatish ob'ektlari** - mulkchilik shakllaridan, Sotuv hajmidan, inshootning o‘lchamidan va hokazolardan qat'i nazar, tovarlar sotish va xizmatlar ko‘rsatishga mo‘ljallangan (moslashtirilgan) joy yoki inshoot.

**To‘lov terminali** – BPK egasiga xarid qilingan tovarlar va ko‘rsatilgan xizmatlar uchun to‘lovlarni amalga oshirish hamda qonunchilikda nazarda tutilgan boshqa amaliyotlarni bajarish va har bir bajarilgan amaliyot bo‘yicha cheklarni shakllantirish imkoniyatini beruvchi qurilma.

**To‘lov operasiyasi** – bank kartalaridan foydalangan holda tovar (ish, xizmat) uchun to‘lov.

**Slip** - bank plastik kartochkasidan foydalangan holda operasiya o‘tkazilganligini tasdiqlovchi va o‘zida operasiya summasi, turi, sanasi, shuningdek, bank plastik kartochkasini hamda ushbu slipni shakllantirgan terminalni identifikasiya qilish imkonini beruvchi axborotlarni aks ettiruvchi terminal kvitantsiyasi.

**To‘lovni qaytarish** - mijoz tomonidan amalga oshirilgan tranzaktsiya bo‘yicha plastik karta hisobvarag‘iga to‘lovni qaytarish.

## 1. UMUMIY QOIDALAR

1.1. Ushbu savdo terminalidan foydalanish va ularga xizmat ko‘rsatish bo‘yicha umumiy shartlar (bundan buyon matnda – "shartlar") bank tomonidan vaqtincha foydalanish uchun mijozga taqdim etilgan to‘lov terminali orqali uning mahsulotlar (ish, xizmat va tovarlar)ni naqdsiz shaklda sotib olish uchun to‘lov vositasi sifatida taqdim etilgan plastik kartalardan to‘lovni qabul qilish, to‘lov terminalini ijaraga berishni va to‘lov terminali hisobvarag‘iga xizmat ko‘rsatishni hamda bank va mijozi o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarni tartibga soladi.

## 2. HISOB-KITOBLAR TARTIBI VA SHARTLARI

2.1. Ushbu shartlar bo‘yicha barcha hisob-kitoblar milliy valyutada amalga oshiriladi.

2.2. Terminaldan foydalangani uchun mijozning asosiy x/r idan xar bir tranzaktsiya uchun tranzaktsiya summasidan bankning amaldagi tarifiga asosan xizmat xaqi undiriladi.

2.3. Shartlar boyicha xizmat korsatish, tomonlarni birini talabiga ko‘ra bekor qilingan sanadan boshlab 2 (ikki) kun ichida terminal bankga qaytarilmasa, mijozga nisbatan terminalni o‘z vaqtida qaytarmagan har bir kechiktirilgan kun uchun terminal balans qiymatining 0.1% miqdorida, lekin terminal balans qiymatining 50% oshmagan miqdorda penya hisoblanadi.

2.4. Ushbu shartlar bo‘yicha terminal olish uchun ariza taqdim qilingan sanadan boshlab 3(uch) bank ish kunida terminal mijozga taqdim etilmasa, bankka nisbatan har bir kechiktirilgan kun uchun terminal balans qiymatining 0.1% miqdorida lekin terminal balans qiymatining 50% oshmagan miqdorda penya hisoblanadi.

## 3. TOMONLARNING MAJBURIYATLARI

3.1. Bank:
3.1.1. Mijozga, ushbu shartlarga rozilik bildirilgandan boshlab, 3 (uch) bank ish kunida qabul qilish va topshirish dalolatnoma (1,2 va 3-ilovalar) asosida vaqtincha foydalanish uchun terminalni taqdim etish.
3.1.2. Mijozga terminaldan foydalanish qoidalarini o‘rgatish (4-ilova).
3.1.3. Keyingi ish kunidan kechiktirmay mijozning hisobvarag‘iga terminal orqali qabul qilingan hamda Inkassasiya qilingan to‘lov summasini kirim qilish.
3.1.4. Bank rekvizitlari o‘zgargan taqdirda mijozga darhol xabar berish.
3.2. Mijoz:
3.2.1. Terminalning butligini (foydalanishga yaroqliligini) saqlash, buzilgan taqdirda uning ta'mirlash xarajatlarini to‘liq qoplab berish, terminal yo‘qotilgan yoki foydalanishga yaroqsiz holga keltirilgan hollarda tuzilgan dalolatnomaga (5 va 6-ilovalar) asosan bank tarifiga muvofiq jarima to‘lash.
3.2.2. O‘zining savdo (xizmat ko‘rsatish) shoxobchasiga "HUMO" va boshqa to‘lov tizimlari logotipini hamda "ishonch telefon" raqamlarini joylashtirish.
3.2.3. Xalqaro to‘lov tizimining talabiga asosan mijozlarning "HUMO" savdo terminallari hamda "HUMO kobeydjing: HUMO-VISA, HUMO-Mastercard, kartalar orqali amalga oshirilgan to‘lovlar to‘lov amalga oshirlgandan keyin savdo tashkilotlari tomonidan belgilangan muddatlarda qoldiqlarni solishtirish "sverka itogov" amaliyoti amalga oshirilmasa, to‘lov qilingan mablag‘lar karta egasida qaytadan foydalanish imkoniyati paydo bo‘ladi. Ushbu xolat bo‘yicha mijoz kartadagi mablag‘larini ishlatib yuborgan taqdirda korxona ushbu xolatni o‘z zimmasi olish.
3.2.4. O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq savdo qoidalariga rioya qilish va mahsulot (ish va xizmatlar) xarid qiluvchi tomonidan taqdim etilgan plastik kartani to‘lovga qabul qilish.
3.2.5. Terminalni kunlik ravishda Inkassasiya qilinishini ta'minlash.
3.2.6. Shartlar bekor qilinganidan so‘ng 2 (ikki) kun davomida terminalni soz holatda bankka qaytarish.
3.2.7. Rekvizitlar o‘zgarganligi haqida bankga darhol yozma xabar berish.

## 4. TOMONLARNING HUQUQLARI

4.1. Bank:
4.1.1. Ushbu shartlar buzilganda terminalni mijozdan qaytarib olish.
4.1.2. Terminal foydalanishga berilgandan boshlab bir oy mobaynida to‘lov amalga oshirilmasa yoki amaldagi "tijorat banklarida jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga va terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurashish bo‘yicha ichki nazorat qoidalari"ga muvofiq shubhali yoki gumonli operasiyalar amalga oshirilsa, mijozni ushbu shartlar bo‘yicha hizmat ko‘rsatishni to‘htatish.
4.1.3. Bank tarifga kiritilgan o‘zgartirishlarni bo‘lim/filialdagi axbortlar taxtasiga va bankning Internet saytiga (www.nbu.uz) joylashtirib boradi.
4.1.4. Bankning amaldagi tarifiga asosan bank xizmatlari uchun vositachilik to‘lovlarni undirish.
4.2. Mijoz:
4.2.1. Yozma murojaat qilish orqali bankdan amalga oshirilgan tranzaktsiyalar to‘g‘risida ma'lumot olish.
4.2.2. O‘zining mas'ul xodimlariga terminaldan foydalanish bo‘yicha bank tomonidan tushuntirishlar berishni talab qilish.
4.2.3. Bankning amaldagi tariflari bilan bank filialidagi axbortlar taxtasiga joylashtirilgan ma'lumotlar va bankning Internet sayti (www.nbu.uz) orqali tanishib borish.
4.2.4. To‘lov terminali orqali tushgan tushumlarni depozit hisobraqamiga o‘z vaqtida kirim qilishni talab qilish.
.

## 5. TOMONLARNING JAVOBGARLIGI VA NIZOLARNING HAL QILISH TARTIBI

5.1. Tomonlar ushbu shartlar bajarmaganliklari yoki lozim darajada bajarmaganliklari uchun O‘zbekiston Respublikasi fuqarolik kodeksi, "xo‘jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to‘g‘risida"gi qonuni hamda amaldagi boshqa qonun va normativ-huquqiy hujjatlar asosida javobgarlikka tortiladilar.
5.2. Prosessing markazlari yoki bankning dasturiy ta'minotida vaqtinchalik yuzaga kelgan bankka aloqador bo‘lmagan texnik nosozliklar tufayli mijozning hisobvarag‘iga terminal orqali qabul qilingan hamda Inkassasiya qilingan to‘lov summasining kechikib tushishiga javobgarlik to‘lov tizimi ishtirokchilari zimmasida bo‘ladi.
5.3. Tomonlar mazkur shartlar bo‘yicha yuzaga keladigan nizolarni o‘zaro muzokaralar o‘tkazish orqali hal etishga harakat qiladilar. O‘zaro muzokaralar orqali kelishuvga erishilmagan nizolar O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq iqtisodiy sudi tomonidan ko‘rib chiqiladi.

## 6. FORS-MAJOR HOLATLARI

6.1. Shartlarga rozilik berilgandan so‘ng yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan suv toshqini, yong‘in, zilzila va tabiiy ofatning boshqa ko‘rinishlari, urush, epidemiya, epizotiya hamda shu kabi oldini olish imkoniyati bo‘lmagan hodisalar yoki amaldagi Qonunchilik hujjatlarining bekor bo‘lishi yoxud ularga kiritilgan o‘zgartirishlar tufayli ushbu shartlar bo‘yicha har qanday majburiyatlar to‘liq yoki qisman bajarilmagan hollarda shartlar tomonlaridan hech biri javobgar bo‘lmaydilar.

## 7. SHARTLARNING AMAL QILISH MUDDATI, SHARTLARGA O‘ZGARTIRISH KIRITISH VA SHARTLARNI BEKOR QILISH TARTIBI

7.1. Ushbu shartlarga rozilik berilgan kundan boshlab kuchga kiradi.
7.2. Mazkur shartlar bankning rasmiy saytida (www.nbu.uz) joylashtiriladi.
7.3. Mazur shartlarga kiritiladigan barcha o‘zgartirish va qo‘shimchalar bankning rasmiy saytida va mijozning "IBank" dasturida e'lon qilinadi.
7.4. Tomonlar bir-birlarini bir oy oldin yozma ravishda ogohlantirgan holda shartlarni bekor qilish huquqiga ega. Tomonlar tomonidan shartlarni bekor qilish to‘g‘risida murojaat etilmagan hollarda, mazkur shartlarni amal qilish muddati belgilanmaydi.
7.5. Ushbu shartlar tomonlarning talabi bilan faqatgina sudning qaroriga binoan ikkinchi taraf shartlarni jiddiy ravishda buzgan yoxud qonunda yoki shartlarda nazarda tutilgan boshqa hollarda bekor qilinishi mumkin.

"O‘zbekiston Respublikasi Tashqi iqtisodiy faoliyat milliy banki" AJ da yuridik shaxslar va yakka tartibdagi tadbirkorlarga kompleks bank xizmatlarini ko‘rsatish Shartnomasiga

**8-ILOVA**

## Savdo terminalidan foydalanish, ularga va hisobvarag‘iga xizmat ko‘rsatish bo‘yicha UMUMIY SHARTLAR

### TERMIN VA ATAMALAR

**Bank tariflari** – bank tomonidan ko‘rsatiladigan xizmatlar bo‘yicha belgilangan xizmat haqlari me'yori.

**Tovarlar (ish, xizmat) sotuvchisi (bundan buyon matnda "mijoz" deb yuritiladi)** – bu ekvayer bilan tuzilgan shartnomaga asosan bank to‘lov plastik kartochkalari orqali tovarlar (ish, xizmat) sotuvini amalga oshiruvchi xo‘jalik (yuridik va/yoki yuridik maqomga ega bo‘lmagan tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullanuvchi jismoniy shaxs) sub'ekti;

**Savdo va xizmat ko‘rsatish ob'ektlari** - mulkchilik shakllaridan, Sotuv hajmidan, inshootning o‘lchamidan va hokazolardan qat'i nazar, tovarlar sotish va xizmatlar ko‘rsatishga mo‘ljallangan (moslashtirilgan) joy yoki inshoot.

**To‘lov terminali** – BPK egasiga xarid qilingan tovarlar va ko‘rsatilgan xizmatlar uchun to‘lovlarni amalga oshirish hamda qonunchilikda nazarda tutilgan boshqa amaliyotlarni bajarish va har bir bajarilgan amaliyot bo‘yicha cheklarni shakllantirish imkoniyatini beruvchi qurilma.

**To‘lov operasiyasi** – bank kartalaridan foydalangan holda tovar (ish, xizmat) uchun to‘lov.

**Slip** - bank plastik kartochkasidan foydalangan holda operasiya o‘tkazilganligini tasdiqlovchi va o‘zida operasiya summasi, turi, sanasi, shuningdek, bank plastik kartochkasini hamda ushbu slipni shakllantirgan terminalni identifikasiya qilish imkonini beruvchi axborotlarni aks ettiruvchi terminal kvitantsiyasi.

**To‘lovni qaytarish** - mijoz tomonidan amalga oshirilgan tranzaktsiya bo‘yicha plastik karta hisobvarag‘iga to‘lovni qaytarish.

### 1. UMUMIY QOIDALAR

1.1. Ushbu savdo terminalidan foydalanish va ularga xizmat ko‘rsatish bo‘yicha umumiy shartlar (bundan buyon matnda – "shartlar") bank tomonidan vaqtincha foydalanish uchun mijozga taqdim etilgan to‘lov terminali orqali uning mahsulotlar (ish, xizmat va tovarlar)ni naqdsiz shaklda sotib olish uchun to‘lov vositasi sifatida taqdim etilgan plastik kartalardan to‘lovni qabul qilish, to‘lov terminalini ijaraga berishni va to‘lov terminali hisobvarag‘iga xizmat ko‘rsatishni hamda bank va mijozi o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarni tartibga soladi.

### 2. HISOB-KITOBLAR TARTIBI VA SHARTLARI

2.1. Ushbu shartlar bo‘yicha barcha hisob-kitoblar milliy valyutada amalga oshiriladi.

2.2. Terminaldan foydalangani uchun mijozning asosiy x/r idan xar bir tranzaktsiya uchun tranzaktsiya summasidan bankning amaldagi tarifiga asosan xizmat xaqi undiriladi.

2.3. Shartlar boyicha xizmat korsatish, tomonlarni birini talabiga ko‘ra bekor qilingan sanadan boshlab 2 (ikki) kun ichida terminal bankga qaytarilmasa, mijozga nisbatan terminalni o‘z vaqtida qaytarmagan har bir kechiktirilgan kun uchun terminal balans qiymatining 0.1% miqdorida, lekin terminal balans qiymatining 50% oshmagan miqdorda penya hisoblanadi.

2.4. Ushbu shartlar bo‘yicha terminal olish uchun ariza taqdim qilingan sanadan boshlab 3(uch) bank ish kunida terminal mijozga taqdim etilmasa, bankka nisbatan har bir kechiktirilgan kun uchun terminal balans qiymatining 0.1% miqdorida lekin terminal balans qiymatining 50% oshmagan miqdorda penya hisoblanadi.

### 3. TOMONLARNING MAJBURIYATLARI

3.1. Bank:

3.1.1. Mijozga, ushbu shartlarga rozilik bildirilgandan boshlab, 3 (uch) bank ish kunida qabul qilish va topshirish dalolatnoma (1,2 va 3-ilovalar) asosida vaqtincha foydalanish uchun terminalni taqdim etish.
3.1.2. Mijozga terminaldan foydalanish qoidalarini oʻrgatish (4-ilova).
3.1.3. Keyingi ish kunidan kechiktirmay mijozning hisobvaragʻiga terminal orqali qabul qilingan hamda Inkassasiya qilingan toʻlov summasini kirim qilish.
3.1.4. Bank rekvizitlari oʻzgargan taqdirda mijozga darhol xabar berish.
3.2. Mijoz:
3.2.1. Terminalning butligini (foydalanishga yaroqliligini) saqlash, buzilgan taqdirda uning ta'mirlash xarajatlarini toʻliq qoplab berish, terminal yoʻqotilgan yoki foydalanishga yaroqsiz holga keltirilgan hollarda tuzilgan dalolatnomaga (5 va 6-ilovalar) asosan bank tarifiga muvofiq jarima toʻlash.
3.2.2. Oʻzining savdo (xizmat koʻrsatish) shoxobchasiga "HUMO" va boshqa toʻlov tizimlari logotipini hamda "ishonch telefon" raqamlarini joylashtirish.
3.2.3. Xalqaro toʻlov tizimining talabiga asosan mijozlarning "HUMO" savdo terminallari hamda "HUMO kobeydjing: HUMO-VISA, HUMO-Mastercard, kartalar orqali amalga oshirilgan toʻlovlar toʻlov amalga oshirlgandan keyin savdo tashkilotlari tomonidan belgilangan muddatlarda qoldiqlarni solishtirish "sverka itogov" amaliyoti amalga oshirilmasa, toʻlov qilingan mablagʻlar karta egasida qaytadan foydalanish imkoniyati paydo boʻladi. Ushbu xolat boʻyicha mijoz kartadagi mablagʻlarini ishlatib yuborgan taqdirda korxona ushbu xolatni oʻz zimmasi olish.
3.2.4. Oʻzbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq savdo qoidalariga rioya qilish va mahsulot (ish va xizmatlar) xarid qiluvchi tomonidan taqdim etilgan plastik kartani toʻlovga qabul qilish.
3.2.5. Terminalni kunlik ravishda Inkassasiya qilinishini ta'minlash.
3.2.6. Shartlar bekor qilinganidan soʻng 2 (ikki) kun davomida terminalni soz holatda bankka qaytarish.
3.2.7. Rekvizitlar oʻzgarganligi haqida bankga darhol yozma xabar berish.

## 4. TOMONLARNING HUQUQLARI

4.1. Bank:
4.1.1. Ushbu shartlar buzilganda terminalni mijozdan qaytarib olish.
4.1.2. Terminal foydalanishga berilgandan boshlab bir oy mobaynida toʻlov amalga oshirilmasa yoki amaldagi "tijorat banklarida jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga va terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurashish boʻyicha ichki nazorat qoidalari"ga muvofiq shubhali yoki gumonli operasiyalar amalga oshirilsa, mijozni ushbu shartlar boʻyicha xizmat koʻrsatishni toʻhtatish.
4.1.3. Bank tarifga kiritilgan oʻzgartirishlarni boʻlim/filialdagi axbortlar taxtasiga va bankning Internet saytiga (www.nbu.uz) joylashtirib boradi.
4.1.4. Bankning amaldagi tarifiga asosan bank xizmatlari uchun vositachilik toʻlovlarni undirish.
4.2. Mijoz:
4.2.1. Yozma murojaat qilish orqali bankdan amalga oshirilgan tranzaktsiyalar toʻgʻrisida ma'lumot olish.
4.2.2. Oʻzining mas'ul xodimlariga terminaldan foydalanish boʻyicha bank tomonidan tushuntirishlar berishni talab qilish.
4.2.3. Bankning amaldagi tariflari bilan bank filialidagi axbortlar taxtasiga joylashtirilgan ma'lumotlar va bankning Internet sayti (www.nbu.uz) orqali tanishib borish.
4.2.4. Toʻlov terminali orqali tushgan tushumlarni depozit hisobraqamiga oʻz vaqtida kirim qilishni talab qilish.

## 6. TOMONLARNING JAVOBGARLIGI VA NIZOLARNING HAL QILISH TARTIBI

5.1. Tomonlar ushbu shartlar bajarmaganliklari yoki lozim darajada bajarmaganliklari uchun Oʻzbekiston Respublikasi fuqarolik kodeksi, "xoʻjalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatining

shartnomaviy-huquqiy bazasi to‘g‘risida"gi qonuni hamda amaldagi boshqa qonun va normativ-huquqiy hujjatlar asosida javobgarlikka tortiladilar.

5.2. Prosessing markazlari yoki bankning dasturiy ta'minotida vaqtinchalik yuzaga kelgan bankka aloqador bo‘lmagan texnik nosozliklar tufayli mijozning hisobvarag‘iga terminal orqali qabul qilingan hamda Inkassasiya qilingan to‘lov summasining kechikib tushishiga javobgarlik to‘lov tizimi ishtirokchilari zimmasida bo‘ladi.

5.3. Tomonlar mazkur shartlar bo‘yicha yuzaga keladigan nizolarni o‘zaro muzokaralar o‘tkazish orqali hal etishga harakat qiladilar. O‘zaro muzokaralar orqali kelishuvga erishilmagan nizolar O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq iqtisodiy sudi tomonidan ko‘rib chiqiladi.

## 6. FORS-MAJOR HOLATLARI

6.1. Shartlarga rozilik berilgandan so‘ng yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan suv toshqini, yong‘in, zilzila va tabiiy ofatning boshqa ko‘rinishlari, urush, epidemiya, epizotiya hamda shu kabi oldini olish imkoniyati bo‘lmagan hodisalar yoki amaldagi Qonunchilik hujjatlarining bekor bo‘lishi yoxud ularga kiritilgan o‘zgartirishlar tufayli ushbu shartlar bo‘yicha har qanday majburiyatlar to‘liq yoki qisman bajarilmagan hollarda shartlar tomonlaridan hech biri javobgar bo‘lmaydilar.

## 7. SHARTLARNING AMAL QILISH MUDDATI, SHARTLARGA O‘ZGARTIRISH KIRITISH VA SHARTLARNI BEKOR QILISH TARTIBI

7.1. Ushbu shartlarga rozilik berilgan kundan boshlab kuchga kiradi.

7.2. Mazkur shartlar bankning rasmiy saytida (www.nbu.uz) joylashtiriladi.

7.3. Mazur shartlarga kiritiladigan barcha o‘zgartirish va qo‘shimchalar bankning rasmiy saytida va mijozning "IBank" dasturida e'lon qilinadi.

7.4. Tomonlar bir-birlarini bir oy oldin yozma ravishda ogohlantirgan holda shartlarni bekor qilish huquqiga ega. Tomonlar tomonidan shartlarni bekor qilish to‘g‘risida murojaat etilmagan hollarda, mazkur shartlarni amal qilish muddati belgilanmaydi.

7.5. Ushbu shartlar tomonlarning talabi bilan faqatgina sudning qaroriga binoan ikkinchi taraf shartlarni jiddiy ravishda buzgan yoxud qonunda yoki shartlarda nazarda tutilgan boshqa hollarda bekor qilinishi mumkin.

Savdo terminalidan foydalanish, ularga
va hisobvarag‘iga xizmat ko‘rsatish
bo‘yicha umumiy shartlarga
**1–ILOVA**

**TERMINALNI TOPSHIRISH-QABUL QILISH DALOLATNOMASI**

Shahar _____________________ «___» «_________» 20__yil

Biz, quyidagi imzo chekuvchilar O'zmilliybank __________________________ ofisi mas'ul xodimi (F.I.SH. va lavozimi) ____________________________________________ va mijoz _______________________ (F.I.SH.) _________________________ o’rtasida to'lov terminali bo'yicha topshirish-qabul qilish dalolatnomasi tuzildi.

| № | Terminal nomi (rusumi) | Seriya raqami | Terminal holati | Narxi (so'm) |
|---|---|---|---|---|
| 1 | | | | |
| 2 | | | | |
| 3 | | | | |
| ... | | | | |

Mazkur terminallar ishchi holatida topshirildi. Dalolatnoma ikki nusxada tuzildi:

**Topshirdi bank hodimi:**

__________________________________________________________ ______________________
(F.I.SH.) (Imzo)

**Qabul qilgan Xo’jalik yurutuvchi subyekt:**

_________________________________________________________________________________
(Tashkilot nomi)

**Tashkilot mas'ul xodimi qabul qildi:**

__________________________________________________________ ______________________
(F.I.SH) (Imzo)

***M. O'.***

Savdo terminalidan foydalanish, ularga
va hisobvarag'iga xizmat ko'rsatish
bo'yicha umumiy shartlarga
**2–ILOVA**

**SO'ROVNOMA** **АНКЕТА**

______________________________________________________________
(Tashkilot nomi / Наименование организации)

**Davlat ro'yxatidan o'tgan raqami /**
**Государственный номер регистрации:** ___________________________

______________________________________________________________

______________________________________________________________
(Tashkilotning yuridik manzili / Юридический адрес организации)

______________________________________________________________

______________________________________________________________
(Tashkilotning dislokasiya manzili / Адрес дислокации организации)

**Rahbar / Руководитель:**

______________________________________________________________
(F.I.SH. / Ф.И.О.)

______________________________________________________________
(pasport ma'lumotlari / паспортные данные)

**Telefon raqam / Номер телефона:** ___________________________________

**Bosh buxgalter / Главный бухгалтер**:

______________________________________________________________
(F.I.SH. / Ф.И.О.)

______________________________________________________________
(pasport ma'lumotlari / паспортные данные)

**Telefon raqam / Номер телефона:** ___________________________________

**Tashkilot savdo shaxobchasi / Точка продаж организации:**

______________________________________________________________
(savdo shoxobcha nomi / Название точки продаж)

**Davlat ro'yxatidan o'tgan raqami /**
**Государственный номер регистрации:** ___________________________

______________________________________________________________

______________________________________________________________
(Manzil / Адрес)

**Rahbar / Руководитель:**

______________________________________________________________
(F.I.SH. / Ф.И.О.)

______________________________________________________________
(pasport ma'lumotlari / паспортные данные)

**Telefon raqam / Номер телефона:** ___________________________________

**Ma'sul / Ответственный:**

______________________________________________________________
(F.I.SH. / Ф.И.О.)

______________________________________________________________
(pasport ma'lumotlari / паспортные данные)

Savdo terminalidan foydalanish, ularga
va hisobvarag‘iga xizmat ko‘rsatish
bo‘yicha umumiy shartlarga
**3–ILOVA**

## TERMINAL ORQALI TO'LOV AMALGA OSHIRILGANLIGINI TASDIQLOVCHI ELEKTRON XUJJATLAR NAMUNASI

## ОБРАЗЕЦ ЭЛЕКТРОННЫХ ДОКУМЕНТОВ, ПОДТВЕРЖДАЮЩИХ ОПЛАТУ ЧЕРЕЗ ТЕРМИНАЛ

**1. To'lov cheki / Платежный чек.**


========================
ОПЛАТА
27/04/09 02:49:27

#0000000001-#0000003277

терминал 10422835
Сумма к списанию ( UZS)
0.01
MK 9860 0602 0010 3916 5
Код банка :201106002001
Номер счета:91500014501
ПРИЛОЖЕНИЕ 1
Обл. действ: Глобальная
Наим:
M#:060-00002435 003/0100
K#: 49168 (OTCK) FC
CM: 97EE67FA
CK: 1EC01085C2C664F4
ДД: 003C1772000B

Владелец карты:

* СПАСИБО *
========================

**2. Inkassasiya cheki / Чек инкассации**


========================
ДАТА 27/04/09 02:59:53
ХОСТ : 27/04/09 03:00:26
========================

Соединение с ЦО : УСПЕХ

ИНКАССАЦИЯ

MK 9860 0603 0000 2435 7
Пакет # 100 от 17/04/09

Всего оп-ций на МК: 003

К передаче в ЦО: 3
На сумму :
2.01 ( UZS)

**Инкассация: УСПЕХ**

ТЕРМ: 27/04/09 03:04 ---
ЦО : 27/04/09 17:20 -5
Установлено время Ц.О.

========================
ЗАВЕРШ 27/04/09 17:20:40
Код завершения: 0
========================

**3. Terminal elektron hisoboti / Электронный отчет терминала**


СПИСОК ОПЕРАЦИЙ
27/04/09 17:22:24

#0000000001-#0000003279

MK 9860 0603 0000 2435 7
Пакет # 100 от 17/04/09
Обслуживаемые валюты:
UZS

Успешных операций: 3
на сумму : 2.01

Всего оп-ций на МК: 003
========================
Группировка данных
не используется.
========================
Печать списка отключена.
========================

========================
ИНФОРМАЦИЯ НСИ
27/04/09 17:22:36

#0000000001-#0000003280

MK терм. ридер 1
Вер : 20090427
Торг/Рз:060-00002435/34
ТоргПАН:060-00006002
ИНдт/Но:20090427/101

## TASHKILOT XODIMLARI BILAN O'QUV O'TKAZILGANLIGI TO'G'RISIDAGI DALOLATNOMA

## АКТ ОБ ПРОХОЖДЕНИИ ОБУЧЕНИЯ СОТРУДНИКАМИ ОРГАНИЗАЦИИ

Plastik karta egalariga terminal orqali xizmat ko'rsatish va terminal uskunasidan to'g'ri foydalanish bo'yicha tashkilot mas'ul xodimi bilan o'quv o'tkazildi.

Plastik karta egalariga terminal orqali xizmat ko'rsatish va terminal uskunasidan to'g'ri foydalanishni o'rgandim.

Проведено обучение с ответственным сотрудником организации по обслуживанию держателей пластиковых карт через терминал и правильному использованию терминального оборудования.

Я научился обслуживать держателей пластиковых карт через терминал и правильно пользоваться терминальным оборудованием.

______________________________ ______________________________

(F.I.Sh., lavozimi / Ф.И.О., должность)

______________________________ ______________________________

(imzo, o'quv o'tkazilgan sana / подпись, дата проведения обучения)

______________________________ ______________________________

(F.I.Sh., lavozimi / Ф.И.О., должность)

______________________________ ______________________________

(imzo, o'quv o'tkazilgan sana / подпись, дата проведения обучения)

______________________________ ______________________________

(F.I.Sh., lavozimi / Ф.И.О., должность)

______________________________ ______________________________

(imzo, o'quv o'tkazilgan sana / подпись, дата проведения обучения)

Plastik karta egalariga terminal orqali xizmat ko'rsatish va terminal uskunasi ish xolatida bo'lishiga yuqorida qayd etilgan xodimlar mas'ul etib tayinlandi.

Вышеуказанные сотрудники были назначены для обслуживания держателей пластиковых карт через терминал и обеспечения исправности терминального оборудования.

**Tashkilot rahbari / Руководитель организации** ______________________________

(F.I.Sh., imzo/ Ф.И.О., подпись)

**M.O’/M.П.**

Plastik karta egalariga terminal orqali xizmat ko'rsatish va terminal uskunasidan to'g'ri foydalanish bo'yicha tashkilot mas'ul xodimi bilan o'quv o'tkazildi.

Проведено обучение с ответственным сотрудником организации по обслуживанию держателей пластиковых карт через терминал и правильному использованию терминального оборудования.

**Bank vakili / Сотрудник Банка** ______________________________

(F.I.Sh., imzo/ Ф.И.О., подпись)

Savdo terminalidan foydalanish, ularga
va hisobvarag‘iga xizmat ko‘rsatish
bo‘yicha umumiy shartlarga
**5–ILOVA**

# NOSOZ HOLGA KELGAN TERMINAL TO'G'RISIDA DALOLATNOMA

Shahar__________________ «___»______________20___

Biz quyida imzo chekuvchilar, O'zmilliybank________________________ ofisi, hamda ________________________________, mijozga vaqtincha foydalanish uchun berilgan terminal uskunasini nosoz xolga kelish sababini aniqlash bo'yicha, ushbu dalolatnomani tuzdik:

**Modeli:** ____________________________________________________________

**Seriya raqami:** ______________________________________________________

**Terminal kartasining xolati:**___________________________________________
________________________________________________________________________
________________________________________________________________________
________________________________________________________________________
________________________________________________________________________
________________________________________________________________________

(mexanik va texnik nosozliklar qayd etilsin)

**Terminal uskunasini yoki savdo kartasini ishlamaslik sababi:**

________________________________________________________________________
________________________________________________________________________
________________________________________________________________________
________________________________________________________________________

(ishlamaslik sababi va shartnomaning buzilgan bandlari qayd etiladi)

**Mazkur dalolatnoma 2 nusxada tuzildi.**

**TOMONLAR:**

**Bank:**

____________________________________
____________________________________
____________________________________ ________________________________

(F.I.Sh., lavozimi) (imzo,sana)

**Mijoz:**

____________________________________
____________________________________
____________________________________ ________________________________
____________________________________ (imzo,sana)

(F.I.Sh., lavozimi) **M.O’**

Savdo terminalidan foydalanish, ularga
va hisobvarag‘iga xizmat ko‘rsatish
bo‘yicha umumiy shartlarga
**6–ILOVA**

**TERMINAL YO'QOTILGANLIGI TO'G'RISIDAGI DALOLATNOMA**

Shahar________________ «___»_____________20___

Biz quyida imzo chekuvchilar O'zmilliybank____________________________ filiali, hamda _____________________________, mijozga vaqtincha foydalanish uchun berilgan terminal uskunasini nosoz xolga kelish sababini aniqlash bo'yicha ushbu dalolatnomani tuzdik.

**Modeli:** ___________________________________________________________

**Seriya raqami:** ____________________________________________

**Yo'qotish sababi**:_____________________________________________________________
________________________________________________________________________________
________________________________________________________________________________
________________________________________________________________________________
(yo'qotish sababi va shartnomaning qaysi bandlari buzilgan)

**Mazkur dalolatnoma 2 nusxada tuzildi.**

**TOMONLAR:**

**Bank:**

______________________________________
______________________________________
______________________________________ ______________________________________
(F.I.Sh., lavozimi) (imzo,sana)

**Mijoz:**

_____________________________________
_____________________________________
_____________________________________ ______________________________________
____________________________________ (imzo,sana)
(F.I.Sh., lavozimi) **M.O’**

"O‘zbekiston Respublikasi Tashqi iqtisodiy
faoliyat milliy banki" AJ da yuridik shaxslar
va yakka tartibdagi tadbirkorlarga kompleks
bank xizmatlarini ko‘rsatish Shartnomasiga
**9-ILOVA**

**Tovarlar (ish, xizmat) sotuvini amalga oshiruvchi xo‘jalik (yuridik va/yoki yuridik maqomga ega bo‘lmagan tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullanuvchi jismoniy shaxs) sub'ektlariga QR-code berish bo‘yicha**
**UMUMIY SHARTLAR**

## ASOSIY TERMIN VA ATAMALAR

1.1**."QR kod"-** savdo tashkiloti mijozlariga to‘lov operasiyalarini amalga oshirish imkoniyatini beruvchi va tashkilot to‘g‘risidagi ma'lumotlarni o‘zida shakllantiruvchi kod;
1.2. **"Bank mobil ilovasi"**- bankning mobil ilovasi smartfonlar orqali "Play-Market"dan (ANDROID) yoki "APPStore"dan (IOS) yuklab olib ro‘yxatdan o‘tish orqali ishga tushuriladigan, bank plastik kartalar bog‘langan va ular orqali to‘lovlarni elektron ravishda o‘tkazuvchi banklarning mobil ilovalari;
1.3**."Mobil ilova egasi"** – mobil ilovaga biriktirilgan plastik karta egasiga karta hisobvarag‘i bo‘yicha amaliyotlar o‘tkazish imkoniyatni, jumladan naqd va naqd pulsiz hisob-kitoblarni o‘tkazishni ta'minlovchi shaxs;
1.4.**"Ekvayring**"- bank kartalari orqali tovar (ish, xizmat) sotuvchilari bilan operasiyalar bo‘yicha hisob-kitoblarni amalga oshirish hamda bank karta egasiga bevosita kassa yoki bankomat orqali naqd pul berish;
1.5."**Bank-ekvayer**" (bundan keyin "bank") – ekvayringni amalga oshiruvchi bank;
1.6."**Tovarlar (ish, xizmat) sotuvchisi**" (bundan keyin "xo‘jalik yurituvchi sub'ekt") – bu bank bilan tuzilgan shartnomaga asosan QR kod orqali tovarlar (ish, xizmat) sotuvini amalga oshiruvchi xo‘jalik (yuridik va/yoki yuridik maqomga ega bo‘lmagan tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullanuvchi jismoniy shaxs) sub'ekti;
1.7."**Tranzaktsiya**"- bank mobil ilovasidagi plastik karta egasi karta hisobvarag‘ini debet qilishga olib keluvchi mobil ilovasi egasi tomonidan naqdsiz amalga oshiriladigan amaliyotlar.
1.8."**To‘lovni kommunikasion bekor qilish**"- savdo va xizmat ko‘rsatish ob'ektlarida QR koddan foydalanib amalga oshirilgan lekin o‘tmagan to‘lovlarni kommunikasion avtomatik bekor qilish.

## 2. UMUMIY QOIDALAR

2.1. Ushbu shartlar mijozga QR kod berishni va unga xizmat ko‘rsatishni hamda bank va mijoz o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarni tartibga soladi.

## 3. BANKNING HUQUQ VA MAJBURIYATLARI

3.1. Bank quyidagi majburiyatlarni oladi:
3.1.1. Mijoz tomomnidan umumiy shartlarga muvofiq, so‘rovnoma (ushbu umumiy shartlarga 2-ilova) taqdim qilgadan keyin QR kod ni 3 bank ish kunidan kechiktirmasdan mijozga foydalanish uchun berish;
3.1.2. Mijoz QR kod orqali tushgan pul mablag‘larini, bankka tushgan kundan 1 kundan kechiktirmasdan xo‘jalik yurituvchi sub'ekt depozit hisobvarag‘iga kiritib qo‘yish. Agar pul mablag‘larini mijoz depozit hisobvarag‘iga o‘tkazish dam olish yoki bayram kunlariga to‘g‘ri kelsa, pul mablag‘larini o‘tkazish dam olish yoki bayram kunlaridan keyingi ish kunida amalga oshiriladi;
3.1.3. Ushbu umumiy shartlarning 1-ilovasidagi "topshirish-qabul qilish dalolatnomasi" ga asosan savdo QR kod muomalaga chiqaradi hamda o‘rnatadi;
3.1.4. Mijozga QR koddan foydalanish bo‘yicha tushuntirish berish;
3.1.5. Texnik sabab tufayli mijoz savdo ma'lumotlar yo‘qotilsa, mijoz tomonidan taqdim etilgan telefon raqamidagi smslar asosida o‘tkazilgan ma'lumotlarni tiklab berish;

3.1.6. Bank barcha banklar ilovalari orqali tizimiga a'zo boʻlgan barcha bank ilovalariga xizmat koʻrsatishni ta'minlash;
3.1.7. Amaldagi qonunchilikka muvofiq mijoz toʻgʻrisidagi ma'lumotlar va ularning depozit hisobvaragʻidagi mablagʻlari toʻgʻrisidagi ma'lumotlarni sir saqlash;
3.2. Bankning huquqlari:
3.2.1. Mijoz ushbu umumiy shartlarning 4.1 - bandlarga amal qilmasdan yoki bir oy davomida bank ilovalari orqali aylanmalarni amalga oshirmasa hamda maxsulotlar (xizmatlar) taqdim etuvchi tomonidan bank ilovasidan shubhali amaliyotlarni amalga oshirish va QR kodni noqonuniy ishlatish holatlari kuzatilsa, bank ushbu umumiy Shartlarlar asosida bir tomonlama mijozga hizmat koʻrsatishni bekor qiladi va QR kodni qaytarib oladi;
3.2.2. Amaldagi bank tarifiga bir tomonlama oʻzgartirish kiritish hamda mijoz hisobvaragʻi ochilgan manzildagi bankda e'lon joylashtirgan holda amaldagi bank tarifi oʻzgargani toʻgʻrisida tarif kuchga kirishidan 30 kalendar kun ichida mijozga ma'lum qilish.
3.2.3. Bankning amaldagi tarifiga asosan bank xizmatlari uchun vositachilik toʻlovlarni undirish;
3.2.4. Bank mijozdan olingan axborotlar (hujjatlar) ishonchliligiga shubhalar mavjud boʻlganda, ushbu axborotlarni (hujjatlarni) tekshirish (verifikasiyalash) boʻyicha choralarni koʻrishlari lozim. Bunday holatlarda, bank xoʻjalik yurituvchi sub'ekt taqdim etgan axborotlarning (hujjatlarning) ishonchligini (haqiqiyligini) aniqlashtirish uchun tegishli tashkilotlarga murojaat qilishi mumkin.
3.2.5. Bank quyidagi hollarda xoʻjalik yurituvchi sub'ektga operasiyalarni amalga oshirishni rad etishga haqlidir:
- yuridik shaxsning boshqaruv organi yoki yuridik shaxs nomidan ishonchnomasiz faoliyat koʻrsatish huquqiga ega boʻlgan shaxs oʻzining joylashgan eri (pochta manzili) boʻyicha mavjud boʻlmaganida;
- atayin notoʻgʻri boʻlgan hujjatlar taqdim etilganda yoki qonun hujjatlariga muvofiq soʻraladigan hujjatlar taqdim etilmaganda;
- qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa hollarda.
3.2.6. Taqdim qilingan hujjatlar nusxalarining toʻgʻriligiga gumon yoki boshqa zarurat paydo boʻlgan taqdirda, bank tanishish uchun hujjatlarning asl nusxalarini xoʻjalik yurituvchi sub'ektdan taqdim qilinishini talab qilish huquqiga ega.

## 4. XOʻJALIK YURITUVCHI SUB'EKTNING HUQUQ VA MAJBURIYATLARI

4.1. Xoʻjalik yurituvchi sub'ekt majburiyatlari:
4.1.1. Hisob-kitob qilish xizmati uchun naqd pulda oʻrnatilgan narxdan oshmaydigan narx boʻyicha banklar ilovalari orqali toʻlov tizimiga tegishli boʻlgan barcha bank kartalar orqali xizmat koʻrsatish;
4.1.2. QR kodni toʻlov tizimining reklama belgilari, logotiplari va boshqa ma'lumotlarni savdo doʻkonlarining bank karta egalariga koʻrinadigan va bevosita toʻlov kassa va terminali oʻrnatilgan nuqtalarda joylashtirish;
4.1.3. Amaliyot smslarini ular shakllangan kundan boshlab bir yil davomida saqlash;
4.1.4. Xoʻjalik yurituvchi sub'ektiga bank tomonidan berilgan QR koddan belgilangan tartibda foydalanish hamda yaroqli holatda ishlashini ta'minlash;
4.1.5. Xoʻjalik yurituvchi sub'ekt manzili va ma'lumotlari xamda bank QR kodni joylashgan savdo shaxobchalarining joyi oʻzgarganligi haqida bankka 1 ish kunidan kechiktirmasdan yozma ravishda xabar berish;
4.1.6. Bank tomonidan QR kodni uchinchi shaxslarga bermaslik;
4.1.7. Xoʻjalik yurituvchi sub'ektining savdo shaxobchasida rejalashtirilayotgan va bir oydan uzoq davr mobaynida QR kod orqali tranzaktsiyalar amalga oshirilishiga imkon bermaydigan tadbirlar (binoni ta'mirlash, inventarizasiya, qayta hisoblash, davlatning vakolatga ega muassasalari tomonidan tekshiruv oʻtkazilishi va boshqalar) haqida bankni oldindan xabardor qilish;
4.1.8. Toʻlovni kommunikasion bekor qilish holatida ushbu masalani toʻgʻri hal etish yuzasidan xizmat koʻrsatuvchi bankka zudlik bilan murojaat qilish;
4.1.9. Xoʻjalik yurituvchi sub'ekt oʻziga berilgan QR kod orqali oʻtgan toʻlovlarini bankning amaldagi tarifiga asosan toʻlovini amalga oshirish;

4.1.10. To‘lov QR kod orqali tovarlar (ish, xizmat) sotuvini amalga oshirishda xo‘jalik yurituvchi sub'ekt bank ilovasi va karta egalari to‘g‘risidagi ma'lumotlarni uchinchi shaxsdan sir saqlash;
4.2. Xo‘jalik yurituvchi sub'ektning huquqlari:
4.2.1. QR kod orqali amalga oshirilgan moliyaviy amaliyotlari bo‘yicha noaniqliklar yuzaga kelganda bankdan ma'lumotlar olish;
4.2.2. Xo‘jalik yurituvchi sub'ekt to‘lov QR kodidan to‘g‘ri foydalanish bo‘yicha ishchi-xodimlarini o‘qitishni bankdan talab qilish;
4.2.3. QR kod orqali tushgan tushumlarni 3.1.2-bandga asosan xo‘jalik yurituvchi sub'ektning depozit hisobraqamlariga o‘z vaqtida kirim qilishni talab qilish;
4.2.4. Umumiy shartlarga muvofiq, so‘rovnoma taqdim qilgadan keyin 3 ish kunidan kechiktirmasdan "topshirish-qabul qilish dalolatnoma"ga asosan QR kodni bilan ta'minlashni talab qilish.

## 5. HISOB-KITOBLAR TARTIBI VA SHARTLARI

5.1. Xo‘jalik yurituvchi sub'ekt QR kodni orqali o‘tgan to‘lovl uchun bankning amaldagi tarifiga asosan har bir tranzaktsiya uchun to‘laydi.
5.2. Xo‘jalik yurituvchi sub'ekt tomonidan to‘lanishi lozim bo‘lgan boshqa mablag‘lar o‘z vaqtida to‘lanmagan xolatda, bank xo‘jalik yurituvchi sub'ektning Inkassasiya qilinayotgan tranzaktsiya mablag‘lari hisobidan qoplanishi mumkin.

## 6. TOMONLAR JAVOBGARLIGI

6.1. Bank xo‘jalik yurituvchi sub'ekt oldida QR kod orqali hisob-kitoblarni amalga oshirish bo‘yicha quyidagi hollarda javobgarlikni o‘z zimmasiga olmaydi:
- Xo‘jalik yurituvchi sub'ekt, QR kod orqali amaliyotlarni amalga oshirishda ushbu umumiy shartlarda o‘rnatilgan qoida va tartibni buzganda;
- Xo‘jalik yurituvchi sub'ekt, tomonidan o‘tkazilgan to‘lov amaliyot to‘g‘risida hujjat yoki axborotlar yo‘qligida;
- Xo‘jalik yurituvchi sub'ekt tomonidan noqonuniy harakatlar amalga oshirilganda.
- Bankning naqd-pulsiz hisob-kitoblar tizimi yoki uning avtomatlashtirilgan bank tizimida bankka aloqador bo‘lmagan texnik nosozlik vujudga kelgan hollarda xo‘jalik yurituvchi QR kod orqali amalga oshirilgan tranzaktsiya mablag‘larini xo‘jalik yurituvchi sub'ekt hisobraqamiga o‘z vaqtida o‘tkazmaganligi uchun;
6.2. O‘zbekiston Respublikasi hududida bank kartalari emissiyasining o‘rnatilgan tartibini, bank kartalari orqali xizmat ko‘rsatish va amaliyotlar bo‘yicha hisob-kitoblarni o‘tkazish qoidalarini buzganliklari uchun O‘zR qonunlarida o‘rnatilgan tartibda javobgarlik to‘lov tizimi ishtirokchilari zimmasida bo‘ladi.

## 7. MA'LUMOTLAR MUXOFAZASI

7.1. Tomonlar umumiy shartlardagi ma'lumotlar muxofazasini ta'minlashga mas'uldir.
7.2. Tomonlar bir-biriga umumiy shartlar doirasida yuboriladigan har bir ma'lumot maxfiy hisoblanadi va ushbu maxfiy ma'lumotlarni oshkor qilgan tomon O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga muvofiq javobgarlikka tortiladi.

## 8. UMUMIY SHARTLARNI BEKOR QILISH

8.1. Mazkur umumiy shartlar quyidagi hollarda bekor qilinadi:
- Tomonlarning biri umumiy shartlar bekor bo‘lishidan 1 oy oldin yozma xabarnoma yuborgan holda;
- Tomonlar ushbu umumiy shartlar bo‘yicha o‘z majburiyatlarni bajarmagan hollarda.
8.2. Umumiy shartlarni bekor qilish tomonlarning avval qabul qilgan majburiyatlarini bajarishdan ozod qilmaydi.

## 9. UMUMIY SHARTLARNING MUDDATI VA ULARGA O‘ZGARTIRISH KIRITISH

9.1. Ushbu umumiy shartlarga rozilik berilgan kundan boshlab kuchga kiradi.
9.2. Umumiy shartlar bo‘yicha xizmat ko‘rsatish bekor bo‘lganda, tomonlar, 1 oylik muddatda o‘zaro hisob-kitoblarni to‘liq amalga oshirishi shart.
9.3. Mazkur shartlar bankning rasmiy saytida (www.nbu.uz) joylashtiriladi.
9.4. Mazur shartlarga kiritiladigan barcha o‘zgartirish va qo‘shimchalar bankning rasmiy saytida va mijozning "IBank" dasturida e'lon qilinadi.

## 10. FORS-MAJOR

10.1. Umumiy shartlar kuchga kirgandan keyin sodir bo‘lgan engib bo‘lmas kuch (Fors-major) sababli tomonlar umumiy shartlar majburiyatlarini qisman yoki to‘liq bajarmagan bo‘lsa va bu kuchni tomon mumkin bo‘lgan usullar yordamida oldini ololmasa tomonlar ushbu umumiy shartlar bo‘yicha majburiyatlarni qisman yoki to‘liq bajarmaganlik uchun javobgarlikdan ozod qilinadilar.

## 11. NIZOLARNI HAL ETISH

11.1. Tomonlar o‘rtasidagi barcha kelishmovchiliklar muzokara yo‘li bilan hal qilinadi.
11.2. Vujudga kelgan kelishmovchiliklar muzokara yo‘li bilan hal etilishi mumkin bo‘lmagan taqdirda tomonlar o‘rtasidagi nizolar sud tartibida hal etiladi.

Tovarlar (ish, xizmat) sotuvini amalga oshiruvchi
xo‘jalik (yuridik va/yoki yuridik maqomga ega
bo‘lmagan tadbirkorlik faoliyati bilan
shug‘ullanuvchi jismoniy shaxs) sub'ektlariga
QR-code berish bo‘yicha umumiy shartlarga
**1–ILOVA**

## ***QR-kod* topshirish-qabul qilish dalolatnomasi** / **Акт приёма-передачи *QR-кода***

**Topshirdi bank hodimi/Передал сотрудник Банка:**

______________________________________________ ____________________
(F.I.SH. / Ф.И.О.) (Imzo / подпись)

____/____/20__ __г.

**Qabul qilgan Xo’jalik yurutuvchi subyekt/Субъект Хозяйствующей деятельности принял:**

__________________________________________________________________
(Tashkilot nomi / Наименование организации)

**Rahbar / Руководитель**

______________________________________________ ____________________
(F.I.SH. / Ф.И.О.) (Imzo / подпись)

**Bosh buxgalter / Главный бухгалтер** ***М.Ў./М.П.***

______________________________________________ ____________________
(F.I.SH. / Ф.И.О.) (Imzo / подпись)

____/____/20__ __г.

Tovarlar (ish, xizmat) sotuvini amalga oshiruvchi xo‘jalik (yuridik va/yoki yuridik maqomga ega bo‘lmagan tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullanuvchi jismoniy shaxs) sub'ektlariga QR-code berish bo‘yicha umumiy shartlarga
**2–ILOVA**

**QR-kod olish bo’yicha so’rovnoma** **Заявление для получения QR-кода**

| | |
|---|---|
| **Korxona nomi / Наименование организации** | ________________________________________ |
| **SMS xabarnoma uchun telefon raqam / Номер телефона для СМС-сообщений** | 9 9 8 ☐☐☐☐☐☐☐☐☐ |
| **Korxona STIR/JSHSHIR** ***ИНН/ПИНФЛ*** **организации** | ☐☐☐☐☐☐☐☐☐☐☐☐☐☐ |

Tovarlar (ish, xizmat) sotuvini amalga oshiruvchi xo'jalik (yuridik va/yoki yuridik maqomga ega bo'lmagan tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxs) sub'ektlariga QR-Code berish bo'yicha umumiy shartlar va Ommaviy oferta shartnomasi va uning ilovalari bilan tanishib chiqdim va ular bilan roziman.

Я ознакомлен и согласен с Договором Публичной оферты и всеми его приложениями, а также Общими условиями выдачи QR-кода субъектам хозяйствования (юридическим лицам и индивидуальным предпринимателям), реализующим товары (работы, услуги).

**Rahbar / Руководитель**

________________________________ ________________
(F.I.SH. / Ф.И.О.) (Imzo / подпись)

**Bosh buxgalter / Главный бухгалтер** ***М.Ў./М.П.***

________________________________ ________________
(F.I.SH. / Ф.И.О.) (Imzo / подпись)

---

**BANK TOMONIDAN / ОТМЕТКА БАНКА:**

ARIZADAGI IMZOLAR VA MUHRLAR IMZOLAR NA'MUNASI BILAN TEKSHIRILDI / ПОДПИСИ С КАРТОЧКОЙ ОБРАЗЦОВ ПОДПИСЕЙ И ОТТИСКА ПЕЧАТИ СВЕРЕНЫ:

**Qabul qilgan / Принял:**

________________________________ ________________
(F.I.SH. / Ф.И.О.) (Imzo / подпись)

***М.Ў./М.П.***

"O‘zbekiston Respublikasi Tashqi iqtisodiy faoliyat milliy banki" AJ da yuridik shaxslar va yakka tartibdagi tadbirkorlarga kompleks bank xizmatlarini ko‘rsatish Shartnomasiga
**10-ILOVA**

# Yuridik shaxslar va yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun xorijiy valyutani sotish-sotib olish bo‘yicha operatsiyalarni amalga oshirishning UMUMIY SHARTLARI

## 1. TERMIN VA ATAMALAR

Ushbu Umumiy shartlarda quyidagi asosiy ATAMA VA TA’RIFLAR qo‘llanadi:

**Bank -** "O‘zbekiston Respublikasi tashqi iqtisodiy faoliyat milliy banki" aksionerlik jamiyati.

**Mijoz -** Bank bilan bank xizmatlarini ko‘rsatish bo‘yicha shartnoma munosabatlariga ega bo‘lgan yuridik shaxs yoki yuridik shaxs tuzilmagan yakka tartibdagi tadbirkor.

**Ariza -** Mijozning xorijiy valyutani sotib olish/sotish bo‘yicha xizmatlar taqdim etilishiga arizasi.

## 1. KELISHUV PREDMETI

Mazkur Umumiy shartlar Bank va Mijozning xorijiy valyutani sotib olish-sotish bo‘yicha o‘zaro munosabatlarining umumiy shartlari va shartini aniqlaydi. Mijoz xorijiy valyutani sotib olish-sotish bo‘yicha operatsiyalarni amalga oshirgan holatda, shu jumladan Bankka masofadan xizmat ko‘rsatish tizimi orqali mos keluvchi arizalarni yuborganida Umumiy shartlar bilan to‘liq tanishganligi yoki ularni akseptlanishi tan olinadi.

2.1. Bank Mijozga/dan xorijiy valyutani (keyingi o‘rinlarda - Valyuta) sotadi/sotib oladi, Mijoz esa ushbu Valyutani mazkur Umumiy shartlarda ko‘zda tutilgan sharoitda sotib oladi/sotadi.

2.2. Bankning valyuta mablag‘larini sotishi Mijozning bankni masofadan xizmat ko‘rsatish tizimi orqali mazkur Shartlarning ajralmas qismi hisoblangan mazkur Umumiy shartlarga 1-Ilovaga muvofiq shaklda xorijiy valyutani xarid qilishga Arizasi asosida amalga oshiriladi. Arizaning shakli O‘zbekiston Respublikasi valyuta qonunchiligida o‘zgarishlarga bog‘liq ravishda Bank tomonidan bir tomonlama tartibda o‘zgartirilishi mumkin. Ariza shakli o‘zgargan holatda Mijoz arizani yangi shaklda taqdim etish majburiyatini oladi.

2.3. Xorijiy valyutani xarid qilish bo‘yicha operatsiyani amalga oshirish uchun Mijozning Bankda operatsiya amalga oshirilayotgan kunda Bank kursi bo‘yicha xorijiy valyutani sotib olish uchun yetarli miqdorda milliy valyuta pul mablag‘lari mavjud bo‘lishi ta'minlanishi zarur.

2.4. Valyutaning nomi, summasi va ayirboshlash kursi, shuningdek sotib olinayotgan valyutadan foydalanish maqsadi Arizada ko‘rsatiladi.

2.5. Xorijiy valyutani sotib olish bo‘yicha operatsiya Mijozning maqsadli foydalanishi hamda bankning masofadan xizmat ko‘rsatish tizimi orqali yo‘naltirilgan Arizalari asosida amalga oshiriladi.

2.6. Bankning xorijiy valyutani sotib olishga arizani ko‘rib chiqish muddatida 2 (ikki) bank ish kunini tashkil etadi;

2.7. Xorijiy valyutani sotish uchun Mijoz bankning masofadan xizmat ko‘rsatish tizimi orqali mazkur Shartlarning ajralmas qismi hisoblangan mazkur Umumiy shartlarga 2-ilovaga muvofiq shaklda xorijiy valyutani sotishga Ariza beradi.

2.8. Xorijiy valyutani sotishga arizalarda valyutaning nomi, kelishuvning xarakteri, kurslar, xorijiy valyutada summa ko‘rsatiladi.

2.9. Bankning arizalarni ijro etish muddati 1 (bir) bank ish kunini tashkil etadi. Ijro etiladigan operatsiyalar bo‘yicha hisob-kitoblarni Tomonlar 1 (bir) bank ish kunida amalga oshiradi.
2.10. Bank operatsiya amalga oshirilayotgan kunda Bankda o‘rnatilgan kurs bo‘yicha, lekin Mijozning Arizasida belgilangan kursdan past bo‘lmagan miqdorda xorijiy valyutada sotib olish-sotish bo‘yicha operatsiyani amalga oshiradi.

## 3. TOMONLARNING MAJBURIYATLARI

3.1. Valyuta mablag‘larini sotib olishda Mijoz quyidagi majburiyatlarga ega:
3.1.1. Bank bilan milliy valyutada o‘zaro hisob-kitoblarni amalga oshirish, shuningdek unda (hisobvaraqda) xorijiy valyutani xarid qilish uchun yetarli miqdorda pul mablag‘lari bo‘lishini ta'minlash maqsadida balans hisobvarag‘ini ochish - 22613 (keyingi o‘rinlarda - Balans hisobvarag‘i);
3.1.2. Ariza berilishidan oldin mazkur Umumiy shartlarga ko‘ra xorijiy valyutani sotib olish-sotish bo‘yicha operatsiyalarni amalga oshirish yakunlari bo‘yicha sotib olingan xorijiy valyuta tushiriladigan valyuta hisobvarag‘ini ochish (balans hisobvarag‘i - 22614) (keyingi o‘rinlarda - Valyuta Hisobvarag‘i);
3.1.3. Balans hisobvaraqda milliy valyutada - operatsiya amalga oshirilgan kun bankda belgilangan kurs bo‘yicha xorijiy valyutani sotib olish uchun yetarli miqdorda summada pul mablag‘larini ta'minlash;
3.1.4. Xorijiy valyutani sotib olishda Bankka Ibank Bankning masofadan xizmat ko‘rsatish tizimi orqali, Umumiy shartlarga muvofiq 1-ilovada belgilangan shaklda elektron-raqamli imzo bilan tasdiqlangan Ariza, shuningdek valyuta xarid qilish asoslarini tasdiqlovchi (maqsadli foydalanish) elektron shakldagi hujjatlar nusxasini taqdim etish.
Bunda, taqdim qilingan hujjatlar O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchilik va mazkur Kelishuv talablariga mos bo‘lmagan holatda Bank Mijozning arizasini ijro etishdan bosh tortish huquqiga ega;
3.1.6. Topshirilgan Arizaga muvofiq sotib olingan valyuta mablag‘larini qabul qilish va konvertatsiyalangan pul mablag‘laridan ular Valyuta Hisobvarag‘iga tushgan kundan 7 (yetti) bank ish kuni ichida foydalanish.
3.1.7. Ushbu bilan Mijoz Bankka:
- Bank Hisobvarag‘idan akseptsiz tartibda - operatsiya amalga oshirilayotgan kuni bank kursi bo‘yicha Arizada ko‘rsatilgan, sotib olingan xorijiy valyuta ekvivalentida pul mablag‘larini yechish (bunday yechishga Mijozning biror-bir topshirig‘i va/yoki e'tirofi va/yoki roziligini olmasdan);
- barcha hisob-kitoblar amalga oshirilganidan so‘ng 22613 balans hisobvarag‘idan asosiy yoki ikkilamchi hisobvaraqqa qoldiq summalarni qaytarishga, xorijiy valyutani sotib olishga Arizalar bo‘lmagan holatda haqiqiy, izohsiz va shartsiz topshiriq/huquq beradi.

3.1.8. Quyidagi shartlardan istalgan biri o‘zgargan holatda Arizani bekor qilish:
- Ariza bo‘yicha xarid maqsadini o‘zgartirish;
- Vakolatli organlarning qaroriga ko‘ra balans hisobvarag‘i bloklanganida;

Yuqorida keltirilgan holatlar yuzaga kelganida Bank mustaqil ravishda Arizani akseptsiz tartibda bekor qilish hamda valyuta mablag‘larining qayta sotilishini amalga oshirish huquqiga ega.
3.2. Bank Mijozga pul mablag‘larini sotishda quyidagi majburiyatlarga ega:
3.2.1. Mijoz taqdim etgan Arizani 2 (ikki) bank ish kuni ichida ko‘rib chiqish;
3.2.2. Ariza amaldagi qonunchilikda belgilangan talablarga mos bo‘lmaganligi tufayli uni ijro etish imkonsiz bo‘lgan holatda Ibank Bankning masofadan xizmat ko‘rsatish tizimi orqali elektron va/yoki telefon aloqasi orqali Mijozni bu haqida xabardor qilish;

3.2.3. Ariza bo‘yicha ijobiy qaror qabul qilinganidan so‘ng keyingi bank ish kunidan kech bo‘lmagan muddatda xorijiy valyutani sotib olish-sotish bo‘yicha o‘zaro hisob-kitoblarni amalga oshirish;
3.2.4. Valyuta hisobvarag‘idan oldinroq yechib olingan va belgilangan muddat ichida foydalanilmaganligi yoki qaytarilishi tufayli ushbu hisobvaraqqa qaytib tushgan valyuta mablag‘larini qayta sotilishini akseptsiz tartibda amalga oshirish.
3.3. Xorijiy valyutani sotishda Mijozning majburiyatlari:
3.3.1. Bankka mazkur Umumiy shartlarga 2-ilovada belgilangan shaklda xorijiy valyutani sotishga Ariza taqdim qilish;
3.3.2. O‘zbekiston Respublikasi valyuta qonunchiligi talablariga rioya qilish.
3.4. Bank Mijozdan valyuta mablag‘larini sotib olishda, Bankning majburiyatlari:
3.4.1. Mijozning arizalarini mazkur Umumiy shartlarga muvofiq qabul qilish va ijrosini ta'minlash;
3.4.2 Mablag‘larni mijozning hisobvarag‘iga operatsiya amalga oshirilgan kuni milliy valyutada ko‘chirish.

## 4. TOMONLARNING HUQUQLARI

4.1. Mijozning huquqlari:
4.1.1. Xorijiy valyutani sotib olish/sotishga Ariza topshirish;
4.1.2 Bankning arizani ijro etish vaqtigacha Bankning masofaviy xizmat ko‘rsatish tizimi orqali mos keluvchi topshiriq/xat yuborish yo‘li bilan Bankning Arizani ijro etish harakatlarini to‘xtatib turish;
4.1.3. Bankdan Arizaning ijro etilish jarayoni to‘g‘risida ma'lumot olish.
4.2. Bankning huquqlari:
4.2.1Agar Ariza mazkur Umumiy shartlarga 2-ilovada ko‘rsatilgan shaklga mos bo‘lmasa uni qabul qilishdan bosh tortish;
4.2.2. Mijozning hisobvaraqlarida erkin valyuta mablag‘lari bo‘lmagan holatda xorijiy valyutani sotishga Arizani ijro etishdan bosh tortish;
4.2.3. Operatsiya amalga oshirilayotgan kun Bank kursi bo‘yicha xorijiy valyutani xarid qilish uchun yetarli miqdorda milliy valyutada pul mablag‘lari bo‘lmagan holatda Arizani ijro etishdan bosh tortish;
4.2.4. Mijoz Bankka mazkur operatsiya bajarilishi asosli ekanligini tasdiqlovchi hujjatlarni taqdim etmagan holatda xorijiy valyutani sotib olishga Arizani ijro etishdan bosh tortish;
4.2.5. Bank Mijoz Arizani noto‘g‘ri to‘ldirgan holatda Mijozning Arizasini (Arizalarini) ijro etishdan bosh tortish huquqini o‘zida saqlab qoladi.
4.2.6. O‘zbekiston Respublikasining amaldagi valyuta qonunchiligida belgilangan talablar buzilgan holatda, ushbu operatsiyani bajarish oqibatida Bankka xalqaro sanksiyalar belgilash imkoniyati yuzaga kelganida yoki Bankning faoliyatiga salbiy ta'sir qilishi mumkin bo‘lgan boshqa holatlarda Ariza ijrosidan bosh tortish;
4.2.7. Sotib olingan xorijiy valyuta Mijozning valyuta hisobvarag‘iga ko‘chirilgan ondan 7 (yetti) bank ish kunida ishlatilmagan holatda akseptsiz tartibda valyuta vositalarini qayta sotish;
4.2.8. Mijozning valyuta hisobvarag‘idan oldinroq to‘langan mablag‘lar qaytarilgan holatda qaytarilgan mablag‘lar Mijozning valyuta hisobvarag‘iga ko‘chirilgan ondan 3 (uch) bank ish kunida xorijiy valyutani akseptsiz tartibda qayta sotish.

## 5. TOMONLARNING JAVOBGARLIGI

5.1. Arizada berilgan ma'lumotlarning ishonchliligi va haqiqiyligi uchun javobgarlik Mijozning zimmasida;
5.2. Mijozning Arizasini o‘z vaqtida ko‘rib chiqish javobgarligi Bankning zimmasida;

5.3. Bank ushbu bilan Ariza kontekstida Mijozning aybi bilan yuzaga kelgan xatoliklar uchun javobgar emas;
5.4. Bank Mijozning Bankdan xarid qilingan valyuta mablag‘laridan keyinchalik foydalanishi yoki Mijozning kontragentlari/bank kontragentlariga siyosiy-iqtisodiy sanksiyalar belgilanishi tufayli foydalana olmasligi uchun javobgar emas.

## 6. KORRUPSIYAGA QARSHI KURASH BO‘YICHA HOLATLAR

6.1. Mazkur Shartlar bo‘yicha o‘zining mos keluvchi majburiyatlarini bajarganda, Mijoz O‘zbekiston Respublikasining 03.01.2017-yildan "Korrupsiyaga qarshi kurash to‘g‘risida"gi Qonuni, AQSH ning xorijda korrupsiya amaliyotiga qarshi kurash to‘g‘risidagi Federal qonuni, (FCPA) va O‘zbekiston Respublikasida qo‘llanadigan barcha boshqa qonun va qoidalari hamda istalgan boshqa mamlakatlarning qo‘llanadigan qoninchiligiga rioya qilishga roziligini bildiradi (keyingi o‘rinlarda - Qo‘llanadigan antikorrupsiya qonunchiligi). Yuqirida kelritilganlarni hech qanday yo‘l bilan cheklamasdan, Mijoz istalgan davlat xizmatchisi, xalqaro ijtimoiy tashkilot yoki istalgan siyosiy partiyaning mansabdor shaxsini (bu xoh davlat xizmatchisi yoki xususiy shaxs yoki Bank xodimi bo‘lsin) istalgan shaxsga biznesga ega bo‘lish yoki uni saqlab qolishga ko‘maklashishi maqsadida har qanday qarorlarni qabul qilishga undash yoki istalgan Tomonga mazkur Shartlarda yengillik beradigan har qanday boshqa harakatlarni amalga oshirish maqsadida dunyoning biror bir mamlakatida bevosita yoki uchinchi shaxslar yordamida pul mablag‘larini to‘lamaslik yoki qimmatbaho buyumlarni bermaslik, to‘lashni va'da qilmaslik yoki bunga yo‘l qo‘ymaslik majburiyatini oladi.
6.2. Mijozning talabi bo‘yicha Bank yuqorida keltirilgan qoidalarga rioya qilinganligini yozma tasdiqlashi hamda Mijozda mazkur hujjatlar hamda ushbu Umumiy shartlarni Bank talablariga muvofiq ijro etish bilan bog‘liq yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan istalgan oqilona savollariga javob berishi lozim.
6.3. Bank va Mijoz mazkur Umumiy shartlarni ijro qilish maqsadida, shuningdek Mijoz bilan xorijiy valyutani sotib olish-sotish bo‘yicha oldinroq imzolangan barcha shartnomalarni (keyingi o‘rinlarda Kelishuv) ijrosini bajarish davomida, Mijoz mazkur Umumiy shartlarni bajarishi natijasida olingan barcha mablag‘lar Qo‘llanadigan antikorrupsiya qonunchiligi, shuningdek O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligiga zid maqsadlarda ishlatilmasligi yoki ishlatilmaganligini tasdiqlashi to‘g‘risida kelishib olishdi.
6.4. Mijoz mazkur Shartlarni 3-moddasida keltirilgan majburiyatlarini bajarmaganligiga tegishli yoki bu bilan bog‘liq istalgan da'vo, zarar, xarajat va boshqa xarajatlarni qoplash to‘g‘risida talablardan kelib chiquvchi Bankning barcha zararini qoplab berish majburiyatini oladi.

## 7. HISOB-KITOBLARNI AMALGA OSHIRISH TARTIBI

7.1. Bank sotib olingan xorijiy valyuta Valyuta hisobvarag‘iga ko‘chirilganidan so‘ng kelishuvni amalga oshirish kuni Bankda belgilangan kurs bo‘yicha Mijozning arizasida ko‘rsatilgan xorijiy valyuta summasiga ekvivalent miqdorda milliy valyutada pul mablag‘larini Bank hisobvarag‘idan yechib oladi.
7.2. Bank Mijozning Arizasi bo‘yicha har bir amalga oshirilgan kelishuv uchun Mijozning Bank hisobvarag‘idan kelishuv amalga oshirilayotgan kun Bankda belgilangan kurs bo‘yicha xorijiy valyutaga ekvivalent milliy valyuta summasini yechib oladi.
Bunda agar Mijoz sotib olingan xorijiy valyutadan u Mijozning Valyuta hisobvarag‘iga ko‘chirilgan kundan 7 (yetti) ish kuni davomida foydalanmasa va Bank qayta sotuvni amalga oshirsa, unda kelishuv amalga oshirilgan hisoblanadi.
Xorijiy valyutaning qayta sotilishi sotuv amalga oshirilgan kuni Bankda belgilangan xorijiy valyutani sotish kursi bo‘yicha amalga oshiriladi.

7.3. Bank agar Mijoz mazkur Umumiy shartlarning 3.1-bandida ta'riflangan talabni (talablarni) bajarmagan bo‘lsa, uning topshirig‘ini bajarishdan bosh tortish huquqiga ega.
7.4. Mijoz xalqaro valyuta bozorida kotirovkalanadigan, lekin Bank sotuvini amalga oshirmaydigan xorijiy valyutani sotib olishga Ariza bergan holatda Bank Mijozga sotuv uchun mavjud va Bankda kursi belgilangan boshqa xorijiy valyuta ekvivalentini sotish bo‘yicha operatsiyani mustaqil amalga oshiradi. Bunda Bank oldindan Mijozning arizasida tashqi bozordan sotib olinishi ko‘rsatilgan xorijiy valyutani sotib oladi.
Tashqi bozorda xorijiy valyuta sotib olinganidan so‘ng foydalanilmagan xorijiy valyuta qoldig‘i qolgan holatda Bank ushbu valyutani Bankda sotish kursi belgilangan xorijiy valyutada qayta sotadi, shundan so‘ng milliy valyutadagi ekvivalentini Mijozning asosiy hisobvarag‘iga ko‘chiradi.

## 8. FORS-MAJOR

8.1. Bank va Mijoz mazkur Umumiy shartlardan kelib chiquvchi o‘z majburiyatlarini bajarmaganlik yoki lozim darajada bajarmaganlik uchun javobgarlikdan ozod etiladi, agar lozim darajada bajarish yengib bo‘lmas kuch sharoitlari: tabiiy ofatlar, ish tashlashlar, fuqarolik tartibsizliklari, urush, xalqaro blokirovka qiluvchi sanksiyalar yoki Bank va Mijozning istagiga bog‘liq bo‘lmagan boshqa biror sharoitlar, shu jumladan O‘zbekiston Respublikasining qonunchiligida o‘zgarishlar yoki O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining hujjat/ko‘rsatmalar e'lon qilish/qabul qilinishi oqibatida imkonsiz bo‘lsa;
8.2. Mazkur Umumiy shartlarda ko‘rsatilgan majburiyatlari tufayli mazkur Umumiy shartlar bo‘yicha majburiyatlarini ijro etishi imkonsiz bo‘lgna Tomon kechiktirmasdan boshqa tomonni yozma shaklda xabardor qilishi va boshqa Tomonning talabiga ko‘ra fors-major sharoitlarning yuzaga kelishi va/yoki tugashini tasdiqlovchi dalillarni taqdim qilishi shart. Keltirilgan sharoitlar yuzaga kelganligi va davomiyligining dalili vakolatli organ tomonidan berilgan yozma hujjatlar bo‘la oladi;
8.3. Mazkur Umumiy shartlar bo‘yicha majburiyatlarni bajarish muddati yengib bo‘lmas kuch sharoiti, shuningdek ushbu sharoitlar keltirib chiqargan oqibatlar ta'sir qilgan vaqt muddatigacha uzaytiriladi;
8.4. Agar yengib bo‘lmas kuch sharoiti yoki ularning oqibatlari 3 oydan ortiq davom etsa, unda Tomonlar mazkur Umumiy shartlarda ko‘zda tutilgan xizmatlar ko‘rsatilishini davom ettirish uchun qanday choralar ko‘rishni muhokama qilishadi;
8.5. Bank mazkur sharoitlar bo‘yicha quyidagi holatlarda javobgarlikka ega bo‘lmaydi:
- Elektron to‘lovlarning banklararo tizimida uzilishlar kuzatilganida;
- Mijoz hujjatlarni rasmiylashtirganda u yo‘l qo‘ygan xatoliklar natijasida, Mijozning aybi bilan to‘lovlar kechikkanida;
- Bank yoki Mijozning hisobvaraqlarida qonunchilikda belgilangan tartibda operatsiyalar xatlangan va/yoki to‘xtatib turilganida va/yoki ishga solmay to‘xtatib turilganida;
- Bankning Kelishuv bo‘yicha o‘z majburiyatlarini Bankka bog‘liq bo‘lmagan sabablarga ko‘ra va fors-major sharoitlari yuzaga kelgan holatda bajarish imkonsiz bo‘lganida;

8.6. Bank o‘ziga bog‘liq bo‘lmagan sharoitlar tufayli xorijiy valyutani sotib olishga Arizani (arizalar) ijro qilmaganligi uchun javobgar emas.

## 9. MAXFIYLIK

9.1. Tomonlar Kelishuvga muvofiq, mazkur Umumiy shartlarni akseptlashi va ijro qilishi natijasida ularga oshkor bo‘lgan maxfiy ma'lumotni sir saqlash va uchinchi shaxslarga hech bir usulda oshkor qilmaslik majburiyatini olishdi. Mijoz mazkur Umumiy shartlar akseptlangani to‘g‘risidagi ma'lumotni o‘z xohishiga ko‘ra istalgan uchinchi shaxslarga oshkor qilish huquqini o‘zida saqlab qoladi.

9.2. Tomon mazkur Kelishuvni imzolashidan oldin olingan ma'lumot, boshqa manbalardan qonuniy usulda olingan ma'lumot, shuningdek Tomonlarning amaldagi qonunchilikka muvofiq maxfiy hisoblanishi mumkin boʻlmagan ma'lumot maxfiy ma'lumot deb tan olinmaydi.

9.3. Vakolatli davlat organi yoki vakolatli davlat organi tomonidan tayinlangan, maxfiy ma'lumotni taqdim qilishni talab etish huquqi qonunchilik, sud qarori yoki Tomonlarga qoʻllanadigan amaldagi kelishuv bilan berilgan shaxs yoki u bilan afillangan shaxs soʻrovi boʻyicha maxfiy ma'lumotni taqdim etish yoki oshkor qilish zarurati yuzaga kelgan holatda, Tomon, agar amaldagi qonun hujjatlarida taqiqlanmagan bo'lsa, ushbu ma'lumotni taqdim etgan Tomonni yozma yoki og'zaki ravishda oldindan (maxfiy ma'lumotlarni taqdim etishdan oldin) xabardor qilishi shart.

9.4 Qabul qilingan maxfiy ma'lumotlarni himoya qilish va oshkor qilmaslikni ta'minlash majburiyati ushbu Shartnomaning butun muddati davomida va uning amal qilish muddati tugaganidan keyin amal qiladi.

9.5 Tomonlar quyidagi majburiyatlarni o’z zimmasiga oladilar:

9.5.1 Maxfiy ma'lumotlarning saqlanishini ta'minlash, ularga uchinchi shaxslar tomonidan ruxsatsiz kirishni istisno qilish;

9.5.2 Maxfiy ma'lumotlarni uchinchi shaxslarga to'liq yoki qisman bermaslik;

9.5.3 Ommaviy axborot vositalarida maxfiy ma'lumotlarni e'lon qilmaslik va maxfiy ma'lumotlarning mazmunini boshqa yo'l bilan oshkor qilmaslik.

9.5.4 Maxfiy ma'lumotlarga faqat Tomonlarning tegishli vakolatli shaxslari kirishini ta'minlash;

9.5.5 Ushbu Shartnoma bo'yicha olingan boshqa Tomonning maxfiy ma'lumotlariga kirish huquqiga ega bo'lgan shaxslarning hisobini yuriting

9.5.6 Tomonlarning qonun hujjatlarida nazarda tutilgan maxfiy ma'lumotlarni himoya qilish bo'yicha boshqa majburiyatlarni bajarish.

## 10. BOSHQA SHARTLAR

10.1 Ushbu Umumiy shartlar va shartlarga muvofiq xizmatlar ko'rsatishni/foydalanishni to'xtatish uchun asoslar amaldagi qonunchilikka muvofiq belgilanadi;

10.2 Har qanday Tomon xizmatlarni koʻrsatishni/foydalanishni toʻxtatishning kutilayotgan sanasidan 1 (bir) kalendar oy oldin oʻz niyati toʻgʻrisida yozma ravishda xabardor qilib, umumiy shartlar boʻyicha xizmatlarni koʻrsatishni/foydalanishni muddatidan oldin tugatishga haqli.

10.3 Tomonlar oʻzaro kelishmovchiliklarni muzokaralar yoʻli bilan hal qilish uchun barcha choralarni koʻrishga kelishib oldilar. Agar kelishuvga erishilmasa, ushbu Umumiy shartlardan kelib chiqadigan barcha nizolar Bank filiali joylashgan yerdagi tumanlararo iqtisodiy sudida hal qilinadi;

10.4 Mazkur Umumiy shartlarga kiritilgan oʻzgartirish va qoʻshimchalar Bankning rasmiy veb-saytida (www.nbu.uz) va “Ibank” masofaviy bank tizimida joylashtiriladi.

10.5 Tomonlarning hech biri boshqa Tomonning yozma roziligisiz ushbu Shartlar bo'yicha o'z huquq va majburiyatlarini uchinchi shaxslarga o'tkazish yoki topshirishga haqli emas.

10.6 Ushbu Umumiy shartlarda aniq tartibga solinmagan boshqa barcha masalalarda Tomonlar Oʻzbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga amal qiladilar.

10.7 Ushbu Umumiy shartlar Mijoz tomonidan Bankka chet el valyutasini sotib olish va sotish uchun tegishli arizalarni yuborish orqali qabul qilinganidan keyin kuchga kiradi.

| | | |
|---|---|---|
| | | Yuridik shaxslar va yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun xorijiy valyutani sotish-sotib olish bo‘yicha operatsiyalarni amalga oshirishning umumiy shartlariga **1-ILOVA** |

**CHET EL VALYUTASINI SOTIB OLISH UCHUN ARIZA**

| | |
|---|---|
| Ariza beruvchining nomi: " " STIR | |
| Pochta manzili : | |
| Telefon raqami, faks raqami : | |
| Bitim bo'yicha masalalarni hal qilishga vakolatli xodimning lavozimi va F.I.SH.: | |
| | |
| So'm hisobraqami:<br>№ | ______________O’zmilliybank. MFO _____ |
| | (bank nomi) (bank kodi) |
| Xorijiy valyutadagi maxsus hisobraqam<br>№ 22614 | ______________O’zmilliybank. MFO _____ |
| | (bank nomi) (bank kodi) |
| Chet el valyutasida tranzit hisobraqam<br>№ 29801 | ______________O’zmilliybank. MFO _____ |
| | (bank nomi) (bank kodi) |

Sotib olinayodgan chet el valyutasidan foydalanish maqsadi (keraklisini belgilang):

| | |
|---|---|
| 001 | Uskunalar, butlovchi va ehtiyot qismlar |
| 002 | Xom ashyo va materiallar |
| 003 | Xizmatlar |
| 004 | Kreditlar: Hukumat Tomonidan Kafolatlangan |
| 005 | Kreditlar: Hukumat Tomonidan Kafolatlanmagan |
| 006 | Kreditlar: Bankning o'z mablag'lari hisobidan beriladi |
| 007 | Lizing to'lovlari |
| 008 | Dori-darmonlar, dorilar va tibbiy mahsulotlar |
| 009 | Yengil avtomobillar |
| 010 | Boshqa iste'mol tovarlari |
| 011 | Daromadlarni repatriatsiya qilish |
| 012 | Komandirovka xarajatlari |
| 013 | Boshqa maqsadlar uchun |

O‘z nomimizdan va hisobimizdan chet el valyutasini sotib olish bo‘yicha quyidagi shartlarda bitim tuzishni topshiramiz:

| Sotib olinayodgan valyutaning miqdori va nomi | So'mda maksimal xarid kursi | Ayirboshlash kursi bo'yicha so'mda umumiy xarid summasi | |
|---|---|---|---|
| | | so’m | |

Olinayodgan valyutaning ekvivalenti miqdori *:

* Xalqaro valyuta bozorida kotirovka qilinadigan, biroq sotilishini Bank amalga oshirmaydigan valyutada buyurtma berilgan taqdirda to‘ldiriladi.

№ va shartnoma sanasi : №

(ushbu ustun a)-g) bandlarida ko'rsatilgan maqsadlar uchun chet el valyutasini sotib olayotganda to'ldiriladi)

| | |
|---|---|
| Arizada ko‘rsatilgan kurs bo‘yicha (milliy valyutada – so‘mda) 22613-sonli hisobvaraqda (mijozlarning valyuta bozorida konvertatsiya qilish uchun zahiradagi mablag‘lari) zaxiraga qo‘yiladi. | |
| Bitim amalga oshirilgan taqdirda, 22613_____________________ sonli so‘mlik hisob raqamimizdan xarid kursi bo‘yicha sotib olingan xorijiy valyutaning so‘mdagi ekvivalentini va tijorat banki foydasiga, tranzaktsiya summasidan, 0% miqdorida komissiya summasini hisobdan chiqarishni topshiramiz. | |
| | |
| Korxona (tashkilot) raxbari | |
| | (imzo) |
| | |
| Bosh buxgalter | |
| | (imzo) |
| "_____" __________________20__y. | |

Yuridik shaxslar va yakka tartibdagi
tadbirkorlar uchun xorijiy valyutani sotish-
sotib olish bo‘yicha operatsiyalarni amalga
oshirishning umumiy shartlariga
**2-ILOVA**

"O' zbekiston Respublikasi tashqi iqtisodiy faoliyat milliy banki" aksiyadorlik jamiyati

## A R I Z A

### chet el valyutasini sotish uchun

Tashkilot nomi: «_____________________________________________________________»

Yuridik manzil: ______________________________________________________________

Bitim bo'yicha masalalarni hal qilishga vakolatli xodimning F. I. SH. _______________________________________________________

Tashkilotning hisobraqami _____________________________ “Ozmilliybank” AJ _________________________ filiali. MFO _____

Tashkilotning valyuta hisobraqami ____________________________________ “Ozmilliybank” AJ _________________________ filiali

Bizning nomimizdan va bizning hisobimizdan chet el valyutasida pul mablag‘larini sotish bo‘yicha quyidagi shartlarda bitim tuzishni topshiramiz:

| Sotilgan valyutaning miqdori va nomi | Minimal sotish kursi (so'mda) | Bitim summasi (so'mda) |
|---|---|---|
| | | |

Bitim amalga oshirilgan taqdirda, chet el valyutasini sotish to‘g‘risidagi arizada ko‘rsatilgan savdo summasini _________________________ valyuta hisobimizdan yechishni topshiramiz.

_______________________ Raxbar
(imzo)

_______________________ Bosh buxgalter
(imzo)

«_____» _____ 20__ y.

"O‘zbekiston Respublikasi Tashqi iqtisodiy faoliyat milliy banki" AJ da yuridik shaxslar va yakka tartibdagi tadbirkorlarga kompleks bank xizmatlarini ko‘rsatish Shartnomasiga
**11-ILOVA**

**Uyali aloqa, internet va boshqalar to‘lovi uchun xizmat ko‘rsatishda axborot-texnologik munosabatlarning UMUMIY SHARTLARI**

## TERMIN VA ATAMALAR

**Mijoz -** o‘zi sotadigan tovarlar, xizmatlar, ishlar, raqamli/elektron kontent uchun bank plastik kartasi yordamida elektron to‘lovlarni texnik va yuridik qabul qilish imkonini beruvchi axborot resursiga egalik qiluvchi xo‘jalik subyekti.
**To‘lovchi** - Mijoz sotadigan tovar, xizmatlar, ishlar, raqamli/elektron kontent uchun to‘lovni amalga oshiruvchi ishga layoqatli jismoniy shaxs, shu jumladan bank plastik kartasining egasi.
**"Milliy" tizimi (keyingi o‘rinlarda - Tizim) -** bu O‘zR TIF Milliy bank AJ da ishlab chiqilgan va unga tegishli bo‘lgan, internet-ekvayring bo‘yicha xizmatlar ko‘rsatish, xususan Mijozning tovarlari, xizmatlari, ishlari, raqamli/elektron kontenti uchun foydalanuvchining bank kartasi va hamyonidan amalga oshiriladigan to‘lovlar bo‘yicha ma'lumotlarni qabul qilish va qayta ishlashni tashkil etishga mo‘ljallangan, ixtisoslashtirilgan bank dasturiy kompleksi. O‘zbekiston Respublikasi tijorat banklariga SaaS modeli bo‘yicha taqdim qilinadi (ushbu modelda yetkazib beruvchi veb-ilova ishlab chiqadi va uni mustaqil boshqaradi va foydalanuvchiga dasturiy ta'minotga Internet orqali foydalanish imkoniyatini taqdim etadi).
**To‘lov vositasi** - bank mijozlariga - jismoniy shaxslarga mobil ilova yordamida yoki web-ilova (Internet tarmog‘ida) orqali o‘zlarining bank hisobvaraqlarini boshqarish, tovar va xizmatlar uchun to‘lovni amalga oshirish imkonini beruvchi apparat-dasturiy kompleks.
**Savdo ma'lumotlarining ko‘rsatkichlari -** bu "Milliy" tomonida Foydalanuvchining bank plastik kartasidan elektron to‘lovlarni qayta ishlash uchun zarur ma'lumotlar.
**Bank (plastik) kartasi** - onlayn rejimda ishlaydigan, O‘zbekiston Respublikasi banki tomonidan emissiyalangan va uning egasiga bank hisobvarag‘i (karta-hisobvarag‘i) bo‘yicha operatsiyalarni amalga oshirish imkoniyatini ta'minlovchi to‘lov kartasi.
**Merchant API** - Mijozlarga (Sotuvchi/internet-do‘konlar, xizmatlar yetkazib beruvchilar) Foydalanuvchilardan (xaridorlar, to‘lovchilar, iste'molchilar):

- bank kartalari;
- elektron hamyon;
- bir onda to‘lash terminallari orqali to‘lovlar
- iOS va Android uchun ilovalar
- WEB-Ilovalar yordamida to‘lovlarni qabul qilish imkonini beruvchi dasturiy interfeys.

**Merchantning kabineti -** Mijozga to‘lov ma'lumotlaridan foydalanish, shuningdek statistikani kuzatish, hisobotlarni rasmiylashtirish va virtual g‘aznalarni boshqarish imkonini beradigan veb-ilova.
**E-POS Terminal** - ABT (Avtomatlashtirilgan Bank Tizimi) bank tizimida ro‘yxatdan o‘tkazilgan Mijozning (tovarlar va xizmatlar/ishlar yetkazib beruvchisi) virtual terminali.
**Moslashuvchan to‘lovlar** - bir nechta yetkazib beruvchilarni birlashtiruvchi internet-maydonlarda to‘lovlar qabul qilish.

## 1. UMUMIY QOIDALAR

1.1. Bank, Mijoz tomonidan to‘lov amalga oshirilgan holatda, quyidagi xizmatlar (keyingi o‘rinlarda - Xizmatlar) ko‘rsatilishini ta'minlaydi:
- Mijozning tovarlar va xizmatlar/ishlari uchun To‘lovchining bank kartasidan elektron to‘lovlar bo‘yicha ma'lumotlarni qabul qilish va qayta ishlash uchun Mijozni Tizimda ro‘yxatga olish;
- Mijozning mazkur Umumiy shartlar bo‘yicha Xizmatlar ko‘rsatish maqsadida ochiladigan E-POS Terminalini ro‘yxatga olish va unga xizmat ko‘rsatish;
- Mijozning hisobvarag‘iga pul mablag‘larining o‘z vaqtida va to‘liq tushishini ta'minlash.

1.2. Bunda Mijozning Merchant API orqali Tizimga texnik ulanishi O‘zR TIF Milliy banki texnik mutaxassislarining yordami bilan amalga oshiriladi.

## 2. HISOB-KITOBLARNI RO‘YXATGA OLISH VA O‘TKAZISH TARTIBI

2.1. Mijozning Tizimda identifikatsiyasi uning kodi va elektron raqamli imzosi (matn bo‘yicha keyingi o‘rinlarda - ERI) yordamida amalga oshiriladi. ERI ni qo‘llash tartibi O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi bilan aniqlanadi.

2.2. Tizimda ro‘yxatdan o‘tish uchun Mijoz Bankning ofisiga qog‘ozda ariza topshiradi yoki masofadan ro‘yxatdan o‘tish uchun Tizimning WEB-servisida ariza to‘ldiradi (resurs: www.nbu.uz).

2.3. Bankka uning rasmiy saytida (www.nbu.uz) e'lon qilingan Bank Tariflariga muvofiq xizmatlar uchun mukofot beriladi.

2.4. Xizmatlar uchun to‘lov miqdori Bank Tizim orqali amalga oshirgan savdo operatsiyasi, shu jumladan Tizimda tanlangan mahsulotga bog‘liq ravishda barcha soliqlar, yig‘imlar, ajratmalar qo‘shilagan summaga foiz nisbatida beriladi (to‘lov qabul qilishning texnik usuli).

2.5. Makur Umumiy shartlar bo‘yicha to‘lovlar To‘lovchi tomonidan Bankning hisobvarag‘iga so‘mlarda amalga oshiriladi.

2.6. Xizmatlarning narxi qat'iy hisoblanadi va Tomonlar mazkur Umumiy shartlarga Qo‘shimcha rasmiylashtirib rozilik bildirishganida o‘zgartirilishi mumkin.

2.7. Oy yakunida Bank Mijozga ko‘rsatilgan xizmatlar bayonnomasini yuboradi. Mijoz ko‘rsatilgan xizmatlar Bayonnomasini olgan kundan 5 bank kunidan kechiktirmasdan Bankka yo imzolangan ko‘rsatilgan xizmatlar Bayonnomasini, yoki asosli bekor qilish xatini yuborishi shart.

2.8. Bank Mijozdan ko‘rsatilgan xizmatlar Bayonnomasini imzolashda asosli bekor qilish xati olgan holatda 3 (uch) ish kuni ichida buzilishlar sababini aniqlash uchun Bank va Mijozning, zarurat bo‘lganida Tizim egalarining vakillaridan tashkil topgan komissiya tuziladi. Aniqlanish yakunlanganidan so‘ng komissiya bayonnoma rasmiylashtiradi, shu asosda yo buzilish bartaraf etiladi yoki Mijoz ko‘rsatilgan xizmatlar Bayonnomasini imzolaydi.

2.9. Mazkur Umumiy shartlar bo‘yicha xizmatlar taqdim etishilishini to‘xtatish/xizmatlardan bosh tortish holatida qayta hisoblash va to‘lov masalalari Tomonlarning kelishuvi bo‘yicha yoki belgilangan tartibda Toshkent sh. Tumanlararo iqtisod sudi orqali hal qilinadi.

## 3. TOMONLARNING HUQUQ VA MAJBURIYATLARI

**3.1.** <u>Bankning majburiyatlari</u>**:**

3.1.1. Mijozni Tizimda o‘z muddatida, lekin Ariza (mazkur Shartlarga 1-ilova) berish orqali mazkur Umumiy shartlar akseptlangan ondan 5 (besh) ish kunidan ortiq bo‘lmagan muddatda ro‘yxatdan o‘tkazish. Bunda Mijozni texnik integratsiyalash muddati Mijoz qurilmasi (uskunalar, billing, DT va boshqa texnik vositalar) integratsiyalanishga tayyor bo‘lishi uchun Mijoz barcha zarur harakatlarni amalga oshirgan ondan kunni tashkil etadi.

3.1.2. Mazkur Umumiy shartlar bo‘yicha o‘z majburiyatlarini amalga oshirish maqsadida Mijozning E-POS bo‘yicha ro‘yxatdan o‘tkazish va u bo‘yicha xizmat ko‘rsatilishini ta'minlash.

3.1.3. 3 bank kuni ichida Mijoz foydasiga To‘lovchilardan olingan pul mablag‘larini o‘z vaqtida va to‘liq ko‘chirilishini ta'minlash.

3.1.4. Mazkur Umumiy shartlar doirasida olingan savdo ma'lumotlari ko‘rsatkichlarining maxfiyligini saqlash.

3.1.5. Ma'lumot uzatish kanallarining xavfsizligi, ma'lumotlarning saqlanishi, yaxlitligi va ishonchliligini ta'minlash.

3.1.6. Agar Mijoz mazkur Umumiy shartlarni buzsa yoki favqulodda holatlar bilan bog‘liq sabablarga ko‘ra faksimal aloqa, elektron pochta yoki rasmiy xat orqali Mijozni Xizmatlar ko‘rsatilishi to‘xtatib turilishi, shuningdek mazkur Umumiy shartlar doirasida Mijoz manfaatlariga bevosita tegishli bo‘lgan barcha faktlar haqida oldindan yozma shaklda ogohlantirish.

3.2. Mijozning majburiyatlari:
3.2.1. Mazkur Umumiy shartlarga muvofiq oʻtkazilgan tranzaksiyalar boʻyicha mukofotni toʻliq hajmda qabul qilish masalasida bankka koʻmaklashish.
3.2.2. Savdo ma'luumotlari koʻrsatkichlarini qabul qilish, tekshirish va joʻnatish, shuningdek Tizim bilan ishlash qoidalarining texnik talablariga muvofiq qat'iy harakat qilish.
3.2.3. Tizimning ajralmas qismi hisoblangan Merchant Kabinetida shart ravishda roʻyxatdan oʻtish (resurs: www.nbu.uz).
3.3. Bankning huquqlari:
3.3.1. Bir tomonlama tartibda OʻzR amaldagi qonunchiligida koʻzda tutilgan holatlarda Xizmatlar taqdim etishni toʻxtatib turish.
3.3.2. Mijozning noodatiy operatsiyalar belgisiga ega yoki Bank uchun obroʻi va/yoki moliyaviy tavakkalchiliklarga olib keluvchi operatsiyalarni amalga oshirish holatlari aniqlanganida, shuningdek Bankda operatsiya Oʻzbekiston Respublikasi qonunchilik talablari buzib amalga oshirilayotganligi toʻgʻrisida shubha yuzaga kelganida Mijozning bir tomonlama tartibda va sabablarini tushuntirmasdan mazkur Umumiy shartlar boʻyicha majburiyatlardan foydalanishidan bosh tortish.
3.4. Mijozning huquqlari:
3.4.1. Mazkur Umumiy shartlar boʻyicha xizmatlar taqdim etishga Ariza berish.
3.4.2. Mazkur Umumiy shartlarda koʻzda tutilgan, shu jumladan OʻzR amaldagi qonunchiligi belgilaydigan ehtimoliy cheklanishlarni hisobga olib, sifatli va uzluksiz Xizmatlardan foydalanish.
3.4.3. Tizim egasini xabardor qilish sharti bilan oʻz savdosining hajmini oshirish maqsadida Bank yoki Tizim xizmatlarini reklama qilish.

## 4. TOMONLARNING JAVOBGARLIGI VA NIZOLARNI HAL ETISH TARITIBI

4.1. Oʻziga yuklatilgan majburiyatlarni bajarmaganlik yoki lozim darajada bajarmaganlik uchun Tomonlar Oʻzbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga muvofiq javobgarlikka ega boʻladi.
4.2. Tomonlar mazkur Umumiy shartlar boʻyicha majburiyatlarini bajarmaganlik uchun javobgar boʻlmaydi, agar bajarmaganlik uchinchi shaxslarning aybi bilan yuzaga kelgan boʻlsa. Bunday holatda Tomonlar uchinchi shaxslar bilan shartnoma munosabatlaridan foydalanib, agar u boʻlsa, Xizmatlar taqdim etilishi uzilishining sabablarini bartaraf etish uchun bor imkoniyatlaridan foydalanishlari shart.
4.3. Bankning javobgarlik sohasi faqat mazkur Umumiy shartlarda aks etgan majburiyatlar bilan cheklangan. Bank Tizimda texnik uzilishlar, shuningdek uchinchi tomonning aybi bilan Xizmatlar koʻrsatilishining vaqtincha yoki toʻliq toʻxtatilishi tufayli yuzaga kelgan qonuniy va boshqa cheklovlar uchun javobgar emas.
4.4. Tomon mazkur Umumiy shartlar boʻyicha majburiyatlarini bajarmaganligi yoki lozim darajada bajarmaganligi holatida neustoyka toʻlashi va zararlarni qoplashi Tomonni mazkur Umumiy shartlar boʻyicha majburiyatlarini bajarishdan ozod qilmaydi.
4.5. Mazkur umumiy shartlardan kelib chiquvchi barcha nizolar kelishuvlar yoʻli bilan hal etiladi. Tomonlarning oʻzaro kelishuviga erishish imkonsiz boʻlgan holatda yuzaga kelgan nizo Toshkent sh. tumanlararo iqtisodiy sudida Oʻzbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligida belgilangan tartibda koʻrib chiqiladi.

## 5. MAXFIYLIK

5.1. Tomonlar har bir Tomon mazkur Umumiy shartlar boʻyicha oʻz majburiyatlarini bajarishi uchun asosli zarur boʻlgan ma'lumot bilan almashadi. Mazkur Umumiy shartlar boʻyicha majburiyatlarni bajarishga tegishli boʻlgan, bir tomondan boshqa tomonga taqdim etiladigan, uning munosabatida qonunlar bilan cheklangan foydalanish rejimi koʻzda tutilgan barcha yozma yoki ogʻzaki ma'lumot yoki ma'lumotni taqdim qilayotgan tomon boshqa tomonni ochiq tarzda, bunday ma'lumot maxfiy hisoblanishidan xabardor qilgan ma'lumot maxfiy ma'lumot hisoblanadi va shunday aniqlanadi ("Maxfiy ma'lumot"). Maxfiy ma'lumotlarga, shu jumladan,

qonunchilik bilan aniqlangan tijorat, kasbiy, xizmat, shuningdek boshqa sirlarni tashkil etuvchi shaxsiy ma'lumotlar, hisobchi va moliya ma'lumotlari, to‘lov operatsiyalarini amalga oshirish to‘g‘risida ma'lumot, axborot, telekommunikatsiya va to‘lov tizimlarining sozlamasi uchun boshqaruv ma'lumotlari kiradi. Maxfiy ma'lumot undan noqonuniy yo‘l bilan foydalanishdan himoyalanishi, shuningdek uning yaxlitligi ta'minlanishi, saqlanishi hamda o‘z vaqtida taqdim etilishi lozim.

5.2. Mazkur Umumiy shartlarga muvofiq Maxfiy ma'lumotni qabul qiluvchi tomon ("Qabul qiluvchi tomon") shunday ma'lumotni taqdim qilgan tomonning oldindan yozma roziligini olmasdan,

(I) Maxfiy ma'lumotning biror-bir qismidan mazkur Umumiy shartlarda ko‘zda tutilmagan maqsadlarda foydalanmaydi,

(II) Maxfiy ma'lumot yoki uning bir qismini Qabul qilgan tomonning (shuningdek ikkilamchi pudratchi) mazkur Umumiy shartlarda ko‘zda tutilgan maqsadlarda Maxfiy ma'lumotdan foydalanishi asosli zarur bo‘lgan va mazkur Umumiy shartlarning tomoni kabi Maxfiy ma'lumotlarning saqlanishini ta'minlashga rozilik bildirgan xodimi va maslahatchisi hisoblanmagan biror-bir shaxs yoki tashkilotga taqdim etmaydi,

(III) Maxfiy ma'lumotdan noqonuniy foydalanishga yo‘l qo‘ymaydi.

5.3. Qabul qiluvchi tomon Maxfiy ma'lumot yoki uning bir qismini oshkor qilganligi uchun javobgar bo‘lmaydi, agar u ushbu Maxfiy ma'lumot

(I) u qabul qilingan vaqtda jamoat mulki hisoblanganligi yoki u bunday holatga Qabul qiluvchi tomonning aybi bilan kelmaganligini;

(II) Qabul qiluvchi tomonga uni qabul qilib olishidan oldin oshkor bo‘lganligi yoki uning ixtiyorida bo‘lganligini;

(III) Qabul qiluvchi tomonga Maxfiy ma'lumot saqlanishini ta'minlash bo‘yicha majburiyatlar buzilishi kuzatilmagan holda, Qabul qiluvchi tomon hisoblanmagan manbadan oshkor bo‘lganligini isbotlay olsa.

5.4. Agar Qabul qiluvchi tomon qonunchilik bilan Maxfiy ma'lumotni oshkor qilish talab etish vakolati berilgan davlat hukumati organlariga biror-bir Maxfiy ma'lumotni qonun bo‘yicha oshkor qilishga majbur bo‘lsa, bunday Tomon Taqdim etuvchi tomonni ushbu faktdan zudlik bilan yozma ravishda xabardor qilishi shart. Bunda, Taqdim etuvchi tomon lozim darajada xabardor qilingan holatda mazkur bandga muvofiq Maxfiy ma'lumotni oshkor qiladigan Qabul qiluvchi tomon Maxfiy ma'lumotni oshkor qilmaslik to‘g‘risida o‘z majburiyatlarini buzgan hisoblanmaydi. Bunday harakatni amalga oshirganda Qabul qiluvchi tomon Maxfiy ma'lumotning himoyasini ta'minlash uchun unga bog‘liq barcha harakatlarni amalga oshirish majburiyatini oladi.

5.5. Maxfiy ma'lumot Taqdim etuvchi tomonning mulki hisoblanadi va uning talabiga ko‘ra, u mazkur Umumiy shartlarda ko‘zda tutilgan maqsadlar uchun keraksiz bo‘lganidan so‘ng shu tomonga zudlik bilan qaytarilishi yoki Qabul qiluvchi tomon yoki mazkur bo‘limning qoidalariga muvofiq Qabul qiluvchi tomonidan shunday Maxfiy ma'lumot taqdim qilingan biror-bir boshqa tomon yaratgan barcha nusxalar bilan birga yo‘q qilinishi lozim.

## 6. FORS-MAJOR

6.1. Tomonlar mazkur Umumiy shartlar bo‘yicha majburiyatlarini qisman yoki to‘liq bajarmaganlik uchun javobgarlikdan ozod qilinadi, agar bu bajarmaslik Tomonlar oldindan ko‘ra olmagan yoki bartaraf qila olmagan favqulodda xarakterdagi sharoitlar natijasida Umumiy shartlar kuchga kirganidan so‘ng yengib bo‘lmas kuch sharoitining oqibatida yuzaga kelgan bo‘lsa. Yengib bo‘lmas kuch sharoiti deganda: suv toshqinlari, yong‘in, zilzila, davlat organlarining harakatlari va harakatsizligi (shu jumladan, xususan, valyuta operatsiyalariga cheklovlar), epidemiya va boshqa tabiat hodisalari, urush yoki harbiy harakatlar, va h.k. lar tushuniladi.

6.2. Umumiy shartlarning 6.1-bandida ko‘rsatilgan sharoitlar yuzaga kelgan holatda har bir Tomon 5 (besh) taqvim kuni ichida ular haqida boshqa Tomonni yozma shaklda ogohlantirishi

lozim. Yengib bo‘lmas kuch sharoitini sabab qilib ko‘rsatayotgan Tomon boshqa Tomonga ushbu sharoitlar mavjudligini tasdiqlovchi va imkon qadar ularning Tomon Umumiy shartlar bo‘yicha o‘z majburiyatlarini bajarish imkoniyatining ta'siriga baho beruvchi hujjatlarni zudlik bilan taqdim etishi shart.
6.3. Yengib bo‘lmas kuch sharoiti to‘g‘risida xabar bermaslik yoki o‘z vaqtida xabar bermaslik (yuqorida 6.2-bandga muvofiq) ushbu Tomonni majburiyatlarini bajarmaganligi yoki lozim darajada bajarmaganligining asosi sifatida ko‘rsatish huquqidan mahrum qiladi.
6.4. Agar Umumiy shartlarning 6.1-bandida keltirilgan, yuzaga kelgan sharoitlar va ularning oqibatlari 2 (Ikki) oydan ortiq ta'sir etishda dvom etsa, Tomonlar Umumiy shartlar bajarilishining maqbul muqobil usullarini aniqlash uchun qo‘shimcha kelishuvlar o‘tkazishadi.
6.5. Agar fors-major sharoitlari 6 (olti) oydan ortiq davom etsa har bir Tomon Umumiy shartlar bo‘yicha xizmatlar taqdim etilishi/xizmatlardan foydalanishni to‘xtatish huquqiga ega. Bunda Tomonlardan Hech biri mazkur bandga muvofiq xizmatlar taqdim etilishi/xizmatlardan foydalanish to‘xtatilishi natijasida boshqa Tomon oldida hech qanday javobgarlikka ega bo‘lmaydi.

## 7. XIZMATLAR TAQDIM ETISHNI TO‘XTATISH MUDDATLARI VA SHARTLARI

7.1. Mazkur Umumiy shartlar ular mos keluvchi ariza berish yo‘li bilan akseptlangan ondan kuchga kiradi va Tomonlardan biri mazkur Umumiy shartlarga ko‘ra Xizmatlar taqdim etish/xizmatlardan foydalanishni to‘xtatmagunicha, aniqlanmagan muddat qo‘llanadi.
7.2. Mazkur Umumiy shartlarning 3.3.1-bandida ko‘rsatilgan sabablarga ko‘ra Xizmatlar taqdim etilishi vaqtincha to‘xtatib turilishi Xizmatlar taqdim etilishi/xizmatlardan foydalanish to‘liq to‘xtatilganligini anglatmaydi. Xizmatlar ko‘rsatilishi vatqincha to‘xtatib turilgan holatda Tomonlar yuzaga kelgan holatni tez muddatlarda hal qilinishi va Xizmatlar ko‘rsatilishini qayta tiklash uchun barcha imkoniyatlaridan foydalanish majburiyatini oladi.
7.3. Xizmatlar taqdim qilish/xizmatlardan foydalanish ularni to‘xtatish ko‘zda tutilgan sanadan 15 (o‘n besh) kun oldin boshqa Tomonga oldindan xabar berish orqali istalgan Tomonning tashabbusi bilan to‘xtatilishi mumkin, bunda Tomonlar o‘zaro hisob-kitoblarni amalga oshirishi shart. Umumiy shartlar bo‘yicha xizmatlarni taqdim etish/xizmatlardan foydalanishni to‘xtatish haqidagi xabar yozma shaklda yuboriladi.

7.4. Xizmatlarni taqdim etish/xizmatlardan foydalanishni to‘xtatish xati Tomonlarning kelishuvi bo‘yicha yoki mazkur Umumiy shartlarda ko‘zda tutilgan tartibda ulardan birining tashabbusi bilan yozma shaklda rasmiylashtiriladi.

## 8. YAKUNIY QOIDALAR

8.1. Mazkur Umumiy shartlar Bankning rasmiy saytiga joylashtirilgan (www.nbu.uz).
8.2. Umumiy shartlarga kiritiladigan o‘zgartirish va qo‘shimchalar Bankning rasmiy saytida (www.nbu.uz) va "Ibank" masofadan bank xizmatlarini ko‘rsatish tizimida e'lon qilinadi.
8.3. Mazkur Umumiy shartlarga barcha ilova va qo‘shimcha kelishuvlar uning ajralmas qismi hisoblanadi.
8.4. Umumiy shartlarda ko‘zda tutilmagan holatlarda Tomonlar O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga rioya qilib ish yuritishadi.

Uyali aloqa, internet va boshqalar to‘lovi uchun xizmat ko‘rsatishda axborot-texnologik munosabatlarning umumiy shartlariga
**1-ILOVA**

**ЗАЯВЛЕНИЕ** **ARIZA**

Наименование Клиента/ Mijoz nomi: ________________________________________________

ИНН/ПИНФЛ / STIR/JSHSHIR: ____________________________

в лице/ tomonidan: ________________________________________________________________
*(Ф.И.О. и занимаемая должность/F.I.SH. va lavozimi)*

Прошу предоставить услугу информационно-технологического взаимодействия при оказании услуг за оплату сотовой связи, интернета и т.п

Я ознакомлен и согласен с Общими условиями обслуживания счетов юридических лиц и индивидуальных предпринимателей, Договором публичной оферты и всеми приложениями к нему, а также Тарифами Банка, действующих в Банке на момент заполнения данной заявки.

Достоверность содержащихся в настоящем Заявлении сведений подтверждаю.

Sizdan uyali aloqa, internet va boshqalar to‘lovi uchun xizmat ko‘rsatishda axborot-texnologik munosabatlari xizmatini taqdim etishingizni so'rayman.

Yuridik shaxslar va yakka tartibdagi tadbirkorlarning hisobvaraqlariga xizmat ko‘rsatishning umumiy shartlari, Ommaviy oferta shartnomasi va uning barcha ilovalari, shuningdek, ushbu arizani to‘ldirish vaqtida Bankda amalda bo‘lgan Bank tariflari bilan tanishdim va ularga roziman.

Men ushbu ilovadagi ma’lumotlarning to‘g‘riligini tasdiqlayman.

**Подпись/Imzo: ______________________** **М.П./M.O’.**

**Дата/Sana: «___»____________** 20__ год

---

**ОТМЕТКА БАНКА / BANK TOMONIDAN:**

С КАРТОЧКОЙ ОБРАЗЦОВ ПОДПИСЕЙ И ОТТИСКА ПЕЧАТИ СВЕРЕНО

IMZOLAR NAMUNALARI QO‘YILGAN VARAQCHASI BILAN TEKSHIRILDI

Принял Заявление/ Arizani qabul qildi:

________________________________________________________ /______________________ /

*(Ф.И.О./F.I.SH)* *(подпись/imzo)*

____/____/20__ __г.

"O‘zbekiston Respublikasi Tashqi iqtisodiy faoliyat milliy banki" AJda yuridik shaxslar va yakka tartibdagi tadbirkorlarga kompleks bank xizmatlarini ko‘rsatish Shartnomasiga
**12–ILOVA**

**Qo‘shimcha bank xizmatlarini ko‘rsatish uchun**
**ARIZA**

Mijozning nomi:_______________________________________STIR/JSHSHIR:______________________

"O‘zbekiston Respublikasi Tashqi iqtisodiy faoliyat milliy banki" AJ da yuridik shaxslar va yakka tartibdagi tadbirkorlarga kompleks bank xizmatlarini ko‘rsatish Shartnomasini (keyingi o'rinlarda - Shartnoma) amaldagi tahririda barcha qoida/shartlar, barcha ilovalar va unga qo'shimchalar, o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish tartibi, shu jumladan Bank Tariflari, ERI kalitini berish tartibi va shartlari, ma'lumotlarni e'lon qilish tartibi hamda Tomonlarning javobgarligi unga to'liq hajmda ma'lumligi va tushuntirilganligini **TASDIQLAYDI**, shu asosda:

| | |
|---|---|
| ___________(hisob-raqami)___________ hisob raqamini<br>«__________(tarif nomi)__________» tarif paketiga/rejasiga ulashni so'raydi; | *(imzo)* |
| +998__________________________ raqamiga SMS xabarnomani ulashni so'raydi ; | *(imzo)* |
| ☐ Direktorga ☐ Bosh buxgalterga;<br>Ibank dasturiy kompleksiga ulashni va ERI yopiq kalitini chiqarishni so’raydi; | *(imzo)* |
| Terminal taqdim etishni so'raydi (Pos/E-Pos):<br>☐ HUMO, _______ dona;<br>☐ Uzcard, _______ dona; | *(imzo)* |
| So’m korporativ kartani chiqarishni va taqdim etishni so'raydi:<br>☐ HUMO, _______ dona;<br>☐ Uzcard, _______ dona; | *(imzo)* |
| ☐ Tegishli tranzit hisobini ochish orqali ish haqi loyihasiga ulashni so’raydi; | *(imzo)* |
| ☐ Xalqaro kartalarga savdo-xizmat ko'rsatish korxonalarida xizmat ko'rsatish bo'yicha xizmat taqdim etishni so'raydi (Visa va Master Card); | *(imzo)* |
| ☐ Internet orqali xalqaro to'lov tizimlari kartalari bo'yicha elektron tijorat bo'yicha xizmat taqdim etilishini so'raydi; | *(imzo)* |

*Tanlangan xizmat(lar) oldida «☑» belgisini qo'ying, bo'sh joylarni to'ldiring.*

Ushbu bilan Mijoz Bankka:

mijoz tomonidan tanlangan bank xizmatlarini ko'rsatishda uning shaxsiy ma'lumotlarini qayta ishlash, shuningdek ularni uchinchi shaxslar ("ЕОПЦ" MCHJ, "Milliy banklararo protsessing markazi" MCHJ, Kredit tarixi byurosi, davlat soliq qo'mitasi va boshqa bankning sheriklari va davlat organlarining ma'lumotlar bazalariga) topshirish va qayta ishlash.

bankda ochilgan Mijozning hisobvarag'idan qo'shimcha topshiriqlarsiz (akseptsiz) Bankning amaldagi Tariflariga muvofiq hamda Shartnomada keltirilgan holatlarda ko'rsatilgan xizmatlar uchun to'lov yechishni amalga oshirish huquqini taqdim etadi;

Rahbar ______________________________________________________ /________________________/
*(F.I.SH.)* *(imzo)*

Bosh hisobchi ___________________________________________________ /___________________________/
*(F.I.SH.)* *(imzo)*

*M.O'. (muhr mavjud bo'lsa)* «____» ______________20___y.

---

**Bank belgisi:**

IMZOLAR NAMUNALARI QO‘YILGAN VARAQCHASI BILAN TEKSHIRILDI:

Arizani qabul qildi: ______________________________/____________________/
*(F.I.SH.)* *(imzo, shtamp)*

Rahbar: ______________________________/____________________/
*(F.I.SH.)* *(imzo)* ____/____/20____y.